

**V.K. RUSTAMOV**

**SSENARIYNAVISLIK  
MAHORATI**

**TOSHKENT**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA  
MADANIYAT INSTITUTI**

**VAHOBJON RUSTAMOV**

**SSENARIYNAVISLIK MAHORATI**

*O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv  
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**Toshkent – 2017**

**UO‘K: 791.632(075)**

**KBK: 85.38ya7**

**R 92**

**Vahobjon Rustamov**

**R 92**

**SSENARIYNAVISLIK MAHORATI**

**o‘quv qo‘llanma.**

**T.: «Barkamol fayz media», 2017, 204 bet.**

**ISBN 978-9943-5142-2-5**

Tavsiya etilayotgan ushbu qo‘llanmada ssenariynavislik mahoratining o‘ziga xosligi, ssenariylarni yaratishning nazariy va amaliy asoslari, ssenariylar turlari jihatidan yondoshuv, hujjatlar va faktlarni badiiylashtirish, inssenirovka qilish va boshqa sahnalashtirish manbalari haqida so‘z boradi.

O‘quv qo‘llanma san‘at va madaniyat sohasi bo‘yicha shug‘ullanuvchilar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**UO‘K: 791.632(075)**

**KBK: 85.38ya7**

*Ma’sul muharrir:*

**T.Mirzayev**, filologiya fanlari doktori, professor

*Taqrizchilar:*

**O.Axmedova**, O‘zDSMI «Folklor va etnografiya» kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

**Sh. Turdimov**, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori.

**ISBN 978-9943-5142-2-5**



© «Barkamol fayz media», 2017.

## KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlari, bir so‘z bilan aytganda, ma‘naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Bu borada Prezidentimiz va hukumatimizning ma‘naviyat, ma‘rifat, mafkura, madaniyat, san‘at va g‘oyaviy yo‘nalish borasida olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati muhim omil bo‘lib xizmat etmoqda. Zero, gap ma‘naviyat, mafkura, g‘oya, san‘at, madaniyat va ma‘rifat haqida borar ekan, unda madaniy tadbirlarning dramatik asosi bo‘lmish puxta ssenariylar yaratilishining ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi.

Ommaviy san‘at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli tashkil etishda san‘atning barcha turlaridan foydalaniladi. Ammo, deyarli tashkil etiladigan biron-bir tadbir yo‘q-ki unda ssenariy yozilmasa. Barcha sahna asarlarining asosiy manbaini adabiyot va uning matni tashkil etganidek, qanday mavzuga oid tadbir bo‘lmasin, ssenariysiz uning mazmunini ochib berish mumkin emas.

Madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma‘naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o‘ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san‘at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an‘ana va urf-odatlarining o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, madaniy tadbirlarda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi,

ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o‘ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o‘ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni tashkil etish, ya’ni uning dramatik asosi bo‘lmish ssenariyni yaratish, sahnalashtirish va ommaga taqdim etish orqali insonlarga ta’sir qilish –mazkur fanning asosiy mazmunini tashkil etadi.

O‘zbekiston davlati mamlakatda insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, Vatanini sevish kabi ijobiy hislatlarni jo qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotiga tegishli bo‘lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi “2013–2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-son qarori ana shunday ulug‘ maqsadlarga qaratilgan. Bu qaror aholining, ayniqsa, bolalar va yoshlarning intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun zarur zamonaviy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-ma’rifiy muassasalar yaratish maqsadida qabul qilgan. Mazkur qarorning 2-ilovasi, ya’ni, “Madaniyat va aholi dam olish markazlari to‘g‘risida”gi Nizomning “Umumiy qoidalar”ida “Aholining madaniy ehtiyojlarini o‘rganish hamda madaniy-ma’rifiy va ko‘ngilochar xususiyatga ega bo‘lgan xilma-xil xizmatlar ko‘rsatish, havaskorlik, badiiy ijod va amaliy san’at bilan shug‘ullanuvchilar uchun shart-sharoitlar yaratish Markazning asosiy faoliyati hisoblanadi”<sup>1</sup>, deyilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, madaniyat va aholi dam olish markazlarining faoliyati juda keng masshtabni egallaydi. Demak, bundan shunday xulosa chiqadiki, markazlarda tashkil etiladigan tadbirlarning asosi bo‘lmish mukammal ssenariy yaratish muhim vazifadir.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013yil 25iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-son qarori, 2-ilovasi.

Undan tashqari, madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo'lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo'lishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg'otadi, xalqlarning madaniyatlarini o'zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat'iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Ssenariy yaratilishida esa buni hisobga olish muhimdir.

O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish borasida juda ko'p hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-fevraldagi Farmoniga asosan, madaniyat va sport sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, mazkur sohada O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodiyotini yanada rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tubdan yuksaltirish, aholi keng qatlamlari orasida ma'naviy-axloqiy kamolot va sog'lom turmush tarziga intilishni kuchaytirish maqsad qilib olingan.

Mazkur farmonda madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari, muzeylar hamda boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, ma'naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishida ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to'liq foydalanish<sup>2</sup> masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda eng asosiy masala - "milliy madaniy va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va boyitish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, aholining ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada oshirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish bo'yicha tizimli choralarni amalga oshirish, aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g'oyasiga, yuqori ma'naviyat va insonparvarlik an'analari g'oyasiga sadoqat tuyg'ulari yanada chuqur ildiz

---

<sup>2</sup> Sh.Mirziyoyev. "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-fevraldagi Farmoni

otishi, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning o'sib kelayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy-ommiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish"<sup>3</sup>ga muhim ustivor masala sifatida qarashimiz lozimdir.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish, uning dramatik manbasini yaratish, uning inson tarbiyasida tutgan roli masalalari juda ko'p tadqiqotchilarni o'ziga tortgan. Jahon hamjamiyati tajribalari va ilg'or texnologiyalarining ham ushbu sohani rivojlantirishga qo'shgan hissasi katta. Jumladan, madaniy-ma'rifiy ishlar dramaturgiyasi bo'yicha D.Genkin, A.Konovich, L.A.Chechyotin, S.K.Borisov va yana bir qator olimlarning ishlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Shuningdek, Haydar Muhammadning "Ssenariy-navislik mahorati" (T., 2009), V.Rustamovning "Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari" (T., 2013), B.Sayfullayev va J.Mamatqosimov hammuallifligida yaratilgan "Aktyorlik mahorati" (T., 2012), F.Ahmedov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.), U.Qoraboyevning "Madaniy tadbirlar", T., 2000) va boshqalar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma va darsliklarda ham tadbirlar dramaturgiyasi, ya'ni ssenariysini yaratish muammolari masalalariga e'tibor qaratganlar.

Yoshlar tarbiyasida madaniy tadbirlarning o'rni muhimdir. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma'rifiy ishlar mutassadilarining asosiy ustivor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham madaniy tadbirlarni tashkil etish, uning dramaturgiyasini yaratishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarni qo'llay olish, unda odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilmi qilish, ma'naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar dolzarbligini yo'qotmaydi.

---

<sup>3</sup> Sh.Mirziyoyev. "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-fevraldagi Farmoni

Mazkur o'quv qo'llanmada madaniy tadbirlarni asosi ssenariy ekanligi, mamlakatimizda yangicha munosabatlarning taraqqiyoti, tadbirlar dramaturgiyasining turli usul va ko'rinishlari, tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning inson tafakkuriga ta'siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdagi ahamiyatini tahlil etish maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, madaniy tadbirlar dramaturgiyasining asosiy komponentlarini, tadbirda qo'llaniladigan ta'sirchan vositalar, hujjatlar va faktlar bilan ishlashning o'ziga xosligi, tadbirlarda qo'llaniladigan inszenirovkalar, obrazlilik, bir so'z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi birinchi qadam bo'lmish ssenariyning amaldagi ijrosi (sahnalashtirish, ijodiy va tashkiliy ishlar) jarayonlaridagi muammolarni hal qilish ushbu fanni mazmuni va maqsadi tashkil etadi.



## **I-BOB. SSENARIY – MADANIY TADBIRLAR DRAMATURGIYASINING ASOSI**

### **1.1. Ssenariy tushunchasi va uni yaratishdagi ish bosqichlari**

Tadbirlarni tashkil etishdagi ilk ish bosqichi bu-tadbir mavzusiga mos manbalarni izlab topishdir. Har qanday asar sahna yuzini ko‘rishida uning dramatik asosini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Sahnada bo‘layotgan jarayonlar asosan “aktyor-vositachi”lar orqali tomoshabinlarga yetkaziladi. Spektaklning dramatik manbai - pyesa bo‘lsa, tadbirlarni tashkil etishda esa ssenariy yoziladi. Har qanday sahnaviy asar tomoshabin e‘tiboriga havola etilgunga qadar 3ta asosiy jarayonni boshidan kechiradi, ya‘ni:

1.Sahnalashtirish uchun asosiy manbani tanlash (pyesa, ssenariy, inssenirovka kabi);

2. Sahnalashtirish (barcha ijodiy jihatlar, ya‘ni ijrochilarni tanlash, sahna bezagi, stol atrofida o‘qish (chitka), mizanssenalar, obraz va rol ustida, rejissorlik g‘oyalari va topilmalari ustida ishlash va boshqa ijodiy ishlar);

3.Tashkiliy ishlar (professional teatrlarda va respublika miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarda tashkiliy ishlarning deyarli ko‘pchiligini ma‘muriy bo‘limlar bajaradilar, ammo joylarda tashkil etilgan badiiy jamoalarda madaniy tadbirlar, ommaviy bayram va tomoshalarni tashkil etishda bu vazifani ijodiy guruh rahbarlari o‘zlari bajaradilar).

Tadbirni tashkil etish va ssenariysini yaratish uchun manbalar quyidagi jihatlariga qarab tanlanadi:

1. Asar mavzusining dolzarbligi (ijtimoiy ahamiyati, zamon talblariga mos kelishi);

2. Asarning tarbiyaviy ahamiyati (har qanday ijodiy jarayonlar asosida tarbiyaviy masalalar yotishi zarur);

3. Asar qahramonlarining faol xatti-harakatlari (insonlarning har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishlari va o‘z maqsadlariga erishishlarini badiiy vositalarda yetkazish);

4. Buyurtma asosida (ko‘pgina holatlarda asarlar buyurtma asosida sahna yuzini ko‘radilar. (Bunda yuqori tashkilotlardan ma’lum bir mavzu asosida tadbir tashkil etish vazifasi shu muassasa rahbarlariga yuklanadi. Rahbar esa birinchi galdagi vazifasi ijodiy guruhni tuzadi va ish boshlaydi).

Buyurtma asosida degan tushunchani kengroq ma’noda olib qarash maqsadga muvofiqdir. Hukumat tomonidan chiqarilgan qaror, farmon va boshqa hujjatlar ijrosini ta’minlashda hozirjavob bo‘lish talab etiladi. Quyida anashunday topshiriqlarni bajarishga qaratilgan hujjat bilan tanishtiramiz:

*Toshkent shahar hokimiyatiga*

Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari Bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2013-yil 31-dekabrda “O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 1345-sonli buyrug‘i, Toshkent shahar hokimligining 2013-yil 31-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2013-yil 27-dekabrda PQ-2102-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 1071-sonli qarori, 2013-yil 31 -dekabrda 45/24-sonli, 2014-yil 9-yanvarda 21/36-sonli hamda 2014-yil 17-yanvarda 23/18-sonli xatlariga asosan quyidagilarni ma’lum qiladi:

Bosh boshqarma tizimidagi madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan “Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligi”ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy hamda sport tadbirlari rejasini yo‘llaydi.

Tadbirlar rejasini ilova qilinadi.

Boshliq: *(ismi, sharifi, imzosi)*

Ijrochi:

tel:

Mana shu hujjat asnosida barcha madaniyat va san’at, umuman olganda barcha tashkilotlarda Muhammad Yusuf tavalludiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazildi.

Respublikamiz hukumati tomonidan bunday hujjatlarning amaliy ijrosi tadbirlar tashkilotchilari tomonidan so‘zsiz bajarilib kelmoqda.

Xalqimiz sevgan san'atkor, shoir, bastakor va yozuvchilarning tavalludlariga bag'ishlangan (Zulfiyaxonim, Erkin Vohidov kabi) tadbirlar yurtimizda yuqori saviyada tashkil etilib kelmoqda.

Spektaklning dramatik asosi pyesadir. Pyesa (fr. "riese") - butun yoki ulush so'zidan olingan bo'lib, xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomidir. Ko'pgina teatr san'ati haqida yaratilgan adabiyotlarda dramatik manba (pyesa, inssenirovka), aktyor va rejissor teatr san'atining asosini tashkil etadi, deb aytilgan. Bir jihatdan olib qaralganda, bu fikrga qo'shilish mumkin. Ammo bitta spektaklni sahnalashtirish uchun bir qancha san'at turlaridan foydalaniladi, undan tashqari texnik, ma'muriy xodimlar, badiiy rahbariyat, ijodiy xodimlar (masalan, birgina Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Davlat Akademik katta teatri jamoasining umumiy soni 500 kishidan ortiq) va boshqalarning ham hissalarini haqida gapirsak, unda boshqacha fikr yuritishimizga to'g'ri keladi. Ammo ikkala holatda ham spektakl yaratish mumkin.

Teatr san'atida aktyorning o'zi asosiy ifodalovchi, ya'ni dramaturgning fikrini ifodalab beruvchi hisoblanadi. Aktyor o'z navbatida ovozi, plastik xatti-harakatlari, jestlar, mimikalar orqali obraz yaratadi. "Teatr - hayot ko'zgusi, san'at darsxonasi, muqaddas dargoh. Teatrning eng asosiy burchi esa- tomoshabinni g'oyaviy va axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashdir. Uning vazifasi axloqiy-estetik sharoitni yaxshilashga xizmat qilishdir"<sup>4</sup>. Aktyor esa mana shu muqaddas dargohdan turib, asar mazmuni va muallifning aytmoqchi bo'lgan fikr-mulohazalarini tomoshabinga yetkazuvchi vositachi sifatida gavdalanadi.

Dramaturgiyaning barcha qonun-qoidalariga rioya qilingan holda yaratilgan asarlar to'laqonli asarlardan hisoblanadi. Pyesa tanlangach, ijodiy guruh bilan tahlil qilinadi va sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Madaniy tadbirlarda esa asosiy manba ssenariy hisoblanib, u tadbirni tashkil qilishdagi ilk jarayondir.

"Ssenariy" so'zi, U.Qoraboev uining "Badiiy-ommaviy tadbirlar" kitobida yozishicha, italyanacha so'zdan olingan bo'lib, "asarning plani, sxemasi"ni anglatadi<sup>5</sup>. Lug'atlarda esa ssenariy:

<sup>4</sup> Abdusamatov A. Teatr tanqid ko'zgusida. Toshkent, «Fan», 1993yil, 31 b.

<sup>5</sup> U.Qoraboev. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T., "O'qituvchi", 1986. 36 b.

1) kinossenariy;

2) teatrda qo'yiladigan dramatik asarning rejasi, sujet chizig'i, operadagi dramatik harakatning tasviri, baletda – sujetning barcha raqs va mimikalarini o'z ichiga olgan mukammal bayoni;

3) pyesada ishtirok etuvchilarning sahnaga chiqish payti va tartib ko'rsatilgan yo'l-yo'riqdir, deb izoh etilgan.

Haydar Muhammad o'zining "Ssenariynavislik mahorati" kitobida "Ssenariynavislik- "Ssenariy" so'ziga forscha "Navisanda"-yozuvchi, adib ma'nosidan "navis" olinib, "Ssenariynavis" atamasi yaratilgan va joriy qilingan"<sup>6</sup>, deb yozadi. Muallif ushbu kitobda televideniye, kino va teatrlashtirilgan tomoshalar ssenariysi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni bergan.

Yana boshqa manbalarda - "Ssenariy" (italyancha "Scenario" - adabiy-dramatik asar degan ma'noni anglatadi), tadbir mazmunini adabiy tasvirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga o'tish, bloklar, bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi, deb yozilgan. Ammo har qanday holatda ham ssenariy - o'tkaziladigan tadbirlar, bayram va tomoshalarining to'liq yozma bayonidir<sup>7</sup>, deb ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Ssenariy yozilishida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- tadbir o'tkaziladigan joy o'rganiladi;
- mahalliy sharoitdan mavzu, tadbir g'oyasidan kelib chiqqan holda manbalar izlanadi;
- hujjatli materiallar badiiylashtiriladi;
- sahnaviy usullardan, foydalanish yo'llari izlanadi, ta'sirchan vositalar tanlanadi.

Rejissuraning ixtisosliklari ko'p bo'lganidek, (masalan, teatr rejissyorligi, televidenie rejissyorligi, radio rejissyorligi, qo'g'irchoq teatri rejissurasi, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va h.k. kabi) ssenariy ham turli ixtisosliklari va tabiati bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan:

<sup>6</sup> H.Muhammad. Ssenariynavislik mahorati. T.,2007, 31b

<sup>7</sup> V. Rustamov. Sahnaviy ifoda vositalari, T., 2007y, 27 b.

1. Kino ssenariy – (badiiy filmlar ssenariysi, hujjatli filmlar ssenariysi, ilmiy-ommabop filmlar ssenariysi, qo‘g‘irchoq va multafilmlar ssenariysi). Bu alohida o‘ziga xos sohalardan biri bo‘lib, juda katta mahorat talab qiladigan ijodiy va tashkiliy ishlar uyg‘unligida amalga oshiriladigan ishdir. Kinossenariyni hamma ssenaristlar ham yozavermaydi. Kino ssenariyda kadrdaagi voqeliklar, tasvirga olinadigan joy, turli shovqin, tovush va ovozlari, aktyorning holati, xatti-harakatlari, turli to‘qnashuvlar, bir so‘z bilan aytganda, film (kino)ning muvaffaqiyati uchun xizmat qiladigan barcha badiiy-ijodiy, texnik jarayonlarni yozma bayonida aks ettiriladi.

Kinossenariyning yaratilishining o‘zi bir nechta turlari xususiyatidan kelib chiqib yoziladi. Masalan, badiiy film yaratish bilan hujjatli film yaratish o‘rtasida o‘ziga xos farq qiladigan va o‘xshash tomonlari bor. Badiiy filmlarda to‘qima obraz, improvizatsiya yoki ijroni rejissor o‘zi xohlaganicha talqin qiladi. Hujjatli filmlarda esa aniq obyekt va subyektlar doirasida ish olib boriladi. Berilgan faktlarni o‘zgartirmay, aniq, lo‘nda qilib badiylashtirish kerak bo‘ladi.

2. Televizion ssenariylar – (adabiy-badiiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, publitsistik – axborot ko‘rsatuvlar ssenariysi, ma‘naviy-ma‘rifiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatuvlar ssenariysi, o‘yin-ko‘ngil ochar ko‘rsatuvlar ssenariysi, televizion filmlar ssenariysi, musiqiy ko‘rsatuvlar ssenariysi va h.k.). Agar film alohida olingan bitta ssenariy asosida xohlagan joyda, kerakli obyektlarda tasvirga olish ishlarini amalga oshirish jarayonida yaratiladigan bo‘lsa, televizion ssenariylar asosan turli mavzudagi ko‘rsatuvlar nuqtai nazardan qaraladi. Bu jarayon turli suhbat, intervyu, uchrashuv, muloqot tarzida amalga oshirilsa, film yaratish-da esa rejissorning taklifi, aktyorlarning vaqti sharoitiga qarab, xohlagan paytda tasvirga olish ishlarini amalga oshirish mumkin. Film yaratilishida ssenariyning to‘liq matni bo‘lishi shart. Uni tasvirga olish jarayonida o‘zgartishlar, qo‘shimchalar kiritish imkoniyatlari ko‘p bo‘ladi. Ammo, ko‘rsatuvlarni tayyorlashda to‘la, mukammal yozilgan ssenariy bo‘lishi shart emas, deb o‘ylaymiz. Masalan, 100 yoshga kirgan otaxon bilan uchrashuv

tashkil etish va uni tasvirga olish kerak bo'lganda, boshlovchi muharrir yoki dastur muallifi tomonidan tayyorlangan turli savollarni beradi va otaxon bunga javob beradi va boshlovchi xulosani berish bilan ko'rsatuvni tugatishi mumkin.

3. Radioeshittirishlar ssenariysi – (ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar ssenariysi, adabiy - badiiy eshittirishlar ssenariysi, publitsistik-axborot eshittirishlari ssenariysi, musiqiy eshittirishlar ssenariysi, ma'naviy – ma'rifiy eshittirishlar ssenariysi, o'yin-ko'ngil ochar eshittirishlar ssenariysi va h.k.) – bunda asosan matn katta rol o'ynaydi. Tinglovchilar uchun yoqadigan, ularni qiziqishlariga javob bera oladigan, turli konsert dasturlari, turfa xil mavzulardagi eshittirishlar omixtasini ishlab chiqishda ssenariy tuzishni bilish muhimdir. Radioeshittirishda tayyor axborotlardan muharrirning bergan topshirig'iga asosan bermalol foydalanish mumkin.

4. Sirk tomoshalari ssenariysi – (Turli sport tomoshalari, akrobatlar, hayvonlarning chiqishlari, masxaraboz va yakka nomerlar, dorboz va h.k. nomerlarining ketma-ketligidan iborat bo'ladi). Sirk tomoshalari uchun ham ssenariy yaratish kerak. Chunki, chiqishlarning ketma-ketligi, keyingi nomerlarga tayyorgarlik ko'rish uchun ssenariy kerak bo'ladi. Bunday tomoshalarda ko'pincha dasturdan foydalaniladi. Dastur bo'yicha tayyorgarlik va namoyish amalga oshiriladi. Har bir alohida nomerning ichida qilinadigan ishlar uchun nomer tayyorlagan shaxs javobgar hisoblanadi.

5. Ommaviy tadbir va tomoshalar ssenariysi – (ommaviy teatrlashtirilgan tomosha, teatrlashtirilgan konsert, adabiy-badiiy, adabiy musiqali kompozitsiyalar, marosim tomoshalari, ommaviy sport tomoshalari, suvda, muzda o'tkaziladigan tomoshalar, karnaval, xalq tomoshalari, badiiy-publitsistik kompozitsiyalar va h.k.lar ssenariylari kiradi). Ommaviy bayramlar, teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkil etish alohida o'rganilishi lozim bo'lgan sohadir. O'zbekistonda ommaviy bayramlar to'g'risidagi tushunchalar 1980–90-yillarda rejissor B.Sayfullayevning Leningradga o'qishga borib kelganlaridan keyin Toshkent davlat madaniyat institutidagi faoliyati bilan bevosita bog'liq. Rejissor-pedagog B.Sayfullayev u yerda o'qib kelganlaridan so'ng O'zbekiston uchun bu sohaning juda kerakligi nuqtai

nazaridan uni fan sifatida, keyinchalik alohida kafedra sifatida faoliyat boshlashiga sabab bo'ldi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Ommaviy tadbir va tomoshalarni tashkil etish uchun alohida maktab kerakligi chuqur anglagan rejissor bu sohani rivojlantirish borasida juda katta ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. O'sha davrlarda turli mavzularda o'tkazilgan maydon tomoshalari bunga misol bo'la oladi.

Ommaviy tadbir va tomoshalarni tashkil etishning o'ziga xosligi shundaki, uning tomoshalar o'tadigan joylari standart emas, balki noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tkazilishi bilan ajralib turishi, unda "korobka ichidagi sahna"ning, undagi bo'lishi lozim bo'lgan jihozlarning yo'qligi, ishtirokchilarining maxsus malakaga ega emasliklari, ishtirokchilarning son jihatidan ko'pligi va boshqa jihatlari bilan o'ziga xos bo'lgan jiddiy yondoshuvni talab qiladigan soha ekanligini anglash qiyin emas. Eng qiyin jihati bunda spektakl qo'yishdagidek tayyor dramatik manbaning yo'qligidir. Maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlar uchun ssenariy yozishda ssenarist rejissorning fikri, uning nuqtai nazarini to'g'ri anglab olishi va maydonga mazmun beruvchi vositalardan to'liq foydalanish alohida mahorat talab qiladigan jarayondir.

Hozirgi kunda ilmiy anjumanlarini tashkil etish bo'yicha ham ssenariylar yozilmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'tkazilgan lektoriylar bunga misol bo'la oladi\*. Bunday tadbirlar ilmiy-ma'rifiy tadbirlar deb nomlanadi.

Barcha oliy ta'lim muassasalari uchun O'zDSMI professor-o'qituvchilari tomonidan o'tkazilgan "Mutolaa madaniyati" mavzusidagi videoselektor (konferensiya) uchun tayyorlangan dastur buning yorqin misolidir. Bunday tadbirlar uchun ssenariy to'liq yozilmaydi, balki ssenariyning dasturi tayyorlanadi. (Dastur doirasidagi ma'ruzalar va boshqa materiallar kerakli shakllar asosida topshiriladi).

Masalan:

“Kitobxonlar bayrami” madaniy-ma’rifiy tadbirlari doirasida  
“Mutolaa madaniyati” mavzusiga bag‘ishlangan videokonferensiya

## SSENARIY DASTURI

2013-yil 8-fevral

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Soat 14:00

kichik majlislar zali

### Ishtirok etuvchilar:

Respublika oliy ta’lim muassasalarining rektorlari, prorektorlari, fakultet dekanlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedralari mudirlari va professor-o‘qituvchilari, magistrantlar.

1. 14:00 – 14:10. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri **B.Y. Xodiyev** videokonferensiyani kirish so‘zi bilan ochadi.

2. 14:10 – 14:20. - O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori **B.S. Sayfullayev** so‘zi.

3. 14:20 – 15:00. - “**Mutolaa madaniyati - davr talabi**” mavzusida ma’ruzalar taqdim etiladi.

### Ma’ruzachilar:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori **A.O.Umarov** (20 min.);

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori **M.B.Bekmurodov** (20 min.).

4. 15:00 – 15:30. - Videokonferensiya ishtirokchilarining fikr-mulohazalari, munozaralar (*hududlar bilan video muloqot shaklida*).

5. Turli masalalar va e’lonlar.

Har qanday dastur qisqacha va lo‘nda, jarayonning barcha jihatlarini qamrab olgan bo‘lishi lozim.

Ilmiy anjumanlardan yana bittasi lektoriylardir. Lektoriylar aniq bir mavzu ustida olimlarning fikr –mulohazalari, ma’ruzalar shaklida o‘tkaziladi. **Lektoriy** - (lot. lectorium, nem. Lettner) - qadimiy kato-lik cherkovlarida ibodat paytida qo‘yiladigan baland yog‘och minbar. Lektoriylar XI asrda Italiyada, keyinroq Germaniya va Fransiyada



paydo bo‘lgan. Hozirda lektoriylar – ko‘proq ilmiy tadbirlarga oid bo‘lib, ma’lum bir mavzu asosida ilmiy fikr almashinadi<sup>8</sup>.

Institutda o‘tkazilgan lektoriylardan birini namuna sifatida keltiramiz.

Avval taklifnoma tayyorlanadi. Bitta A-4 format hajmdagi qog‘ozni 3 yoki 4 qismga bo‘lgan holda ishlatish mumkin.

To‘rt varaqdan iborat taklifnomaning **birinchi beti** taxminan quyidagicha berilishi mumkin:

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
“Xalq ijodiyoti” fakulteti  
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”  
kafedrası  
**TAKLIFNOMA va DASTUR**



TOSHKENT - 2013

**Ikkinchi** betida taklif etilayotganlar uchun tadbir bo‘yicha umumiy ma’lumotlarni berish mumkin:

*Hurmatli* \_\_\_\_\_ !

Sizni **2013 yil 4- fevral soat 14:00** da institutning Ma’naviyat va ma’rifat xonasida bo‘lib o‘tadigan **“O‘zbekistonda san’at va**

<sup>8</sup> B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016, 39b.

**madaniyat sohalari taraqqiyoti va boshqarish jarayonlarining optimallasuvi” mavzuida doimiy amal qiluvchi lektoriyning II-anjumaniga taklif qilamiz. Ushbu anjumanda respublikamiz oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy-gumanitar ta’lim sohasida tahsil oladigan bakalavriat bosqichi talabalarida mutolaa madaniyatini shakllantirish** masalasi atroflicha tahlil etiladi.

Madaniyat va san’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish kafedrası

**Uchinchi** varag‘iga kun tartibi berilishi mumkin:

### **KUN TARTIBI:**

**1. Kirish so‘zi:** B.Sayfullayev-O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti rektori.

**2. Muhokama etiladigan mavzu:** Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarining ijtimoiy-gumanitar ta’lim sohasida tahsil oladigan bakalavriat bosqichi talabalarida mutolaa madaniyatini shakllantirish.

**Ma’ruzachi: sotsiologiya fanlari doktori, professor A.O.Umarov**  
(Moderator -M.Bekmurodov: “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrası mudiri)

**4 varag‘iga** esa anjuman ishtirokchilari, Prezident yoki shu sohaga oid mutaxassislarning fikrlari, bir so‘z bilan aytganda, tadbirning mazmunini ochib berishga yordam beradigan tushunchalarni yozish mumkin. Masalan:

Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Mirzo Ulug‘bek jamg‘ar-masi rahbari O.U.Salimov, Respublika Milliy g‘oya ilmiy-amaliy markazi rahbari M.Quronov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi prorektori Q.Quronboyev, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yetakchi mutaxassisi R.Ikromov, O‘zbekiston Respublikasi Davlat test markazi direktor o‘rinbosari A.Daminov, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ma’naviy-axloqiy ishlar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i M.Komilov va Ilmiy-tadqiqot ishlari boshqarmasi boshlig‘i R.Boboyorov, O‘zMU professori N.Aliqoriyev, G‘.G‘ulom nashriyoti direktori L.Tangriyev va boshqalar o‘z daftrining muhozarlari bilan ishtirok etadilar.



Bunday tadbirlar insonlarni ilmiy salohiyatini oshirishga, ularning dunyoqarashlarini kengaytirishga, bilimlarini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirlarning turlarini, janrini aniq bo'lishi uning ssenariysini yaratishda ishlarini osonlashtiradi. Chunki ssenarist aniq janr ustida ishlaganda chalg'imaydi, aniq, to'g'ri yo'ldan boradi.

Shuni aytib o'tish joizki, har bir tadbirni tashkil etishda o'ziga xos protsedurasi (ishni bajarish tartibi, ish bosqichlari, talablari) borki, u o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Uning dramatik asosi ssenariyni yaratishda esa bu xususiyat va talablar albatta hisobga olinishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir tadbirning dasturi puxta, aniq va hammaga tushunarli holda tayyorlanishi kerak.

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Ssenariy tushunchasini izohlang.
2. Madaniy tadbirlarga oid ssenariylarni yaratishda qanday xususiyatlarga e'tibor berish lozim?
3. Dramatik asar deganda nimani tushunasiz?
4. Pyesa bilan ssenariyni o'xshash va farq qiladigan jihatlarini aytib bering.
5. Ssenariylarning qanday turlarini bilasiz?
6. Ssenariynavislik fani qaysi sohaga yaqin turadi?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Ssenariy yaratishga kirishishda ishni nimadan boshlash kerak, deb hisoblaysiz?
2. O'zingizning hayotiningiz bilan bog'liq bo'lgan hikoya tuzing va tahlil qiling.

*Taxminiy mavzular:*

1. Mening eng baxtli kunim
2. Men qilgan xato.
3. Mening maktabdagi ustozlarim
4. Mening mahallam va h.k.

## 1.2.Ssenariy yaratish tamoyillari

Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya'ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariychi uchun juda ham kerak bo'lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish – (ssenariy ustida ishlashda zarur bo'lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda sujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli hal etish.

Ta'kidlab o'tganimizdek, madaniy tadbirlarni tashkil etish muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlardan hisoblanadi. Ssenariyning yaratilishi va uni ma'lum kompozitsiya shakliga keltirish va sahnalashtirish, ijodiy guruhning shu tadbir yoki tomoshani tashkil etishdagi qarashlarning mehnatlarini natijasi sifatida qaralmog'i lozim. Birinchidan, bu ikki ijodning (rejissura va ssenariy) mohiyatini bir-biridan ajratish mumkin emas. Alohida yozilgan tayyor ssenariylar uchun ham sahna-lashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin, lekin rejissor bilan ssenaristning birga yaratgan ijod mahsuli samaraliroqdir. Chunki rejissor tadbir, bayram, teatr tomoshaning g'oyasini, uning ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ahamiyatini, oliy maqsadini uqtirsa, ssenarist badiiy estetik matnning jozibali, ifodaviy qarashlari orqali rejissor fikrini boyitib to'ldiradi, natijada to'laqonli tadbir amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, madaniy tadbirlar tayyor jihozlangan binoda emas, balki ochiq havoda, maydonlarda, bog'(park)larda, xullas, bir so'z bilan aytganda noan'anaviy sahnaviy sharoitlarda o'tkazilishini hisobga olish zarur. Sahnaviy imkoniyatlarning yo'qligi (sahna, jihozlar, aktyorlar, chiroq, dekoratsiya va h.k.) madaniy tadbir tashkilotchisi ishni "nol"dan boshlashiga to'g'ri keladi. Undan tashqari, doimiy repetitsiyalar o'tkazish imkoniyati kamligi, tadbirning bir martagina o'tishini, xatolarni to'g'rilashning deyarli imkoni yo'qligini hisobga olib tadbir tashkilotchilari xatoga yo'l qo'ymasliklarini hisobga olgan holda yondashishi zarur.

Uchinchidan, ssenariy yaratilishida bo'lajak tadbirning yo'nalishi, ya'ni yetakchi xatti-harakat, tadbir shakli, muhit va stilni aniqlab olishi lozim bo'ladi. Rejissorning g'oyalarini amalga oshirishda ssenari-stning vazifasi ulkandir. Rejissorlik g'oyalarini yuzaga chiqa-

rishda - o'tkaziladigan tadbirning aniq berilgan shart-sharoiti, ya'ni uning mavzusi, g'oyasi va oliy maqsadi, o'tkaziladigan joy, ijodiy guruhlarining mavjudligi, tashkil etishdagi moddiy jihatlar, hujjatlar, afsonalar va boshqalar asos bo'la oladi.

To'rtinchidan, ssenariy yaratilishida hujjatli, mahalliy materiallarga tayanish - tadbirning effektli, ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi. Bunda minoralar, toshlar, daraxtlar, devor va boshqalar majoziy ma'noda badiiy obraz shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Real dalillar, raqamlar, buyumlar, fotorasmlar, hujjatli kinofilmlardan foydalanish, shu tadbirga aloqador qahramonlarning o'zlarining bevosita ishtiroklari va boshqa original topilmalar tadbirning ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlarni tadbir o'tkazilayotgan hudud muhitiga moslashtirish, ulardan unumli va to'g'ri foydalanish va buni tadbir g'oyasiga singdirish orqali yoshlarni qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash ruhida tarbiyalash ssenariy yaratishdagi eng e'tibor qaratish zarur bo'lgan qismlardan biridir.

Oltinchidan, ssenariy yaratish jarayonida bir epizodni ikkinchi epizodga bog'lashda "g'oyaviy ko'priki"ni to'g'ri tanlash muhimdir. Ba'zan bu vazifani "boshlovchilar" amalga oshiradilar. Lekin bu oddiy, sodda variantdir. Nomerlarni, epizodlarni bir-biriga sahna ortidan e'lon qilish, boshlovchilar, masxarabozlar, qo'g'irchoqlar, turli asarlar qahramonlari va boshqa obraz va vositalar orqali ham bog'lash mumkin.

Keyingi paytlarda keng miqyosda nishonlanayotgan bayramlarda fonogrammalarni montaj qilish asosida bir-biriga bog'lashga harakat qilinyapti. Nomerlar yoki epizodlarni bog'lash vositasi bo'lmish "g'oyaviy ko'priki"ni to'g'ri belgilash - tadbirdagi ortiqcha pauzalarining oldini oladi, o'rnini to'ldiradi, shuning bilan birga sahna jihozlari almashtirish yoki keyingi nomerga tayyorlanib olish imkoniyatini beradi, eng asosiysi tomoshabinni tadbir g'oyasidan fikrini "uzilib" qolishidan saqlaydi. Shuning uchun ham rejissor Baxtiyor Sayfullaev aytganlaridek, "yaxshi, puxta yozilgan ssenariy - tadbir yoki tomoshaning yarim muvaffaqiyatni ta'minlaydi"<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> Rustamov V. Q. Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari. T., 2008. 42b.

Respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha bayramlarda yurtimizning ko'zga ko'ringan ijodkorlari ssenarist va ssenariy hammualliflari bo'lib ishtirok etib kelmoqdalar. Ular yurtimizda bo'layotgan chuqur o'zgarishlarni, O'zbekiston kelajagi buyuk ekanligiga ishonish, Vatanni sevish, o'z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo'lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o'rnini belgilash, qariyalarga hurmat e'tiborda bo'lish kabi xususiyatlarni turli badiiy vositalar orqali o'z ssenariylariga jo qilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etishga intilmoqdalar va buning uddasidan ham chiqmoqdalar. Ular sahnalashtirgan bayram va tomoshalari orqali O'zbekiston timsolini ko'klarga ko'tarib, uning ravnaqiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Madaniy tadbirni tashkil etishdagi eng qiyin jarayon tadbirni yagona mavzu chizig'iga yo'naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya'ni, tadbir o'tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni to'plash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissorning qo'lida bo'lishi shart.

Ssenariylarni 3 xil toifaga ajratish mumkin:

1. Oddiy ssenariy (mavjud materiallarni ketma-ketligi belgilanib, boshqaruvchi bog'lovchi sifatida ishtirok etadi);
2. Yig'ma ssenariy (turli xil ssenariylardan ishlatilgan materiallardan foydalangan holda yoziladi);
3. Original ssenariy (tomoshabin ko'z oldida o'zi kutmagan turli burilishlarga, to'qnashuvlarga, hissiyotlarga duch keladi va natijada u zerikmaydi, tadbirdan estetik zavq oladi).

Darhaqiqat, yurtimiz mustaqillikka erishgach, madaniy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, tomoshabinning ko'z o'ngida o'zi orzu qilgan shart-sharoitlarni yaratish, tasavvuridagi ruhiyatga erishish ssenaristning yelkasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Original ssenariy yaratish barcha ssenaristlarning qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ssenaristning dunyoqarashi keng, saviyasi o'ta kuchli va yuqori darajada bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham madaniy tadbirlarni tashkil etishda ssenarist bilan ishlash jarayoni eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

## Nazorat uchun savollar

- 1.Ssenariy qaysi tamoyillarga asoslangan holda yaratiladi?
- 2.Ssenariylarning mazmun jihatidan qanday shakllarini bilasiz?
- 3.Siz istiqomat qilayotgan viloyat (tuman,shahar)da qanday tadbirlar muntazam o‘tkaziladi?
- 4.Original ssenariy deganda nimani tushunasiz?
- 5.Yig‘ma ssenariy tushunchasini qanday izohlaysiz?

## Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

- 1.O‘zingiz istiqomat qiladigan shahar (viloyat, tuman)da o‘tkaziladigan tadbirlar ssenariylaridan birini olib, tahlil qiling.
- 2.Oddiy konsert o‘tkazish uchun ssenariy dasturini (taxminiy) tuzib keling.
3. Berilgan mavzu bo‘yicha kichik hikoya yozing.

### 1.3. Senariyning kompozitsion tuzilishi

Ssenariyning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilashda ssenarist juda sinchkov bo‘lishi zarur. Chunki ssenariyning kompozitsion tuzilishi tadbir yoki tomoshaning yaxlitligini ta‘minlaydi. “Kompozitsiya” deyilganda, san‘at asarlarining tuzilishi, ichki elementlarining ma‘no jihatdan o‘zaro bog‘lanishi, mantiqan joylashishi va birlashishi tushuniladi. Ssenariyning yaratilishida uning ketma-ketligini to‘g‘ri va mantiqiy joylashtirish muhimdir. Aristotel “Poetika”sida aytib o‘tganidek, har bir voqea o‘zining boshlanish, o‘rtasi va yakuniy nuqtasiga ega, ya‘ni “Yaxlitlik - bu boshlanish, o‘rtasi va yakundir”<sup>10</sup>. Ssenariyda ham tadbirning boshlanishi, voqealarning borishi va yakuni o‘ziga xos nomlar bilan ataladi.

Kompozitsion tuzilish quyidagi bo‘laklardan iborat bo‘ladi: Adabiy asarda voqeaning boshlang‘ich qismi muqaddima, ekspozitsiya yoki kirish, rejissura sohasida esa xatti-harakat bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun prolog deb nomlanadi. Demak, *kirish (prolog), tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim* - adabiy va dramatik asarlarning kompozitsion tuzilishini tashkil etadi.

---

<sup>10</sup> Джон Говард Лоусон. Теория и метод Playwriting и написание сценария. Август, 2014. 326.(Playwriting and Screenwriting, August 2014)

Ba'zan tadbir ssenariysining kompozitsion tuzilishini *prolog, epizodlar qatori va final* bilan belgilash mumkin. Chunki ko'pgina tadbirlar (bayram, tomosha, teatrlashtirilgan konsert va boshqalar)da voqea bir mavzu ustida emas, bir necha epizodlardan iborat bo'lib tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ssenariyning kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash o'tkaziladigan tadbirning mohiyatini to'laqonli yoritib berishga xizmat qiladi.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – o'tkaziladigan tadbirning yuqori saviyada o'tishiga kafolatdir.

Manbalarda, kompozitsiya - bu lotincha so'zdan olingan bo'lib "bir butunlik, yaxlitlik" ma'nosini bildiradi, deb berilgan.

Tadbir kompozitsiyasi - asarda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar-ni bir maqsad sari yetaklovchi g'oya orqali, dramaturgiya qonuniyatlari asosida bir-biri bilan bog'lovchi tuzilmadir. Teatrlashtirilgan tadbirlarning kompozitsion tuzilishi prolog (muqaddima), bosh voqea, voqealar rivoji, tugun, qarama-qarshilik, kulminatsiya, final kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda teatrlashtirilgan tadbirlar, xususan ommaviy bayramlarning kompozitsion tuzilishida tugun, qarama-qarshilik, yechim kabi komponentlar uchramaydi. Chunki bu tadbir to'laqonli teatrlashtirilmagan bo'lib maqsad va g'oya asosan qo'shiq mazmuni va raqs harakatlarida yuzaga chiqariladi.

Prolog- asarning boshlanish qismi<sup>11</sup> bo'lib, tadbir nima haqidaligidan xabar beradi. Tomoshabin diqqatini asosiy voqealarga qaratadi. U ko'tarinki kayfiyat, go'zallik va nafislikni talab qiladi. Bu qismda hujjatli materiallar, filmlardan lavhalar, ta'sirchan vositalardan keng foydalanish mumkin. Prolog nafaqat sahnada balki tadbir o'tkaziladigan maydonga kirish yo'lakchalaridan ham boshlanishi mumkin. Prolog – asosan asarda sujet rivojidan avval beriladigan o'ziga xos muqaddima, u asardagi voqealarning eng dastlabki sabablarini ochishga xizmat qiladi.

Ssenariy sujetining muhim xususiyatlaridan biri ekspozitsiya hisoblanadi. Ekspozitsiyaning asosiy maqsadi tomoshabinni tadbir ruhiga olib kirish, uni kecha mavzusi va mazmunini idrok etishga psixologik tayyorlashdan iboratdir.

---

<sup>11</sup> B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, 2016,88b.



Ssenariyda ekspozitsiya sujet va konflikt boshlanishidan oldin keladigan muqaddima hisoblanadi. Ekspozitsiya ssenariy boshida, o'rtasida va oxirida bo'lishi mumkin (asosan boshida keladi). Ko'pincha ekspozitsiyada masalaning tarixi hikoya qilinadi. Ssenariylarda turli xil ekspozitsiya ko'rinishlaridan (kinolavha, musiqa, qo'shiq, she'r, foye yoki tadbir o'tadigan joyda yaratilgan muhit va boshqalar) foydalaniladi.

Ekspozitsiya ssenariyda turli ko'rinishlarda (afishalar, taklifnomalar, prolog va epiloglar) shaklida keladi. Tomoshabinni kechaga tayyorlashda ekspozitsiya muhim rol o'ynaydi. Ekspozitsiya – bu asardagi yuzaga kelgan ziddiyatga qadar qahramonlar qiyofasini shakllantirilgan sharoitning va unga qaror topgan xarakterlarning tasvirida namoyon bo'lishi mumkin.

Bosh voqea - bu prologdan keyingi ko'rinish bo'lib, voqealar rivojini ta'minlovchi omildir. Bunda tadbirning g'oya va maqsadiga oziroq bo'lsada urg'u beriladi.

Voqealar rivoji - bu tadbir mazmuni va sujetinining murakkablashuviga yordam beruvchi voqealar bo'lib, ular tugun, qarama-qarshilik, kurash, to'qnashuv va qiyinchiliklarni yengish jarayonidir. Ssenariy sujetining muhim xususiyati – voqealar rivojidir. Ssenariyda konfliktli holat yaratish va voqea rivojlanishi uchun qahramonlar shunday tavsiflanishi kerakki, ular o'zlarining asl qiyofalarini ko'rsatsinlar, o'z e'tiqodlarini himoya qilsinlar. Har bir qahramon zimmasiga aniq vazifalar topshiriladi. Qahramonlar esa ana shu qiyinchiliklar, vazifalarni qarama-qarshi holatlar bilan kurashda hal etadilar.

Ssenariyda asosiy voqealar rivoji va harakat taraqqiyoti hal etilayotgan vaqtda tomoshabinlarning holatini hisobga olish, uning faolligini oshirish muhim masaladir. Zero, madaniy-ma'rifiy muasasa tadbirlari faqat tashkilotchilar tashabbusi asosiga qurilmay, balki tomoshabinlarning faol ishtirok etishini ham talab etadi. Shuning uchun tomosha davomida tomoshabinlarga murojaat qilish, jamoa bo'lib qo'shiq aytish, o'yinlar uyushtirish, xalq urf-odatlarini va an'analaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tugun - bu tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishi. Ya'ni, asar qahramonlarining kutil-

magan voqealarga duch kelishi. Tugun asarda qarama-qarshilikning kuchayishiga, asosiy voqealarning rivojlanishiga turtki bo'lishi kerak. Asardagi voqealar rivojini boshlovchi ziddiyatlarning yuzaga kelishi ko'rsatuvchi voqea tugun deyiladi. Ssenariyda ekspozitsiya tugun bilan qattiq bog'langan bo'ladi. Chunki, asarda harakatning taraqqiyoti bevosita tugundan boshlanadi, ya'ni tugun (masalaning qo'yilishi) ko'pincha dramatik holat bilan boshlanib, ssenariydagi umumdramatik masalalarning keyingi rivojini ta'minlaydi. Tugun tomoshabinni qamrab oladi, kecha g'oyasini tushunishga qiziqtiradi, tadbir ruxiga olib kiradi. Tugunning aniq mazmuni ssenariy mavzusi, janri va muallif tasavvuri bilan belgilanadi.

Qarama-qarshilik (konflikt) - bu tadbir maqsadi va mazmuniga, asardagi qahramonlarning xatti-harakatiga zid bo'lgan voqeadir. Qarama-qarshilik qanchalik kuchli bo'lsa, tomoshabinning tadbirga qiziqishi shunchalik ortadi. Konflikt (ziddiyat) – sujet o'zagidir. Sujet harakati faqat qarama-qarshiliklar vositasida vujudga keladi va dramatik konflikt shaklida rivojlanadi. Zero, konfliktsiz dramaturgiyaning bo'lishi mumkin emas. Konflikt dramatik asarning asosiy nazariyasining asosini tashkil etadi. Ssenariy sujeti asosida yotgan hayotiy ziddiyatlar uning konfliktini yuzaga keltiradi.

Dramatik asar uchun jiddiy konflikt, dramatik tavsif, harakatning yaxlitligi, voqeani sodir bo'layotganday qilib ko'rsatish eng muhim zaruriy shartlardandir.

Dramaturgiyada badiiy konfliktlarning asosan ikki turini kursatish mumkin: turmushdagi mavjud ziddiyatlarning xarakterlararo kurash ko'rinishi va shu kurashlarni xarakterlar ongidagi, psixologiyasidagi ichki kurash tarzida ifodalash tarzidagi ko'rinishlarini uchratamiz.

Konflikt asar sujeti va kompozitsiyasini belgilab beradi. Konfliktsiz zarur harakatni, kishilar obrazini umumlashtirish qiyin. Madaniy-ma'rifiy muassasa sujetida konflikt yaratishning o'ziga xos murakkabligi bor. Ayniqsa, u yoki bu ijobiy maqsadni ko'zda tutgan, ijtimoiy muhitda ijobiy shaxs xarakterining shakllanishini ochib beradigan tadbir ssenariylarida konflikt yaratish qiyin kechadigan ishdir. Chunki, konflikt dramatik asarda ikki qarama-qarshi kuchlar to'qnashgandagina namoyon bo'ladi.

Madaniy tadbirlar ssenariysi biror sujet chizig'iga ega bo'lar ekan, unda dramatik konflikt ham yorqin ko'rinadi. Ba'zan, dramatik vaziyatlar konflikt va dramatik kolliziya bo'lib xizmat qilishi mumkin. Konflikt badiiy asar sujetini rivojlantirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Dramatik kolliziya ham holat va voqealarning keskinlashishi, shakllanishi, obrazlar harakatiga ta'sir o'tkazadi.

Madaniy tadbirlar ssenariysi bu - maxsus dramaturgiyadir. Bu yerda qatnashuvchilar xarakteri psixologik jihatdan mukammal ishlanmaydi. Bu yerda o'z shaxsiyatini to'la namoyon qiluvchi qahramonlar yo'q. Madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysining qahramonlari sahnadagi va zaldagi ommadir. Shuning uchun ssenariy konflikti ham o'ziga xosdir.

Biroq, konfliktni bir tomonlama, bir yo'nalishda tushunmaslik kerak.

Madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysida konfliktning yana bir ko'rinishi – eskilik va yangilik, yaxshilik va yomonlik, bunyodkorlik va buzg'unchilik, tinchlik va notinchlikning ikki qutbiy kurashi shaklida kelishidir. Bunda go'yalar qarama-qarshiligi konflikt asosini tashkil qiladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasa badiiy-publitsistik tadbirlari ssenariysi konflikti bu goyaning o'sishidir. U dalillar, dramatik vaziyatlar, qatnashuvchilar, qarama-qarshi kuchlar to'qnashuvini yuzaga keltiradi va asarning ta'sirchanligini oshiradi. Ssenariydagi konflikt – dunyoqarashlar ziddiyatidir. Madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysi konfliktining tuzilishi shartli ravishda quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Qahramon va qahramon o'rtasidagi ziddiyat.
2. Qahramon va muhit o'rtasidagi ziddiyat.
3. Qahramon va tomoshabinlar o'rtasidagi ziddiyat.

Dramada ham sujet va kompozitsiya tushunchalari mavjud bo'lib, xuddi ssenariydagi kabi yondoshiladi. Hayotning yaxlit manzarasini badiiy gavdalandirishda ko'plab voqealar, insoniy munosabatlar, fikr tuyg'ularni xuddi turmushdagi kabi murakkab holatlar qamrab olganiga guvoh bo'lamiz. Ular shunchalar ko'p-ki, biz ularni bir-biridan farqlash uchun adabiy asarlardagi umumiy xususiyatlardan kelib chiqib aniqlashga xarakat qilamiz. Hayot oqimida, xarakatlar qamrab olini-

shu sababli, yuzaga chiqadigan voqealar yoki fikr-tuyg'ular, harakati yuzasidan asar kompozitsiyasi vujudga keladi. Adabiy asardagi muayyan qurilishdagi kompozitsion tuzilishni o'rganib san'atkor sahnada yozuvchi qo'ygan maqsad va vazifalarni sahnaviy ifodasini topadi, ya'ni asarni jonlashtiradi, qayta ijodiy yondoshgan holda yaratadi, ixtiro etadi. Shu sababli san'atkor, ya'ni asar ixtirosi uchun o'zi adabiy asar kompozitsiyasi haqida to'la-to'kis ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. U asarni sinchkovlik bilan o'rganishi, hayotiy voqealar umumxalq mafkurasi, urf-odat va an'alarini yaxshi bilishi, his etish kerak. San'atkor oliy maqsadini amalga oshirish uchun asar janrini to'g'ri belgilay olishi lozim. Adabiy asarning barcha qismlarini o'zaro birlashtirib turuvchi, muayyan hayot manzarasi va yozuvchi nuqtai nazariga mos obrazli aks ettirilishi kompozitsiyani tashkil etadi.

Biror asar kompozitsiyasini o'rganish uchun undagi voqealar, hodisalar va obrazlar xarakterlari nima maqsadda asarga kiritilganligini yaxshi tushinish kerak. Agar biz bular haqida to'liq ma'lumot ega bo'lmasak, ma'lum maqsadda asarga kiritilganligini yaxshi tushinish kerak. Maqsad aniq bo'lmasa, harakat ham, voqealar, obrazlar ham tartibsiz bo'ladi. Agar biz bular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasak, ma'lum maqsadga birlashmasak bajaradigan vazifamiz mantiqsizlikka olib kelishi aniq. Adabiy asarda bularni bir nuqtaga yig'ishda g'oyaning roli katta. Shunday ekan, ijodkor, san'atkorning e'tibor beradigan diqqat markazida paydo bo'ladi. Sahna asarini yaratishda ham kompozitsion tuzilish alohida ahamiyatga egadir. Kompozitsion tuzilish- asosiy voqea, bosh voqea, kiritma voqea, portret, peyzaj, tugun, kulminatsiya, konflikt, yechim, mavzu, g'oya, sujet, leytmotiv, pauza, epilog, ilhom, ekspozitsiya, yetakchi xatti-harakat kabi bir qator adabiy vositalarda birlashadi va yaxlitlik ifoda topadi. Biz bunday vositalarni mazmuni va mohiyatini kengroq anglab olishimiz kerak bo'ladi.

Kulminatsiya - bu voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, tadbirning eng qiziqarli cho'qqisi demakdir. U o'z-o'zidan yechimga olib keladi. Kulminatsiyani o'zida ifodalagan epizod to'g'ri va bevosita tomoshabinning fikri, tuyg'ularini qo'zg'ash kuchiga ega bo'ladi.

Kulminatsiya – voqealar rivojidadagi eng keskin, hayajonli nuqtasi hisoblanadi. Asarda ko‘tarilgan muammoni nihoyatda o‘tkirlashtirib, voqealar keskinlashgan, taranglik, ta’sirchanlik, mazmundorlik nuqtasi kulminatsiyada namoyon bo‘ladi. Ssenariydagi harakat rivoji qarama-qarshi kuchlar kurashi orqali qizg‘in, eng yuqori nuqtaga – kulminatsiyaga yetadiki, shu holatdan so‘ng voqealar yechimga qarab rivojlanadi. Ssenariyda kulminatsiya badiiy epizod, qo‘shiq, she‘r, spektakldan parcha, filmdan lavha, voqea ishtirokchisining xotirasi yoki tantanali tarzda bayroqning olib chiqilishi, qasamyod qilinishi, mash‘al yoqilishi va h.k.z. ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Final - bu asarning yakuni, oxirgi eng muhim qismi. Finalda barcha voqea o‘z yechimini topadi. Final ko‘tarinki kayfiyatda, barcha ishtirokchilarning sho‘x-shodonligi bilan yakunlanadi. Finalning yaxshi tugallanmasligi tomoshabin his-tuyg‘ularining susayishiga, asar qimmatining pasayishiga olib keladi. Final ba’zi hollarda butun ijrochilarning sahnaga ommaviy chiqishlarida, jamoa bo‘lib qo‘shiq aytishlarida namoyon bo‘ladi.

*Epilog* – asarda tasvirlangan voqealar va harakatlar rivojidan kelib chiqadigan eng so‘nggi natijalarni aks ettiruvchi xulosa qismi. Bunga bir misol: A.Qahorning hammamizga tanish bo‘lgan “Sinchalak” povesti xotirasida, ya’ni epilogida, taqdirni o‘z qo‘liga ola bilgan odamlarning kelajagi, albatta yorqin bo‘ladi, hali bu ne‘matga erishmaganlarning kurash yo‘lini yoritadi – deb o‘zining qahramonlariga bo‘lgan munosabatini ularning hayot yo‘li, taqdiri haqidagi xulosalarini aniq – ravshan ifodalaydi.

*Yetakchi xatti-harakat* -bu oliy maqsadga olib boruvchi yo‘ldir. U qahramonning maqsadga erishish yo‘lidagi xatti-harakati bilan belgilanadi, bu qahramonning barcha harakatlari asosida o‘z oldidagi maqsadlariga yetishishi uchun qilingan ham ruhiy ham jismoniy harakatida o‘z ifodasini topadi. Yetakchi xatti-harakat asarning asosi bo‘lib, unda bo‘ladigan kurashlar jarayonini ochib beradi.

*Yechim*- kulminatsiya asarning eng keskin, yuqori cho‘qqisi, hayajonli o‘rni bo‘lganligi sababli tomoshabin yoki kitobxonni ziddiyat qanday hal bo‘lishi, yakunlashi haqida o‘ylashga majbur etadi. Tasvirlanayotgan voqealarning qanday hal bo‘lishini ko‘rsatuvchi

yoki tomoshabinga uning hal etilishi haqidagi tasavvurlar esa asar yechimida yuz beradi. Ssenariyda «yechim» katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yechim konfliktning hal etilishiga, ya'ni kechanning emotsional yakunlanishiga olib keladi. Boshqaruvchining xotima monologi, filmdan parcha, she'riy misralar ssenariyning epilogi (xulosa qism) va yechimi bo'lishi mumkin. Ko'pgina kechalar zalda ommaviy qo'shiq aytish, murojaatlar qabul qilish bilan yakunlanadi. Bir so'z bilan aytganda, yechim -asarning xulosalarni beradigan qismi bo'lib, u yoki bu holatda yakunlanishini nazarda tutadi.

Ssenariyda asosiy ifoda vositalarini - obrazli yechim, original usullar, teran matn va mahorat bilan qurilgan kompozitsion tuzilishlarda kuzatilishi mumkin. Bunga rejissor B.Sayfullaev boshchiligida sahnalashtirilgan (1998-yil) teatrlashtirilgan "Futbol –shou" dasturi uchun yozilgan ssenariyini misol tariqasida keltirish mumkin. Unda yurtimizning mashhur qiziqchi va estrada xonandalaridan iborat san'atkorlarning professional futbolchilar bilan maydonga tushishining o'zi bir original topilmadir. Chorlov musiqasi yangragach, sahnaga diametri ikki metrga yaqin keladigan ramziy futbol to'pining maydon uzra yengil xatti-harakatlari tomoshabinda chuqur taassurot qoldirishini ssenariy yozilishidayoq payqab, uni qanday ifodalash yo'llari izlangan. To'pni harakatlantirishning turli variantlari o'ylab ko'rilgan. Oxiri bir to'xtamga kelindi, ya'ni bitta aktyorga xuddi maska shaklida boshiga moslab kiydirildi va u sahna uzra tez harakat qilib, turli plastik harakatlar orqali tomoshaning prolog qismini boshlab berdi.<sup>12</sup>

Sujet- adabiy asarning asosiy, hal qiluvchi jihatlaridan biri hisoblanadi. Lekin, sujet chiziqlarini bir-biriga payvandlash, qarama-qarshi qo'yish, xarakterlarning izchil shakllanib borishini ta'minlash, qahramonlar rolini bo'rttirish va boshqa badiiy vositalarni xizmatga tortishda kompozitsiya muhim rol o'ynaydi.

Ssenariy faqat biror tadbir yoki bayramni, muammoni namoyish qilibgina qolmay, uni tahlil ham etadi. U dramaturgiya qonun-qoidalariga asoslangan holda (drama esa san'atning bir turidir) dramatik vaziyatlar, ziddiyat (konflikt) orqali amalga oshiriladi.

<sup>12</sup> Rustamov V.Sahnaviy ifoda vositalari, T., 2007y,35-bet

Drama hamma vaqt o'z qahramonlarini yaratadi. Badiiylik qachonki yangi muammolar, yangi sujetlar, yangi ziddiyatlar asosiga qurilgandagina o'z jamolini ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar hayotiga bag'ishlangan tadbir ssenariysi asosida kuchli muammolar yotishi kerak. Chunki, o'smirlik davri – inson umrining burilish nuqtalaridir. Ular turmushning ildizi, chuqur masalalari bilan qiziqadilar. Yoshlar hayotiga bag'ishlangan ko'pgina tadbirlar ssenariysida o'tkir ziddiyatlar yetishmaydi. Mahoratli ssenarist o'z asarida yoshlar hayotidagi muammolarni ifodalaydigan mahalliy faktlardan, shuningdek adabiyot va san'at asarlaridan foydalanib, o'tkir dramatik vaziyatlar yaratadi. Bular so'zga chiquvchilarning gaplari, turli lavhalar, ko'rinishlar, illyustrativ materiallar tarzida ssenariyga, u asosidagi tadbirga ta'sirchanlik bag'ishlaydi, uni mazmundor qiladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysining sujeti – uning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy dalillar va voqealardir. Sujetda ssenariy orqali talqin etilayotgan voqealar ichidagi eng muhim to'qnashuvlar, qarama-qarshiliklar va kishilarning o'zaro munosabatlari aks etadi.

Tadbir ssenariysini yorqin sujet asosida qiziqarli qilib yozish – dramatik ijodning muhim talabidir. Ssenariy sujeti qiziqarli materiallar, hujjatlar, xotiralar, aniq asoslar, kishilar taqdiri asosida bayon qilinishi kerak. *Sujet* – muhim hayotiy ziddiyatlarni va xarakterlarning shakllanishida imkoniyatlar vositasidir. U yozuvchiga xarakter va shart-sharoit yaratish, odamlar orasidagi munosabatlar va ziddiyatlarni yuzaga chiqarish imkonini beradi. Bunday vaziyatda asardagi qo'yilgan maqsadga to'liq erishish va g'oyaning ifoda etilishiga keng yo'l ochiladi. Sujet bir butunlik bo'lib, aniq kompozitsion tuzilishning tarkibiy qismlarini, ya'ni prolog, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, voqealar qatori va yechim kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

Tanlangan sujet – ssenariydagi badiiy va publitsistik materiallarni uyushtirishi, mavzu va g'oyani hissiyotli qilib ochishga xizmat qilishi lozim. Shunda sujet voqeadan-voqeaga qarab umumlashib boradi. Bunday sujetlar, xronologik va retrospektiv (o'tmishga qaratilgan) sujet asosiga qurilgan tadbirlar ssenariysida qo'llanadi.

Bunday usullar orqali tarixni, o‘tmishni va bugungi kun nazari bilan gavdalanirish mahoratini namoyish etiladi.

Har qanday tadbirni tashkil etishda avvalo uning ssenariysi uchun manbalar to‘planishi haqida yuqorida aytib o‘tilgan edi. Ssenariy dramatik asarning rejasi hamdir. Ssenariylarning yuqorida sanab o‘tilgan turlaridan tashqari, uning yana quyidagi shakllari haqida ham manbalarda ma’lumotlar berilgan: Masalan:

1. Kino san’ati tasviriy vositalari yordamida ekranda ko‘rsatishga mo‘ljallangan adabiy asar;

2. Improvizatsiya - teatrida spektaklning sujet sxemasi (bunda pyesa mazmuni dialog va monologlarsiz qisqacha bayon etilib, voqeaning muhim tomonlari, personajlarning sahnaga chiqishlari ko‘rsatilgan qo‘shimcha ko‘rinishlari aniq belgilangan bo‘ladi);

3. Balet sujetining batafsil bayoni;

4. Operada liberettoning dramaturgik rejasi. Bu kabi san’atlarda ssenariyning yozilishi o‘ziga xos bo‘lgan yondoshuvni talab etadi. Aslida teatr san’ati uchun ssenariy emas, tayyor yozilgan dramatik manba (pyesa)dan foydalanilishi haqida yuqorida aytib o‘tgan edik.

Ssenariy – hozirgi zamon sharoitida madaniy-ma’rifiy muassasalarning faoliyatini yaxshilashning ham asosiy mezon bo‘lib qoldi. Binobarin, madaniy-ma’rifiy muassasalari ishini yanada takomillashtirishning muhim vazifasi – auditoriyaga goyaviy ta’sir qilishni kuchaytirishdan iboratdir.

Ssenariy rejasida improvizatsiya (improvizatsiya -(lot. Improvisus) to’satdan, kutilmagan, tasodifan degan ma’noni bildiradi) xususiyatlarini hisobga olish zarur. Masalan, savol-javob, dam olish kechalarini olaylik. Ularda olib boruvchi – boshlovchi tadbir mazmunini, sahnada yoki auditoriyada bo‘layotgan jarayonni boshqarib boradi, kishilar diqqatini bir epizoddan ikkinchi epizodga jalb etadi, oldindan belgilangan munozara qiluvchilarga fikr almashishga imkon beradi, tomoshabinlarga badiiy-publitsistik so‘z vositasida ta’sir ko‘rsatadi, so‘zga chiquvchilarning sahnaga yoki minbarga chiqishlarini uyushtiradi. Shunday qilib, dastur boshlovchisi (olib boruvchi suhandon) tadbir mazmuni, voqealari, epizodlari bilan oldindan tanish



bo'lishi va shu asosda improvizatsiya qilishi mumkin. Olib boruvchi tadbir jarayonida vaziyat taqozosi bilan ssenariyni to'ldirishi, boyitishi, jonlantirishi lozim. Ammo improvizatsiya ssenariyni inkor etmaydi. Ko'pchilik madaniy-ma'rifiy muassasa tadbirlari, masalan, madaniy-ommaviy tadbirlar, badiylashgan publitsistik kechalar, muallif tafakkuri asosida o'tkaziladigan tadbirlar uchun mukammal ssenariy yozish shart. Bu tadbirlarda ham sahnalashtirishga oid barcha jarayonlar (rejissura, tasviriy san'at, musiqa, nur, shovqin va boshqa vositalar) dan keng foydalaniladi.

Har bir yangi, mustaqil ssenariy – ijodiy mehnat mahsulidir. U shu turdagi oldingi ssenariylarning nusxasi bo'lmazligi kerak. Avval yaratilgan ssenariylarni yangi mavzu va hujjatlar talabiga binoan o'zgartirish, mazmunan boyitish, tahrir etish, xullas, mumkin qadar yangilash – yangi manbani paydo bo'lishga sabab bo'ladi.

Har qanday tadbir o'zining auditoriyasiga ega. Biror muassasada o'tkazilgan tadbirni ikkinchisiga aynan ko'chirib bo'lmaydi. Uni imkon boricha o'sha tashkilot, o'sha jamoa yoki mahalliy shart-sharoitlariga moslashtirish katta samara beradi.

Tadbirlarda berilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar badiylashtirilgan holda berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Aytaylik, biron-bir mashhur san'atkorning tavallud kuniga bag'ishlangan tadbirda ma'lumotlar faqat boshlovchilar tomonidan o'qib berilgandan ko'ra, uni sahnaviy ko'rinishda yoki video lavhalar orqali namoyish etsa ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

Madaniy tadbirlarda tomoshabinlarni tadbir ishtirokchilariga aylantirish muhim jihatlardan hisoblanadi. Tadbir ishtirokchilarining faolligi tadbirning tempo-ritmini belgilaydi hamda uning samarali tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Madaniy tadbirlar ssenariysida ijtimoiy hayotning voqea-hodisalari tasvirlanadi.

Muallif ssenariy ustida ishlash davomida zarur hujjatli va adabiy materiallarni tanlaydi va ularni tahlil qiladi, turli xil so'rovnomalar va repertuar to'plamlaridan foydalanadi, she'r, qo'shiq, kinofilmlardan lavhalar oladi, rang-barang tarixiy materiallarni ijodiy montaj qiladi, ularni muayyan mavzu, sujet tizimi va g'oya asosida umumlashtirib tomoshabinga yetkazadi.

Badiiy-ommaviy tadbirlar ssenariysi muallifi mafkuraviy hayotni chuqur bilishi kerak. U o‘z ssenariysini shu kunning dolzarb masalalariga bag‘ishlab turli suhbat-intervyularni matnga singdiradi, respublika miqyosiga ega bo‘lgan ko‘rgazmali materiallar, raqamlar, illyustrativ vositalardan foydalanadi.

Yil davomida madaniyat va san‘at sohasida ishlayotgan xodimlar deyarli har oyda bir nechta tadbirlar o‘tkazish uchun ssenariylarni yozishlariga to‘g‘ri keladi. Buni bayramlarimiz misolda ham aytib o‘tish mumkin. Masalan, sentabr oyida “Mustaqillik”, oktabr oyida “Ustoz va murabbiylar” kuni, dekabr oyida Konstitutsiya kuni, Yangi yil, Alisher Navoiy, Bobur, Amir Temur kabi ulug‘ ajdodlarimiz tavalludlariga bag‘ishlangan yubiley kechalari, yanvar oyida Vatan himoyachilari kuni, mart oyida 8-mart Xotin-qizlar kuni, Navro‘z bayrami, 9-may “Xotira va qadrlash” kuni, iyun “Bolalarni himoya qilish” kuni va boshqa bayramlar diyorumizni bayramlar mamlakati ekanligidan dalolat berib turibdi.

Madaniy tadbirlarning barcha shakllari uchun ham ssenariy yozilishi bu ijobiy holdir. Madaniy-ma‘rifiy muassasalari ssenariysi – bo‘lg‘usi tomoshaning so‘zlar, dalillar orqali bayon etilgan mantiqidir. Madaniy tadbirlarning ba‘zilari, masalan, tematik konsertlar, savol-javob uchrashuv, raqs kechalari, og‘zaki jurnallar, askiya kechalari, “Quvnoqlar va zukkolar” bellashuvlari kabilar lirik tabiatiga ko‘ra detallashtirilgan ssenariyni talab qilmaydi. Ular uchun ssenariy rejasi (plani) tuziladi. Bunday tadbirlarda kechada so‘zga chiquvchilarning nomlari, nomerlar, nima haqida so‘z borishi qisqacha yoziladi. Ssenariy rejasi – turli chiqishlarning qisqacha bayoni, aniq dramatik holatlarning qisqa qaydlaridir. Dastur masalan, madaniy tadbirlarning turlaridan biri bo‘lmish davra suhbatlarida ko‘proq ishlatiladi.

Ammo, ko‘pgina hollarda tadbirlar zo‘rma-zo‘raki tarzda tashkil etiladi. Tadbir tashkilotchilari yuqori tashkilotlardan olgan vazifalarni “tezroq o‘tsa bo‘ldi” qabilida ish tutadilar. Tadbir o‘tdi, deb rasmlarga tushib, bayonnomalar tuzish bilan ish bitmaydi. Har bir tadbirning oldiga katta maqsadlarni qo‘ygan holda o‘tkazish kerak. Tadbirning katta yoki kichigi bo‘lmaydi. Bu faoliyatning barchasining vazifasi - insonlarga to‘g‘ri tarbiya berish, ma‘naviy boyitish, bo‘sh vaqtlarni

to‘g‘ri tashkil etish, uni mazmunli o‘tkazish va boshqa ijobiy hislarni jo etishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

### ***Nazorat uchun savollar***

- 1.Ssenariyning kompozitsion tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
- 2.Sujet tushunchasi haqida gapiring?
- 3.Kompozitsion tuzilishning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
- 4.Prolog deganda nimani tushunasiz?
- 3.Improvizatsiya degan tushunchani qanday izohlaysiz?
- 4.Kulminatsiya, yechim ssenariyning qayerida keladi?
- 5.Asarning yechimi voqeaning qaysi joyida keladi?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

- 1.Biron bir badiiy asarni kompozitsion tuzilishini aniqlang.
- 2.Xohlagan mavzu bo‘yicha o‘zingiz hikoya tuzing va uning kompozitsion tuzilishi jihatidan tahlil qiling.
- 3.Berilgan mavzu bo‘yicha ssenariy yozing va kompozitsion tuzilishini belgilang.
- 4.Atrofni kuzating va ko‘rgan narsangizni tasvirlab yozing.

#### **1.4.Tadbir ssenariysini yaratishda maqsad va vazifalar mushtarakligi**

Tadbirlarni tashkil etishda maqsad va vazifalarni aniq belgilab olish muhimdir. Aniq mavzu asosida ssenariy yaratishda turli usullardan foydalanish ssenariyning betakrorligi, mukammalligini ta‘minlaydi.

Ssenariyda san‘atning barcha turlaridan o‘rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. “San‘at – bu haqqoniylikni badiiy obrazlardagi ijodiy talqinidir”<sup>13</sup>, yoki boshqacha qilib aytganda, hayot haqiqatlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etilishidir, deyish mumkin. Aynan, ssenariy ham alohida olingan bir asar sifatida qaralmog‘i lozimdir. Chunki, o‘tkaziladigan har bir tadbirning negizida aniq maqsad va vazifalar yotadiki, buni tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirishga erishiladi. Tadbir ssenariysini yaratish, unda yozilgan,

<sup>13</sup> С.К.Борисов. Основы драматургии театрализованного действия. Челябинск.2007,126.

matn shaklida berilgan soʻzlarni sahnaga koʻchirish, tomoshabinning eʼtiboriga havola etish va buning natijasi sifatida olingan ijod mahsuli insonlarga maʼnaviy, estetik ehtiyojlarini qondirishga, boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazishga, charchoqlarini chiqarishga va boshqa bir qancha maqsadlarni amalga oshirishga turtki boʻlishi lozimligi haqida manbalarda maʼlumotlar berilgan. Tadbirni sanʼat darajasida tashkil etilishi bu ssenariyning toʻlaqonligiga koʻp jihatdan bogʻliqdir.

Ssenariyni sahnaga olib chiqishda uning illyustratsiyalashtirish va teatrlashtirilish usullaridan foydalanishi tadbirni mazmunli chiqishida katta samara beradi.

Madaniy tadbirlarida informatsion materialning sanʼat materiali bilan mantiqiy birikuvi *illyustratsiyalashtirish* deyiladi. Yaʼni aniq, mavjud faktlarni poeziya, proza, musiqa, kinoparchalar, suratlar bilan izohlashdir. Bu usulda barcha hayotiy va badiiy materiallarning mustaqilligi saqlanadi, ular bir-biridan ayri-ayri mustaqil harakat qiladilar.

Ilyustrlashtirish – bu sanʼat elementlarini u yoki bu shaklda madaniyat muassasasidagi targʻibot va tashviqotga singdirish demakdir. U tanlangan shaklga oʻzgartirish kiritmaydi, balki, uning gʻoyaviy-emotsionalligini kuchaytiradi, yaʼni sanʼat elementlari soʻzga chiquvchilar va boshqaruvchi soʻzi bilan parallel ravishda davom etib, tadbir mazmunini tomoshabinlarga yetkazadi, gʻoyaviy fikrni yorqin ifodalaydi. Ilyustrlashtirish usulida tayyorlangan tadbir qismlarini mavzu va gʻoyaviy fikr qovushtirib tutadi. Bir soʻz bilan aytganda, tadbir mazmunini xilma-xil badiiy komponentlar orqali tomoshabinga yetkazish – illyustrlashtirish usulining bosh vazifasidir.

Tadbirdagi badiiy va xujjatli faktlarni teatr, dramaturgiya qonun-qoidalari asosida umumlashtirish teatrlashtirish usuli orqali amalga oshiriladi. Bu usul faqatgina tadbirning barcha komponentlarini oʻziga boʻysundirib, umumlashtirib qolmasdan, balki u tadbir qatnashchilarining aktivligini oshiradi. Tadbirda tomosha, oʻyin vaziyati yaratish ham teatrlashtirishning muhim xususiyatidir. Teatrlashtirish madaniyat muassasi ishining ijtimoiy-psixologik ish shakli hisoblanadi. U ssenariyda ikki yoʻnalishda namoyon boʻladi:

- 1) fakt va hujjatlarni tashkil etadi;
- 2) kishilarning xatti-harakatini uyushtiradi. Ular ssenariyda qorishiq, bir-biriga bog‘liq holda keladi.

Demak, har bir ssenariy asosida avvalo aniq, hayotiy material yotadi. Ssenariyga asos bo‘lgan bu materialni aniq (real) qahramonlar taqdiri orqali ko‘rsatish – teatrlashtirishning bosh vazifasidir. U tomoshabinni harakatga soladi, aktivlashtiradi, maqsadga yo‘naltiradi.

Teatrlashtirish deganda teatr dramaturgiyasi qonunlariga asoslangan holda yaratilgan kompozitsiyani tushunish mumkin. Teatrlashtirish – biror mavzu haqidagi o‘nlab informatsion faktlarni aniqlashtirish, kishilar taqdirini obrazli vositalar yordamida ko‘rsatish, mavzu va g‘oyani yig‘ma va publitsistik umumlashtirish orqali ochishdir. Tadbirni aniq faktlar va qahramonlarsiz teatrlashtirib bo‘lmaydi. Teatrlashtirish – tadbir g‘oyasi va mavzusining organik qo‘shiluvchi bo‘lib qolmay, balki kompozitsion butunlikni namoyon qiluvchi usuldir. Bu esa bayram qatnashchilarining o‘zlari teatrlashtirilgan ommaviy harakatning jamoa qahramoniga aylanishlarini talab qiladi. Bunday harakatda hamma vaqt aniq asoslar, qahramonlar mavjud. Ssenarist va rejissorning vazifasi esa ana shu aniq harakatni badiiy qolipga solishdan, aniq obrazning emotsional jarangdorligini kuchaytirishdan iborat.

Tadbirlar ssenariysini yaratishda illyustrlashtirish va teatrlashtirish usullarning o‘ziga xos xususiyatlarini albatta hisobga olish kerak. Ular hujjatlilik, shartliylik, g‘oyaviylik, obrazlilik, badiiylik, hayotiy konflikt (ziddiyat), tomoshabin faolligiga asoslagan holda yaratiladi. Tadbirlarni tashkil etishda ssenaristda rejissorlik nuqtai nazari bo‘lishi lozim. Ssenarist ssenariyni yaratish mobaynida ko‘z oldiga keltirgan narsasini qog‘ozga tushurishda katta bilimlar xazinasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Tadbir tashkilotchisi bergan topshiriq asosida ssenariyni yaratishda ijodiy guruhning maqsad va vazifalarini aniqlab olish, uning mazmunli chiqishini ta‘minlash va tadbirning yuqori saviyasida tashkil etish – ssenariynavisning mahoratida namoyon bo‘lmog‘i lozim.

Ijod murakkab jarayon bo‘lib, u izlanishlar natijasidir. Dramaturg uning voqealari, epizodlari ustida ko‘p o‘ylaydi. Ssenariy qog‘ozga tushgunga qadar dramaturg uni ongida pishirib boradi.

Har qanday san'at asari singari madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysi ham ma'lum bir mazmun ohangida dunyoga keladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasasining yillik ish rejasi – madaniyat muassasasi dramaturgiyasi uchun mavzuiy asosdir. Bu rejalarda muassasalar ish faoliyatining asosiy yo'nalishlari: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqat, ekologik, jismoniy estetik tarbiya, dam olishni tashkil etish, bolalar va o'smirlar bilan ishlash va boshqa masalalar belgilanadi. Bu tadbirlar madaniy-ma'rifiy muassasalarda dramaturgiyaga xos bilimlarga ega bo'lishni talab etadi.

Bayram tantanalarini mazmunli tashkil ssenariylarning mukammal yozilganligida o'z aksini topishi lozim. Mukammallik esa ssenariyning faktlarga boyligi, badiiy vositalardan unumli, san'at vositalaridan aniq maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanilganligi, mazmunni to'liq ifodalab beruvchi matnning jozibadorligi, tanlangan manbalarning ishonchliligi va boshqa jihatlarda namoyon bo'ladi. Barcha ma'lumotlarni badiiylashtirish orqali tomoshabinga yetkazish vositalarini izlab topish ssenaristdan katta mahorat talab etadi.

Har qanday madaniyat xodimi yoki san'atkor bir o'tirishda mukammal ssenariy yozishi mumkin emas, deb o'ylaydi. Ssenariy aniq o'ylangan, kuzatilgan, tajribadan o'tkazilgan, faktlarga asoslangan, badiiy jihatdan qimmatli ma'lumotlarga boy bo'lgan ijod namunasidir. Mukammal ssenariyning yaratilishi o'tkazilmoqchi bo'lgan tadbirning yarim g'alabasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tadbirning mazmuni, uning tomoshabinlarga ta'siri, tarbiyaviy, mafkuraviy tomonlari, axloqiy va estetik jihatlarining ssenariyga singdirilishi - ssenaristning mahoratini belgilaydi.

Ssenariyda quyidagi maqsadlar amalga oshirilishi lozim:

- 1) ssenariy hayotdagi muhim masalani ifodalashi;
- 2) hayot haqiqatini ko'rsatish;
- 3) yangilikni, ilg'or tajribani kashf etishi va uni xalqchil talqin etishi;
- 4) mustaqilligimiz qahramonlarining yorqin obrazini badiiy-publitsistik gavdalantirish lozim.

Adabiy ssenariy ustida ishlash bir necha bosqichlarda olib boriladi. Bu ijodiy jarayon quyidagilarni o'zida qamrab olishi zarur:

- 1) Ssenariy yozishidan maqsad (masalaning qo'yilishi);

- 2) Ssenariy to‘qimasi ustida ishlash (mavzu, g‘oya, material, shakl).
- 3) Ssenariy yuzasidan ish rejasini tuzish.
- 4) Hujjatli materiallarni to‘plash.
- 5) Badiiy materiallarni to‘plash.
- 6) Ta’sirchan vositalarni tanlash.
- 7) Ssenariy janrini aniqlash.
- 8) Ssenariy sujeti ustida ishlash.
- 9) Ssenariy yo‘li (rang-barang hujjatli materiallarni yagona «o‘q» atrofiga uyushtirish) ustida izlanish.
- 10) Turli xil sahnaviy usullardan foydalanish (illyustrlash, teatrlashtirish kabi).

11) Ssenariyning to‘liq adabiy matnini qog‘ozga tushirish.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, madaniy tadbirlar ssenariysi-ning eng muhim xususiyati – hujjatlilikdir. Hujjatlilik so‘nggi yillar san‘ati va adabiyotining asosiy negiziga aylanib qoldi. Badiiy adabiyot, tasviriy san‘at, kino va teatr san‘atida hujjatlar tili bilan so‘zlayotgan noyob asarlarni ko‘rishimiz mumkin. Biroq, san‘at asarlarida aniq hujjat va faktlardan foydalanishning o‘ziga xos usullari bor. Madaniy-ma’rifiy muassasalarda o‘tkaziladigan ommaviy-badiiy tadbirlari ssenariysida hujjat va faktlarni umumlashtirishning muhim xususiyatlari mavjud. Fakt va hujjatlardan foydalanishda madaniy-ma’rifiy muassasa ssenariylari mualliflarining ma’suliyati jurnalistlar ma’suliyatidan kam emas. Madaniy-ma’rifiy muassasasi xodimi ham mavjud faktlar, hujjatlarni badiiylashtirib, tadbirni tashkil etishga e’tibor qaratadi.

Hozirgi zamon sharoiti madaniy-ma’rifiy muassasa xodimlaridan madaniy tadbirlar ta’sirchanligini oshirishda tajribada sinalgan va yangi ish shakllari, uslublaridan foydalanishni, yoshlar qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat, milliy iftixor tuyg‘usini yanada uyg‘ota olish mahoratini egallashni taqozo etmoqda. Bu ayniqsa, tadbir ssenariysida hujjatlilik qonun-qoidalariga rioya qilish, fakt va hujjatlarni o‘rinli ishlatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni madaniy-ma’rifiy muassasa faoliyatiga olib chiqish masalalari bilan bog‘liq.

Madaniy-ma’rifiy muassasalarda madaniy tadbirlari ssenariysi hayot voqea -hodisalari bilan hujjatli faktlarning organik qo‘shiluvini

natijasida vujudga keladi. Shu ma'noda madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysi badiiy-publitsistik xususiyatga ega. Voqelikni bir tomondan badiiy vositalar orqali tadqiq etsa, ikkinchi tomondan mavjud, aniq, o'ylab chiqarilmagan faktlar vositasida aks ettiradi.

Fakt va hujjatlar o'z tabiatiga ko'ra kishilarga ma'rifiy va tarbiyaviy jihatdan ta'sir qilishda keng imkoniyatlarga ega. Faktning ta'sirchanligi aniqligi, emotsional kuchi, ishontirish quvvati, avvalo tomoshabinga psixologik ta'sir etadi. Ikkinchidan, faktning bunday imkoniyatlari uning u yoki bu g'oyalarga, kishilar shaxsiyatini shakllantirishdagi rolini yanada kuchaytiradi. Ayni zamonda fakt va hujjatlar kishilarning voqelikdan ta'sirlanishiga, unga aktiv munosabat bildirishiga, uni baholashiga ko'mak beradi. Sahnada talqin qilina-yotgan hayotiy va tarixiy faktlardan, hujjatlardan tomoshabinning hayajonlanishi – uning hayotda, jamoada yashash, ishlash, o'qish, rivojlanish kabi tushunchalariga ijobiy ta'sir etadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalaridagi madaniy tadbirlar ssenariy-lariga ham shu talablar qo'yiladi. Zero, madaniy-ma'rifiy muas-sasada o'tkazilgan birorta tadbir yo'qki, unda fakt va hujjatlardan foydalanilmagan bo'lsin. Umuman, voqelikni hujjatli-publitsistik ifodalash usuli – madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysining ham muhim xususiyatidir.

Aniq fakt muhim tarbiyaviy va tashkilotchilik, safarbarlik xu-susiyatiga ega. Mavzu va g'oyani talqin etuvchi muhim faktni tan-lay bilish katta san'atdir. Konkret (aniq) fakt birinchidan, mavzuni to'luqonli ifodalaydi, ikkinchidan, fikrini, mulohazani, muammoni kuchaytiradi, ta'kidlaydi, chuqurlashtiradi. Aniq fakt hamisha ijti-moiy, iqtisodiy va madaniy bilimlarni boyitadi.

Ssenariyda fakt tahlili muhim ahamiyatga ega. Masalan, biror ish-lab-chiqarish tashkilotining mehnat yutuqlari haqida gap ketganda, qator juz'iy va umumiy faktlar keltiriladi. Ana shu faktning iqtisodiy samarasi aytilganda, ana shu samaraga qanday erishilgani, qaysi usul-lardan foydalanilgani tahlil etilgandagina fakt-natija auditoriyada muayyan tasavvur paydo qiladi. Bu esa bilimdir.

Faktlar ummonidan eng muhimlarini tanlash, ularni ilmiy, izchil asosda bayon qilish targ'ibot va tashviqotning, jumladan madaniy-



ma'rifiy muassasa madaniy-ma'rifiy ishlarining ishontirish, asoslash quvvatini ta'minlaydi.

Fakt – ishontirish san'atidir. Zero, har qanday fakt «tag-tomirida» aniq – voqea-hodisa, obyektiv reallik harakat qiladi. Haqiqat va soxtalik fakt- dalil orqali o'zligini namoyon etadi.

Tadbirlar fikr va faktlarni jonli, ehtirosli bayon qilish, ijobiy va salbiy hodisalarni aniq fakt-dalil orqali qiyoslash, qiyoslashning turli usullari: tarix va zamonaviy, ilmiy va amaliy, badiiy va hayotiy faktlardan mohirona foydalanish kerak bo'ladi. Lekin ko'pgina tadbirlarda kishilar nutqi zerikarli, siyqasi chiqqan, ishontirish quvvati kam faktlardan tarkib topadi. Teatrlashtirish yoki badiiylik mezonidan chetga chiqib, go'yo hisobot yoki ehtirossiz ma'ruzaga o'xshaydi, majlis nutqiga o'xshaydi. Bunga sabab esa tadbir ssenariysining puxta ishlanmaganligi, ssenaristning notiq bilan ijodiy hamkorlik o'rnatmaganidir. Konkret faktlar asosidagi jangovar, otashin nutq auditoriyada hayajonli kayfiyat hosil qiladi, bilim beradi. Odamlarga hayotiga yaqin faktlar targ'ib qilinayotgan paytda tinglovchi yoki tomoshabinlarning qiziqishlari ortadi, ammo notiq tinglovchilarning qiziqishlari bilan bog'lay olmagan misollar paydo bo'lishi bilanoq bu e'tibor so'nadi. Agar tinglovchilarning ishlab chiqarish, ijtimoiy yoki shaxs hayoti uchun faktlarning qanday amaliy ahamiyatga egaligi ko'rsatilsa, faktlardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Hujjat va faktlarni madaniy tadbirlar ssenariysi asosiga singdirish uchun avvalo tadbir o'tkazilayotgan joy (shahar, tuman, korxon) ning shart-sharoitini, demografik xususiyatini, geografik muhitini yaxshi bilish va chuqur o'rganish, o'sha joyga xos xarakterli faktlarni to'plash, ular mazmunidan madaniy tadbirning mavzu va g'oyasini topish, sujet voqealarini belgilash, konkret voqealar, real (aniq) faktlar, hujjatlar, raqamlar haqida hikoya qilish kabilar ssenariyning mukammalligiga xizmat qiladi.

Ssenariyning mazmunidan kelib chiqib, hujjatlilik tadbir mavzusining diqqat markazida turmog'i lozim. Tadbir ssenariylarining maxsus xususiyatini belgilaydigan hujjatlar va faktlar ma'no va mezon jihatdan bir xil tushunchalardir, degan noto'g'ri xulosa chiqarmaslik kerak. Fakt va hujjat tushunchalari analogik mazmunga ega

emas. Fakt – bu aniq tarixiy hodisadir. Hujjat esa fakt haqidagi shahodatnomadir. Demak, fakt va hujjat tushunchalari ichki mazmuniga ko‘ra bir-birini to‘ldiradi.

Kino, televidenie, radio va teatr dramaturgiyasi hujjatligidan madaniy tadbirlar ssenariysi hujjatligining farqi shundaki, unda aniq shahar, tuman, viloyat, korxonalar, shuningdek, ijtimoiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilarning ijodiy mehnati, shaxsiy turmushi, ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini haqida hikoya qilinadi. Real (aniq) qahramonlarning taqdirini teatr qonun-qoidalari orqali ko‘rsatish, tarixiy va hayotiy voqea-hodisalar, faktlarni aniq ommaviy auditoriya oldida namoyish qilish, zamondoshlarimizning yoki tarixiy shaxsning obrazli-publitsistik qiyofasini xarakterlash – madaniy tadbirlar ssenariylari hujjatligini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlardir.

Har bir ssenariy asosida biror aniq fakt yoki hodisa yotadi. Ular tomoshabinni qiziqitira olishi kerak. Ssenariyning hujjatligi haqida gapirilganda, uning spetsifikasi va mohiyati haqida gapirgan bo‘lamiz. Masalan, odam savdosiga qarshi kurash mavzusi, giyohvandlikka qarshi kurash mavzularini olaylik. Bunda, ko‘pgina yosh yigit-qizlarimiz o‘z yurtlarida ota-onasi, Vataniga foydasi tegishi o‘rniga o‘zga yurtlarga borib katta daromad qilishni orzu qiladilar. Ammo, ularni o‘zga yurtlarda nimalar kutayotganligini tasavvur ham qilmaydilar. Tadbirlarda keltirilgan faktlar, hujjatlar va dalillar asoslangan holda namoyish etilishi kerak. Insonlarni o‘zga yurtlarda yurib katta mablag‘ topish xomxayol ekanligi, u yerlarda insonga mardikor sifatida qaralishi, turli fojialar hamma –hammasi faktik materiallarga asoslanishi tomoshabin ongiga ta‘sir qilishning eng zo‘r usullaridandir. Yoki, giyohvand uchun kelajak yo‘qligi, kimki bunday ishlar bilan shug‘ullansa oxiri voy bo‘lishini yorqin misollarda tasvirlash –ssenaristdan katta mahorat talab qiladi.

Madaniyat muassasasida o‘tkazilayotgan teatrlashtirilgan tomoshalar, bayramlar, tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar bevosita hujjatli materialni adabiy qayta ishlash asosida ro‘yobga chiqadi.

Madaniy tadbirlari ssenariysining hujjatligi haqida gapirganda ikki sifatga e‘tibor berish kerak, ya‘ni quyidagilarni ssenariy uchun hujjat bo‘lib xizmat qiladi, desak to‘g‘ri bo‘ladi:

Birinchiidan, tadbir voqeasiga, qahramonlar taqdiriga, tomoshabinga bevosita aloqador, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, tadbir o'tkazish munosabati bilan yozib olingan videolavhalar, xatlar, kundaliklar, xotiralar, memuarlar, rasmiy hujjatlar (farmonlar, buyruqlar, qarorlar, tavsiyanomalar, ruxsatnomalar, bayonnomalar), prezident nutqlari, olimlar, yozuvchilar, shoirlarning so'zlari yozib olingan tasmalar, fotohujjatlar (davlat va shaxsiy arxiv materiallarining suratlari, tarixiy va hayotiy suratlar, kishilarning portretlari); kinohujjatlar (kinolardan olingan fragment kadrlar) va boshqalar.

Ikkinchiidan, ssenariy hujjatligini badiiy materiallar (musiqa, xoreografiya, drama, proza, poeziya va boshqa asarlardan olingan fragmentlar) ta'minlaydi. Ssenariydagi bunday hujjatlilik hamisha tomoshabinni ishontiradi. Ayni vaqtda bu hujjatlilik ssenariyni mahalliy sharoit, milliy kolorit bilan o'zaro bog'laydi.

Bir so'z bilan aytganda, tadbirning kompozitsion qurilishini to'g'ri tuzish tadbirning tempo-ritmini ushlab turadi.

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Ssenariyning yaratilishi qanday maqsadlar uchun xizmat qiladi?
2. Ssenariyda hujjatlarni badiiylashtirish qanday amalga oshiriladi?
3. Ssenariyni yaratilishida fakt va hujjatlar nimaga xizmat qiladi?
4. Illyustratsiyalash va teatrlashtirish usullari deganda nimani tushunasiz?
5. Badiiy jihatdan mukammal ssenariy deganda qanday ssenariylar nazarda tutiladi?
6. Ssenariy yaratilishining adabiyotga qanday aloqasi bor?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Biron bir madaniy tadbirni kompozitsion tuzilishi jihatidan tahlil qiling.
2. Berilgan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda ssenariy tuzing va uning prologi, tuguni, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta va yechimini aniqlang.
3. Biron bir tarixiy asarni tanlab, undagi raqamlar, hujjat va faktlarni badiiylashtirib, ssenariyga kiriting.

## **1.5.Madaniy tadbirlarda inssenirovkadan foydalanish xususiyatlari**

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda juda ko‘p holatlarda dramatik manbalardan foydalaniladi. Ammo, hamma o‘tkazilayotgan tadbirlar uchun ham manbalarni topish oson bo‘lmaydi. Bunday holatlarda inssenirovka usulidan foydalanish katta samara beradi. Sahnalashtirish uchun asar tanlanayotganda faqat dramatik, tayyor pyesalarga emas, balki adabiyotning barcha turlariga murojaat qilish ham mumkin. Ko‘pgina dramatik bo‘lmagan asarlarni sahnaga qo‘yishga ehtiyoj tug‘ilganda inssenirovka usuli qo‘l keladi.

Inszenirovka - lotinchadan olingan bo‘lib, biror asarni sahnaviy qilib o‘zgartirish, sahnaga qo‘yish uchun moslashtirish degan ma‘noni bildiradi. Lug‘atlarda, inszenirovka – adabiy asarlarni teatr uchun qayta ishlash, deb berilgan.<sup>14</sup>

Inszenirovka bu- badiiy asarni dramatik asarga aylantirishdir, ya‘ni sahnaga moslashtirilgan holda yoziladi. Inszenirovka qilinganda quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim:

- 1.Asar to‘liq o‘qib chiqilib, uning mazmuni va mohiyati o‘rganiladi;
- 2.Asardagi muallif tomonidan berilgan so‘z, ta’riflar, xullas ifodalash - qahramonlarga bo‘lib beriladi;
- 3.Asardagi qahramonlar aniqlanadi, ularga so‘z, matnlar bo‘lib beriladi;
- 4.Monolog va dialoglarga ajratiladi;
- 5.Sahnalashtirishning barcha qonuniyatlariga tayanadi;
- 6.Asarni qisqartirish yoki kengaytirish mumkin bo‘ladi;

Inszenirovka qilinayotganda asarning ichki mazmunini to‘g‘ri tushunish, uni anglash lozim. Aks holda inszenirovka qilingan asarning asosiy mazmuni buzilishi mumkin.

Bir qancha sahna asarlari inszenirovka qilish orqali sahna yuzini ko‘rgan. Masalan, Pirmuqol Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani ham inszenirovka qilinib, rejissor Bahodir Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarining ham avvalgi shakli “hikoya” bo‘lgan. U ham inszenirovka qilinib sahnalashtirilgan.

<sup>14</sup> S.E.S.A.Proxorov tahriri ostida. M., 1990y,500bet.

Inssenirovka mavzusiga to'xtalغانimizning boisi – ko'pgina holdalarda oliygohlar, tashkilotlarda buyurtma bilan ssenariylar yozishga to'g'ri keladi, masalan, institutlar aro “Quvnoqlar va zukkolar” ko'rik tanlovini olaylik. Ko'rik tanlovda berilgan shartlar uchun tayyor dramatik asarlar deyarli yo'q. Bunday holatlarda adabiy asarlarni insstenirovka qilish usullariga tayanish mumkin. Yoki, Alisher Navoiy-ning tavallud topgan kuniga bag'ishlab, “She'riyat mulkining sultoni” deb nomlangan tadbir o'tkazilishi kerak bo'lsa ham ifodalashning turli vositalaridan foydalanib, insstenirovka qilingan holda ssenariylar yaratish mumkin.

San'atning asosini tarbiya tashkil etadi. Sahnadan turib aytilgan har so'z tomoshabin uchun qonuniyatga aylanib qoladi, ya'ni tomoshabin qahramonni gaplariga ishonadi, undan o'ziga kerakli ma'naviy madad oladi. Shuning uchun sahnadan turib qilingan barcha xatti-harakatlar haqqoniy tarzda amalga oshirilishi kerak.

Yoshlarni tarbiyalashda davlatimiz tomonidan turli muhim strategik maqsad va vazifalar belgilangan. Ana shulardan bittasi teatr san'ati tomonidan amalga oshiriladigan ishlar haqida yuqorida qayd etgan edik. Haqiqatdan ham tarbiya vositalari ichida teatr san'atining roli boshqa san'at turlariga qaraganda ancha kattadir. Chunki teatrni tomoshabin bilan aktyorlarning yuzma-yuz uchrashuvini amalga oshiruvchi vositachilardan biridir, deb aytish mumkin. Masalan, Said Ahmadning “Ufq” romani asosida qilingan insstenirovka, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani insstenirovkalari bunga misol bo'la olishi mumkin.

Hozirgi kunda Respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbir va tomoshalarda ham insstenirovkadan juda o'rinli foydalaniladi. Madaniy tadbirlarda insstenirovka qilingan asarlaridan mohirona foydalanib, tadbirlarda o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Inssenirovka qilish usuli ko'pincha keng miqyosda nishonlangan tadbirlarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, mustaqillikka bag'ishlangan tadbirlarda quyidagi variantlarda insstenirovka qilish mumkin. Masalan:

*Sahnaga boshlovchilar chiqib keladilar.*

*1boshlovchi:* Tarixdan ma'lumki, ajdodlarimiz mana shunday yorug' kunlarda yashashni, inson omili qadr topgan, shani va erki ulug'langan, adolatli davlat qurishni orzu qilganlar. Mustaqilligimiz sharofati bilan bizlar, ajdodlarimiz havas qilgan, orzu qilgan ana shunday baxtli kunlarda yashayapmiz.

*2boshlovchi:* Ammo... G'animlar O'rta Osiyoni zabt etishga, uning moddiy va ma'naviy merosini parchalab, qadr-qimmatini toptashga uringanliklari oqibatida, ajdodlarimizning qay ahvolda hayot kechirganliklarini tasvirlashga qalam o'zlik qiladi..

*(Katta pauzadan so'ng).* Turkiston harbiy Generall gubernatori Fon Kaufman...*(boshlovchilar chiqib ketishadi).*

*(Fon Kaufman kirib keladi).*

*Fon Kaufman:* O'rta Osiyo... o'ta katta boylikka ega bo'lgan yurt. Ammo uning xalqi bu boyliklarning qimmatini bilsa edi... Bilmagani ham yaxshi.

*Adyutant:* Murojaat etishga ruxsat eting janobi oliylari!

*Fon Kaufman:* Xo'sh, nima gaplar, qanday yangiliklar bor?

*Adyutant:* Aytgan barcha ishlaringiz ortig'i bilan bajarildi. Buxoro, Xiva, Samarqand, Qo'qon, Xo'jand va Toshkent shahri va xonliklaridan keltirilgan oltinlar, kumushlar, qo'lyozma kitoblar, tarixiy hujjatlar, xullas, barcha qimmatbaho buyumlar ro'yxatga olinib, siz aytgan joyga keltirildi.

*Fon Kaufman:* Juda yaxshi!.. Qimmatbaho buyumlarga nazoratni yanada kuchaytiring! Endi o'zingizga kelsak... siz bugundan boshlab mening faxriy va maxfiy maslahatchilarimdansiz. Siz bunga loyiqsiz!...

*Adyutant:* Hamisha xizmatigingizga tayyorman.

*Fon Kaufman:* O'zingizni ko'rsatadigan vaqt keldi. Mana, Farg'ona generali gubernator Skoblevni olaylik. "To'kilgan har bir rus qoni uchun, O'rta Osiyoliklarning qonini daryodek oqizaman", - deydi. Qanday zo'r gap. Ana mardlik, ana fidoyilik. Siz O'rta Osiyoliklarni tag-tomiri bilan yo'q qilish, yoki umrbod o'zimizga umrbod mardikor qilib olish uchun qanday takliflarni bera olasiz?

*Adyutant:* Ularda o‘q-yaroq, qurol-aslahalar deyarli yo‘q, shuning uchun qirib tashlay qolish kerak!

*Fon Kaufman:* Ulari qirib tashlasak, bizlarga kim xizmat qiladi? Yo‘q! Do‘stimiz Skoblev aytganidek, millatni yo‘q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san‘atini, tilini yo‘q qilsang bas, tez orada o‘zi adoyi tamom bo‘ladi. Tushunarlimi?

*Adyutant:* Xuddi shunday, o‘rtoq general!

*Fon Kaufman:* Undan tashqari, O‘rta Osiyoliklarga iloji boricha, mumkin qadar ko‘proq paxta ektirish, dehqonchilik qildirish, ularni tinimsiz ishlashga majbur qilishimiz lozim, toki bu xalqning boshqa narsalarni o‘ylashga, siyosiy voqealarni anglab yetishga bir zum ham vaqti, xohishi qolmasin. Tushunarlimi?

*Adyutant:* Tushunarli.

*Fon Kaufman:* Ha aytganday, bugun juma, men machitga chiqishim kerak.

*Adyutant:* Nima? Machitga?

*Fon Kaufman:* Ha, machitga! Men bugun atayin juma nomoziga boraman, nomoz o‘qiganday bo‘laman, shu tariqa xalqning ichiga kiraman, ularning ishonchini qozonaman. Shunda barcha rejalashtirilgan niyatlarimizni osonlikcha amalga oshiramiz. Tushunarlimi?

*Adyutant:* Xuddi shunday, o‘rtoq general!

*Fon Kaufman:* Unday bo‘lsa ketdik!

*Boshlovchilar kirib ular orqasidan tikilib qarab qoladilar va tomoshabinga yuzlanadilar.*

*1boshlovchi:* Ha, g‘animlar bizning o‘lkamizni bosib olish uchun nimalar qilmadilar. Ajdodlarimizning ozod yurt uchun kurashlari natijasida bundayin g‘alamisliklar barham topdi.

*2boshlovchi:* Ha, azizlar, mustaqillikning qadriga yetaylik. Mustaqillik sharofati bilan barcha ne‘matlarimiz xalqimizning, ya’ni o‘z egalari qo‘liga qaytdi.

*1boshlovchi:* Bugun tan olishdi yuzlarcha davlat  
Dunyoda o‘rning bor yarashiq savlat,  
Ko‘rolmaganlaring qilsa malomat  
Sen yashna gul bo‘lib, hur O‘zbekiston!

*(H.Malikovaning “Istiqlol muborak” she’ridan olingan.)*

Ushbu tadbirdagi matnlar tarixchilarimizning ilmiy adabiyotlarda keltirilgan faktik, hujjatli manbalaridan olingan bo‘lib, ular badiiylashtirishgan holatda berilgan. Masalan, Fon Kaufman “ommani ishonchini qozonish uchun machitlarga borib, o‘zini nomoz o‘qiyotgan qilib ko‘rsatgan”, degan oddiy matnda berilgan so‘zlari qahramonning tiliga ko‘chirilgan.

Madaniy tadbirlarda yana bir narsani hisobga olish kerakki, unda uzundan-uzoq so‘z, matn tomoshabinni toliqtirib qo‘yishi mumkin. Mavzuga mos qisqa, lo‘nda, tadbir mavzusi, g‘oyasini ochib berishga xizmat qila oladigan manbalardan to‘g‘ri foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday tadbirlarda san‘atning barcha turlaridan mohirona foydalanishga erishish lozim. Aytmoqchimizki, yuqorida keltirilgan namunalardan oldin va keyin turli musiqiy, raqs va boshqa nomerlar ham qo‘llanilishi mumkin.

Yana bir tadbir uchun tayyorlangan inssenirovkani misol tariqasida keltiramiz.

*(Sahnada Forstar shohi Kir va uning vazirlaridan biri)*

*Kir:* Bizlar qudratli davlat tuzamiz. Buning uchun barcha qo‘shinulashkarlarimizni jang uchun tayyorlamoq lozim. Mana bizlar uchun eng xavfli Midiya, Lidiya, va Bobilni bosib olib, yanchib tashladik. Endi navbat O‘rta Osiyoga! Ammo, bu mamlakatni bosib olishga ko‘p kuch sarflamasak ham bo‘ladi.

*Vazir:* Hukmdorim, lashkarlarimiz Parfiya, Marg‘iyona va Baqtriyani ham egalladilar. Lashkarlarimiz ularni beshavqat qirib tashlamoqdalar.

*Kir:* Biz hali o‘zimizni ko‘rsatamiz. Butun O‘rta Osiyo hali menga bo‘ysinadi. Ha, menga bo‘ysinadi!

*Tashqaridan chopar yugurib keladi.*

*Chopar:* Hukmdorim, bir qoshiq qonimdan keching. Sizga maktub berib yuborishibdi.

*Kir:* Maktub? Qanaqa maktub?

*Chopar:* Qandaydir To‘marisdan.

*Kir:* To‘maris?

*Vazir:* Massagetlar yurtining malikasi-ku.

*Kir:* Ayol kishi? Menga ishqiy maktub yozgan bo‘lmasin? (kuladi). Qani, o‘qi-chi.



*Chopar: (o'qiydi)* Forslar shohi! Qayt bu fikringdan! Borib o'z saltanating gashtini sur, bizning yurtimiz havasini qilmay qo'yaqol! Yaxshilikcha qaytib ketinglar, aks holda...

*Kir:* Voy, ablah-ey! Men senlarga ko'rsatib qo'yaman. Qani, lashkarlarni yig'ing, jangchilarni to'plang. U ayolni o'z qo'lim bilan tutib, o'ldiraman! Qani, ketdik!

*(Sahnaga To'maris va lashkarboshi chiqib kelishadi)*

*Lashkarboshi:* Malikam, baxt bizlar tomon kulib boqdi, ammo bu jang barcha janglardan ham dahshatliroq bo'ldi. Avval har ikki dushman kuchlar bir-birlariga qarshi jangovar saf tizishib, kamonlardan o'qlarni yog'dirdilar. O'qlari tugagach, qo'llarida xanjaru nayzalar bilan dushmanga qarshi olishdilar. Jang uzoq davom etdi. Jangda Kirning o'zi ham halok bo'ldi.

*To'maris:* Hech kimga o'z yurtimizni toptashga yo'l qo'ymaymiz. Buyrug'imni tinglang! Fors shohining jasadini topib, uning boshini qon to'ldirilgan meshga tiqing! Zero, qonga tashnaligi qonsin!

*Lashkarboshi:* Bosh ustiga!

*To'maris:* Momo To'marisman – sizga intilgan,  
Vatan ozodligin muqaddas bilgan.  
Qahrimdan titroq bosqinchi g'anim,  
Istadim, mangu hur bo'lsin Vatan.  
Ayol boshim bilan saqlab orimni,  
Yurtga fido qildim dilda borimni!

*(Lashkarboshiga yuzlanib)* Vaqtimizni behuda ishlarga emas, hayrli ishlarga sarflaylik. Qani, ketdik!

*(Chiqib ketishadi).*

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, inssenirovka usulidan foydalanish madaniy tadbirlar tashkilotchisiga o'zi xohlagan mavzuga murojat qilishiga imkoniyat beradi. Ammo har qanday holatlarda, har qanday ijodiy ishlarda o'zgartirish va yangiliklar kiritishda mualliflik huquqlari me'yorlari va dramaturgiya qonuniyatlariga rioya qilinishi shart<sup>15</sup>.

<sup>15</sup> V.Rustamov. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari". Toshkent, 2013.Faylasuflar MJ, 78b.

Aniq reja asosida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarning deyarli ko'pchiligida insseniroykadan foydalaniladi. Chunki, madaniy tadbir uchun alohida pyesa yozilmaydi. O'tkaziladigan tadbirlarning mavzusi, g'oyasiga mos adabiy asarlar tanlanib, insseniroyka qilinadi va tadbirning kerakli joyida qo'llaniladi. Ssenariyda sujet va kompozitsiya masalasi tadbirni tashkil etishning muhim aspektlaridan hisoblanadi. Insseniroyka qilingan barcha asarlarni madaniy tadbirlarda o'rinli qo'llash tadbirning saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham tadbirni yaxlitligicha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ssenariyga kiritilgan kuy qo'shiq, raqs, dramatik asarlardan parchalar, insseniroykalar tadbirning salmog'ini oshiradi.

Juda ko'p holatlarda tadbir tashkilotchilari tomonidan ssenariyni boyitish uchun sahna ko'rinishlarini tayyorlash maqsadida kichik hajmdagi sahna ko'rinishlarini yozadilar. Bunga institutda o'tkazilgan "Ota-onalar" kuniga bag'ishlangan tadbir uchun tayyorlangan "*Qush uyasida ko'rganini qiladi*" yoki "*Tarbiya oiladan boshlanadi*" deb nomlangan sahna ko'rinishini misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin.

*Tun. Ota uxlay olmay sahnaning old tomoniga keladi.*

Ota: Bu bola qayerlarda yurgan ekan-a? Vaqt ham allamahol bo'lib qolgan bo'lsa...

*Borib chiroqni yoqadi.*

*(Ichkaridan)* Ona: Ey, uxlaysizmi o'zi yo'qmi?

Ota: Sening arzanda, erkato'y o'g'ling hali ham uyga kelgani yo'q!

Ona: E...! Yotib uxlasangiz—chi, yosh bola emas-ku?

Ota: Yo—tavba! Qanaqa onasan o'zi? Bu holatda senga qanday uyqu kelyapti, hayronman.

Ona: *(baqirib)* Chiroqni o'chirasizmi yo'qmi?

Ota: O'chirmayman! *(U yoqdan bu yoqqa bezovtalanib yura boshlaydi)*. Hammasiga sen aybdorsan. Bolani erkalayverib, uni yonini olaverib, tarbiyasini rasvo qilding.

*(Ichkaridan ona chiqib keladi)*

Ona: Nimalar deb valdirayapsiz? Yarim kechdayam tinchlik yo'q. Kirib uxlasangiz-chi!

Ota: Senga hayronman xotin, ko'zinga uyqu qanday keladi-ya? Soat ikki bo'ldi, haliyam o'g'lingdan darak yo'q. Havotir ham ol-maysan-a, qoyil-e senga...

Ona: Nima og'lingiz yosh bolamidi? Keladi-da, do'stlari bilan yurgandir.

Ota: O'zi o'g'limizni shunaqa qilib yurishiga sen aybdorsan. Nima desa aytganini qilding, aytgan narsalarini hammasini oberding, qan-cha pul so'rasa berding. "Nega?", "Nima uchun" demading... Sen bergan pullar uni taltaytirib yubordi.

Ona: Ha, erkak bo'lib siz bermaganingizdan keyin beramanda pul. O'sha men topgan pullarni orqasidan siz ham gerdayib yuribsiz, shuni esingizdan chiqarmang.

Ota: Ey, minnat qilma! Men ham o'zimga yarasha pul topganman.

Ona: Ha, ko'ryapman... qancha pul topganingizni... Muallimlik qilib qanchayam pul topardingiz.

Ota: Sen ko'p puling bilan menga maqtanma... O'zi senga nima yetmaydi, men topgan pul bilan ham yashasak bo'lardi-ku, xotin. Shu pullarni chet elma-chet el, joningni hovuchlab yurmasdan, o'zimizda, shu yerlardayam topsa bo'ladi-ku?

Ona: Men siz bir oyda topadigan pulingizni bir soatda topyapman.

Ota: O'sha pullar bir kun boshingga yetadi seni.

Ona: O'sha pullar bo'lmaganida siz hattoki ustingizdagi manavi kiyimlarniyam ololmagan bo'lar edingiz.

Ota: Kerakmas kiyimlaring! OI!... (*yechib tashlaydi*).

Ona: Yeching, yechavering... Men obergan hamma kiyimlarni yechingchi, ustingizda bittayam kiyim qolmaydi.

Ota: Haddingdan oshma!

*Telefon jiringlaydi. (Ota telefonda gaplashadi)*

Ona: Ha, kim ekan? Nima gap? Gapirsangizchi... nima bo'ldi?

Ota: Militsiyadan... Seni o'g'ling ... Jahongir odam o'ldirib qo'yibdi?... Eshitdingmi, odam o'ldiribdi...

Ona: Nima? Odam o'ldiribdi? Endi nima bo'ladi, qanday qilib o'g'limizni qutqarsak bo'ladi?. (*O'ylanib*) Ha, siz o'lgan bolani uyi-dagilari bilan gaplashing, qancha pul desa beraman, deng. Hammasini o'zim topib beraman. Yo tanishlarni ishga solsakmikan.

Kim yordam berishi mumkin? Ha, Akmal aka yordam berishi mumkin. Nima qilsam ekan-a? Vaqt ham allamahol bo'lgan, uxlab yotgandir...

Ota: Bas qil ahmoq, axir inson o'ldi deyaipman, tushinmayapsanmi? Bir odam o'ldi. Sen nimalar haqida o'ylayapsan.

Ona: O'lgan o'ldi, ketdi. Nimasini oylaysiz undan ko'ra o'g'limiz haqida o'ylasangizchi. Topdim! Yaxshisi o'g'limni dalahovliga jo'natib yuboraman. O'sha yerda yashab turadi. Lekin o'zi qayerda ekan?

*Eshik taqillaydi. Jahongir hovliqib kirib keladi.*

Ota: Qayerlarda yuribsiz? Nima bo'ldi? Nega qo'llaring qon?

Ona: Bolajonim senga nima bo'ldi? Tinchlikmi?

Ota:Gapirsangchi, nima bo'ldi? Nega ahvoling bunaqa?

O'g'il: Hech narsa bo'lgani yo'q, nimaga menga yopishaysiz?

Ota: Unda nega menga militsiya qo'ngiroq qildi? O'g'lingiz odam o'ldirib qo'yibdi, dedi.

O'g'il: Yoq, bo'lishi mumkin emas. Men hech kimni o'ldirganim yo'q...U yerda hech kim yo'q edi-ku? Hech kim ko'rmagandi-ku?

Ota: Demak, rost ekanda, a? Nomard, bizni qanday kunlarga qoldirding,iflos! (*Urmoqchi bo'ladi*).

Ona: Urmang, nega urasiz, ahvolini ko'rib turibsiz-ku...

O'g'il: Oling qo'lingizni, ota bo'lib nima qilib qo'ydingiz? Siz meni avvaldan yomon ko'radingiz! Yaxshiyam onam meni tarafimni olar edi. Menga qo'lingizni tekkizmang! Haqqingiz yo'q!

Ota: (*Sahmaning oldiga chiqib*) Xalqimizda bir rivoyat bor. Bir zamonlarda bir onaning yolgiz o'g'li bo'lgan ekan. Bir kuni o'g'il qo'shnisining uyidan tuxum o'g'irlab chiqibdi. Ona uni maqtab-maqtab o'ziga pishirib beribdi. Ertasiga o'sha qo'shnisining tovuqni o'g'irlab kelibdi, ona buni ham pishirib beribdi... (*Katta pauza*)Bu rivoyatni sen ham eshitgansan, ha eshitgansan! Buni qanday tugashiniyam yaxshi bilasan. O'zi hammasiga sen aybdorsan. Bolani yoshligidan tarbiyasini buzding, nima desa olib berding, qo'lga xohlaganicha pul tutqazding, hammasini sen qilding. O'qishga borsin desam, qo'yabering bitta o'qigan sizmi, deb og'zimni yopding. Necha marta ota-onalar majlisi bo'ldi. O'zing bormaganingga yarasha, boray desam qo'ymading, erkaklar qiladigan ishni qiling, deding. Muallimlari kelganda pul taklif qilganingda sharmanda bo'lding. (*G'azab bilan*) Hamma senga o'xshab pulga ruju qo'ymagan.

Ular sen bergan porangga zor emas. Hammamizni sharmanda qilding... Mahallada qanday qilib bosh ko'tarib yuramiz endi?

Ona: Ey...bu gaplarni qo'ysangizchi... Hozir shu gaplarni aytadigan paytmi. Undan ko'ra o'g'limizni nima qilish haqida o'ylaylik, uni berkitishimiz kerak.

Ota: Berkitishimiz kerak? Nima u senga o'yinchoqmidiki, berkitib qo'ysang...

Ona: Doim shunday qilasiz! Aqlli gaplaringizni yig'ishtiring. Uni qayerga jo'natamiz. Dalahovliga jo'natvorsak-chi, nima deysiz?

Ota: Qanaqa dalahovli? O'g'lingni militsiyaga topshiramiz! Boshqa nima ham qila olamiz? Hozir... men militsiyaga telefon qilaman. Nima bo'lsa boldi endi...

O'g'il: Yo'q! Unday qilmaysiz! Telefonga tegmang!... *(itarib yuboradi, ota yiqilib tushadi va yuragi xuruj qilib o'ladi).*

Ona: Nimalar qilib qo'yding, otangni o'ldirib qo'yding-ku, nomard!

O'g'il: Oyi, menga mashinani kalitini bering, men ketay!

Ona: Qayoqqa ketasan, nonko'r!.. Otangni o'ldirib qo'yding... *(Eriga qarab)* ko'zingni oching... Meni kechiring... *(O'g'liga qarab)* Yo'qol, bu yerdan...

O'g'il: Menga pul kerak! Pul kerak! Bering kalitni, deyapman!

*Xuddi shu payt militsiya xodimlari kirib kelishadi va o'g'ilni qo'lga olishadi.*

Militsiya xodimi: O'g'lingiz odam o'ldirishda gumon qilinadi, jinoyat kodeksini tegishli moddalariga ko'ra hibsga olishga majburmiz.

*(Yolg'iz qolgan ona hech narsa deyolmay, sahnada qotib qoladi).*

Mazkur mavzuni g'oyaviy talqini haqida gap borganda, muallif asarning ta'sir kuchi haqida o'ylashi kerak bo'ladi. Bu sahna ko'rinishida ota o'lib ketdi, ammo farzandini tarbiyasiga e'tiborsiz qaragan ona uchun yolg'iz qolishning o'zi ham fojea. Ammo, buni boshqacha hal qilish ham mumkin: Farzand pul so'rab uyiga kelganda onasi pul bermaydi. Onasi "pulni biznes" uchun tikib qo'ygani uchun pul berolmasligini aytganda, farzand tushunishni xohlamaydi va onasining bo'ynidagi (yoki qo'lidagi) taqinchoqqa yopishadi va ikkalasi o'rtasidagi konflikt onaning fojeasi bilan tugaydi. Bunday g'oyaviy talqin ham tomoshabinga "Ey inson, farzand tarbiyasiga jid-

diy munosabatda bo'lgin, uni erkalatmasdan, ishga, mehnatga o'rgat, toki natija bu asardagi qahramonlarning hayotiga o'xshab qolmasin", degan g'oyani singdirishga harakat qilish –ssenaristning mahoratida namoyon bo'lishi lozim.

Bunga o'xshagan sahna ko'rinishlari uchun albatta dramaturgik qonuniyatlarni bilish muhimdir. Mazkur sahna ko'rinishini tahlil qiladigan bo'lsak, voqeaning boshlang'ich qismi, ya'ni prologi- otani farzandini kutishi, tugun - farzandining odam o'ldirib qo'yganligi haqidagi xabarni eshitishi, voqealar rivojlanib borib kulminatsiyaga, ya'ni otaning o'limi va yechim - noqobil farzandning militsiya xodimlari tomonidan qo'lga olinishi va onaning pushaymoni, deb belgilash mumkin.

Bugungi kunda san'at, adabiyot, shu jumladan ommaviy-badiiy tadbir, ko'rsatuvlar va tomoshalar orqali kishilar xarakterini, e'tiqodini ularning hayotga, nafosat olamiga bo'lgan muhabbatini tarbiyalashda mafkura, madaniyat xodimlarining ma'naviyati tomoba oshib bormoqda. Binobarin, adabiyot va san'at kishilarning mustaqillik davriga mos va xos badiiy-g'oyaviy yetuk asarlar yaratish zaruriyati o'z-o'zidan ayon bo'ldi. Mustaqillik esa iqtisodiy, ma'naviy va hatto siyosiy jihatdan barkamol insonni yoqtiradi. Bunday sharafli ishga hissa qo'shish esa har bir adib va shoirning, aktyor va rejissorning muqaddas burchidir. Shunday ekan, institut va universitetlarning talabalari, jumladan ularning o'qituvchilari va murabbiylarining o'zlari ham xuddi shu xil tarbiya ko'rgan, ruhiy olami yuksak bo'lmog'i lozim. Hozirgi kunda g'oyaviy-badiiy yuksak, mustaqil ssenariylar yoza ola-digan, qiziqarli tomoshalar qo'ya oladigan madaniy tadbirlar tashkil-otchilariga talab katta. Bu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda esa dramaturgiya nazariyasini chuqur o'rganib chiqish va ssenariychilik mahoratini o'zlashtirishni taqazo etadi. Nazariy asosga ega bo'lmaslik esa talabaning amaliyotda oqsoqlanishga olib kelishi tabiiy. Bizga ma'lumki, tomoshabinga o'tkazadigan ta'sir kuchi ko'p jihatdan asosiy materialga, ssenariyning g'oyaviy-badiiy mukammalligiga, ssenaristning ijodiy qobiliyati, mahorati, dunyo qarashi bilimi, fantaziyasi bilan chambarchas bog'liq. Madaniy tadbirlarni teatrlashtirishning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, bu o'rinda

ssenarist bilan rejissorning o'zligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, talaba ham ssenarist, ham rejissor bo'lishi, publitsist, hujjatli badiiy xarakter yaratish sirlarini yaxshi tushunishi, his etishi shart, bir so'z bilan aytganda, ijodkor bo'lishi zarur. Drama va ssenariyni maydonga keltirish uchun dramaturg va ssenaristdan qanchalik mahorat, kuch talab etilsa, madaniy tadbirlar ssenariysining muallifidan ham shunchalik bilim va mahorat talab etiladi. Inssenirovkada ham xuddi shunday.

Ssenariy faqat biror tadbir yoki bayramni, muammoni namoyish qilibgina qolmay, uni tahlil ham etadi. U dramaturgiya qonun-qoidalariga asoslangan holda (drama esa san'atning bir turidir) bu tahlil dramatik vaziyatlar, ziddiyat (konfliktlar) orqali amalga oshiriladi.

Drama hamma vaqt o'z qahramonlarini yaratadi. Badiiylik qachonki, yangi muammolar, yangi sujetlar, yangi ziddiyatlar asosiga qurilgandagina o'z jamolini ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar hayotiga bag'ishlangan tadbir ssenariysi asosida kuchli muammolar yotishi kerak. Chunki, o'smirlik davri – inson umrining burilish nuqtalaridir. Ular turmushning ildizi, chuqur masalalari bilan qiziqadilar. Yoshlar hayotiga bag'ishlangan ko'pgina tadbirlar ssenariysida o'tkir ziddiyatlar yetishmaydi. Mahoratli ssenarist o'z asarida yoshlar hayotidagi muammolarni ifodalaydigan mahalliy faktlardan, shuningdek adabiyot va san'at asarlaridan foydalanib, o'tkir dramatik vaziyatlar yaratadi. Bular so'zga chiquvchilarning gaplari, turli lavhalar, ko'rinishlar, illyustrativ materiallar tarzida ssenariyga, u asosidagi tadbirga ta'sirchanlik bag'ishlaydi, uni mazmundor qiladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysining sujeti – uning bevosita mazmunini tashkil etgan, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi hayotiy dalillar va voqealardir. Sujetda ssenariy orqali talqin etilayotgan voqealar ichidagi eng muhim to'qnashuvlar, qarama-qarshiliklar va kishilarning o'zaro munosabatlari aks etadi.

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Inssenirovka tushunchasiga izoh bering.
2. Inssenirovkaning qanday turlarini bilasiz?
3. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda inssenirovkadan nima maqsadda foydalaniladi?

4. Adabiy asarni sahnaga ko‘chirish nima degani?

5. Sahna ko‘rinishlari uchun qanday manbalardan foydalanish mumkin?

5. Inssenirovka qilish uchun ishni avval nimadan boshlash kerak?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Biron-bir adabiy asarni (m-n, hikoya) inssenirovka qiling.

2. ”Odam savdosiga qarshi kurash mavzusi”ga oid badiiy asarlardan tanlab, inssenirovka qiling.

3. Tarixiy manbalardagi faktlar va hujjatlarga asoslangan inssenirovkani yozing.

4. Biron bir tadbirga mo‘ljallab, mustaqil ravishda sahna ko‘rinishini tayyorlang.

### **1.6. Ssenariyda qarama-qarshiliklar ifodasi**

Tadbir ssenariysini yorqin sujet asosida qiziqarli qilib yozish – dramatik ijodning muhim talabidir. Ssenariy sujeti qiziqarli materiallar, hujjatlar, xotiralar, aniq asoslar, kishilar taqdiri asosida bayon qilinishi kerak.

Juda ko‘p hollarda tadbirlar ssenariysida konfliktlar juda kam qo‘llanilgan holda yaratiladi. Qarama-qarshiliksiz yozilgan ssenariylar tomoshabinni zeriktirib qo‘yishi mumkin. Konfliktlarga asoslanib yozilgan ssenariylarda tomoshabinni voqea natijasini kutishga, voqea nima bilan tugashiga qiziqishi ortadi va tadbirni qunt bilan kuzatadi.

Konflikt (qarama-qarshilik, ziddiyat) – sujet o‘zagidir. Sujet harakati faqat qarama-qarshiliklar vositasida vujudga keladi va dramatik konflikt shaklida rivojlanadi. Zero, konfliktsez dramaturgiyaning bo‘lishi mumkin emas. Konflikt dramatik asarning asosiy nazariyasi, temir qonuni sifatida uning asosini tashkil etadi. Ssenariy sujeti asosida yotgan hayotiy ziddiyatlar uning konfliktini yuzaga keltiradi. Manbalarda “Konflikt – bu tomonlar, fikr va kuchlarning o‘zaro to‘qnashuvidir”<sup>16</sup>, deb berilgan. Konfliktni kuchaytirish tomoshabinni asarning boshidan oxirigacha natijani kutishga majbur qiladi. Agar

<sup>16</sup> С.К.Борисов. Основы драматургии театрализованного действия. Челябинск, 2007. 766.



qarama-qarshiliklar keskin emas, kuchsiz bo'lsa unda asar ham kuchsiz hisoblanadi va tomoshabin ham shunga yarasha munosabatda bo'ladi.

Dramatik asar uchun jiddiy konflikt, dramatik tavsif, harakatning yaxlitligi, voqeani sodir bo'layotganday qilib ko'rsatish eng muhim zaruriy shartlar hisoblanadi. Turli tadbirlarda san'atning juda ko'p xil shakllari ishtirok etganligi uchun konfliktga katta e'tibor qilinmasligi mumkin. Ammo, dramatik asarlarda tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirish, keskinlashtirish spektaklning ta'sir kuchini belgilashi mumkin.

Madaniy tadbirlarning barcha turlarida ham qarama-qarshilik bo'lishi shart degan, g'oyani ilgari surishdan yiroqmiz. Zero, madaniy tadbirlarning ba'zi turlarida umuman konfliktlar uchramasligi mumkin. Masalan, davra suhbatida tadbir suhbat-munozara shaklida tashkil etsa, unda hech qanday qarama-qarshilikni kuzatmasligimiz mumkin. Lekin iloji boricha tadbirlar ssenariysini yaratishda qarama-qarshiliklarni qo'llash uning ta'sirli chiqishiga yordam beradi. Hamma tadbirlar ssenariylariga bu talabni qo'yib bo'lmaydi. Chunki unda xarakterlar kuchli dramatik holatlarda to'qnashmasligi mumkin.

Ammo inssenirovkada konflikt albatta bo'lishi shart. Insseirovka biror sujet chizig'iga ega bo'lar ekan, unda dramatik konflikt ham yorqin ko'rinishi kerak. Konflikt badiiy asar sujetini rivojlantirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, madaniy tadbirlar ssenariysi maxsus, o'ziga xos yondashuvni talab qiladigan dramaturgiyadir. Bu yerda qatnashuvchilar xarakteri psixologik jihatdan mukammal ishlanmaydi. Bu yerda o'z shaxsiyatini to'la namoyon qiluvchi qahramonlar yo'q. Shuning uchun ssenariy konflikti ham o'ziga xos ravishda talqin qilinmog'i lozim.

Ssenariy sujetini harakatga keltiradigan xususiyatlar – ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya va yechim tushunchalarining ketma-ketligi insseirovka qilingan asarda ham bo'lishi shart.

Jamiyatda qarama-qarshiliklarning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, ular haqidagi juda ko'p manbalarda ma'lumotlar berilgan. Sahnalashtirish san'atida konfliktlarning to'rtta turi haqida fikr

yuritish maqsadga muvofiqdir. Ichki, tashqi, tor ma'nodagi va keng ma'nodagi qarama-qarshilik turlari shular jumlasidandir. Ichki qarama-qarshilik – ijrochining ichki, ruhiy, psixologik holatlari, tashqi qarama-qarshilik esa – tashqi, jismoniy xatti-harakatlarga oid tushunchalarda namoyon bo'ladi. Tor ma'nodagi qarama-qarshilik, ta'sir ko'lamining kamligi yoki kichikligi bilan, keng ma'nodagi qarama-qarshilik esa o'zining ijtimoiy ahamiyati bilan ta'sirlidir.

Voqealarning qiziqarliligi, hujjat va faktlarning katta ijtimoiy mazmunga egaligi madaniy tadbirlar ssenariysi va u asosida o'tkazilgan tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Binobarin, tadbirda qaynoq axborotlar, yangi faktlar bo'lmasa, tomoshabinlar kutgan kishilar, notiqalar qatnashmasa – illyustrlashtirish va teatrlashtirish usullarining shartlari bajarilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Madaniy-ma'rifiy muassasa ssenariysi mavjud, aniq faktlarga, kishilar taqdirilariga asoslangan bo'lishi, tomoshabinlarning fikr va sezgilariga hissiy ta'sir etishi kerak.

Respublikamiz madaniy-ma'rifiy muassasalarida o'tkazilayotgan madaniy tadbirlar – xilma-xil kechalar, ommaviy bayramlar, xalq sayllari, ko'rik-tanlovlar, spartakiadalarning ssenariylarida badiiy-publitsistik obrazlilikning turli ko'rinishlaridan, usullaridan foydalaniladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasadagi har bir badiiy-publitsistik tadbir o'zining sahna bezagiga, ramziy belgilariga ega bo'lgandagina, uning hujjati obrazlilik va g'oyaviy emotsional ta'sir quvvati kuchli bo'ladi.

Madaniy tadbirlarda boshlovchi, konferanse so'zlari katta ahamiyatga ega. Ular ssenariy fikrini rivojlantiradi, epizodlarni ulaydi, inssenirovka qilib ulgurmagan juda ko'p voqealar, faktlar, raqamlar xususida axborot beradilar, tomoshabinni o'sha voqealar olamiga olib kiradi. Spektakllar, kinofilmlar, adabiy asarlardan olingan parchalar, qo'shiqlar va musiqa tadbirdagi harakat taraqqiyotini ta'minlaydi, tomoshabinlarda emotsional kayfiyat paydo qiladi.

Ssenaristning asosiy vazifasi – barcha nutqlar, badiiy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, qo'shiq, spektakl ko'rinishlari va kinolavhalar xullas, ma'lum bir g'oya va mavzu mohiyatiga mos bo'lib tushuv-

chi barcha ta'sirchan vositalar orqali original badiiy-publitsistik asar yaratishdir. Ssenariyda alohida epizodlar tarqab ketmasligi, badiiy illyustratsiya tomoshabinda zavq uyg'otishi, og'zaki nutqlar keraksiz tafsilot bo'lib qolmasligi, asar yaxlit sujet chizig'i orqali namoyon bo'lishi kerak.

Madaniy tadbirlarning turlari xususiyatidan kelib gapiradigan bo'lsak, hamma tadbirlar uchun qarama-qarshiliklarni zo'rma-zo'raki tiqishtirish kerak emas. Chunki ba'zi tadbirlar asosan ko'ngil ochar, charchoqni chiqarishga, xullas, ortiqcha shovqin suronsiz, tinch holatlarda o'tishga qaratilgan bo'lsa, bunday holatlarda hech qanday qarama-qarshiliklarga tayangan kompozitsiyalarga hojat qolmaydi.

Ammo, tadbirlarni tashkil etishda aniq reja asosida, mantiqiy joylashtirilgan kompozitsion tuzilish, konfliktlarga asoslangan dasturlar tomoshabinlarning tadbirga nisbatan qiziqishlarini ortishiga sabab bo'ladi.

Ssenariyda konfliktli holatlarni ko'pligi va uni kuchaytirish – asar yoki tadbirning mazmunini kuchaytiribgina qolmay, o'quvchi yoki tomoshabinni ana shu jarayon muhitida ushlab turishiga katta yordam beradi. Bu esa ssenariyning, qolaversa tadbirning qimmatini oshirishdan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, tadbir dramaturgiyasini (dramatik asosini) qiziqarli qilib yaratish madaniy tadbirlar tashkilotchilarining muhim vazifalaridandir.

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Konflikt deganda nimani tushunasiz?
2. Qarama-qarshiliklarning qanday turlarini bilasiz?
3. Qarama-qarshiliksiz asar bo'lishi mumkinmi?
4. Ichki qarama-qarshilik deganda nimani tushunasiz?
5. Madaniy tadbirlarda qarama-qarshiliksiz sahna ko'rinishlari bo'lishi mumkinmi?
6. Asardagi qarama-qarshilik nima uchun xizmat qiladi?
7. Biron-bir hikoyani tanlab, undagi qarama-qarshiliklarni aniqlang va xatti-harakatlar ketma-ketligini tuzib chiqing.

## **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Biron-bir adabiy asarni (m-n, hikoya) o‘qib, konfliktlarni aniqlang.

2. "Giyohvandlikka qarshi kurash" mavzusiga oid sahna ko‘rinishi uchun material tayyorlang va undagi qarama-qarshilikka sabab bo‘lgan voqealarni aniqlang.

3. Keskin qarama-qarshiliklarga asoslangan hikoya to‘qing. Uni inssenirovka qiling.

4. E. Vohidovning "Oltin devor" asarini o‘qib chiqing va tahlil qiling.

### **1.7. Ssenariy yozishgacha bo‘lgan qadam**

Talabalarga madaniy tadbirlar uchun ssenariylar yozishni o‘rgatishning eng samarali usuli ularga mavzular berib, hikoyalar tuzishni o‘rgatishdir. Ayniqsa o‘ziga tanish bo‘lgan mavzular ustida yozish talaba uchun unchalik katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Masalan, "Mening oilam", "Mening baxtli kunim", "Men qilgan xato" va boshqa shunga o‘xshash mavzular ularga yaqin bo‘lganligi uchun ular yozishdan cho‘chimaydilar. Bunday hikoyalarni yozish ssenariy yozishga kirishdir, deb aytsak to‘g‘ri bo‘ladi. Hikoya ham yuqorida aytib o‘tganimizdek, ma‘lum maqsadga qaratilgan kompozitsion qurilish talablariga itoat etuvchi janr hisoblanadi. Unda voqelikni tahlil qilish, mantiqiy yondashish, tahlil qilish asnosida ketma-ketliklarni to‘g‘ri belgilashni o‘rgatadi.

Ssenarist juda ko‘p kitob o‘qishi, katta ma‘lumotlar bazasiga ega bo‘lishi haqida yuqorida aytib o‘tgan edik. U ko‘p kitob o‘qish orqali ma‘lumotlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda ssenariyda stilistik va orfografik jihatlarni ham o‘zlashtirib boradi. So‘zlarni bir-biriga ulab gap tuzish, ko‘z oldiga kelgan narsani ifodalashni qog‘ozga tushirishda kuzatish usuli katta samara beradi. Masalan, o‘qituvchi topshiriq beradi: "Tashqariga qarang. Yomg‘ir yog‘yapti. Anashu holatda so‘z o‘z ko‘zlariningiz bilan ko‘rayotgan holatlarni tasvirlab yozing". Bu topshiriq talabani atrofni sinchkovlik bilan kuzatishga va atrofda bo‘layotgan voqeliklarni qanday so‘zlar bilan ifodalashga urinib ko‘rishga undaydi.

Yana bitta amaliy mashg'ulotni o'tkazish uchun o'qituvchi talabalarga topshiriq bermoqda. Vazifa shundan iborat: "Hamma o'zi tanlagan biron bir predmetga ta'rif bersin". O'qituvchi – "Masalan, rejissor" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, "boshqaraman" degan ma'noni anglatadi" deb misol keltiradi. Yoki, "svetofor" ga ta'rif berib ko'raylik. Talaba svetofor haqidagi tasavvurlarini ishga solib, unga ta'rif berishga harakat qiladi. "Svetofor- bu 3ta rangdan iborat bo'lgan chiroqli moslama bo'lib, transport va yo'lovchilarning yo'l harakatlari muvofiqlashtirib turadi". Boshqasi, yana boshqacha ta'rif berishi mumkin. O'qituvchi misollarni berib bo'lgandan so'ng, ularning har biriga jonivorlar, turli predmetlar, umuman olganda xohlagan so'zga ta'rif berishga majbur qiladigan topshiriqlardan beradi. Buni o'yin sifatida o'tkazish ham mumkin. Masalan, stol, ruchka, kostum, printer, telefon va h.k.

Amaliy mashg'ulotalarda yana bitta shunga o'xshash mashqlardan foydalanish katta samara beradi. Bu biron bir predmet nomidan monolog tayyorlash (yozish)ga undashdir. O'qituvchi, misol tariqasida, xohlagan bir predmet yoki jonzot uchun taxminan monolog yaratishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beradi, masalan: "Eshak" monologi. "Nimaga men dunyoga eshak bo'lib keldim-a? Otmi, qushmi, juda bo'lmaganda chuvalchang bo'lsam ham mayli edi Yoshligimdan mehnatdan bo'shamayman. Xo'jayin u yoqqa borsayam, bu yoqqa borsayam meni minib oladi. O'zi minsa, mayli-ya, arava qo'shganiga nima deysiz? Aravaga to'ldirib yukini ortib, "yur" deydi. "Qayoqqa yuraman, men axir senlarga yuk mashinasi emasman-ku, axir sen ortgan yukni mashinayam zo'rg'a tortadi-ku... Yo'q, men harakat qilaman, rosa kuchanib amallab qo'zg'alib olaman. Endi zo'rg'a qo'zg'olib olganimda, meni to'xtatib, o'zi, bola-chaqasi bilan minib oladi-ya, nomard. Ana endi qamchi, tayoq bilan urushlar boshlanadi. Bunaqa tayoq, qamchilar zarbini hatto Afrikalik qullar ham tatib ko'rmagan bo'lsa kerak. Shuning uchun men qochish rejasini tuzib yuribman. Bu yerdan qochib, dala-yu dashtlarga borib, mazza qilib ovqatlanib, xohlagan joyga borib yurmoqchiman. Ha mayli, sizni ham boshingizni qotirvordim... Kun juda isib ketdi, miyam aynib boryapti shekilli... Tavba, atrof to'la daraxt, soyaga boylab qo'ysa

bo'lmasmikan-a? Nima bular atayin shundoq qilishadimi... hamma odamlar shunaqami... Quyoshning eng zo'r issig'i tushadigan qoq yerga bog'lab ketganiga nima deysiz...".

Yoki, "Vaqt" monologi. "Meni "vaqt" deydilar. Insonlarga biron zarur ish topshirishsa, meni pesh qilib, "yo'q" deyishadi. Axir men borman-ku, bekorgayam o'tiribsan-ku, gap sotib. Insonlar meni qadrimga yetishmayaptida, men-ku to'xtamayman, ammo umr o'tib, poyoniga yetay deb qolganida ortga boqib, "hech narsaga ulgurmayapman" deyishadi. Imkoniyatlar juda ko'p bo'lgan" va h.z. shunga o'xshash topshiriqlarni amaliy mashg'ulotlarda berib borish lozim. Bu ssenariyni yaratish mobaynida uning tasavvuri va fantaziyasini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Bu ikkala mashq ham talabalarni "fikrlarini bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishga" qaratilgan bo'lib, ularning tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Undan tashqari, ssenariy yozmoqchi bo'lgan ijodkor juda ko'p dramatik asarlarni o'qib, mutolaa qilishlari lozim bo'ladi. Chunki, ssenariylarda ham deyarli shakl-shamoyili bilan pyesalarga xos bo'lgan jihatlar ko'p. Agar ssenariylar ham pyesalar shaklida yozilgan bo'lsa, sahnalashtiruvchi ham qiynalmay ishlaydi.

Mazkur mavzuni yoritishda O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekovning ijodini misol tariqasida keltirib o'tmoqchimiz. O'lmas Umarbekov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis bo'lishi bilan birga yetuk dramaturg sifatida ham adabiyotimiz tarixida mustahkam o'rin egallagan. Uning "Sud", "Komissiya", "Kuzning birinchi kuni", "Qiyomat", "Arizasiga ko'ra", "Shoshma, quyosh", "Kurort" kabi o'nlab sahna asarlari tomoshabin va mutaxassis e'tiborini qozongan. Shuningdek, adib ijodida ayrim hikoya, qissa va romanlari zaminida ham sahna asarlari yaratish uslubi – usuli o'ziga xosdir. Jumladan "Fotima va Zuhra" romani misolida shu nomda ajoyib spektakl yaratilgan bo'lsa, "Yer yonganda" hikoyasi asosida ham shu nomda spektakl yaratilgan. Quyida shu haqda fikr yuritamiz.

Adibning "Yer yonganda" hikoyasi ham sahna asariga aylantirilib, u ham O'zbek Milliy akademik teatrida namoyish etilgan edi. Ma'lumki, "Yer yonganda" hikoyasida 80 yillarning ikkinchi yarmi-

da, aniqrog‘i turg‘unlik davri fojealari haqida bahs yuritadi. Xususan, “O‘zbeklar ishi” “paxta ishi” bahonasida xalqimiz boshiga tushgan turli-tuman tuhmat va bo‘xto‘nlar, og‘ir fojealar bir xo‘jalikda istiqomat qiluvchi Solihabibi va uning yolg‘iz farzandi Turg‘un qismati misolida fosh etiladi. Turg‘un paxta zavodining oddiy laboranti xolos. Biroq, Respublika xalqi boshiga tushgan tashvish, aniqrog‘i katta tuhmat na faqat ayrim rahbar va tashkilotchilarni, balki oddiy oila, oddiy ishchi-xizmatchilarni ham chetlab o‘tmaganligi ishonarli tasviriy vositalarda umumlashtirilib beriladi. Hikoyadagi voqealar paxta zavodi laboranti Turg‘unning qamalishi va shuning oqibatida uning onasi Solihabibi, vafodor yori Rahima, ularning farzandlari Tursun va To‘lqinlarning ohi-fig‘oni tasviridan boshlanadi. Sud bo‘lib, Turg‘un sakkiz yilga kesiladi. Ammo butun oila, ona va turg‘unning rafiqasi Rahima buni tuhmatdan deb qaraydi. Chunki, eri pokiza, ma‘naviy butun oiladan, halol mehnat jarayonida voyaga yetgan shaxs. Ota-onasi, avlodlari butun umr davomida o‘z mehnati evaziga kun ko‘rgan, shu tarzda yashab o‘tgan. Bunday toza, pokiza, halol hayot tarzi turg‘un uchun meros, undan begona emas. Biroq, hayot o‘z yo‘lida, bir yoqda tuhmat, fojea, yolg‘on, ikkinchi tomonda adolat, vafo, sadoqat va halol mehnat tuyg‘usi yashaydi. Turg‘un esa ana shu axloqiy zaminidan adashgan, aniqrog‘i aldangan shaxs. Nachora qamalish uning qismatida bor ekan. Shu tufayli onasi Solihabibi, rafiqasi Rahima notinch, bezovta. Tuhmat esa ularning butun vujudi, vijdoni, imoni qolaversa ko‘p zamonlar shakllangan axloqiy qarashlariga zarba bergan, sinovga tashlagan. Yozuvchining mahorati ham shundaki, u hikoyadagi barcha qahramonlarini ushbu sinovdan o‘tishidagi ruhiy-axloqiy holatlarini hayotning turli-tuman murakkab lavhalarida bera olgan. Rahima bunday tuhmat va haqoratlarga chiday olmay, o‘zini osishga qaror qilsa, qaynonasi uni omon saqlab qolgani holda xumcha idishdan Nikolayning o‘nta tilla tangasi topilganida o‘ziga kerosin qo‘yib o‘t qo‘yadi. Shu o‘rinda O‘lmas Umarbekov ijodiy uslubiga xos bir holat juda yaxshi ifoda etilgan. Ya‘ni tasvirda qahramon holati bilan sharoit, tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, monandlik, uyg‘unlik mahorat darajasida beriladi. Hikoyada Solihabibi nevarasi Tursun bilan o‘g‘li Turg‘undan xabar olish uchun

qamoqxonaga borishganda kirisha olmaydi. Jiyani Ravshanbek vazir o‘rinbosari bo‘la turib, Turg‘unga ko‘mak berishdan, so‘rab-surishtirishdan o‘zini tiyadi.

Hikoya bilan drama o‘z janri xususiyatlaridan kelib chiqib, bir muammoni ikki xil tasviriy – sahnaviy vositalarda ifoda etadi. Hikoyaning dramaga – sahnaga ko‘chishida dastlab tasvirga olingan voqeani va xarakterlardagi mavjud dramatik holatning drama talabiga muvofiqligi ham muhim rol o‘ynaydi. Buning ustiga adib ijodiy uslubidagi shu holat ham qo‘l keladi. Bu degani hikoyaning bosh qismidagi qahramon va sharoit tasviri umuman tushirilib qoldirilgan degan fikrni bermaydi. Bu damdagi tasvirga singdirilgan g‘oya sahnadagi ketma-ket ko‘rinishlariga uyg‘unlashtirilib yuboriladi. Shuningdek, hikoyada Turg‘unning sakkiz yilga qamalganligi aytilsa, dramada olti yil deb ko‘rsatiladi. Hikoyadagi bu haqdagi katta bir tafsilot dramada Tursunning rafiqasi Oydin nutqida ixcham, lo‘nda bayon etiladi.

Hikoyada bir daqiqa namoyon bo‘ladigan Xolposhsha va Sayid oqsoqol obrazlari dramada butun bir ko‘rinishdagi harakatni boshqarish darajasiga yetkaziladi. Sahnadagi uchinchi ko‘rinish shu jihatdan e‘tiborni tortadi. Nega deganda Said oqsoqol din arbobi. Chinakam dindorlarda imonga ishonch kuchli bo‘ladi. Ular doimo kishilarni insofga, xalolikka, poklikka chorlaydilar. Xolposhsha xola ham to‘rt o‘g‘lini voyaga yetkazgan imonli onalaridan. Yozuvchi ular harakteridagi tub belgilarini dramada ancha kengaytirish, chuqurlashtirish imkoniyatni ishga soladi.

O‘t ketadi. Kampirni ko‘mish marosimi bilan parda yopildi. Bunday qaraganda hikoya bilan drama o‘rtasida na g‘oyaviy, na xarakterlar yangiligi yoki biror bir jiddiy o‘zgarishlarga ega tafovut ko‘rinmaydi. Biroq, hikoyada bayon etilgan va yozuvchi tomonidan asrab-avaylashga chorlovchi ma‘naviy-axloqiy meros va an‘analarga sodiqlik sahna talqinida ancha kengaytirilgan. Mazmunan boyitilib, g‘oya yanada aniq harakat va xarakterlar to‘qnashuvi, bahsi va o‘zaro munozaralari vositasida ancha mukammallikka ko‘tarilgan. Xususan, hikoyani o‘nta-yuzta o‘quvchi o‘qishi mumkin. Tomoshani ming-minglab odamlar ko‘radi. Radio-televideniye orqali ham namo-



yish etiladi. Xuddi shu imkoniyatlar yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gapni, g'oyani, badiiy tarbiyaviy-ma'rifiy maqsadni ommalashiga katta sharoit yaratgan. Yozuvchi xuddi shu yo'l bilan ham, hatto har ikki yo'l bilan ham kishilarda o'zi orzu etgan vijdoni, imoni, burchi, mas'uliyati buyurgan milliy-ma'naviy va axloqiy izlanishlar sari qo'yilgan bir qadam edi. Biroq, bizning nazarimizda iste'dodli adib O'Imas Umarbekovning har ikki janrdagi ushbu asarlari o'ziga mustaqil asar sifatida o'z o'rniga ega<sup>17</sup>.

Ibratli hikoyalarni tanlab, uni sahnalashtirish variantlari ustida izlanish, voqeliklarni sahnaga ko'chirish yo'lida qilingan xatti-harakatlari talabalarda fanni o'zlashtirishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish joizki, ssenariy yozishga undashga oid juda ko'p mashg'ulotlar guruhli va yakka tartibda amaliy jihatdan o'rganishni talab etadi. Ssenariy yozishga o'rganishning eng asosiy shartlaridan biri ham ma'lumotlar bazasini kengligi, so'zlarni tuzishdagi mahoratning kuchliligi, sahnaning qonuniyatlarini yaxshi bilishdir.

### ***Nazorat uchun savollar***

- 1.Ssenariy yozishga qaysi usullardan foydalanish samaraliroq deb hisoblaysiz?
- 2.Ssenariy yozishga o'rganish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
3. Dramatik asar deganda nimani tushunasiz?
- 4.Ssenariy va dramatik asar bir-biridan farq qiladimi?
- 5.O'.Umarbekovning qanday dramatik asarlarini bilasiz?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

- 1.Biron-bir predmet nomidan monolog tayyorlang.
- 2."Tabiatni asrang" mavzusida kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan hikoya tuzing.

<sup>17</sup> N.Odilova. O'.Umarbekov ijodida dramaturgiya muammolari. To'plam.2000y.77b.

3.Rivoyatlar asosida sahna ko'rinishi uchun material tanlang (insenirovka qiling, sahnalashtirish uchun tayyorlang).

4.Quyidagi so'z (predmet, tushuncha va h.k.)larga ta'rif bering: (Svetofor, telefon, parta, o'roq, ruchka, adolat, vaqt, virus, yurak, oyoq va h.k).

### **1.8.Ssenariynavislik va dramaturgiya qonuniyatlariga asoslanish tamoyillari**

Har qanday tadbirga mo'ljallangan ssenariyning asosini adabiy, dramatik manbalar tashkil etadi, deb yuqorida aytib o'tgan edik. Masalan, kino san'atini olaylik. Kinoning yaratilishining dastlabki qadami ham ssenariyga borib taqaladi. Bu tushuncha kino san'atida kino-dramaturgiya deb nom olgan.

O'zbekistonda kino san'ati o'zi xos muvaffaqiyatlarga erishayotgan san'at turlaridan hisoblanib, dunyo kino san'ati arenasida yuqori pog'onalarga ko'tarilmoqda. Kino san'ati ham teatr san'ati singari sintetik xususiyatga ega bo'lib, uning tarkibida adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, aktyor mahorati, rejissura, operatorlik va boshqalar uyg'unligida yaratiladi. Kinodramaturgiyada voqea-hodisalarni tasvirlashda asosan kinoning ifoda vositalaridan foydalaniladi. Xususan, adabiyotning she'riyat, proza, dramaturgiya elementlarini ham qo'llaydilar. Kino san'ati hozirgi kunda san'atlar ichida insonlarga eng katta ta'sir ko'rsatadigan vositalardandir. Shuning uchun ham san'atning bu turiga davlatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berilgan: "Keyingi yillarda milliy kinodramaturg va rejissorlar tayyorlash dolzarb masala bo'lib turibdi. Chunki, buni ochiq tan olishimiz kerak - professional kino mutaxassislari, xususan, rejissorlar, ssenaristlar tayyorlaydigan tom ma'nodagi milliy maktab o'zimizda hanuzgacha shakllangani yo'q. Bu ahvolni tubdan o'zgartirish uchun yuksak badiiy mahorat bilan bir qatorda, milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Albatta, bu yo'lda dastlabki qadamlar qo'yilayotganini aytish lozim. Masalan, Mustaqillik va Navro'z bayramlari, «Sharq taro-

nalari» musiqa festivaliga bag'ishlangan asosiy tomosha va tantanalarni tayyorlash bo'yicha teatr va televideniye rejissorligi, badiiy-publitsistik ssenaristlik borasida ulkan tajriba to'plandi. Ana shu boy tajribalarni har tomonlama chuqur o'rganish, umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazariy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasiz. Albatta, bu fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bu sohani rivojlantirish bo'yicha asosiy e'tiborni yuksak malakali mutaxassis tayyorlashga qaratish zarurdir"<sup>18</sup>.

Kinodramaturgik asarni vujudga kelishi ssenariy yozishdan boshlanib, montaj stolida tugaydi. Har qanday film qaysi mavzuda, janrda, shaklda bo'lmasin, uning asosini badiiy so'z san'atining bir ko'rinishi - ssenariy tashkil etadi. Kinodramaturgiyaning dastlabki namunalari ancha oddiy ya'ni ovozsiz filmlar sur'atga olingan bo'lib, bugungi kunda u murakkab ijod tizimiga aylangan. Filmning g'oyaviy-badiiy asosi aniq bo'lishi uchun kinossenariyda muallif g'oyaviy pozitsiyasi mustahkam va mantiqan asoslangan bo'lishi kerak. G'oya yangi fikr kinossenariyning kompozitsion tuzilishi-dramatik konfliktlarga, sujet harakatiga janrlar xilma-xilligi ya'ni asarning tuzilishiga imkoniyat yaratadi. Hozirgi zamon hujjatli kinolarida kinematografik obrazlilikning to'rtta komponenti mavjud:

1.Remarka-murakkab kinematografik harakat va kino ssenariyning hamma tomonlarini obrazli xarakterlash. Peyzaj, harakat vaziyati, voqealar tuzilishi, qahramonning holati, musiqa va shovqin va boshqalar remerkani hosil etadi.

2.Tasviriy qism, dialog va monologlar-ssenariyning asosidir. Bunda voqealarning qatori va xarakterlar qirralari ochiladi. Kinomatografik dialogining o'ziga xosligi, harakatning davomiyligida, aktyor xarakteri yoritishga imkoniyat mo'lligi.

3.Kinossenariyda personajlar nutqi, ichki ruhiy olami, kayfiyatini tasvirlash uchun muhit, shart sharoit yaratish. Bu muallifga murakkab xarakterlarni keng yoritishga yordam beradi.

<sup>18</sup> I.Karimov. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch.T., 2008., 146-147b

4. Kinossenariyda muallif nutqi muhim rol o'ynaydi. Muallif matni faqat film kompozitsiyasini emas, balki uning ichki dinamikasini ham belgilab beradi. Hujjatli kinodramaturgiyaning muhim xususiyati, undagi voqea-hodisalar badiiy publitsistik obrazlar va muallif nutqi orqali tomoshabingga havola etilishidir.

Radio-eshittirishlar ssenariysi haqida so'z borganda, uni vizual emas, balki faqat eshitishga mo'ljallanganligini hisobga olish muhimdir. Masalan, televideniye suxandoni har tomonlama, ya'ni o'zi, ovozi chiroyli bo'lgan bo'lsa, radioda esa ovoz tembri, uning nafisligi muhimdir. Radiodramaturgiya- bu janrning o'ziga xosligi tinglash, eshitishga mo'ljallanganligidir. Radiodramaturgiya - V.N.Yaxontov ta'biri bilan aytganda, ovozi kitobdir. Radioga yozilgan eng yaxshi san'atkorlarning ovozi orqali adabiyotning yangi turi-radiodramaturgiyasi shakllandi. Radio ovozi imkoniyatlari bilan ifodalangan yangi adabiy-efir janri paydo bo'ldi. Insonlarni o'rab turgan barcha tovushohang, shovqin-suroni, mashinalar g'uvuri, dengiz to'lqinlarining chayqalishi, shamol g'uvullashi, barglar shitiri, qushlarning chirqilashi, otlar dupuri, kishnashi, musiqalar hamma tovush harakatlari, inson ovozi bilan birgalikda qo'yilib, efrida tarqalayotgan so'zlarga yangi bir ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Biz ommaga shunday badiiy materialni berishimiz kerakki, u qahramonlik, go'zallikni inson tarbiyasiga xos barcha elementlarni o'z ichiga qamrab olsin. Shuning uchun radio orqali keng xalq ommasiga mo'ljallangan turkum badiiy dramatik eshittirish hayotiy voqea-hodisalar asosida tuziladi.

Adabiy ijod sohasini teatr, kino, radiodramaturgiya qonun-qoidalarini o'z mohiyatiga singdirgan teledramaturgiya tarkib topdi. Teledramaturgiya-televizion asarning birinchi asosi bo'lib, adabiyot va publitsistikaning alohida, mustaqil turidir. Teledramaturgiyaning kompozitsion qurilishi bir tomondan dramaturgiya va kino qonun-qoidalariga, ikkinchi tomondan televizion san'at spetsifikasiga bo'ysunadi. Teledramaturgiyada ekran obrazi tomoshabin ko'z o'ngida konkret shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Lekin, ssenariy tomoshabin ishtirokisiz yoziladi. Telepublitsistika keng ommaga mo'ljallanadi. Telessenaristdan bo'lg'usi ko'rsatuv mavzusini tanlash uchun obrazli yechimini izlab topish va qahramonlar bilan suhbat-

lashish jarayonida o‘zini keng auditoriyaning ilg‘or vakili sifatida his qilishi, uning oldida katta ma‘suliyat sezishi talab etiladi. Ssenarist – dramaturg tomoshabin e‘tiborini qanday zabt etish yo‘llarini izlaydi. Shu tariqa real obrazlar orqali hayajonli daqiqalar yaratadi. Muallif har bir qahramonning ruhiy holatini izlab topadi. Hatto improvizatsion chiqishlarning ham har tomonlama izchil o‘ylangan bo‘lishi kerak. Agar telessenariyda muallif asarni mantiqan puxta va faktlar mohiyatan mahorat bilan ochib bera olgan bo‘lsa, tomoshabin teleekran orqali katta san‘at asari yaratilganining guvohi bo‘ladi.

Kino, radio, teledramaturgiya hayotiy voqea-hodisalarni, aniq qahramonlar taqdirларini hujjatlar asosida umumlashtirish yo‘lidan boradi. Aniqroq qilib aytganda, tarixiy va hayotiy materialni badiiy-publitsistik qayta ishlash kino, radio, telepublitsistikaning asosini tashkil etadi.

Adabiy asarlarni qayta ishlash, ya‘ni inssenirovka haqida yuqorida aytib o‘tgan edik. Inssenirovkani ham ikki ma‘noda qo‘llash mumkin:

1. Drama shaklida yozilmagan adabiy asarni sahnada qo‘yishga moslab qayta ishlash, bunday asarni radioda, televidenie yoki teatrda qo‘yilishiga qarab, radioinssenirovka, teleinssenirovka deb yuritiladi. Inssenirovka adabiy asarning o‘z muallifi tomonidan ham boshqa shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Adabiy asar inssenirovka qilinganda, sahnaga moslashtirib ba‘zan uning sujetiga o‘zgartishlar kiritish mumkin. Inssenirovka XIX-XX asrlarda ayniqsa keng taraqqiy etdi. Bunga A.Qahhor, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Tohir Malik, P.Qodirov, O‘.Umarbekov kabi ijodkorlarning ko‘plab asarlari misol bo‘la oladi.

2. Mustaqillik sharoitida madaniyat va san‘at dargohlarida ish yuritishni mukammal biladigan, mustahkam bilim va e‘tiqodli muta-xassislarga muhtojlik sezilarli darajada oshib bormoqda. Zero, ssenariy bu o‘rinda drama, dramaturgiya vazifasini o‘taydi. Drama nima? Dramaturgiya-chi? Dramaturgiya asoslari deganda nimani anglaymiz? Ularning maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Tarbiyaviy – ma‘rifiy ahamiyati-chi?

Avvalo, dramaturgiyaning tuzilishi jihatdan 3ta janrini bilamiz, bular, drama, komediya va tragediya. Drama deganda avvalo biz ba-

diiy adabiyotdagi uchta yetakchi janr turlaridan biri, dramatik janr turini anglaymiz. Drama janri esa teatr sahnasida qo‘yish uchun, kino ekranga ko‘chirish uchun yozilgan adabiy asarlar sirasiga kiradi. Demak, u badiiy adabiyot sohasidan san‘at sohasiga, san‘atga ko‘chadi. Tom ma’noda san‘at asari mahsuliga aylanadi, teatr – sahnasi manbaiga ko‘tariladi. Dramaturgiya esa u yoki bu xalq yaratgan ma’lum davrdagi dramalar majmuasi, drama asarlari yig‘indisi asosida yuzaga kelgan mazkur turni “tarix” ham desa ham bo‘ladi. Uning asoslari esa, endi bu ham nazariy, ham amaliy yechimga, o‘rganish va o‘rgatishga qaratilgan kursni tashkil etadi. Dramaturgiya asoslari degan kurs, predmet ancha katta, dolzarb va o‘ta murakkab dars va mavzularni o‘z ichi-ga qamraydi.

Dramaturgiyaning eng muhim shartlaridan biri hayotiylik, haqqoniylik bilan badiiy barkamollikning o‘mixta, sintez tarzda, mahorat darajasida namoyon bo‘lishidir. Bu talab dramaturgga ham, uni sahnalashtirayotgan rejissorga ham barobar taalluqlidir. Hatto bu ikki talabni sahnada to‘la va mahorat darajasida ro‘yobga chiqarish uchun nafaqat dramaturg, yoki rejissor mas’ul, balki ana shu asarni tayyorlab, tomoshabinga yetkazishda ishtirok etuvchi barcha ijodiy gurux a’zolari javobgardir, ma’suldir.

Ikkinchi asosi: Dramada mavjud bo‘lgan konfliktning haqqoniy-ligi, hayotiyliigi dramatismni tashkil eta bilish masalasini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi asosi: drama harakat yaratish mahorati, uni tashkil etirish, bo‘ysindirish masalasi. Dramatik harakat (deystvie) sahna asarining, dramaning o‘ziga xosligi va estetik xususiyati bo‘lib, spektaklni qon tomiri hamdir.

Asarning muvaffaqiyatida bu omilning o‘rni, ahamiyati kattadir. Harakat faqat jismoniy intilish, yurish-turish, yugurish emas, balki ruhiy holat majmuasi bo‘lib, u o‘z ichiga monolog, dialogdan tortib, imo-ishora, so‘zsiz holatlar, mimika, intonatsiya, remarka, pantomimalargacha qamrab oladi. Zero, dramada uzviy yaxlitlikni saqlash va to‘la namoyon etishda dramatik harakat spektaklning qon tomiri vazifasini o‘taydi.<sup>19</sup>

<sup>19</sup> “Dramada remarkaning roli” bobi..

Toʻrtinchi asosi: dramada xarakter yaratishdan iborat. Chunki, dunyoni, tabiatni, olamni, odamni, borliqni anglash, voqelikni tushunish va badiiy ifodalash obraz – xarakter yaratish orqali amalga oshadi. Zero, adabiyotni bosh manbai inson ekan, uning obrazi, xakteri qanchalik badiiy jihatdan mukammal chiqsa, asardan kuzatilgan gʻoyaviy-badiiy estetik maqsad ham shunchalik samarali kechadi. Shu tufayli xarakter yaratish insonshunoslikning yetakchi omili, dramaturgiyaning asosiy belgisi sifatida ahamiyatlidir.

Beshinchi asosi: Dramadagi sujet va kompozitsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Xuddi imoratning, binoning, uy-joyning inson uchun ixcham, qulay, yorugʻ va shinam boʻlishida bosh loyiha puxtaligi muhim hisoblanganligi kabi drama sujeti va kompozitsiyasi jihatdan qanchalik puxta boʻlsa, asar gʻoyasi va uning maʼrifiy tarbiyaviy qimmatini shunchalik samara beradi. Zero, dramaturgiyada sujet va kompozitsiyani tashkil etish, amalga oshirish zarurati ham muhim omildir.

Oltinchi asosi: Maqsadga, sifat belgisiga, xususiyatiga erishish. Yaʼni komediya, tragediya (fojeaviylik), drama kabi tur koʻrinishlarining oʻzaro, asosiy xususiyatini saqlashga erishish va ifoda etishdir.

Yettinchi asosi: Drama ham har qanday badiiy asar turi kabi til, nutq mahoratini talab etadi. Buning ustiga monolog, dialog imkoniyatlaridan mahorat darajada foydalanishi zarur. U xuddi shu xususiyati bilan oʻzga adabiy turlardan farqlanadi.

Sakkizinchi asosi: Drama asarida remarkaning oʻrni, roli. Ana shu asosiy belgilarini sahnada (rejissor, aktyor, rassom kabi) yaxlit, uzviylikda, mukammallikda amalga oshirishni tashkil eta bilish.

Va nihoyat eng asosiysi dramada ilgari surilgan gʻoyani, maqsad va vazifani, badiiy-estetik jihatdan roʻyi-rost, haqqoniy va badiiy yuksak tarzda amalga oshirishni taqazo etadi. Albatta biz sanagan sifat va belgilardan tashqari yana koʻp boshqa belgilar boʻlishi mumkin.

Remarka tushunchasi spektakl yoki ssenariyda rejissor tomonidan xatti-harakatlarga aylantiriladi, dedik, ammo uning ahamiyati kino sanʼatida yuz barobarga oshadi. Chunki, remarka, yaʼni muallif tomonidan berilgan izoh, ssenariyda ham pyesada ham aktyorlarning voqelikka munosabatini, ularning xatti-harakatlarini belgilab beradi.

Remarka soʻz orasida kelganda qavs bilan beriladi. Alohida kelganda esa oʻquvchiga tushunarli boʻlishi uchun unga tushuntiruvchi vosita sifatida qoʻllaniladi.

Ssenarist qahramonlar, boshlovchilar soʻzlarini yozish bilan birga remarkada ijrochilarning vazifalarini ham belgilab berishi mumkin. Remarkada berilgan izoh sahnalashtiruvchilar, tadbir tashkilotchilariga shpargalka vazifasini oʻtashi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, ssenarist drama asoslarini, uning qonuniyatlarini yaxshi bilishi shart. Chunki ssenariy ham aniq sahna uchun moʻljallangan boʻlib, hujjatlar, faktlar, soʻz va xatti-harakat uygʻunligi, turli sanʼat vositalaridan toʻgʻri foydalanish, tadbirni yaxlit kompozitsiyaga yoʻnaltirish kabi vazifalarni oʻz ichiga oladi. Madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida ham bu xususiyatlar inobatga olinishi zarur.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Dramaturgiya tushunchasiga izoh bering.
2. Ssenarist va dramaturg qaysi jihatlar bilan bir-birini takrorlaydi?
3. "Ssenariyning yaratilishida dramaturgiyaning qonuniyatlariga asoslanish" deganda nimani tushunasiz?
4. "Remarka" tushunchasiga izoh bering.
5. Kinodramaturgiya, teledramaturgiya tushunchalarini izohlab bering.
6. Biron bir koʻrsatuv loyihasi uchun ssenariy tayyorlang.

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Dramaturgiya qonuniyatlariga asoslangan holda sheʼriy kompozitsiya tayyorlang.
2. Tasviriy sheʼr yoki tasviriy masal deganda nimani tushunasiz?
3. Televideniyeining xohlagan kanali uchun loyiha tayyorlang va uni amalga qoʻllash imkoniyatlarini izlang.



## **II- BOB. MADANIY TADBIRLARNING TURLARI XUSUSIYATLARI JIHATDAN SSENARIY YARATISH**

### **2.1. Madaniy tadbirlar turlari va ularni tashkil etishning spetsifik xususiyatlari jihatdan ssenariy yaratish**

Madaniy tadbirlar turlari to'g'risida gap borganda, ma'lum ssenariy asosida o'tkaziladigan barcha tadbirlar majmuini - madaniy tadbirlar deyish mumkin. Turli janrlarda tashkil etilgan konsertlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, viktorina, ya'ni ko'rik-tanlovlar, debat, badiiy-sport tomoshalari, bayramlar va boshqalar madaniy tadbirlar turlaridir. Ularning ssenariysini yaratishda ham turlari xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirlarning eng ko'p tashkil etiladigan turlaridan biri - davra suhbatini olaylik. Davra suhbatini, rasmiy bo'lmagan holatda, kichik auditoriyalarda, ma'lum bir mavzu atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Shunga ko'ra madaniy tadbirning bu turida katta tayyorgarlik ko'rishga unchalik ham hojat bo'lmas kerak. Sababi, bunda bir yoki ikki kishi asosan, o'sha mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi (yoki ma'ruza qilishi ham mumkin) va undan keyin savol-javob tariqasida fikrlar almashinib, birgalikda xulosalar chiqariladi. Masalan, "Reproduktiv salomatlik" bo'yicha o'tkaziladigan davra suhbatiga o'sha soha bo'yicha mutaxassislar taklif etiladi va yosh oilalar yoki qizlar ishtirokida tashkil etiladi. Bunda tashkiliy yoki ijodiy ishlarga katta mehnat sarf qilinmasligi ham mumkin. Ya'ni rassom chaqirib sahna bezagi, rejissor taklif qilib dastur ketma-ketligini va boshqa ishlarni amalga oshirish shart emas. Buni har qanday sharoitda, hattoki oddiy sharoitda (kichik auditoriyalarda) ham o'tkazib yuborish mumkin. Lekin tadbirga badiiy va ijodiy jihatdan yondashish tadbirning salmog'ini oshiradi. Masalan, o'sha hududga tegishli bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan havaskorlik kollektivlari ishtirokida shu mavzuga mos repertuarlardan kiritilsa, tadbir yanada ta'sirchan bo'lishi mumkin.

Davra suhbatlarida ma'ruzalar o'qish asnosida ham tadbirlar tashkil qilinishi mumkin. Turli mavzularda tashkil etiladigan ma'ruza va suhbatlar komil insonni shakllantirishda katta samara beradi. Ilmiy ma'ruzalar ko'pincha ma'lum mavzuni ilmiy ravishda yoritishga qaratilgan bo'lib, aniq auditoriyani qamrab oladi. Ma'ruza va suhbatlar insonlarni ilmi, bilimli qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni umumiy bilimlari doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Og'zaki, davra suhbatlari ham insonlarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi, ularni hamjihatlikka undaydi. Ayniqsa, yoshlar bilan o'tkaziladigan og'zaki suhbatlar katta samara beradi. Suhbat o'tkazayotgan ma'ruzachi o'z tinglovchilari bilan uzluksiz bog'lanib, yaqin munosabatda bo'ladi. Tinglovchilarning yoshlari va qiziqishlariga qarab, zarur masalalarni muhokama qilishda ularni ham bevosita jalb etadi. Ma'ruzachi o'zi bayon etayotgan mavzuni ta'sirchan va tushunarli bo'lishi uchun harakat qiladi. Tarbiyaviy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tibbiy, ekologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha suhbat, savol-javoblar bolalarning bilim darajasi, dunyoqarashi va turli sohalar bo'yicha savodini oshirishda o'z mahsulini bermay qolmaydi. Undan tashqari, muhim muammolarni hal qilishda, to'g'ri qaror qabul qilishlarida ham ma'ruza va davra suhbatlarining roli kattadir. Undan tashqari, tashkil etiladigan har qanday tadbir mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni hamda hukumat tomonidan berilgan ustuvor yo'nalishlarda belgilangan topshiriqlarni bajarishga xizmat qilmog'i lozim.

Davra suhbatlari mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni xalq ommasiga yetkazishda, uning mazmun mohiyatini tushuntirishda katta ahamiyatga ega.

2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" deb e'lon qilinishi xalqimizning manfaatlarini himoya qilishga, uning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan dasturi amal bo'ldi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan har qanday hujjatlar va amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlarning asosiy mazmuni ham xalq manfaatlariga xizmat qilishiga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Joylarda olib borilayotgan barcha tadbirlar mamlakatimiz taraqqiyotiga muhim hissa qo'shish, xalq ehtiyojlarini o'rganish, mavjud muammolar yechimini topish, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar, yoshlar tarbiyasi, ta'lim tizimidagi islohotlar va boshqa mazmundagi ishlar o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Ayniqsa, barkamol avlod tarbiyasi bu masalalar ichida eng e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim strategik vazifalardandir.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ham mazkur masalaga juda jiddiy e'tibor bergan holda yondashib, talaba yoshlar bilan turli mavzudagi ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, 2017-yil 12-aprel kuni institutning talabalar turar joyida istiqomat qiluvchilar bilan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir fikrimizning dalilidir. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ma'naviy ishlari bo'yicha prorektori D.Mullajonov boshchiligida o'tkazilgan davra suhbatini "Hamkorlikning yangi bosqichdagi rishtalari" deb nomlangan bo'lib, talabalarda katta taassurot qoldirdi. Tadbirda "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasini professori M.Bekmurodov tomonidan talaba yoshlar uchun tayyorlangan ma'ruza ularning qiziqtirilgan savollariga javob bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Professor M.Bekmurodov Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish bilan bir paytda, bu islohotlarning yoshlar tarbiyasiga, axloqiy masalalar hamda mamlakatimiz rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarishga oid tushunchalarni keng yoritib berdi. Bunda ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi, madaniyat va san'at sohalaridagi o'z yechimini kutayotgan muammolarni hal qilishga qaratilgan masalalar haqida fikr almashildi.

Undan tashqari, ma'ruzachining davlatimiz rahbarining shahar, viloyatlar va xorij safarlaridan ko'zda tutgan maqsadlarini ifoda etuvchi faktlar va hujjatlarga asoslangan ma'lumotlari talabalarning savol-javobga chorladi va ular o'zlarini qiziqtirgan savollariga to'liq javob oldilar. Davra suhbatini talabalarning faol ishtirokida, bahs munozara va savol-javob tariqasida, ularning katta qiziqishlari asosida o'tdi.

Bunday suhbatlarni tashkil etish har bir tadbir tashkilotchisining vazifalaridan eng muhimi bo'lishi kerak.

Bunday tadbirlarni tashkil etishda ssenariy dasturi, taklifnomalar tayyorlansa kifoya qiladi. Davra suhbatlari aniq mavzu asosida muhokamalar asosida, asosan axborot berishga mo'ljallangan bo'lib, ssenariy yaratishda katta qiyinchiliklar tug'dirmaydi.

Madaniy tadbirlarning juda ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri – *konsertlarni va spektakllarni tashkil etishdir*. “Konsert” tushunchasi lotinchadan “o'zishaman” degan ma'noni anglatadi. Konsertlar o'z tuzilishiga qarab turlicha bo'ladi. Yakkaxon (solo) konsert, guruhlar, gala konsert va h.k. U.Qoraboev o'zining “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida konsertlarni 3 turini, ya'ni oddiy (filarmonik) konsert, teatrlashtirilgan konsert hamda ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini ko'rsatib o'tadi.

Oddiy filarmonik konsertda kuy, qo'shiq, raqslarning ketma-ketligi ifodalangan dastur tayyorlanadi. Mavzuli va teatrlashtirilgan konsertlarda esa ssenariy to'liq yozilishi shart. Masalan, “IShiD fitnasi”, “Qullikka rozi bo'lmang”, “Milliy qadriyatlar -bizning qadriyatlar”; “Ommaviy madaniyat tahdidi va unga qarshi kurash zaruriyati”, “Giyohvandlik umr zavoli”, “Ichish, chekish va zararli odatlarga qarshi kurashaylik!”, “Giyohvanlikning salbiy oqibatlari”, “OITS kasalligining oldini olish”, Diniy eksterimizm, missionerlikning mohiyati” kabi va undan tashqari mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotidagi kundalik voqea-hodisalarga, mehnatga bag'ishlangan mavzuli kechalarni tashkil etish orqali insonlar ongiga ta'sir qilish va ularda salbiy oqibatlarga nisbatan qarshi tura olish immunitetni shakllantirish kabi vazifalar qo'yilgan holda yondoshish maqsadga muvofiqdir. Ssenariyni ham shu talablarga mos holda yaratish zarur.

Tadbirlarni yana bir turlaridan *debat* – ikki tomonlarning dolzarb mavzular bo'yicha oshkora fikr almashinuvi asosida maxsus tashkillashtiriladigan tadbir shakli. Bunda ishtirokchilar o'zlarining haq ekanliklarini bir-birlariga emas, balki uchinchi tomonga tushuntirishliklari va isbotlashliklari nazarda tutiladi.

Debatlarni aniq bir mavzu atrofidagi ikki yoki undan ortiq insonlar yoki guruhlar o'rtasidagi ochiq tortishuvlar, fikr, mulohazalar, bahs-

munozaralar asnosida tashkil etilishiga qaramay uning ahamiyatli jihatlari kengdir. Insonlar (tinglovchi, tomoshabin) muammolarni o'rtada fikr almashinayotgan, bahs-munozara yuritayotganlarning fikrlarini tahlil qilish asosida ko'p narsalarni eslab qoladilar.

Debatning masalan, davra suhbatidan farqi shundaki, davra suhbatida asosan bitta yoki ikkita ma'ruzachi yoki shu mavzu bo'yicha fikrlarni rivojlantiruvchi bo'lsa, xulosa chiqarish tinlovchi (yoki tomoshabin)ning o'zlariga qoldiriladi. Debatda esa aynan shu masala, o'zi ilgari surayotgan g'oyani uchinchi tomonga (tomoshabin, tinglovchi va h.k) tushuntirib, isbotlab berishi talab etiladi. Ishtirokchining mavzuni aniq tushuntirib berishi va isbotlash uchun esa anashu mavzuga tegishli bo'lgan barcha savollarga tayyor turishi kerak bo'ladi.

Masalan, sahna san'ati bo'yicha o'tkaziladigan debatlarida sahnalashtirishga oid tushunchalarning xilma-xilligi, o'xshash tomonlari, bir rejissorning fikriga ikkinchisining qo'shilmasligi yoki aksincha uni qo'llab-quvvatlashi, sahnalashtirilayotgan asarlardagi kamchiliklar, yutuqlar haqida fikr almashinish asnosida tashkil etiladi. Ikkita guruh (bular san'atkorlar va tanqidchilar, shofyorlar va DAN xodimlari va h.k) o'rtasidagi aniq mavzu atrofidagi bahs-munozarani boshlovchi boshqarib turishi mumkin.

Debatlar tadbirlarning eng sinalgan turlaridan bo'lib, ko'proq savol-javob shaklida tashkil etiladi. Bunda ssenariy dasturi asosan ketma-ket qo'yilgan masalalar,beriladigan savol-javoblar oldindan tayyorlanib qo'yiladi.

Debatlar ko'proq ilmiy mazmun olsagina ko'proq samara beradi, ta'siri katta bo'ladi. Chunki, debatlarida aniq savollar va unga aniq javob kerak bo'ladi. Undan tashqari, debatlarini o'tkazish uchun maxsus joy tanlanmaydi. Uni har qanday sharoitda ham tashkil etish mumkin (ba'zi tadbirlarni o'tkazish uchun aniq auditoriya va joy kerak bo'ladi, masalan, konsert uchun sahna, sport tadbirlari uchun sport zal kabi).

O'zbekistonda *badiiy sport tadbirlarini* tashkil etish bo'yicha bir qancha tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Sport va san'at sohalari mamlakatimizni dunyoga tarannum qiluvchi o'ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum.

Badiiy sport tadbirlarini tashkil etishdan maqsad –sog‘lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma‘nan ham jismonan yetuk bo‘lishlari, bir so‘z bilan aytganda – insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularga ma‘nan hamda jismonan madad berish,

Badiiy sport tomoshalarini o‘tkazishda mukammal yozilgan ssenariy kerak bo‘ladi. Maydonni, ya‘ni tadbir o‘tadigan joyga mazmun berish mazkur tadbirning amalga oshirishning eng qiyin shartlaridir. Ssenariy, montaj varaqasi, dasturlar asosida ish olib boriladi.

Sport va san‘at – bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san‘atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar, farmoyishlariga guvoh bo‘lamiz. «Sog‘ tanda sog‘lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog‘lom insonlar zarurdir.

Badiiy sport tomoshalarini yaratishda ssenarist rejissor va sportchi-murabbiy bilan maslahatlashgan holda ularning xatti-harakatlarini qog‘ozga tushirishga harakat qiladi. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o‘tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo‘llash esa tadbirning badiiy jihatlarini yanada kuchaytirishga, faollashtirishga sabab bo‘ladi va natijada tomoshabin o‘zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi.

Badiiy sport tadbirlarini ikki yoki uch bosqichda, ya‘ni ikki yoki uch kun uyushtirish mumkin. Birinchi va ikkinchi kunlari g‘oliblar aniqlanib, uchinchi kun esa final o‘yinlari o‘tkazilishi mumkin.

Misol tariqasida boks o‘yinlariga bag‘ishlangan shou dasturini oladigan bo‘lsak, uning quyidagi tartibda o‘tkazish, ya‘ni ssenariyning kompozitsion tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin:

a) *Prolog* – final ishtirokchilari bo‘lmish sportchilarni sahnaga turli ta‘riflar bilan taklif qilinishi.

b) *Epizodlar qatori* – 1,2,3,4 raundlar va ular orasidagi badiiy qism.

v) *Kulminatsiya* – oxirida qolgan eng kuchli jangchilarning chiqishi.

g) *Final* – g‘oliblarni aniqlash va taqdirlash.

San‘at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat‘iyatni, jismoniy baquvvatlilikni, qattiqqo‘llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog‘lash mumkin emasday tuyuladi.

Bunday muvaffaqiyatli uyg'unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirish yuqorida qayd etib o'tganimizdek, dramaturgiya qonuniyatlariga asoslanish, tadbirni ma'lum bir spektakl shakliga keltirishdir. Sportchi sahnaga chiqqach, o'zini faqat bokschi emas, balki aktyor deb hisoblashi lozim. Buning uchun rejissordan katta ma'suliyat talab qilinadiki, tadbir haqiqiy sport o'yini emas, badiiy-lashtirilgan sport tomoshasiga aylantirilishi lozim. Mana shu maqsadlarning barchasi badiiy sport tomoshalari senariysida o'z ifodasini topmog'i lozim.

Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Afinada, Rio Dojenero bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarining ochilish va yopilish qismlaridagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo'llanganligi bunga misol bo'la oladi. Har qanday sport tadbiri tomoshalarini tashkil etishda rejissor va ssenarist o'z oldiga oliy maqsadni qo'yadi. Ya'ni, bunday tadbirlar tomoshalar-ning bir-biriga beg'araz, nafrat ko'zi bilan qarashiga yo'l qo'ymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do'st, aka-uka sifatida qabul qilishga, mag'lubiyatni tan olib, yanada ko'proq mehnat qilishlarini tushunib olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtai nazarida munosabatda bo'lishlariga erishish lozim.

*Ko'rik tanlovlar* ham madaniy tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan hisoblanadi. Ko'rik-tanlovlar asosan musobaqa shaklida tashkil etiladi. Bunday tadbirlarda tomonlarning bir-biri bilan turli mavzular bo'yicha tortishuvlar, bahs-munozaralar, bellashuvlar orqali namoyon bo'ladi. Ko'rik-tanlovlar nafaqat san'at yo'nalishida, balki, faoliyatlarning barcha ko'rinishlarida tashkil etish mumkin.

Ko'rik tanlovlarning eng ko'p qo'llaniladigan shakli sport tomoshalarini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Teatrlashtirilgan futbol, yugurish bo'yicha marafonlar, tosh ko'tarish, akrobatika, gimnastika, suzish va boshqalar shular jumlasidandir. Ko'rik –tanlovlar xalq o'yinlarida ham namoyon bo'ladi. Ko'pkari, xo'roz, it, qo'chqor urishtirish, kurash, tosh ko'tarish, sirk tomoshalari va boshqalar xalqimizning avloddan-avlodga, nasldan-naslga o'tib kelayotgan tadbirlaridandir.

Ko'rik-tanlovlarning mazmuniga qarab, dastur yoki ssenariy yoziladi. Ko'rik-tanlovlar asosan taqqoslash, solishtirish, baho berish nuqtai nazardan qaralib, ko'proq musobaqalar shaklida tashkil etiladi. Tadbirlarning bu turini juda ko'p sohalarda qo'llash mumkin. Sport, san'at, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy-gumanitar va boshqa barcha sohalarni o'z ichiga olgan ko'rik-tanlovlar insonlarni soha bo'yicha oldinga intilishlariga, o'z faoliyatlarini kengaytirishlariga, uni mazmunan boyitishga, bilimlarini oshirishga, rag'batlantirishga, oldinga intilishiga katta turtki bo'ladi.

Ko'rik-tanlovlar – insonlar ko'zi bilan ko'rib, tomosha qilib, o'rganib, tahlil qilish asosida baholanib boradi. Ko'rik-tanlovlar o'z-o'zidan vujudga kelolmaydi. Uni aniq dastur (yoki mukammal yozilgan ssenariy) asosida tashkil etish kerak bo'ladi.

*Viktorinalar* – bilimlarning turli sohalariga oid savollarga og'zaki yoki yozma ravishda javoblar berish tariqasida tashkil etiladigan o'yinlar asosiga qurilgan tadbirlardan hisoblanadi. Viktorinalar bir-biri aridan savollar turi va murakkabligi, yurish ketma-ketligi, g'oliblarni aniqlash va rag'batlantirish tartibi bilan bog'liq o'yin qoidalariga ko'ra farqlanadi. Viktorinalarda oldindan tayyorlangan savollar majmuidan ham foydalanish mumkin.

*Lektoriy* - (lot. *lectorium*, nem. *Lettner*) - qadimiy katolik cherkovlarida ibodat paytida qo'yiladigan baland yog'och minbar. Lektoriyalar XI asrda Italiyada, keyinroq Germaniya va Fransiyada paydo bo'lgan. Hozirda lektoriyalar – ko'proq ilmiy tadbirlarga oid bo'lib, ma'lum bir mavzu asosida ilmiy fikr almashinadi.

*Shou* (ingl. *show* — namoyish etmoq, ruscha - pokaz, predstavleniye) — ko'ngil ochar xarakteriga ega bo'lgan tadbirlardan hisoblandi. Shou-dasturlar tashkillashtirish xususiyatiga ega bo'lib, insonlarni yig'ib ularni ko'ngil ochar dasturlar, turli qiziqarli chiqishlar, kuy-qo'shiq, raqslar, turli o'yinlar asnosida o'tkazish mumkin. Shou-dasturlar uchun maxsus ssenariylar yozilib, repititsiyalar tashkil qilinadi.

Kino –bu alohida san'at turi hisoblanadi. Ammo bugungi kunga kelib kino san'atidan aynan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish an'anaga aylanishi quvonchli holdir. Gap alohida masalan, Alisher



Navoiy nomidagi san'at saroyiga borib kino ko'rish kabi maqsad nazarda tutilmayapti. Ma'lum mavzuga bag'ishlangan filmlar orqali madaniy tadbirlarni tashkil etilishi – bu insonlarni, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan mavzular uyg'unligidagi samarali ishlardan-dir. Masalan, tadbir boshlanishidan oldin, film namoyish etiladi va shundan so'ng film mavzusiga oid suhbatlar tashkil etiladi. Hozirgi kunda bunday usul O'zbekistonda an'anaga aylanib bo'ldi. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda filmlardan namunalar qo'yilishi tadbirning mazmunini yanada boyitishga sabab bo'ladi. Bunday tadbirlar uchun dastur tayyorlanadi.

Muzeylar, madaniyat va san'at maskanlariga, teatr, konsertlar, tomoshagohlarga, ziyoratgohlarga, dam olish maqsadida, ekologiya masalalari bo'yicha tabiat qo'yniga *ekskursiyalar-sayohatlar* tashkil etish ham madaniy tadbirlar turlaridan hisoblanadi. Bunday tadbirlarda ssenariy emas, sayohat dasturi kifoya qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadbirlarni turlari xilma-xil bo'lganligi bois, uni tashkil etish, o'tkazishda ssenariynavislik mahorati muhim o'rin egallaydi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. *Madaniy tadbirlar turlarini sanab bering.*
2. *Davra suhbatida deganda nimani tushunasiz?*
3. *Siz qaysi mavzularda debat o'tkaza olasiz?*
4. *Ko'rik-tanlovlarni tashkil etishda ssenariylar qanday yaratiladi?*
5. *Filmlar, konsertlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida gapirib bering.*
6. *Xohlagan tadbir turi bo'yicha ssenariy dasturini tuzib bering.*
7. *Respublika miqyosida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarni sanab bering va tahlil qiling.*
8. *Biron-bir sport turiga oid tadbir ssenariysini yarating va tashkil eting*

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Davra suhbatiga oid dastur tuzing.
2. Guruh talabalari bilan debat uchun manbalar toping va uning ssenariysini yozing

3. Tasviriy masal uchun material tanlang va uni sahnalashtirishga tayyorlang.
4. Tasviriy she'r yoki tasviriy masal deganda nimani tushunasiz?
5. O'zingiz xohlagan mavzuda shou –dastur ssenariysini yaratib bering...
6. Ko'rik-tanlov uchun ssenariy yozing.

## **2.2. Ssenariyda san'at vositalarining qo'llanishiga doir**

Tadbirlarni tashkil etishda juda ko'p san'at turlaridan foydalanamiz. Teatr san'atining barcha elementlari, raqs, rassomlik ijodiyoti, dramaturgiya, aktyorlik, rejissorlik, badiiy bezak, so'z san'ati va boshqalar tadbirlar uchun katta manbalardan hisoblanadi.

Mazkur mavzuda tadbirlarda eng ko'p qo'llaniladigan san'at turlaridan raqs va musiqa san'ati to'g'risida fikr yuritamiz.

Raqs – insonning mehnat jarayonida tashqi olamdan olgan emotional taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan va inson gavdasining harakat va holatlari vositasi bilan yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san'at turidir.

Insonlar bayramlarda o'z quvonchlarini raqslari orqali namoyon etadilar. Kayfiyati yo'q inson hech qachon raqsga tushmaydi. Kayfiyatning yuqori cho'qqisi raqsga borib taqalishi barchamizga ma'lum. Shunday ekan, bayramlar va tomoshalarda raqs san'atining o'rni va roli benihoya kattadir.

Xoreografiya bilim yurtlarida raqsning ilk elementlaridan boshlab, partnyor bilan ishlash, obraz yaratish, milliy, klassik asarlari raqslari, turli millatlar raqslari xatti-harakatlari o'rgatilib boriladi. Raqslarning sinxron shaklda sahnalashtirilishi tomoshabin ko'z oldida yangi manzarani gavdalandiradi.

Hozirgi kunda bayram va tomoshalarda raqs harakatlari tomoshaning boshidan oxirigacha davom etib turishi mumkin.

Chiroyli, did bilan kiyinib olgan raqqosa qizlarning mayin, jozibali harakatlari, yigitlarning esa jo'shqin va shiddatli harakatlari sahnada tomoshaviylik effektini yanada kuchaytiradi, sahna bezagi, musiqa va raqs uyg'unligiga erishiladi, natijada tomoshabin bundan estetik zavq oladi.

Keng masshtabli maydonni badiiy jihatlar bilan to'ldirish ancha murakkab jarayondir. Dekoratsiyalar, sharlar, afisha, kartinalar, shiorlar, gullar, chiroyli did, dizayn bilan qurilgan sahna, chiroqlar va boshqalar tomosha o'tadigan joyning asosiy badiiy bezagi uchun xizmat qiladigan vositalardir. Turli rang-barang liboslar kiyib olgan yigit qizlarning raqs harakatlari esa bu jihatlarni yanada to'ldirib, boyitadi.

Konsert zallarida, teatr sahnasida, madaniyat uylari saroylari sahnasida, xullas, an'anaviy sahnaviy muhitda yakka, juft va ommaviy sahnalarda ko'pi bilan 20-30 kishi qatnashishi mumkin. Noan'anaviy sahnalarda, masalan, sport maydonlari, sirk arenasi, ko'chalarda, bog'larda, xiyobonlarda o'tkaziladigan bayram va tomoshalarda ularning soni yuz (ba'zan undan ham ortiq) barobarga ko'payadi. Ommaviy bayram va tomoshalarda baletmeyster rejissor bilan barobar ishlashga to'g'ri keladi. Chunki maydonda bo'layotgan voqealarning deyarli barchasi raqs, plastik xatti-harakatlar orqali namoyish etiladi. Masalan, xonanda ham sahnaga chiqqandan keyin unga ozmi-ko'pmi raqs harakatlari elementlarini qo'llashi kerak bo'ladi.

Raqs faoliyati bevosita musiqa san'ati bilan chambarchas bog'langanligi tufayli, ularning uyg'unligiga erishish rejissor va baletmeysterdan katta ustalik, mahorat talab etadi. Mavzuga mos, tadbir g'oyasidan kelib chiqib, musiqa asari yaratilgandan so'ng, raqslarni sahnalashtirish uchun baletmeyster avval musiqani tinglab, o'zida o'zlashtirib, unga mos xatti-harakatlar izlaydi. Harakatlar bekorchi, oddiy qo'l yoki oyoq harakatlari emas, ma'no va mazmunga ega bo'lgan xatti-harakatlardan iborat bo'lishi va tadbir mazmuniga, g'oyasiga xizmat qilishi lozim.

Bayram va tomoshalarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, tomoshalar turli bloklarga ajratiladi va bu bloklarda alohida-alohida sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi va bosh rejissor tomonidan «yig'iladi». Ishlash jarayonida turli sahna ko'rinishlari, musiqa va boshqa nomerlar o'zgarishi mumkin. Rejissor, ssenarist, baletmeyster va bastakorlar tomoshani yangi ijod mahsuli bilan boyitib boradilar. Ularda hozirjavoblik hissi juda kuchli bo'lmog'i lozim. Bunday sharoitda, ayniqsa, baletmeyster zimmasiga kuchli mas'uliyat yuklatiladi.

Umuman, raqslar to'g'risida so'z borganda «baletmeyster» va «xoreografiya» tushunchalari ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu tushunchalarni aniqlab olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Lug'atlarda «baletmeyster» nemischa (balletmeister) so'zidan olingan bo'lib, raqs, balet, operalardagi o'yin sahnalarini quyuvchi balet rejissori, deb ko'rsatilgan bo'lsa, «xoreografiya» esa raqs yaratish san'ati, ya'ni raqsli spektakl deb izohlangan<sup>20</sup>. XIX asr oxirlaridan boshlab raqs san'ati xoreografiya deb atala boshlandi. Uning ikkinchi izohi, ma'lum shartli belgilar yordamida raqs harakatlarini yozish, deb ko'rsatilgan. «Xoreografiya» atamasi fransuz raqs o'qituvchisi R.Fyoye (1700y.) tomonidan kiritilgan.

Hozirgi kunda bu ikkala tushuncha ham, raqs sahnalashtirish (raqs sahnalashtiruvchi), raqs qo'yish (raqs qo'yuvchi) ma'nosida ishlatilib kelinmoqda.

San'atlar ichida uning bitta turi borki, usiz tadbirni tashkil etish mumkin emas. Bu musiqa san'atidir.

Madaniy va maishiy turmushimizni musiqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, erta tongdan to kech tunga qadar yon-atrofimizda yangrab turgan turfa navolar ma'naviy va ruhiy ehtiyojimizni qondirishga xizmat qilmoqda. Musiqa jon ozig'i deb bekorga aytilmagan. Qadim zamonlarda bir donishmand: «Omnia iste'molidagi musiqaning saviyasidan jamiyatning ruhiy sog'lomligini aniqlay olaman», degan ekan. Bunday imkoniyatlar endilikda mislsiz darajada kengaydi, cheki-chegarasi qolmadi. Zero, tovush yozish va yangratish uchun mo'ljallangan moslamalar allaqachon turmushimizdan mustahkam o'rin olib, kundalik hayotimiz zaruratiga aylanib qolgan. Barkamol avlod tarbiyasiga qarata maqsad qilib ishlatilayotgan «ma'naviy barkamollik» iborasini hamma har xil tushunib, idrok etishi ehtimoldan xoli emas. Adabiyot, she'riyat va barcha san'at turlarini zinhor kamsitmagan holda ta'kidlab o'tmoqchimizki, yoshlar tarbiyasi, ulg'ayib borayotgan kishida chin insoniy fazilatlar shakllanib, kamol topishida musiqaning ahamiyati beqiyosdir.

Ssenariy tuzishda musiqaning beqiyos o'rniga ana shu nuqtai nazar bilan yondashmoq zarur bo'ladi. Chunki musiqasiz dastur jonsiz

<sup>20</sup> Akbarov I. Muzika lug'ti. –T., 393-b.

haykal ma'nosini anglatadi. Ssenariy dasturini sifatli texnik yozuvi (grammofon likopcha, magnit tasma, kompakt disk) tizimida foydalanish tavsiya etiladi. Chunki sifatli texnik yozuv mukammal ijroni muhrlab saqlash, targ'ib qilish, o'rganish uchun eng qulay vositalardan. Faqat uning hozirdagi ancha keng imkoniyatlaridan to'g'ri, boshqacha qilib aytganda, tinglovchi – tomoshabinga malol kelmaydigan darajada foydalanish zarur bo'ladi. Ssenariyda musiqiy ohang oldingi asosiy planga chiqmaslik zarur. Undan leytmativ sifatida foydalanish yaxshi natija beradi. Ssenariy tuzishda musiqadan to'g'ri foydalanish ssenariyning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Ssenariy tuzishda musiqasiz va kuy-ko'shiq jo'rligisiz dastur kamdan-kam tuziladi. Chunki kuy, ko'shiq, ssenariyning ozig'i hisoblanadi. Ayniqsa tarixdan tarkib topgan milliy an'analar urf-odatlar, rasm-rusm, taomil marosimlarning vujudga kelishi, har xil bayramlar va shunga o'xshash qator omillar ssenariysi o'z-o'zidan mavzu va xarakterga qarab musiqa tanlashni taqozo etadi. Ssenariyda musiqa bosh mezon sanaladi. Masalan tarixiy voqealar aksida milliy kuy va ohanglarda foydalaniladi. Xalq qahramonligi va vatanparvarlik mavzusidagi dasturlarda jangovor ruhni jonlantiruvchi ohanglardan foydalaniladi. Lirik jarayon yoki g'azallar tasvirida yengil yorug'likni aks etuvchi musiqalardan foydalanilsa o'rinli bo'ladi. Ssenariy mohiyati va musiqiy mutanosiblik o'z-o'zidan bir-biriga bog'liqlik belgisidir. Ssenariyning mazmuni va mohiyati zamiridagi musiqiy mutanosiblik bir-biriga bog'lanish, dasturining bosh mavzusidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Masalan ssenariyda tarixni aks ettiruvchi tarix ko'rinishlari va obrazlari bilan bog'liq bo'lgan bloklardagi ko'rinishlarga mutanosib bo'lishi uchun xalqimizning musiqa merosiga murojaat qilinadi. Shu ko'rinishga monand musiqa tanlanadi. Musiqalar ko'rinish paytida fon orqali beriladi va zarur paytda balandligi va pastligi ko'rinish va holatlarining obrazlarning mutanosibliigi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Musiqiy bezak ssenariyning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Chunki rejissuraning oldinga qo'ygan maqsadini amalga oshirish musiqiy bezak bilan o'lchalanadi va ssenariyning mazmun va mohiyatini belgilaydi.

Ssenariydagi har bir blokni o'ziga xos mazmuniga qarab musiqiy bezak amalga oshiriladi. Bolalar bloki harbiy vatanparvarlik bloki, moziyga nazar singari alohida mazmun kasb etgan bloklarda har birining ruhiy tuzilmasi va voqealar jarayoni hamda dastur dinamikasiga qarab musiqiy bezak amalga oshiriladi. Ssenariy bilan musiqa mutanosibligini yana bir muhim tomoni shundaki, sahna ko'rinishlarini yorug'lik bilan bezash va har xil rangdagi yorug'lik vositalari asosida sahnaviy yechimni amalga oshirishda ham musiqiy bezakning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xar hil ko'rinishdagi yorug'lik nurlari va ko'rinishlari voqea rivojini va sahnaviy yechimini yorug'lik orqali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda bevosita musiqiy bezakni aloqadorligi tabiiydir. Xulosa qilib aytganda ssenariy tuzilmasini dasturini amalga oshirishda musiqaning o'rni alohida ko'rinish kasb etadi. Ssenariyning mazmun va mohiyatini tomoshabinga yetkazishda muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlashda musiqiy yechim va mutanosiblik muhim o'rin tutadi. Bu borada musiqa ssenariyning asosiy qanoti deb tushinish mumkin bo'ladi.

B.Sayfullayev va V.Rustamovlar hammuallifligida yaratilgan "Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati" o'quv qo'llanmasida madaniy tadbirlarni tashkil etishga oid bo'lgan juda ko'p ma'lumotlar berilgan. Bunda tadbirlarni tashkil etishning ijodiy va tashkiliy jarayonlari, dramaturgiyasi, ifoda va ta'sirchan vositalardan foydalanish, ijodiy guruhlar bilan ishlash kabi ma'lumotlar berilgan. Mazkur qo'llanmada madaniy tadbirlarda musiqaning o'rni haqida ham fikrlar bayon etilgan.

"Madaniy tadbirlarda musiqaning turli janrlari ishtirok etishi mumkin. Undan tashqari, bunday tadbirlarda musiqali jamoalar, vokal cholg'u ansambllari, musiqalardan parchalar, alohida musiqali nomerlar, boshqaruvchilarning chiqishlari uchun musiqa, xullas, voqeaning rivojlanishi uchun, tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini ushlab turishi uchun musiqa san'atidan foydalaniladi.

Musiqadan tadbirlar janrlaridan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirni tashkil etish va sahnalashtirishda musiqa quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- musiqa - qatnashuvchilar, ishtirokchi obrazlarini xarakterlab beradi;
- harakat vaqti, joyini ifodalashi mumkin;
- tomoshabinga ko‘rinmayotgan voqealarni ilg‘ab olishga, tez tushuna olishiga ko‘maklashadi;
- harakat, voqeada sahnaviy muhit yaratadi;
- monolog va dialoglarning emotsionalligi (hissiyot, hayajonligini) kuchaytiradi;
- so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan daqiqalarni tasvirlay bera olishi mumkin;
- xatti-harakat, voqealarni to‘ldirishi, boyitishi mumkin;
- pauzalar o‘rnini to‘ldirishi mumkin;
- vaqtni tejash yoki cho‘zish va boshqa muhim vazifalarni bajarishi mumkin.

Madaniy tadbirlarda (bayramlar, ko‘rik tanlovlar, uchrashuv, tematik kecha va h.k.)musiqaning o‘rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday tomoshalar ko‘pincha deyarli musiqa asosiga quriladi. Madaniy tadbirlarni tashkil etish va sahnalashtirishda musiqa muhim vositalardan biri bo‘lishi bilan birga undan foydalanish, uni yaratish, qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan ba‘zi qiyinchiliklarni hal qilishga to‘g‘ri keladi.

Biron-bir madaniy tadbir uchun alohida musiqa yozish qiyin kechadigan jarayondir. Shuning uchun ko‘pgina tashkilotchilar tayyor musiqa asarlarini tanlaydilar va shu musiqa asosida ish olib boradilar.

Musiqa tomoshabinni tomoshani yaxshi qabul qilishida muhim rol o‘ynaydi, lekin tomoshabinning asosiy e‘tibori aktyorda yoki sahnada bo‘layotgan xatti-harakatlarda bo‘lganligi uchun musiqani me‘yoridan (hajmi, ovoz balandligi kabi) oshirib yuborsak, biz tadbir yoki tomoshadagi voqealikni tomoshabinga yetib kelish me‘yor darajasini buzishimiz mumkin. U me‘yor darajasida amalga oshirilsa, bir umr tomoshabinning yodida qolishi mumkin.

“Musiqa teatrda so‘zdan boshlanadi, - deydi mashhur rejissorlardan Y.A.Zavadskiy, - ritm, melodiya va nutqda davom etadi. Musiqa teatrlashtirilgan tomoshaning haqiqiy mavjudligini bildiradi. Men, agar spektakl musiqalashtirilmagan bo‘lsa, u ritmik bo‘lmasa, uni yomon

spektakl deb hisoblayman. Musiqa – buyuk va aniq san’atdir. U bizni mahoratga, yuksaklikka undaydi, biz anglamay qolgan fikrlarni ilg’ab olishga yordam beradi”<sup>21</sup>.

Madaniy tadbirlarda (ommaviy bayramlar, sayillar, teatrlashtirilgan konsert, badiiy publitsistik kompozitsiyalar va h.k) qo’llaniladigan musiqa faqat tomoshabin uchun emas, ijrochi uchun ham muhimdir. Fikrni bir joyga to’play olish, rolga, obrazga kirishish, sahnada o’zini erkin his qilish uchun, umuman sahna maydondagi voqelikni, ommani boshqarish uchun ham muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Agar tanlangan musiqaning ifodaviy va tasviriy imkoniyatlari to’liq namoyon bo’lgan bo’lsa, asarni tomoshabin emotsional va to’laqonli ravishda qabul qiladi. Musiqaning elementlari: melodiya-si, ritmi, temp, dinamika, temblari yetarli darajada me’yorida foydalanilsa va yagona maqsad sari uyg’unlashsa, bu elementlar yagona, garmonik ravishda butunligicha birlashishsa, u berilgan vazifasini to’liq ifodalagan bo’ladi, asar musiqa bilan chiroyli «bezaladi».

Musiqaning ifodali imkoniyatlari kengdir. Unda hayot va o’lim, qahramonlarcha kurash, orzu, qayg’u, shikoyat, tuhmat, hazil kabi mavzularni ifodalash mumkin. Musiqaning buyumni ko’rsatib, tasvirlab beruvchi vositasi yo’q, lekin u tomoshabin sezgisiga, ongiga ta’sir qilibgina qolmasdan, uni tasavvur qilishga unday oladi. Musiqaning tasviriy darajasi turli janrlarda turlicha namoyon etiladi. Ayniqsa, kino va teatr san’atida tasviriy imkoniyatlardan keng foydalaniladi. Masalan, faqat musiqa yordamida biz poezd «chiza olmaymiz», lekin buni ovoz, tovush orqali (musiqa jo’rligida g’ildirak aylanishi va h.k.) berishimiz mumkin.

Bo’lajak madaniy tadbirlar tashkilotchilari musiqaning sahna-lashtirish uchun muhim jihatlarini bilib olishlari zarurdir.

Musiqani -tadbirlarning alohida nomeri sifatida va tadbirlarda aks etayotgan voqealarning ta’sirchanligini oshirish uchun qo’shimcha vosita sifatida qo’llash mumkin. Birinchi variantda badiiy havaskorlik kollektivlarining tayyor yoki maxsus tayyorlangan nomeridan foydalaniladi. Ko’pincha musiqa yoki qo’shiq tadbirlarda maxsus nomer

<sup>21</sup> Ю.Козюренко. Музыкальное оформление спектакля. М.Искусство. 1986. 6 стр.



sifatida qo'llanadi. Bunday paytda nomer tadbir mazmuni va mavzuiga mos ravishda epizodning tarkibiy qismiga aylanib ketmog'i kerak. Masalan, xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tadbirlarda onalar tantanali ravishda sahnaga taklif qilingandan so'ng «Onajonlar, assalom!» qo'shig'i ijro etiladi. Qo'shiq tugashi bilan boshqaruvchilar onalar haqida allomalar so'zlaridan namunalar o'qishadi. Bu qo'shiq alohida nomer sifatida foydalanilganligi uchun tadbir epizodining mavzusiga to'g'ri keladigan tarkibiy qismga aylanib ketadi.

Ikkinchi variantda esa musiqa kechaning g'oyaviy mazmuniga qarab tanlanadi va fon sifatida beriladi.

Musiqadan foydalanishning mazkur varianti tadbirlarda juda keng qo'llanilib, she'r o'qilayotganda ham, kinolavhalar ko'rsatilayotganda ham, dramatik parchalar ijro etilayotganda ham bu vositalarning ta'sirchanligini oshirish maqsadida xizmat qiladi. Tadbir mazmuniga qarab, musiqiy chiqishlardan foydalanish mumkin.

Alohida musiqiy nomer, tadbir kayfiyatini beruvchi musiqa, boshlovchilar chiqishlariga musiqa, sahnalashtirilgan parchalar uchun musiqa, qahramonlar xatti-haratini ifodalovchi musiqa, chorlov, fanfarlar, raqslar musiqasi va h.z.lar – tadbir yoki spektaklning mazmunini boyitishiga katta ta'sir ko'rsatadi”<sup>22</sup>.

Ssenariyda esa bu jihatlarning hamma xususiyatlari hisobga olinishi shart. Sahna bezagi, tadbirning tempo-ritmi uchun, alohida olingan nomerlar va boshqa musiqiy jarayonlar ssenariyda aks ettirilishi lozim. Uning vaqti, ketma-ketligi aniq ko'rsatilgan bo'lishi shart.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. San'atning qanday turlarini bilasiz?
2. "Xoreografiya" so'zi qanday ma'noni bildiradi?
3. O'zbek raqs maktabi nechta?
4. Raqs harakatlari ssenariyda qanday aks ettiriladi?
5. Musiqaning ta'rifini aytib bering.
6. Tadbirlarda musiqa qanday vazifalarni bajara oladi?
7. O'zbek va boshqa xalqlarning qaysi raqslari nomlarini bilasiz?

---

<sup>22</sup> B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent, Fan va texnologiya n. 69b.

8. Musiqiy yechim tushunchasini qanday izohlaysiz?

9. Musiqa ssenariyda qanday aks etadi?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Pedagog tomonidan berilgan biron-bir san'at turiga oid mavzu bo'yicha ssenariy yaratib.

2. Biron-bir tadbirni san'at vositalaridan foydalanganlik darajasida tahlil qiling.

3. "Mustaqillik va Navro'z bayramlari ssenariylarida raqs va musiqa" mavzusida referat tayyorlang.

4. O'zbekistonda ijod qilayotgan bastakor, baletmeysterlardan birini ijodini tahlil qilib bering.

### **2.3. Tadbirlar ssenariysida mavzu va g'oya tushunchalarining ma'naviy talqini**

Har bir madaniy-ma'rifiy ish o'zining avvaldan tuzilgan rejasini bilan boshlangandek ssenariy tuzishda ham mavzu asosida ish ko'rish taqozo etiladi. Avvalo qaysi mavzu asosida yozish zarurligi tanlab olinadi va ana shu mavzuning detallari mazmuni qaysi soha xususida ekanligi va uning mohiyati o'rganiladi. Shunga monand so'z, she'r, kuylar tanlanadi va rejissorlik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi hamda tadbirning xomaki variantlari ishlab chiqiladi. Mavzuning tanlashni ahamiyati shundaki, mavzu ssenariyning leytmotiv tuzilmasi bo'lib xizmat qiladi va ssenariyning badiylik jihatidan mukammallikka erishishida asosiy omil bo'ladi. Har bir ssenariyning mavzusi asosida mazmun va g'oya yotadi. Ssenariyning mazmun mohiyati uning g'oya bilan bog'liqligidir. G'oya inson tafakkurini mahsuli sanaladi va insonda mujassamlangan aql, idrok, tafakkur, ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi g'oyaviy tushunchalar asosida tarkib topadi. Shuning uchun mafkuraviy jarayonda bosh bo'g'in g'oya sanalib, barcha ko'rinishlarni o'z ichiga oladi va umumiy mafkuraga xizmat qiladi.

G'oya chuqur falsafiy mushohadalarni o'z ichiga oladi. Har qanday tushuncha, fikrlash va qarashlar g'oya bo'la olmaydi.

Chunki shaxsiy fikr – o‘ziga xos bir qarashdir. G‘oya ana shu qarash va munosabatlarni harakatga, jarayonga, zarurat tug‘ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi. Muayyan bir g‘oya dastlab biron-bir shaxs-ning ongida paydo bo‘ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgani, jamiyatning taraqqiyot yo‘lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Mafkuralar ma’no-mohiyatiga ko‘ra falsafiy, dunyoviy, diniy ta’limotlar asosida yaratiladi. Turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar o‘z mafkuralarini yaratishda siyosiy g‘oyalar bilan birga diniy oqimlar, falsafiy maktablar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir oila va fuqaroning munosib turmush darajasini ta’minlaydigan farovon hayotga erishishga chorlaydi. Milliy istiqlol g‘oyasi xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma’no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo‘lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasidan kelib chiqadi va o‘zining ma’no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Mavzu - bu asar, tadbirning nima haqida ekanligini angaltuvchi tushuncha. G‘oya tushunchasini kengroq ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, u inson tafakkurining mahsulidir. Milliy g‘oya esa –millat tafakkurining mahsuli. Adabiyotda, umuman sahnalashtirish san’atida bu tushunchaning mazmuni aniq mavzuga qaratilib, “shu asar orqali nima demoqchi” degan savolga javob beradi.

Ssenariyda g‘oyalar asosida mavzular tuziladi va ular orasidagi bog‘liqlik ssenariy oxirigacha davom etadi. Mavzu va g‘oyaning bir-biri bilan bog‘liqligi davr mafkurasining siyosati asosida vujudga keladi. Mafkuraning tushuncha asosida tuzilgan mavzu va g‘oyaning bir-biri bilan bog‘liqlik jihati badiiylik ko‘rinishi bilan omixtalashib ketadi. G‘oya qanchalik ta’sir etuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lsa, mavzuga shuncha tez yondashadi va ssenariyning muvaffaqiyatini

ta'minlaydi. Ssenariyning ta'sirchanlik kuchi shundan iboratki, barcha ijodiy jarayonlar birikmasidan hosil bo'lgan badiiy jihatdan mukammal ko'rinishga va xarakterga ega bo'lgan asarning mazmun mohiyati bilan vujudga keladi. Ssenariyda g'oya va mafkuraning birligi gumanizm va taraqqiyot tamoyillarini xalq taqdiridagi yuksalish zaruriyatini aks ettiradi, o'z navbatida mafkuraning ham o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari bo'ladi. Har qanday mafkura quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zda tutadi:

- Muayyan g'oyaga ishonitirish;
- Uyushtirish;
- Safarbar etish;
- Ma'naviy va ruhiy rag'batlantirish;
- G'oyaviy tarbiyalash;
- G'oyaviy umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish;
- Harakat dasturi bo'lishi va h.k.

Mafkura o'z oldiga qo'yilgan shu kabi maqsadlarni bajara olsagina amaliy samara berishi mumkin. Zamon ruhi davr talabi bugungi istiqloq mohiyati va mazmuni ma'naviy tarbiyada g'oya va mafkuraning hamohangiligidan kelib chiqib barkamol inson tarbiyasida amal qilishi zarur bo'lgan ehtiyojlar deb qabul qilinadi. Shu sababdan ssenariy tuzishning asosiy maqsadlari shu nuqtalarga qaratilish zarur deb tushuniladi.

Respublikamizda mehnat qilayotgan fuqarolarni ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda, ayniqsa barkamol avlod tarbiyasida ularning ijtimoiy mehnatini tashkillashtirishda madaniy-ma'rifiy muassasalar muhim o'rin tutadi. Insonlarning madaniy va badiiy saviyasini oshirishda, ularni huquqiy, iqtisodiy bilimlarini o'zlashtirishda ijtimoiy-madaniy faoliyat mutaxassislarining o'rni beqiyosdir. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar ommaning ma'naviy, siyosiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir. Azaldan madaniy-ma'rifiy muassasalar ommani ma'naviy ruhda tarbiyalashning vositasi bo'lib kelgan. Targ'ibot masalalari, ommaning savodxonlik va siyosiy bilimlari, mustaqillik mohiyatini tushuntirish va xalqning buyuk kelajakka intiltiruvchi ishlar ijtimoiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning bosh vazifasi sanaladi.

Ushbu barcha qarashlarni singdirishda ommaga ta'sir kuchini oshirish borasida san'atdagi badiiy mezon yetakchi vosita sanaladi. Badiiylik o'z ma'nosi bilan bezak ya'ni uning go'zal tomonlarini bezaklar asosida ochib berish vositasidir. Badiiylik kompozitsion ko'rinishlar asosida rivojlanadi. Kompozitsion ko'rinishlar ssenariyning mazmun va mohiyatini belgilovchi asosiy mavzu orqali ifodalanadi. Badiiylik barcha ijodiy yo'nalishlar va ko'rinishlarning yaxlit yig'indisidir. Uning asosida sahna acari rivojlana boradi va o'zining kulminatsion nuqtasiga yetadi. Ssenariyning asosiy maqsadi va vazifalar yechimi aniq mazmun va ko'rinishlar orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Ssenariyda kompozitsiya haqida so'z ketganda uning mazmunini va mohiyatini tushunish zarur bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kompozitsiya deganda, ssenariydagi uyg'unlik, bir-biriga bog'liqlik tushuniladi. Masalan, sahna ko'rinishidan boshlab ssenariydagi mazmun, rejissura yechimi, aktyor yoki qatnashuvchilar ansambli, yorug'lik manbalari, kiyim kechaklar, musiqiy bezak singari umum-badiiylik keltirib chiqaradigan omillarning barchasi kompozitsiya, ya'ni uyg'unlikni talab qiladi. Shundagina badiiylik o'z nomiga monand rivojlanadi va o'z navbatida hal qiluvchi omilga aylanadi.

Kompozitsiyaning yechimi uning tuzilmasiga bog'liq. Sahnaviy ko'rinishdagi obrazlar mutanosibligi, she'r va g'azallarning musiqiy ohanglariga yo'g'rilganligi, badiiy jamoalarning dasturlarini kompozitsiyasiga uyg'unlashuvi ssenariyning badiiy kompozitsion yechimini taminlaydi. Chunki har bir ko'rinish uning mazmuni, bo'layotgan tadbirga aloqadorligi, qaysi kasb bayramiga yoki ommaviy bayram shakliga mutanosibligi, musiqiy yechimi, ishtirok etuvchilar kontingenti, barcha ijodiy jara-yonlar bir-biriga bog'lanib, umumiy bir yaxlitlikni, ya'ni kompozitsiyani tashkil etadi va uning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Masalan, kompozitsiya tuzilmasiga misol tariqasida mustaqillik bayramini olsak: uning mazmun va mohiyati barchaga ayon, lekin qanday kompozitsion ko'rinish kasb etishi, uni yaratuvchi ijodkorlariga bog'liq. Badiiy kompozitsion ko'rinishlar quyidagi ijodiy hamohanglikni o'z ichiga oladi:

-Tadbirning mazmun va mohiyati, tushunchasi va amalga oshirish yo‘llari;

-Barcha ijodiy jarayonlarning bir-biri bilan mutanosibligi va bog‘liqligi;

-Sahna ko‘rinishlari va obrazlari talqini;

-Musiqiy hamohanglik va o‘z o‘rnida talqin qilinishi;

-Umumiy rejissura va ijodiy jamoalarning bir-birlari bilan dasturlari asosini uyg‘unlashuvi.

Umumiy dasturni omma bilan bog‘liqligi va unda ko‘pchilikni ishtiroki asosiy mezon qilib olinadi va dastur muvaffaqiyati shu bilan belgilanadi. Xulosa qilib aytganda, ssenariyda badiiy kompozitsiyani tutgan o‘rni alohida e‘tiborga molik bo‘lib, ssenariy dasturini muvaffaqiyatli chiqishini ta‘minlaydi va barchaga ma‘qul bo‘lishini amalga oshiradi.

Mustaqilligimiz qo‘lga kiritilgandan so‘ng, tadbirlarning eng oliy shakllaridan biri bo‘lmish bayramlarni tashkil etishga katta e‘tibor berila boshlandi. Bu davrida asrlar davomida shakllanib kelgan xalq bayramlarini qayta tiklash va ularni ommaviy tarzda nishonlashga alohida e‘tibor qaratildi va davlat miqyosida bayramlar nishonlanib kelmoqda. Ommaviy xalq bayramlari teatrlashgan tomoshalar timsolida yangi mazmun kasb etmoqda. O‘tgan qisqa vaqt mobaynida bu sohada o‘ziga xos tajriba to‘piandi va bayramlar bilan bog‘liq yangi san‘at turi dunyoga keldi. Bu keng miqyoslarda nishonlanadigan bayram tomoshalaridir. Ayniqsa Mustaqillik va Navro‘z bayramlari mamlakat miqyosida keng omma ishtirokida ulkan tomoshalar ko‘lamiga aylanib bormoqda. Mustaqillik va Navro‘z tomoshalari o‘zining keng miqyosdagi ko‘rinishi bilan o‘zida o‘zbek xalqi san‘atining eng nodir yutuqlarini birlashtiradi. Bu tomoshalar shunchaki turli san‘atlar, qo‘shiq, raqs, askiya, milliy urf-odatlar, hayotdan olingan xodisalarning yonma-yon, birin-ketin berilishi emas, balki ularni katta maydonlarga moslashtirib, badiiy qayta ishlash, bir-biriga singdirib mutanosiblik va uyg‘unlik hosil qilishdir. Binobarin, Navro‘z va Mustaqillik tomoshalarini tashkil etish va o‘tkazish mohiyatan bir-biridan tubdan farq qilmasada, ularning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo‘lib keskin farq qiluvchi ko‘rinishlari bilan jilolanadi. Mustaqil-

lik bayrami ko‘proq siyosiy yo‘nalishda bo‘lib, mamlakatimizning istiqloq davrida qo‘lga kiritgan yutuqlarini namoyish etishga qaratilgan. Navro‘z bayrami esa qadimiy an‘analar va urf-odatlarni saqlagan holda, zamonaviy vositalar yordamida ularni gavdalandirishga yo‘naltirilgan. Bu bayramini nishonlashda asosiy e‘tibor qadriyatlarini tiklab, ularni o‘rganib, yangi badiiy shakllarda sahnaga olib chiqishga qaratilayotgan bo‘lsa, mustaqillik bayramlarida asosan san‘at va ijtimoiy hayotdagi yutuqlarni namoyish etish maqsad qilinmoqda.

Dunyoda o‘ziga xos nomga ega bo‘lgan bayramlar juda ko‘p. Har bir xalqning urf-odatiga yashash sharoitiga milliy tuzilmasi, davlat siyosatiga qarab turli bayramlar kashf etilgan. Lekin bular orasida shunday bayram borki, bu har bir xalqning, millatning mustaqilligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu bayram har bir xalqning erkinligini, milliy iftixorini, suverenitetini ifoda etadi. Shuning uchun mustaqillik bayrami zo‘r shodiyonalik bilan bayram qilinadi. Bizning yurtimizda ham xalqimizning xohishi irodasi tufayli erishilgan bu ulug‘ sana eng ulug‘ bayram sanaladi va bu mustaqillik kunini bayram qilinishidir. Aniq bir ssenariy asosida tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish talab qilinadi. Avvalo mustaqillik bayramining ssenariysini yozishda g‘oyaviylik tushunchasiga e‘tiborni qaratish zarur bo‘ladi. Chunki bu bayram siyosiy bayram bo‘lib, har bir siyosat zamirida mafkura va g‘oya yotadi. Uning mazmun va mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bizning mustaqilligimizning g‘oyaviy mazmuni xalqimiz erishgan va ma‘naviyatimizni bosh mazmuniga aylangan bugungi mafkuramizning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadi. Bunda xalqimizning asrlar bo‘yi orzu qilib kelgan maqsadlari, mustaqillik yillarida qo‘lga kiritilgan yutuqlari, xalq xohish-irodasi ifodalanishi zarur bo‘ladi. Bularning barchasi ssenariyning g‘oyaviy mazmuni puxta bo‘lishini taqozo etadi. Mustaqillik bayrami har yili yuqori saviyada o‘tkazilganligi natijasida tobora g‘oyaviylik, alohida rejissura va musiqiy talqin omixtaligida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Yangi-yangi ssenariylar, rejissura yechimlari, yangi yo‘nalishdagi musiqiy dasturlar ishlanmoqda va tadbiiq qilinmoqda. Ssenariyni amalga oshirishda professionalizm ortib bormoqda, bularning barchasi ijodkorlardan ijodiy izlanishni ommaviy ko‘rinishlarga va sahnalarga

e'tiborni qaratishni musiqiy mutanosiblikni mosligi, eng asosiysi ssenariyning g'oyaviy mazmuniga ahamiyatni qaratishni talab etadi. Mustaqillik ssenariysining mazmun va mohiyati ana shundan kelib chiqadi va amalga oshiriladi.

Ikkinchi bir ulug' bayram sanalmish Navro'z bayrami ham o'ziga xos mazmunga ega bo'lib, bunda ajdodlarimiz ming yillardan buyon orziqib kutib har yili bayram qilgan bu ulug' tadbirni ham yuqori saviyada o'tkazish talab qilinadi. Xalqimiz orasida Navro'zga atalgan aytishuvlar, alyorlar, lapar va yallalar, xalqona ohanglar mavjud bo'lib, barchasi Navro'zning mazmunan boyitishni va o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Shoirlarimiz Navro'zga atab juda ko'p she'rlar bitishgan, xonanda va sozandalarimiz qo'shiqlar kuylashgan, musiqalar yaratishgan. Ayniqsa xalq folklor san'atiga xos ko'rinishlarda Navro'z alohida mazmun kasb etadi va xalqning ruhiy kechinmalari, hayot turmush tarzini ma'naviy madaniyatini ifodalaydi. Navro'z bayramini o'tkazish ommaviy tarzda bo'lgani uchun ommaviy bayram sifatida qabul qilinadi va xalq bilan birga bayram qilinadi. Bunda bahor faslining ko'rinishi, tabiat uyg'onishi manzaralari, bahor dasturxon, bolalar quvonchi, keksalar hurmat-e'tibori, ayollarning o'ziga xos yumushlari, albatta shu bilan bir qatorda xalq folkloriga suyangan holdagi ijodiy chiqishlari barchasi omuxtalik kasb etadi va ssenariyning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Navro'z tarixiy sharoitda har davrning o'ziga xos ko'rinishlari bilan bayram qilingan hozirgi mustaqillik yillaridagi bayram o'zgacha ruh bilan nishonlanmoqda. Ma'lum paytlar kamsi-tilgan, diniy bayram deb qaralgan Navro'z bugungi kunda istiqlol bergan ne'matlardan bahra olgan holda o'ziga xos mazmun kasb etmoqda, ayniqsa har bir voqa va viloyatlarning chiqishlari alohida ko'rinish va mazmunga ega bo'lib, xalqlarimizning turli urf-odatlar mahalliy mentaliteti, folklor san'ati, kiyim bosh ko'rinishlari, barchasi o'ziga xos ijod namunalarini ko'rsatmoqda. Xulosa qilib aytganda, Navro'z bayrami o'z tarovatini ko'z-ko'z qilmoqda. Mustaqil yurtimizda yashayotgan barcha millat vakillariga olam-olam quvonch ulashmoqda va zo'r shodiyonalik bilan bayram qilinmoqda.



Bugungi kunimizda ijtimoiy-madaniy faoliyat har bir oila sharoitiga, har bir inson hayotiga singib bormoqdaki, inson turmush tarzini bu faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bunda ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlari qatorida madaniyat muassasalarida ham yangicha yondashish talab qilinmoqda. Ushbu sohani ilmiy-pedagogik yo'nalishda olib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Mustaqillik yo'lida shahdam odimlar bilan borayotgan O'zbekistonda yangi ma'naviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida xalqimizning ijtimoiy-madaniy hayotiga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini jadallashtirmoqda.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni mujassamlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy-madaniy faoliyatning ko'lami keng, yo'nalishlari mazmundor, ijtimoiy hayotda zarur soha deb qarashlikni taqozo etadi. Shu soha mutaxassislaridan bu yo'lda mazmunli reja va dasturlar asosida ish olib borishlikni, to'g'ri yondashgan holda tinmay ijodiy izlanishlikni talab etadi. Zero, bularning barchasini Vatanimiz kelajagi yo'lida olib borilayotgan zalvorli ishlarning muhim sharti deb anglashimiz zarur.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.G'oya tushunchasini izohlab bering.
- 2.Milliy g'oya deganda nimani tushunasiz?
- 3.G'oya mavzuga tayanadimi?
- 4.Mavzu qanday savollarga javob berishi kerak?
- 5.Mustaqillik va Navro'z bayramlarining mazmun mohiyati haqida gapirib bering.
- 6.G'oyaviy talqin deganda nimani tushunasiz?
- 7.2017-yil Mustaqillik bayramining asosiy g'oyasini aytib bering.
7. E.Vohidovning "Oltin devor" asarining mavzusi va g'oyasini aytib bering.
- 8.Ssenariyda mavzu va g'oya qanday talqin qilinadi?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

- 1."Mustaqillik va Navro'z bayramlarining mamlakat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati" mavzusida referat tayyorlang.

2. O'zingiz istiqomat qiladigan viloyat (shahar, tuman)da o'tkaziladigan "Navro'z" bayramiga bag'ishlangan ssenariy yozing.

3. O'qituvchi tomonidan berilgan ssenariy bilan tanishib, uni tahlil qiling.

#### **2.4. Ssenariy va boshlovchilik**

Har qanday tadbirlarni tashkil etishda boshlovchilardan unumli foydalanish katta samara beradi. Tadbirlarda boshlovchilar asosan yetakchi ishtiroklardan hisoblanib, u tadbirning boshidan oxirigacha "qizil ip" asosida ushlab turadi.

Boshlovchi qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim?

Birinchidan, boshlovchi tadbirning asosiy figuralaridan biri bo'lganligi uchun, u chiroyli, did bilan kiyingan bo'lishi lozim;

Ikkinchidan, boshlovchining tili ravon, nutqi sof, sahna nutqining hamma tamoyillariga asoslangan holda tomoshabinga etkazib berish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Uchinchidan, boshlovchi tadbirning mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynashi mumkin;

To'rtinchidan, boshlovchining mahorati tadbirning saviyasi, uning tempini ushlab turishga yordam berishi mumkin;

Beshinchidan, boshlovchi tadbirda "g'oyaviy ko'prik" vazifasini o'tashi mumkin, ya'ni bir nomerni boshqasi bilan bog'lashda, mantiqiy va ketma-ketligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin;

Oltinchidan, u ssenariy matni bilan yod olish darajasida tanish bo'lishi lozim;

Yettinchidan, tadbirlarda ijrochilarni tadbir ishtirokchilari bilan muloqotini ta'minlashda katta rol o'ynaydi;

Yettinchidan, boshlovchi improvizatsiya qilishga mahorati kuchli bo'lishi kerak;

Sakkizinchidan, boshlovchi hech qachon tadbirda o'zining xafa yoki jahli chiqqan holatda sahnaga chiqmasligi kerak;

To'qqizinchidan, boshlovchi tadbir ishtirokchilarini hamisha kayfiyatini ko'tarish yo'lidan borishi lozim;

O'ninchidan, boshlovchi tadbirlar xususiyatidan kelib chiqqan holda dasturni olib borishi lozim.

Juda ko'p holatlarda boshlovchilar turli obrazlarda namoyon bo'ladilar. Masalan, Yangi yilga bag'ishlangan tadbirlarda Qorbobo yoki Qorqiz obrazlarida chiqib, o'sha dasturning mazmunini ochib beradilar.

Ba'zan, boshlovchilar faqat tadbirning boshida chiqib, keyingi sahnaga chiqmasdan, ichkaridan e'lon qilib, tadbir oxirida ko'rinib, xayrlashib, dasturga yakun yasab ketishi mumkin. Ba'zi tadbirlarda esa umuman boshlovchilar ishtirok etmasliklari mumkin.

Ko'pgina tadbirlarni odatda ikkita boshlovchi (yigit va qiz) olib boradilar. Birinchi boshlovchining fikrini ikkinchisini to'ldirgan holda tuzilgan ssenariyni ommaga yetkazishda fikrlarni mantiqiy davom ettirish, bir-birini qo'llash, to'ldirish ularning asosiy vazifalaridandir.

Ba'zi tadbirlarda 3 nafar boshlovchi ham bo'lishi mumkin. Bunda 3 nafar tilda olib boriladigan tadbirlarni nazarda tutish mumkin.

Bir nechta boshlovchilar ishtirokidagi tadbirlarni ham kuzatish mumkin. Masalan, 8-Mart bayramiga bag'ishlangan tadbirlarda 4-5ta boshlovchi chiqib, hazil-mutoyiba tariqasida olib borish mumkin.

Ammo, boshlovchilarning necha kishidan iborat ekanligi muhim emas. Muhimi shuki, tadbirning saviyasi, undagi ishtirokchilarning estetik ehtiyojlarining qondirilishi, o'tkazilgan tadbir mavzusi bo'yicha aniq bilimlar, ma'lumotlarga ega bo'lishidadir.

Madaniy tadbirlar, masalan, konsert dasturlarini olib borishda boshlovchilar chiqmasligi ham mumkin. Boshlovchilar o'rniga uning "ekvivalenti"ni o'ylab topish mumkin. Bu rejissorlar, tadbir tashkilotchilari tomonidan topilgan tadbir stilini belgilashda namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda aksariyat tadbirlarda moderatorlar dasturlarni olib bormoqdalar. Moderator – lot. moderor, ruscha–уcмupряю, cдepживаю, ya'ni o'lcayman, degan ma'nolarni bildirib, tadbirni boshqarib turuvchi shaxsga nisbatan ishlatilmoqda. Rasmiy tadbirlarda hech qanday xarakterga ega bo'lmagan, korxonahabari yoki tadbir tashkilotchisi moderatorlik qilishi mumkin. Moderator uchun alohida maxsus kiyim kiyish, xarakter yoki obraz yaratish shart emas.

Ammo, madaniy tadbirlar boshlovchilari uchun yuqorida aytib o'tilgan belgi va talablar albatta bo'lishi shart.

Boshlovchilarga xos bo'lgan yana bir xususiyat – tadbirning g'oyasini faqat matnni o'qish orqali emas, ssenariyda berilgan matnlarni jonlantirish, uni harakatga keltirish borasida qilgan xatti-harakatidir.

Kino san'atida tasvirga tushirish ishlari yakunlangandan so'ng montaj ishlari boshlanadi. Ammo, madaniy tadbirlarda bunday imkoniyat yo'q. Buning sababi shundaki, tadbirlar xuddi spektakllardagidek aniq vaqtda, tomoshabin ko'z oldida o'tadi. Uni qaytarish yoki to'xtatib turib, boshqadan boshlash imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun ham tadbirlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan boshlovchining mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Radio boshlovchilari, televideniye ko'rsatuvlari boshlovchilari, konsert dasturlari boshlovchilari, shou dasturlari boshlovchilari, teatrlashtirilgan tadbirlar boshlovchilari va boshqa turdagi boshlovchilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bularning hammasi o'ziga xos yondoshuvni talab qiladi. Masalan, televideniye ko'rsatuvlari boshlovchisi bilan katta sahnada bo'ladigan madaniy tadbir boshlovchisi ovoz tembrlarini yo'naltirishda e'tibor qiladigan jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Studiyada ko'rsatuv suxandonining ovozi yuqori darajada sezuvchi apparaturalar yordamida pichirlab gapirishigacha yozib olinadi. Katta zalda yoki maydonlarda esa mikrofondagi ishlagan holda ham ovozni yo'naltirishda katta e'tibor qiladigan jihatlari ko'p.

Boshlovchining o'ziga xos bilishi kerak bo'lgan xususiyatlari quyidagilar:

1.Sahna madaniyati qonun-qoidalarini to'liq o'zlashtirgan bo'lishi, ya'ni sahnada o'zini tutishi, turishi, bir so'z bilan aytganda sahnaga chiqqanda u “aktyor”ga aylanishi kerak.

2.Matn bilan ishlash mahoratiga ega bo'lishi lozim. Bunda matn yozilgan ssenariyni qanday ushlashdan tortib, to sahnadan chiqib ketishigacha bo'lgan jarayon nazarda tutiladi.

3.Mikrofonlar bilan ishlashni bilish kerak.

4.O'tkaziladigan tadbir mavzu bo'yicha ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadbirlarni yuqori saviyada o'tishida boshlovchilik mahorati katta rol o'ynaydi.

## Nazorat savollari

1. Tadbirlarda boshlovchi qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Boshlovchi qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim?
3. Boshlovchilarning sahna qonun-qoidalarini bilishi qay darajada bo'lishi lozim?
4. Bitta, ikkita va bir nechta boshlovchilar olib boradigan dasturlarni taqqoslang...
5. Bir nechta boshlovchilar olib borgan dasturlardan misol keltiring...
6. Boshlovchilikning qanday turlarini bilasiz?
7. Mikrofonlardan qanday foydalaniladi?
8. Boshlovchi qo'lidagi dastur (ssenariy)ni qanday holatda ushlab turib o'qishi kerak?

## Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar

1. Mustaqil tayyorlagan ssenariyni boshlovchi sifatida o'qib bering...
2. Guruhingizda o'zingizga partnyor topib, ikki kishilik boshlovchiga mo'ljallangan ssenariy yarating va o'zlariningiz o'qib bering...
3. Partnyoringiz bilan improvizatsiyaga asoslangan tadbirni olib borishga mo'ljallangan ssenariy dasturini tuzing va ijro etib bering.

## 2.5. Mustaqillik davri dramaturgiyasi tahlili

*(N. Qobulovning "To'da" asari misolida)*

Mustaqillik shamollari nafaqat ijtimoiy, balki san'at, madaniyat, ma'naviy hayotda ham katta e'tibor va ma'suliyat qaratish lozim bo'lgan ishlarni takomillashtirishga turtki bo'ldi. Turli tadbirlarni yuksak darajada tashkil etishga, xalq ommasini bu tadbirlardagi ishtirokini faollashtirishga katta e'tibor qaratildi.

Teatr sohasi bo'yicha ham juda ko'p e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni (1998-yil 26-mart), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori (1998-yil, 22-may), Hamza nomidagi O'zbek Davlat Aka-

demik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2001-yil, 21-sentabr) va boshqalar shular jumlasidandir.

“Respublikamizda faoliyat yuritayotgan deyarli barcha teatrlarimiz Respublika miqyosida o‘tkazilayotgan bayram va tomoshalar va yubileylarda o‘zlarining rang-barang repertuarlari bilan ishtirok etib kelmoqdalar.<sup>23</sup>

Insonlarga estetik zavq berish, ularning ma’naviyatini boyitish, bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish kabi vazifalarni bajarishda teatr san’ati roli benihoya kattadir. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Bugun biz o‘zligimizni anglash yo‘lida o‘tmishimizning noyob va ilgari noma’lum bo‘lgan sahifalarini ochayotgan hozirgi sharoitda teatr san’atimiz tarixidagi ba’zi nuqtalarning asl mohiyati namoyon bo‘layotganiga guvoh bo‘lib turibmiz”<sup>24</sup>. Shuning uchun teatr san’atini rivojlantirish, uni omma o‘rtasida keng targ‘ib qilish va takomillashtirishda pedagoglar, rejissorlar, prodyuserlar, san’atkorlar, bir so‘z bilan aytganda barchamiz mas’ulmiz.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar insonning ta’sirisiz ro‘y bermaydi. Buning uchun avvalo, asriy an’analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak. Millatning tabiatida, qonida, nasl-nasabida ezgulik sari intilish mafkurasi va qonuniyati jo‘sh urishi lozim. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat’iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sir va oqimlarga qarshi tura olish, jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatlar (ichish, chekish, giyohvandlik va h.k)ga qarshi kurash yo‘llarini izlash - yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning oldida turgan muhim vazifalardandir.

---

<sup>23</sup> “Mustaqillik yillaridagi teatrlarimiz faoliyati” to‘g‘risidagi ba’zi ma’lumotlar “Istiqlol va milliy teatr” deb nomlangan to‘plamdan olingan. To‘plovchilar: N.Sayfullayev, E.O‘rinov. 2002-y.

<sup>24</sup> Prezident I.Karimovning Akademik drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so‘zlagan nuqi. 2001-y, 30-avgust.

Bunday ulkan ishlarni amalga oshirishda sahna san'atining ahamiyati beqiyosdir.

Respublikamizning birinchi prezidenti “Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil –bu ta’lim –tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir”<sup>25</sup>, deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarnini to‘g‘ri anglashga undaydi. Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi –bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarni eslayman”<sup>26</sup>, degan so‘zlari ta’lim va tarbiya sohasining o‘ta muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Spektakllarni sahnalashtirishdan asosiy maqsad ham insonlarga to‘g‘ri tarbiya berishdir.

Nasrullo Qobilovning “To‘da” asari ham aynan ana shunday ulug‘ maqsadlarni oldiga qo‘ygan holda yaratilgan asarlardan desak, yangilishmagan bo‘lamiz. Jamiyatimizda insonning yaxshi hayot kechirishi, chiroyli umrguzaronlik qilish, sog‘lom va baquvvat bo‘lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganligi hech kimga sir emas. Hozirgi davrga kelib, ayrim kimsalarning o‘z jonlari, mollari, jamiyatdagi mavqelariga katta zarar keltiruvchi illatlarga mubtalo bo‘lishlari ko‘rinib qolmoqda. Shularning ichida eng xatarlisi — “asr vabosi” deya mash’um nom olgan giyohvandlik balosidir. Giyohvandlik shuning uchun xatarliki, u insonni halol-pok yashashdan mahrum etadi, uning odamlar orasidagi obro’sini yo‘qotadi, oilasini parokandalik botqog‘iga otadi, sog‘ligiga jiddiy putur yetkazadi, o‘zini esa jinoyat yo‘liga boshlaydi. Eng fojialisini, u o‘ziga Alloh tomonidan berilgan “hayot” deb atalmish ne’matining zavolga uchrashi, erta o‘lim topishi kabi kulfatlarga uchraydi.

N.Qobilovning “To‘da” asari giyohvandlarning qismati, taqdiri, bu yo‘ldan qaytish yoki umuman bu yo‘lga kirmaslik kabi tushunchalarini ishonarli tarzda yoritilganligi - o‘ziga xos dramaturgik mahoratning namunasi sifatida qaralishiga asos bo‘la oladi.

<sup>25</sup> I. Karimov “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” T, 2012, 60-bet.

<sup>26</sup> O‘sha kitob,62-bet

Nasrullo Qobilovning “To‘da” asari hozirgi kunning eng dolzarb muammolarini ko‘tarib chiqqan asarlardan hisoblanadi. Undagi qahramonlarning har birining o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari, xarakterli xususiyatlari, yaxshi va yomon tomonlari, nimaga intilishi, nimadan nafratlanishi va boshqa jihatlari muallif tomonidan juda ta’sirli va mohirona tasvirlangan. Giyohvandlik muammosini tor ma’noda qarash kerak emas. U juda keng masshtabni egallagan muammolardan eng og‘iri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Butun dunyo bu muammo ni bartaraf qilish imkoniyatlarini izlamogda. Asarda bunday nopok yo‘lga, ya’ni giyohvandlikka kirib qolish sabablari, uni oldinda nimalar kutayotganligi, undan qutilish imkoniyatlari kam ekanligi – muallif tomonidan aniq tushuntirib berilgan.

Asarning bir nozik jihati borki, unda Samandar “sevib qolganligi uchun bu yo‘ldan qaytmoqchi”. Qarang, sevgining kuchi muallif tomonidan juda oddiy, samimiy va ishonarli qilib tasvirlangan:

- SUHROB – Qo‘ysang-chi, ignaga o‘tirganni na xudosi va na bandasi qutqara olmaydi.
- SAMANDAR – Men, muhabbat qutqaradi deb eshitdim...
- SUXROB – Nima?! Cho‘pchagingni katta xolangga ayt. Nima sen jinni bo‘lsang, boshqalarni ham aqldan ozgan deb o‘ylaysanmi?
- SAMANDAR – Sizlar muhabbatga ishonmaysizlar, men esa ishonaman.
- ASAD – Birodarlar, har hil bema’ni tush ko‘raverib, qadrdonimizni miyasi suyulib qolibdi.
- JAHON – Saman birovni sevib qoldingmi-a?
- OTASH – Kim ekan, o‘sha hurliqo?
- ABDU – Parivashingizni biz ham taniymizmi?
- ZULI – Go‘zalmi?
- ASAD – Aza ochinglar birodarlar, Samandan ayrilib qoldik.
- JAHON – Kindigimiz bir bo‘lsa, erta-kech ayrilmasak, qayerda ko‘ra qolding uni.



- OTASH – Bosinqirab tushida ko‘rgan-da.
- SAMANDAR – Yo‘q, o‘ngimda, soy bo‘yida ko‘rishdik.
- ZULI – Ko‘rding-u, oshiq bo‘ldingmi?
- SAMANDAR – Yo‘q dastlab bir-birimizga so‘zsiz uzoq tikildik, keyin tanishdik, so‘ngra suhbatlashdik...
- ASAD – Xo‘sh-xo‘sh nimalar haqida chug‘urlashdinglar?
- SAMANDAR – Ko‘p narsalar haqida. Alomat qiz ekan, umrimda eshitmagan gaplarni aytdi. «Shunday zamonlar bo‘ladi-ki unda yashaydigan odamlar KARAMLI, mehrlı, muhabbatlı kishılardan iborat bo‘ladi».-dedi. Hayotning mohiyati, yashashning ma‘nosi ezgulıkdir, pok, karamlı insonlar hamma balo-qazolardan qutqaradi»,-dedi.
- SUHROB – Karam nima degani ekan, so‘ramadingmi?
- SAMANDAR – So‘radim.
- ASAD – Men bilaman karam nima ekanligini. Karam sho‘rva.
- SAMANDAR – Karam, muhabbat, muruvvat, himmat degani ekan.
- VAQQOS – Tushunarsiz gaplarni javrab rosa boshingni qotiribdi-da.
- SAMANDAR – “Ezgulik, poklik, muhabbat giyohvandlikdan qutqaradimi”- deb qiziqdim. «Chin muhabbat qutqaradi, faqat sevish, sevilish, muhimi esa karamlı bo‘lish kerak»,-deydi.

Asarda qahramonning bu yo‘ldan qaytish imkoniyati borligini tasvirlanishi asarning salmog‘ini oshiradi. Chunki, juda ko‘p shu mazmundagi asarlarda, kinofilmlarda bu yo‘ldan qaytishning iloji yo‘qligi haqidagi g‘oya ilgari suriladi. Bu asarda esa Samandarning bu ishga chek qo‘yishga intilishi asardagi konfliktni kuchaytirishga asos bo‘ladi.

Bunday asarlar har qanday toifadagi odamlarni o‘ylashga, fikrlashga majbur qiladi. Haqiqatdan ham bu yo‘lning oxiri yo‘q, faqat

ajal bilan tugashi aniq bo‘lgan yo‘l. Bu yo‘ldan yurishni o‘z vaqtida to‘xtatishni ishora qilgan asar bu.

Asarning yana bir muvaffaqiyatli tomoni shundaki, bu guruhdagi bangilar o‘z-o‘zidan nashavandga aylanib qolishmagan. Muallif bu-larning qanday qilib bu yo‘lga kirib qolganligida juda katta mahorat bilan, ishonarli qilib tasvirlaydi:

SUXROB – (*Samandarga*) Sen kimlar uchun qayg‘urib kim-larga achinyapsan?

SAMANDAR– O‘zimga achinyapman, xolos.

SUXROB – Bizlarni quloqqacha gunohga botirganlarchi, ular aybdor emasmi?

SAMANDAR– Hech kim oyoq qo‘limizdan ushlab, og‘zimizga nasha tiqqan emas. O‘z ixtiyorimiz bilan giyohvand bo‘lganmiz. Odamlarda ayb yo‘q, ular mehrlil, muhabbatli, karamli...

SUXROB – Yolg‘on aytyapsan. Maraz, sen (*Yigitlardan birini ko‘rsatib*) anavudan qanday qilib to‘damizga qo‘shilib qolganini so‘rab ko‘r. Uning otasi vrach-genekolog bo‘lgan, hozir savdogar. Horijsa qatnab olib-sotarlik qiladi. Kiyim-kechak, latta-puttaga qo‘shib heroin olib kelib sotadi. O‘sha dorini chegaradan qanday qilib olib o‘tishini bilasanmi? Heroin solingan kichkina polietilen qopchalarni balog‘atga yetmagan, hali turmush qurmagan qizini bachadoniga joylab olib o‘tadi... bu sho‘ring qurg‘ur «Singlimni umrini xarob qilmang» degani uchun boyvachcha otasi oq qilib uydin haydab yuborgan... (*Asadni ko‘rsatib*) Mana buni “masxaraboz” deb, ustidan kulamiz, boyagina jilpanglama deb jerkidim, so‘kdim, lekin bu bechorani boshidan nimalar kechganini eshitganmisan? Onasi qazo qilib, besh yoshli ukasi bilan yetim qolgan. To‘rt oy o‘tmay otasi boshqa ayolga uylandi...

- ASAD – Kerakmas, gapirma...
- SUHROB – Nega? Nima uchun gapirmasligim kerak? Aksincha, sen bilan ukangni boshiga tushgan savdoni jar solib, butun dunyoga eshittirish shart! Masxarabozning otasi katta amaldor. Ertalabdan kechgacha ayshi-ishrat, maishat, dabdabozlikdan bo‘shamaydi. O‘gay ona esa uyida bolalarining boshida tayoq sindiradi. Bolalar o‘gay ona qilmishini otaga aytolmaydi, qo‘rqishadi. Otasi esa bolalaridan «holing ne?» deb so‘ramaydi. Masxaraboz-ku ba‘zan kaltakdan qochib qutilardi, lekin besh yoshli go‘dak-chi? Norasida bola qayoqqa qochsin? Tim qora ko‘zlaridan shashqator yosh oqizib, jajji qo‘llarini cho‘zib «onajon urmang» deb zorlanayotgan bolaning ahvolini ko‘z oldingga keltirib ko‘r, maraz.
- ASAD – Aslida ukam emas, men o‘lishim kerak edi. Nega o‘shanda o‘zim bilan birga olib ketmadim, nega!...
- SUXROB – Norasida go‘dakni urib o‘ldirgan ayol, yosh qizaloqning qornida «dori» tashib, o‘z pushti kamaridan bo‘lgan farzandini jonli «konteynerga» aylantirgan ota, ular ham muhabbatlimidi? Bandalariga karamli bo‘l, ishni buyurgan Alloh nega o‘gay onani isqirt qalbiga mehr-muruvvat bermadi. Har narsani bilguvchi Alloh nega go‘daklar «oh-u faryodini» eshitmadi?!

Asarning tarbiyaviy ta’siri shundaki, muallif Samandar obrazi orqali, ya’ni ularning o‘zlarining orasidan chiqqan yigitning bu yo‘lning oxiri nima bilan tugashini to‘g‘ri anglashi va bunga irodasini bo‘ysindira olishi va bu illatga qarshi kurasha olishidir. Asarda kim salbiy, kim ijobiy qahramon ekanligini darrov anglab olish mushkulroq. To‘g‘ri, nashavandlarni “yaxshi” yoki “ijobiy” deyish qiyin. Ammo, muallif ularning o‘ziga xos bo‘lgan ijobiy tomonlarini ham topishga harakat qilgan. Samandar ko‘rgan tush uning bu yo‘lning

xatarli ekanligini anglashiga yordam berganligi, Kamolaning da'vati, iltimosi, sevgisi - bu yo'ldan ketish kerakligini muallif juda ta'sirchan ifodalagan.

Rejissorning asosiy vazifalardan biri shuki, u tomoshabinlardan oldinroq yuradigan, unga nima yoqadi-yu, nima ma'qul kelmaydigan, nima qilsa teatr ijodiy guruhining faoliyati yaxshilanadi, qanday asarlar teatr repertuaridan o'rin olish kerak, degan savollarga albatta javobi bo'lishi kerak.

“To'da” asarining muvaffaqiyatli chiqishi Nasrullo Qobilovning sahnaning qonun-qoidalarini yaxshi bilishi, tomoshabinning dardini tushunishi, dramaturgiya, aktyorlik va rejissorlik qobiliyatlarining uyg'unlashtira olishida bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Chunki, ustoz Nasrullo Qobilov dramaturg sifatida o'zining aniq pozitsiyasini belgilab bergan. Uning rejissorlik ishlarida ham, aktyorlikka o'rgatish jarayonlarida ham aniqlik, konkretlik va har bir xatti-harakatga, so'zga talabchanlik uning ijodiga xos bo'lgan xususiyatlardandir.

Yoshlar tarbiyasida, ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishda, ularni ijodkorlikka yo'naltirishda, mutolaa madaniyatini shakllantirish va boshqa ijobiy hislatlarni jo qilishda sahna san'atining ahamiyati katta ekanligini doimo nazarda tutishimiz kerak.

N. Qobilovning “To'da” asari juda ko'p teatrlar repertuarlaridan o'rin olgan. Buning sababi bejiz emas. Hozirgi kunda terrorizm, jinoyat va huququzarlikka qarshi kurash, diniy eksterimizm va ekologik mavzular va h.k.lar –global mavzulardan hisoblanadi. Shular qatorida giyohvandlikka qarshi kurash mavzusi ham o'ziga xos keng ma'noda olib qaraladigan tushunchalardandir.

Asarning mazmunini yanada kengroq tushuntirish uchun tahlil qilib ko'ramiz.

Sahnalashtirish san'atida rejissorlik tahlil qilishni mukammal bilish juda ko'p muhim masalalar yechimini topishga yordam beradi. Tanlangan ijodiy mahsulotni, ya'ni, spektaklni “sahna”ga olib chiqish uchun albatta tomoshaviylik, effektlilik, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarni qo'llash lozim bo'ladi.

Tahlil to'g'risida gap borganda, rejissorlik tahlil, xatti-harakat tahlili, asar tahlili degan iboralarga duch kelamiz. Biz rejissorlik

tahlili haqida fikr yuritmoqchimiz. Chunki, rejissor dramaturgiya qonun-qoidalarini mahorat bilan qoʻllay oladigan inson boʻlishi kerak.

Rejissorlik tahlil qilinganda quyidagi savollarga javob berish lozim boʻladi:

1. *Muallif haqida maʼlumot.* Bu asosan, dramatik asarlarga tegishli boʻlgan qismdir. Biron-bir tadbir, bayram va tomoshalar sseniysini yaratishda bir necha mualliflarning asarlaridan (namunalar, parchalar, sheʼr, kuy va qoʻshiqlar)dan foydalanilgani uchun ham ularning barcha mualliflari haqida maʼlumot berish shart emas. Dramatik asarlarni tahlil qilganda esa uning muallifi haqida qisqacha maʼlumot beriladi.

Qobilov Nasrullo Qoʻchqorovich 1955-yilning 18-dekabrida Samarqandning Narpay tumanida tugʻilgan.

1977-yilda Toshkent davlat teatr institutini tamomlagan.

1977–1979 yillarda harbiy xizmatdan qaytgach, institutning “Dramatik teatr va kino aktyorligi” kafedrasida oʻqituvchi boʻlib ishlay boshladi. 1980–1982-yillarda Leningrad davlat teatr, musiqa va kinomatografiya institutida assistent-stajor, 1982–1987-yillarda Jizax viloyat musiqali drama teatrida rejissor sifatida faoliyat yuritdi.

1987-yildan Toshkent davlat sanʼat institutida katta oʻqituvchi, keyinchalik dotsent lavozimlarida ishlab kelmoqda. Hozirgi kunda Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutining “Musiqali, dramatik teatr va kino sanʼati” kafedrasida dotsent lavozimida ishlab, talabalarga sahnalashtirish sanʼatidan saboq berib kelmoqda.

Nasrullo Qobilni bir qancha dramatik asarlar muallifi hamda bir necha spektakllarni sahnalashtirishda oʻziga xos aktyorlik va rejissorlik mahoratiga ega boʻlgan sanʼatkor sifatida qarash mumkin.

U 1994-yildan Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi aʼzosi.

Institutda badiiy rahbar sifatida bir qancha kurslarda “Uylanish”, “Hiylaiy shari”, “Sarviquomat dilbarim”, “Zoʻraki tabib”, “Namrud” (Ibrohim alayhissalom tavalludlari), “Jononga bordim bir kecha”, “Xolisxon”, “Toʻda”, “Xonima xonim”, “Ortepa” kabi bir nechta spektakllarni sahnalashtirgan.

Nasrulla Kabilov dramaturg sifatida oʻzining “Yogʻiy” qissasi asosida, “Amir Muzaffar” videofilmi sseniysini yozdi va 1995-yilda

ushbu asari uchun “Turkiston umumiy uyimiz” Xalqaro mukofoti bilan taqdirlangan.

«Bir soatlik xalifa» pyesasi, «O‘tkir tishli kuchukcha», «Oy to‘lishgan tunda» qo‘g‘irchoq teatri uchun yozgan pyesalari, musiqali dramalaridan «Namrud», «Na malakman, na farishta», «To‘da» kabi asarlari Respublikamizning turli viloyat teatrlarida sahnalashtirilgan.

*Asarning mavzusi:* Mavzu muallifning shu asardagi voqelikka bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Pyesada ham, ssenariyda ham mavzu bu - fikr-mulohaza yuritish uchun tanlangan obyekt, hayotning ma‘lum masalalari va muammolaridir. Agar bironta madaniy tadbir biron sanaga bag‘ishlab uyushtirilsa, uning umumiy mavzusi o‘z-o‘zidan vujudga keladi<sup>27</sup>. Asarning mavzusi aniqlanayotganida, asar nima haqida, degan savolga javob bermog‘i lozim.

Nasrullo Qobilovning “To‘da” asari hozirgi kuning eng dolzarb muammolarini ko‘tarib chiqqan, dunyoni tashvishga solayotgan *giyohvandlik*, maishatbozlik va boshqa salbiy xususiyatlarni o‘zida aks ettira olgan asarlardan hisoblanadi.

*Asarning g‘oyasi:* G‘oya - bu asarda yoki tadbirda ilgari suriladigan ijtimoiy fikr, maqsaddir. Nima uchun kurashga chaqirish, maqsadning nimaligi g‘oyada ifodalanadi. Tadbirlar misolida oladigan bo‘lsak, masalan, 8-Mart bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan tadbir rejissori o‘z-o‘zidan ma‘lumki, onalarni ulug‘lash, ularni hurmatini joyiga qo‘yish, ularning qadriga yetish kabi g‘oyalarni ilgari surishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Nasrullo Qobilov “To‘da” asarining mavzusini she‘riy, adabiy yo‘nalishda mohirona ifodalab bergan. Giyohvandlar to‘dasidan o‘zlariga joy izlagan va buning oqibatida o‘zlari uchun choh qazigan nashavandlarning taqdiri ayanchli ekanligi, bu yo‘lga kirganlar uchun ortga yo‘l yo‘qligi, yosh umrni hazon qilmaslik, bir lahzalik orom uchun o‘z hayoti, xaqdirini hatarga qo‘ymaslik haqidagi asardir bu... Bu asar insonlarni ogohlikka chaqiradi. Ayniqsa, ota-onalar o‘z farzandlarini doimiy nazoratda ushlab turishi, ularning qayerda, kim bilan, nima ishlar bilan band ekanligidan xabardor bo‘lib yurishga chaqiradi bu asar...

<sup>27</sup> U.X Qoraboyev. “Badiiy ommaviy tadbirlar”. T., O‘qituvchi, 1986y., 36 bet.

Mazkur asar “Ey insonlar, ogoh bo‘ling, bu yo‘lning oxiri berk, oldinga ham ortga ham chiqishning iloji bo‘lmay qoladi”, degan da‘vat bilan chiqadi. Chunki, bunday odamlar insoniylik xususiyatlarini yo‘qotadilar. Bunday toifadagi odamlarning na jamiyatga, na oilaga foydasi bor. Ular shu jamiyatdan ham, unda yashayotgan odamlardan ham norozi. Muallif bunday odamlarni quyidagicha ta‘riflaydi:

**SUXROB** – Hech narsadan qo‘rqma. Sen aytgan narsalar hech qachon bo‘lgan emas. Karam yo‘q, muruvvat yolg‘on, ezgulik afsona, muhabbat sarob, na jin bor, na jahannam bor. Joning uzulmay, tanang sovumay, doridan ur, kayfingni sur, o‘ynab kul.

**SAMANDAR** – Xudo insonni bir umr baxt izlash azobi bilan jazolagan bo‘lsa, bizni bir umr «dori» axtarib topish azobi bilan jazolaganga o‘xshaydi. Yelib yuguramiz, kimnidir aldab, kimnidir talab, harom-xarish yo‘l bilan bir chimdim «zahar» topamiz. Talashib - tortishib zahrimizga yutamiz, bor dunyoni unutib, pinakka salom berib tushlar ko‘ramiz. O‘zimizni aldab, quloqqacha balchiqqa botib yashayapmiz.

**ASAD** – Birodarlar oramizdan ola chiqdi.

**SUHROB** – Hoy, masxaraboz, qiyshanglama,. Muchaling itmi deyman, nuqul dumingni likkillatib jilpanglaysan.

**ASAD** – A‘lo hazratlarimizni ko‘ngliga ozor yetkazibmizda, uzr.

**SUXROB** – Ovozingni o‘chir!

**ASAD** – Xo‘p bo‘ladi. Shu daqiqadan boshlab meni gung va soqov bangi deb hisoblanglar.

**SUXROB** – (*Samandarga*) Sen kimlar uchun qayg‘urib kimlarga achinyapsan?

**SAMANDAR** – O‘zimga achinyapman, xolos.

SUXROB – Bizlarni quloqqacha «gunohga» botirganlarchi, ular aybdor emasmi?

SAMANDAR – Hech kim oyoq qo‘limizdan ushlab, og‘zimizga nasha tiqqan emas. O‘z ixtiyorimiz bilan giyohvand bo‘lganmiz. Odamlarda ayb yo‘q, ular mehrlri, muhabbatli, karamli...

Bu yerda Samandarning o‘z aybini bo‘yniga olishi uning bu qilayotgan ishlarining oqibatini anglay boshlaganligidadir.

Kamolani onasining nashavandlar haqidagi fikri quyidagicha:

ONA – Kimga ko‘ngil qo‘yding, kimga, jon qizim?  
Kimni etagidan tutmoqchi bo‘lding?

KAMOLA – Onajon o‘tinaman qiynamang ...

Ona – Nahot g‘ururingni unutding butkul,  
Ojiz nashavandga qo‘ydingmi ko‘ngil?  
U yigit tengingmas, Bangi notovon,  
Qalbi majruh, tuban pastkash inson...

KAMOLA – Menga hozir achchiq dashnomlar emas,  
To‘g‘ri so‘z, samimiy maslahat kerak.

ONA – Ogoh bo‘l, yutmasdan laxta-laxta qon,  
Bul yo‘ldan qayt qizim, hali bor imkon.  
Yosh joningni qilma, behuda xazon  
Zor qaqshab bo‘lasan, qattiq pushaymon.

*Janri:* Janr bu asarning turi (tusi)dir. Dramatik asarlarning asosi pyesadir. Pyesa (fr.piese – butun yoki ulush, demakdir)- xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomidir. Janrning to‘g‘ri belgilanishi sahnalashtiruvchi rejissorlar, tashkilotchilar, ijrochilar vazifasini aniq belgilab olishlari, tomoshabinning asarning mazmun va mohiyatini tezda tushunib olishiga yordam beradi.

*Asarning kompozitsion tuzilishi.* “Kompozitsiya” haqida yuqorida alohida mavzu berilgan. Har qanday asarning muvaffaqiyati uning



kompozitsion tuzilishining to‘g‘ri belgilanishiga ham bog‘liq bo‘ladi. “To‘da” asari ham kompozitsion jihatidan mohirona qurilgan asarlar-dandir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Prolog asarning kirish qismi bo‘lib, voqeaning nima haqida ekan-ligiga avans beradi, ya‘ni dastlabki tushuntirish beradigan debocha-sidir.

“To‘da” asarida voqea quyidagicha boshlanadi:

Yalanglik. Tun. Oynning nurida tashlandiq masjidning butun qolgan mehrobi ko‘rinib turibdi. Mehrob yonida bir yigit, yolg‘iz o‘tiribdi. Bangilar guruhining boshqa yigit, qizlarining ahvoli og‘ir, biri ingraydi, biri alamidan kuladi, boshqasi titrab-qaqshab dodlaydi...

### ***Bangilar qo‘shig‘i.***

«O‘g‘rilik jinoyat  
Ta‘ma, kufur, qabohat,  
O‘zgalar haqqin yemak,  
Jaholatdir, jaholat»  
Dono so‘zlar ko‘p juda  
Quloq qomatga kelar,  
Hech kim qayg‘urmas nega,  
Bangi holi ne bo‘lar.  
Puldan cho‘z qilib himmat,  
So‘ng qilarsan nasihat.  
Dunyo palid notovon  
Avval nasha so‘ng iymon.  
Maslak nima bilmaymiz  
Elni ko‘zga ilmaymiz,  
Oxirat deb vaysama ,  
Pinagimiz buzmaymiz.  
Hayot palit notovon,  
Avval nasha, so‘ng iymon.

Yuqorida ta‘riflangan holat, ya‘ni, nashavandlar ahvolini ifodalagan “Bangilar qo‘shig‘i” voqeaning boshlang‘ich qismi bo‘lib, pro-logdir.

B) **Tugun** (voqeada tub burilish yasaydigan jarayon (payt, vaqt, holat va h.k). Tugun har qanday dramatik asarda “endi nima bo‘larkan?” degan savolni tug‘diradi. Masalan, aytaylik, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asaridagi eng kichik kelin Nigora-ning eski uy an‘analariga xilof bo‘lgan holda yarim yalang‘och holda (Farmonbibining ta‘biricha) sport kiyimida hovlida paydo bo‘lishi bu oila uchun judayam notanish holat. Hovlida paydo bo‘lgan Farmonbibining farzandlari va kelinlari “Endi nima bo‘larkan” deb hayron bo‘lishib, voqea davomini kutishadi. Yoki, Erkin Vohidovning “Oltin devor” asarida devorni buzilishi va oltinning topilishi ham tugun hisoblanadi.

“To‘da” asarida **tugun** Samandarning nashadan voz kechishga bo‘lgan birinchi harakatida namoyon bo‘ladi:

SUHROB – (*Samandarga yaqinlashadi*). Ha, bugun shashting bo‘lakcha, shumshayib chetda turibsan?

SAMANDAR – Yuragimga qil sig‘mayapti.....

SUHROB – Qaqshayapsanmi? Tashvishlanma og‘ayni, hozir davolaymiz, tozasidan bor, ko‘ngling nimani tusayapti? Hidlaysanmi yoki papirosga o‘raysanmi? Balki birato‘la igna urarsan?

SAMANDAR – Dod solgim, o‘kirib-o‘kirib yig‘lagim kelyapti...

SUHROB – Yorilsang-chi, nima bo‘ldi?

SAMANDAR – Dahshatli tush ko‘rdim, bosinqiradim  
Tushimda kimsasiz joyda yuribman,  
Qo‘rquvdan qaltirab, qaqshab turibman.  
Yer qa‘ridan chiqib, sassiq issiq bug‘,  
Vujudim kuydirdi bamisoli cho‘g‘.  
Birdan ko‘tarildi quturgan bo‘ron,  
Avval chang-to‘zonni uchirib har yon,  
So‘ngra tog‘larni ayladi yakson.  
Feruza osmonni qopladi g‘ubor,  
Quyosh ham qoraydi bo‘ldi xor-u-zor.  
Badbo‘y hid taratib qiynadi zamin,  
Go‘yo totdim achchiq ajalning ta‘min,  
Ko‘zlarimdan oqdi alamli ko‘z yosh,  
Dod solib yiqildim berolmay bardosh.  
Qarasam egnimda irigan kafan,  
O‘rnimdan qo‘zg‘oldim, shu on, dafatan,  
Bir go‘dak ko‘zimga termulib nogoh,  
Og‘riqdan bo‘kirib uyg‘onib ketdim...

SUXROB – G‘anim nelar demaydi, tushga nelar kirmaydi.  
Lirikani tugat...Zuli, o‘zinga kelib qoldingmi?  
Kalyuchkadan bitta ol. /*Shprtsni oladi*/ Mana tayyori,  
boshlab ber.

SAMANDAR – Nega bo‘g‘zimga chang soldi go‘dak?

SUXROB – Bo‘ldi-ye namuncha oh-voh qilasan... O‘tgan safar  
ko‘proq olgan eding, shunga qora xayol bo‘lgansan.

SAMANDAR – Ko‘z oldimda turibdi... Ana u, ana go‘dak...  
Go‘dakning g‘azab to‘la nigohi.

SUXROB – Bas qil! Aljiramay yengingni shimarib ignani sanch!  
Tez bo‘l!

SAMANDAR – Kerakmas.

SUXROB – Kerak.

SAMANDAR – Men kerakmas dedim!

- ASAD – Yo qudratingdan, quyosh qayoqdan chiqdi? Birinchi marta doridan voz kechganingni ko‘rib turibman. Mayli nima ham derdik bizga ko‘proq qoladi, to‘g‘rimi?
- SAMANDAR – Go‘dakning bo‘g‘zimga chang solishi, bangilikdan qutilishga ishoramikan...
- SUXROB – Qo‘ysang-chi, ignaga o‘tirganni na xudosi va na bandasi qutqara olmaydi.
- SAMANDAR – Men, muhabbat qutqaradi deb eshitdim...
- SUXROB – Nima?! Cho‘pchagingni katta xolangga ayt. Nima sen jinni bo‘lsang, boshqalarni ham aqlidan ozgan deb o‘ylaysanmi?
- SAMANDAR – Sizlar muhabbatga ishonmaysizlar, men esa ishonaman.
- ASAD – Birodarlar, har xil bema‘ni tush ko‘raverib, qadrdomimizni miyasi suyulib qolibdi.
- JAHON – Saman birovni sevib qoldingmi-a?
- OTASH – Kim ekan, o‘sha hurliqo?
- ABDU – Parivashingizni biz ham taniymizmi?
- ZULI – Go‘zalmi?
- ASAD – Aza ochinglar birodarlar, Samandan ayrilib qoldik.
- JAHON – Kindigimiz bir bo‘lsa, erta-kech ayrilmasak, qayerda ko‘raqolding qanjig‘ini.
- OTASH – Bosinqirab tushida ko‘rgan-da.
- SAMANDAR – Yo‘q, o‘ngimda, soy bo‘yida ko‘rishdik.
- ZULI – Ko‘rding-u, oshiq bo‘ldingmi?
- SAMANDAR – Yo‘q dastlab bir-birimizga so‘zsiz uzoq tikildik, keyin tanishdik so‘ngra suhbatlashdik...
- ASAD – Xo‘sh-xo‘sh nimalar haqida chug‘urlashdinglar?

SAMANDAR – Ko‘p narsalar haqida. Alomat qiz ekan, umrimda eshitmagan gaplarni aytdi. «Shunday zamonlar bo‘ladi-ki unda yashaydigan odamlar KARAMLI, mehrlil, muhabbatli kishilardan iborat bo‘ladi»,-dedi. Hayotning mohiyati, yashashning ma‘nosi ezgulikdir, ezgulik pok, karamli insonlar hamma balo-qazolardan qutqaradi»,-dedi.

SUXROB – Karam nima degani ekan, so‘ramadingmi?

SAMANDAR – So‘radim.

ASAD – Men bilaman karam nima ekanligini. Karam sho‘rva.

SAMANDAR – Karam, muhabbat, muruvvat, himmat degani ekan.

VAQQOS – Tushunarsiz gaplarni javrab rosa boshingni qotiribdi-da.

SAMANDAR – “Ezgulik, poklik, muhabbat giyohvandlikdan qutqaradimi”- deb qiziqdim. «Chin muhabbat qutqaradi, faqat sevish, sevilish, muhimi esa karamli bo‘lish kerak»,-deydi.

ABDU – Voy blin, qulog‘inga boplab lag‘mon osibdi, kim nima desa “lox” bo‘lib ishonib ketaverasanmi, turshak. Muhabbatga ishonma, sevgi sarob, odamlarga ishonma, inson zoti tuban ham qallob.

Shundan so‘ng voqelar shiddat bilan rivojlanib boradi (*voqealar rivoji*) va *kulminatsiyaga* keladi. Kulminatsion nuqtani quyidagi sahnalarda kuzatish mumkin:

SAMANDAR – Yig‘lama, kuyinma Kamola, biz albatta baxtli bo‘lamiz... Afsuski seni kech uchratdim, agar oldinroq ko‘rishganimizda nasha degan baloga yaqinlashmagan bo‘lardim.

KAMOLA – Onam to‘yimizga rozilik berdilar, biroq mendan kechib ketdilar.

*(Bangilar oyoq uchida yurib asta-sekin kirib kelishadi)*

- ABDU – Beozor musichalar ku-kuk-lashib turibdi.  
JAHON – Dil rozisi aytildimi?  
OTASH – Achom-kuchom bo‘ldimi, oshiq-ma‘shuqlar?  
ASAD – Birodarlar ogoh bo‘ling to‘y qilamiz, qotamiz.  
Giyohvandlik lazzatini maza qilib, totamiz

*(Bangilar guruhi raqs tushib kuylay boshlashadi)*

– Kelinchaklik libosi  
Yarashadi qizlarga  
O‘yin kulgu qilishni  
Qo‘yib bering bizlarga.  
To‘y qilamiz dovrug‘i,  
Fazolarga yetadi.  
Hatto quyosh hasaddan,  
Tim qorayib ketadi.  
Kuyov to‘ra besabr,  
Chimildiqqa shoshadi.  
Kelinposhsha boshidan,  
Tilla tanga sochadi  
Papirosga “chars” solib,  
Mayin-mayin tortamiz  
Kamluk qilsa ustidan  
Yuzta-yuzta otamiz

- KAMOLA – */Samandarga/* Ketaylik bu yerdan, tezroq ketaylik.  
OTASH – Qayoqqa ketasiz, xursandchilik qilamiz, o‘ynab kulamiz  
KAMOLA – Qo‘rqib ketayapman...  
SAMANDAR – Tinchlan, yigitlar hazil qilyapti

- ASAD – Birodarlar, kelinposhshoni cho‘chitmanglar. Tag‘in ertaklardagi ohulardek titrab-qaqshab, tipirchilab, dasht-u qirlarga qarab qochib qolmasin. Oh, dunyoda tengi yo‘q go‘zal hurliqo, aytingchi bu malohatni, bu latofatni qayerdan olgansiz?
- ZULI – Asad qizga tegajoklik qilma!
- ASAD – */Zuliga/* Sen aralashma toshingni ter, qanjiq. U-v, bangidan chiqqan «daho», qo‘lingdan kelsa qizingni himoya qil.
- JAHON – Asad, aqldan ozma, pichoqni tashla!
- ASAD – Nega! Samandarga rahmingiz keldimi? So‘zidan qaytgan qasamxo‘rga joningiz achidimi? Oramizga raxna solib, to‘damizni tarqatmoqchi bo‘lgan bir buzuqini deb menga, qo‘l ko‘tardingizmi?
- ABDU – Pichoqni tashla, galvars.
- ASAD – Ablahlar! Xoinlar! Hammangni o‘ldirish kerak!
- SUROB – Asad, yigitlar pichoqni tashla deyishdi, eshitmadingmi?
- ASAD – Eshitdim lekin tashlamayman!
- SUHROB – Meni gapimni ikki qilayapsanmi?
- ASAD – Ha!
- SUHROB – Nega?
- ASAD – Siz nega Samandarni yonini olayapsiz? Axir to‘damizga xiyonat qilayapti-ku!
- SUHROB – Samandar hech qayoqqa ketmaydi.
- SAMANDAR – Ketamiz!
- SUHROB – So‘ngi bor ogohlantirayapman, bizni tashlab ketma, Samandar!

SAMANDAR – Men baxtimni topdim, endi undan ayrilmayman.

*/Kamola bilan keta boshlaydi/*

SUHROB – To‘xta! So‘ngi bor rohat qil... */Shpris olib uzatadi/*

SAMANDAR – Aytdim-ku kerak emas deb */Shprisni olib sindirib tashlaydi/*

ASAD – Nega sindirding haromi! */Suhrobgga/* Xo‘jayin ijozat bering, iflosning jonini sug‘irib olaman!... Yo‘q demang, ruxsat bering...

SUHROB – Sabr qil!... Qizni ushlanglar!... Bilagini ochib doridan uringlar...

*/Asad bilan Otash Kamolaga tashlanadi/*

KAMOLA – Samandar qutqaring.

ASAD – Mana endi safimizga qo‘shiladigan bo‘lding, hurliqo.

SAMANDAR – Xo‘jayin, Zuli, Xo‘jayin, Zuli.

KAMOLA – A-a-a-a.

SAMANDAR – Kamola

*/Samandar Kamolani qutqarish uchun tashlanadi. Shu payt Zuli oraga kelib qo‘shiladi va pichoq Zuliga sanchiladi/*

SAMANDAR – Yig‘lama, Kamola!... Bu yerdan ketamiz... Bari-bir ketamiz...

Yechim - qarama-qarshiliklarning u yoki bu jihatdan hal qilinishi, tugunning yechilishidir.

Dramaturgiyada ko‘pincha yechim mavhumroq bo‘lib tugallan-ganday tuyuladi. “To‘da” asarida esa **yechim** aniq berilgan, ya‘ni:

SAMANDAR – Yig‘lama, Kamola!... Bu yerdan ketamiz... Bari-bir ketamiz...



*/Samandar bilan Kamola keta boshlashadi, ular Mehrob yoniga borib to'xtashadi, go'yo mehrobning darz ketgan bag'rini butun qilmoqchiday, silab-sipalay boshlashadi/.*

Yorishar oq sochli tog'larning boshi.  
Quyoshning nurlari yerni tig'laydi.  
Umidlar ulg'ayar entikib, shoshib,  
Muhabbat shavqini yoshlik kuylaydi.  
Tilaklarim tilim-tilim bo'lmasin.  
Baxtimizga g'anim ko'zi tegmasin.  
Bizlar hali olis yo'llar yuramiz,  
El mehrini, yurt baxtini ko'ramiz.  
Adashgan farzanddan, adashmagan ko'p,  
Adashganlar toldi jarohatlardan.  
Orzular tayanchi, zaminni o'pib,  
Qutilg'ay illat-u, qabohatlardan.  
Tilaklarim tilim-tilim bo'lmasin,  
Baxtimizga g'anim ko'zi tegmasin.  
Bizlar hali olis yo'llar yuramiz,  
El mehrini, yurt baxtini ko'ramiz.

Bu asardagi yechim juda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, qahramon ilohiy sevgi tufayli bunday qabohat yo'lidan qayta oldi. Bu asarning ahamiyatli jihati shundaki, nopok yo'lga kirib qolgan, giyohvandlik balosiga giriftor bo'lgan, hayotdan umidini uzgan odamlarga umid bag'ishlaydi, bunday yo'llardan chiqib ketish mumkinligiga ishonch paydo qiladi.

N.Qobilovning "To'da" asarida qarama-qarshiliklarni har bir qadamda kuzatish mumkin. Bu yerda Samandarning o'z guruhidagi nashavandlar bilan, Zulya bilan qilgan ochiq qarama-qarshiligi, Kamolaning onasining bu sevgi rishtalariga qarshiligi muallif tomonidan mahorat bilan berilgan. Aslida muallifning mahorati shundaki, bu yerda hamma o'ziga -o'zi qarshi, bir-biriga qarshi. Ular hech kimga ishonmaydilar, hayotdan sovib bo'lganlar. Ular jamiyat uchun juda xavfli odamlardir. Chunki, o'z nafi uchun bor-budini o'rtaga qo'yib,

o'sha "og'u"ni topish va totish, buning uchun esa hech narsadan tap tortmaydigan, uni sotib olish dardida har qanday qabihlikka boradigan odamlar – albatta jamiyat uchun ham xavfli ekanligini muallif sodda tilda, ammo, juda zeharli ravishda tasvirlay olgan. Samandarning bu yo'ldan qaytishiga kuch, iroda topishi asardagi konfliktni kuchaytirishga asos bo'lgan.

**7. Asosiy voqea va voqealar qatori .** Asosiy voqea-asarining mavjud bo'lishiga sabab bo'lgan voqea bo'lib, uning rivojlanishiga sabab bo'ladigan turtki desak ham bo'ladi. Agar shu voqea sabab bo'lmaganida umuman asarning o'zi bo'lmasdi, degan savolga javob berilishi kerak. Yuqorida keltirganimizdek, bunga misol qilib E. Vohidovning "Oltin devor" pyesasini keltirishimiz mumkin. Agar devor buzilmaganida Mo'min ota oltin topib olmasdi va u har kungiday oddiy turmush tarzini kechirgan bo'lardi, devorning buzilib oltin topilishi esa voqeaning rivojlanib ketishiga sabab bo'ldi. Demak, voqea rivojiga turtki bo'ladigan, qahramon hayotida tub burilish yasaydigan jarayon bu - asosiy voqea deb belgilanadi. Dramatik asarlarda asosiy voqea bilan birgalikda bosh voqea, markaziy voqea va yakuniy voqealar ham aniqlanadi. Ko'pgina holatlarda voqealar qatori kompozitsion tuzilish bilan bir xil ma'noda qo'llanishi mumkin.

**8. "Yetakchi xatti-harakat.** Bu oliy maqsadga olib boruvchi yo'ldir. Aktyor uchun yetakchi xatti-harakat bu qahramonlarining o'z maqsadlariga erishishidagi barcha harakatlari majmuidir. Etakchi xatti-harakat butun voqea rivojining asosi bo'lib, voqelikni yuragi hisoblanadi va unda bo'layotgan kurashlarni ochib beradi.

Oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat K.S.Stanislavskiy sistemasining asosiy mag'zidir. Oliy maqsad – bu xohish, yetakchi xatti-harakat esa shuni bajarishga intilishdir.

Samandarning shu yo'ldan chiqib ketish muhabbatga intilish yo'lidagi xatti-harakatlari asarning yetakchi xatti-harakatlarini belgilaydi.

**9. Oliy maqsad.** Sahnalashtirish san'atida oliy maqsad tushunchasi juda ko'p sharoitlarda qo'llaniladi. Agar muallif o'zi yozgan asari orqali nima demoqchi ekanligi to'g'risida gapirganda g'oya tushunchasini anglasak, oliy maqsad tushunchasi esa, men rejissor,

shu asarni sahnalashtirish orqali nima demoqchiman, nimaga erishmoqchiman va bunga qanday vositalar orqali etishishim mumkin, degan savollarga javob berishi kerak.

N.Qobilovning “To‘da” asarida oliy maqsad juda keng ma’noda olib qaralgan. Asarda giyohvandlikning zararli oqibatlari jamiyat uchun ham xavfli ekanligini anglash qiyin emas. Asardagi sevgi uchun kurashish, bu nopok yo‘ldan chiqishga intilish - qahramonlarning dialog (so‘zlari)da quyidagicha berilgan:

**KAMOLA** – Turibman o‘rtanib taqdirim jumboq,  
Ishqingiz taftidan holi jonim tang.  
Tuyg‘ungiz chashmiday musaffo biroq  
O‘tinaman, sof sevgim aldamang.  
Nahot qismatimiz zim-ziyo zulmat  
Panoh ber, yo‘l ko‘rsat, sevgi, muhabbat.

**SAMANDAR** – Shubhani ko‘nglingdan haydagin nari,  
Gumondan bag‘rimda og‘riq uyg‘onar,  
Ishqimga ishonching so‘ngani sari,  
Yuragimda hijron, alam, ulg‘ayar.  
Nahotki qismatim zim-ziyo zulmat  
Panoh ber, yo‘l ko‘rsat, sevgi, muhabbat.

“Panoh ber, yo‘l ko‘rsat, sevgi, muhabbat” so‘zlarida ularning hayotga bo‘lgan qiziqishi, sevgiga intilish va maqsadga erishish yo‘lidagi kurashi ifodalangan.

10. **O b r a z l a r g a x a r a k t e r i s t i k a.** Dramatik asarni tahlil qilganda, albatta obrazlarga xarakteristika berilishi shart. Chunki berilgan xarakteristikadan kelib chiqqan holda rol va ijro traktovka qilinadi. Bayram yoki tomoshalarda ishtirok etuvchilarning son jihatdan ko‘pligini hisobga olib ularga xarakteristika berish shart emas. Obrazlarga xarakteristika berilganda ularning yoshi, jismoniy tuzilishi, boshqalardan ajratib turadigan xarakterli xususiyatlari, qiziqishlari, kiyinishlari, dunyoqarashlari va eng asosiysi uning maqsadini aniq ifodalamoq zarur.

N.Qobilovning “To‘da” asaridagi ishtirokchilariga quyidagicha xarakteristika berish mumkin:

Samandar – 22 yoshlarda, oldiga qo‘ygan maqsadga har doim erishishga harakat qilgan. Doimo oddiy kiyinadi. Kamolani chin dildan sevadi.

Kamola – 18–20 yoshlar chamasida. Kamtarona kiyinadi. Samandarni haqiqatdan ham sevib qoladi. Samandarni bu yo‘ldan qaytarishga ko‘p harakat qiladi, bunga erishadi ham.

Kamolaning onasi – Yoshi 55-larda. Judayam oddiy kiyingan. Qizini bu tanlovdan qaytarmoqchi bo‘ladi, ammo oxir-oqibat rozi bo‘lishga majbur bo‘ladi.

Zuli – 20 yoshlarda. Samandarni sevganligi sabab giyohvandlar to‘dasiga tushib qoladi.

Suxrob, Asad, Jahon, Otash, Abdu, Vaqqos – yoshlari 25–30 larda. Hayotning mazmunini faqat “nasha” deb tushunadilar. Uni topish yo‘lida hech narsadan qaytmaydilar.

Nasrullo Qobilov qalamiga mansub “To‘da” asari ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dramatik manbadir.

Mazkur spektakl institut, kollej va maktablarda ham tarbiyaviy ta’sir vositasi sifatida bir necha talabalar sahnalarida ham qo‘yilgan. Jumladan, O‘sh davlat universiteti, Toshkent temir yo‘l transport muhandisligi instituti, Xalqaro iqtisodiy aloqalar va diplomatiya instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti va boshqa muassasalarda katta muvaffaqiyat bilan qo‘yilgan.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammosini ko‘tarib chiqqan asar sifatida mazkur asar - yoshlar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Bu mavzuni tahlil qilganimizning asosiy sababi shundaki, hozirgi kunda teatrlarimizda dramaturgiya masalasida muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida o‘ylaydigan vaqt kelganligidadir. Tadbir ssenariysini yaratishda mana shunday jihatlardan yondashish tomoshabinga tarbiyaviy jihatdan ta’sir qiladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. “To‘da” asarining muallifi kim?
2. Nasrullo Qobilovning ijodi haqida nimalarni bilasiz?

3. Mazkur pyesaning mavzusi nima haqida?
4. "To'da" asarining qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?
5. Biron-bir tadbirda shu pyesadan parcha tanlab, sahnalashtirib tomoshabinlarga ko'rsatilsa, qanday natijaga erishish mumkin?
6. "To'da" asarining asosiy qahramonlari kimlar?
7. Ushbu asardagi salbiy va ijobiy obrazlarni aniqlang va fikringizni izohlab bering.
8. N. Qobilovning yana qanday dramatik asarlarini bilasiz?
9. "To'da" asari qaysi teatrlarda qo'yilgan?
10. To'da asarini tahlil qiling.

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. "To'da" asarini o'qib chiqing va tahlil qiling
2. "To'da" asaridagi ijobiy va salbiy obrazlarni aniqlab, xarakteristika bering.
3. Giyohvandlik mavzusiga oid ssenariy yozing va mazkur pyesadan parcha tanlab, ssenariyingizga kiriting.

### **2.6. Ssenariy yaratish tartibi**

Har qanday tadbir ssenariysini yaratishda yuqorida aytib o'tganimizdek, o'ziga xos ketma-ketlikda qilinishi lozim bo'lgan ishlarni talab qiladi.

**Birinchisi**, tadbir (ssenariy)ni nomlash:

-Tadbirni to'g'ri nomlash kerak, zero u butun tadbirning mazmunini ochib bersin. Nomlaganda tadbir to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar mazmunini aks etib tursin. Masalan:

***O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining o'quv teatrida o'tkaziladigan Mustaqillikning 25 yilligiga bag'ishlangan "Mustaqillik muborak" deb nomlangan teatrlashtirilgan konsert dasturining ssenariysi.***

Yoki, aytaylik, *Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 1-son madaniyat va aholi dam olish markazida o'tkaziladigan "Navro'zi ayyomi muborak" nomli adabiy-badiiy, musiqiy kecha ssenariysi*, deyish mumkin.

Ba'zan biron-bir adabiy asarlardan olingan inssenirovkalarni nomlaganda xatoliklarni kuzatish mumkin. Masalan, A.P.Chexovning "Ko'rgoni keldim sog'inib" deb nomlangan spektakliga taklif qilamiz, kabi afishalarga ko'zimiz tushib qoladi. Aslida esa, *A.P.Chexovning "Iltimos" asari asosida tayyorlangan "Ko'rgoni keldim sog'inib"* spektakli deb nomlash maqsadga muvofiqdir.

Yoki *Said Ahmadning "Ufq" romani asosida tayyorlangan "Oh, bolam-a"* deb nomlangan kompozitsiyasi deb nomlash mumkin.

Xullas, ssenariyda tadbirning nomlashda sinchikovlik bilan yondoshish talab etiladi.

***Ikkinchidan***, ssenariy o'tadigan joyi va vaqti ssenariyning eng boshida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

***Toshkent shahar, G'ofur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkaziladigan, Navro'z tantanalariga bag'ishlangan "Yana keldi, yurtimizga Navro'z" deb nomlangan bayram tadbiri ssenariysi***

***Tadbir o'tkaziladigan sana: 2017-yil 21-mart Vaqti: soat 11.00***

***Uchinchisi***, tadbir o'tadigan joyni ta'riflash, sahna bezagi, unda joylashtirilgan anjomlar haqida ma'lumot berish kerak bo'ladi. Masalan: Quyichirchiq tumani madaniyat va aholi dam olish markazi xodimlari tomonidan Markaziy o'yingohda o'tkaziladigan "Navro'z –pok niyatlar ayyomi" ommaviy sayil ssenariysida quyidagicha beriladi:

*"Bahoriy bayram tongida karnay-surnay sadolari tabiat go'zaligi-yu, bahor faslining fusunkorligini madh etmoqda. Do'stobod shahri markaziy o'yingohi hamda markaz ko'chalari odamlar bilan gavjum. Markaziy o'yingoh va ko'chalarga "Navro'z bayrami muborak, jon O'zbekiston!", "Navro'z bayramingiz qutlug' bo'lsin!", "Elim e'zozlangan, suygan Navro'zim!" kabi shiorlar osib qo'yilgan. Maydonga, hududdagi daraxtlarga havo pufakchalari (sharlar) va bayroqchalar ilinib bezatilgan.*

*O'yingoh atrofida ko'chma do'konlar, qandolatchilik mahsulotlari va ichimlik suvlari bilan savdo do'konlari tashkil qilingan. Markaziy o'yingohning bir chekkasida tasviriy san'at turlari, har-xil hunarmandchilik buyumlari ko'rgazma savdosi tashkil qilingan. Bayram-*

ning qiziqarli o‘tishi uchun hofizlar, san’atkorlar, askiyachilar, badiiy jamoalari, tabarruk qariyalar, Mehnat faxriylari, Qahramon onaxonlar, shoirlari taklif qilingan. Mehmonlar o‘z joylarini egallagach, fon orqali yangrayotgan karnay-surnay sadolari ostida bayram jarchilari milliy kiyimlarda tadbirning boshlanishi, bahor kelganligi haqida jar sola boshlaydi”.

Yoki, Isoqtoy tomonidan yozilgan “Ayol qalbi - bahor elchisi” mavzusidagi ma’naviy–ma’rifiy, adabiy–badiiy tadbir ssenariysida bu jarayon quyidagicha tasvirlangan:

“Institut oldidagi maydon manzarasi ko‘ngillarga surur va bahoriy kayfiyat beruvchi lavhalar, bannerlar bilan bezatilgan. Tashrif buyurgan mehmonlarni institutning yosh o‘qituvchilar va iqtidorli yigit qizlari iltifot va yaxshi kayfiyat bilan qarshilaydilar. Universitet foyesi esa kunning mazmun mohiyatini namoyon qiluvchi ko‘rgazmalar, kitoblar ko‘rgazmasi, Zulfiyaxonim portreti hamda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan tuman oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar talabalari rasmlari, ular faoliyatiga oid lavhalar bilan diqqatni tortadi. Sozandalar jamoasi diltortar kuy chalmoqdalar. Institut xotin qizlari kengashi a’zolari turli yuqori tashkilotdan kelgan mehmonlarni kutib oladilar va institut xotin qizlar kengashi faoliyati bilan tanishtiradilar.

Belgilangan muddatda anjumanlar zaliga taklif qiladilar, mezbondar diplomatiya san’atining ibratli madaniyatiga xos e’tibor va iltifot bilan mehmonlarni kutib oladilar. Kuy fonida parda ochiladi.

Sahna bahor tarovati, mo‘tabar va munavvar zot - ayol timsolini aks ettiruvchi gullar, rang-barang gazlamalar,(atlas va adras) bilan bezangan, Zulfiyaxonim va uning bebaho va beqiyos adabiy xazinasidan namunalar ham kechaga alohida mazmun baxsh etib turibdi”.

Bu jarayonda ssenarist tadbir tashkilotchilarining fikrini ilg‘ab olib, uni boyitib berishi kerak bo‘ladi. Ssenarist o‘z tasavvuridagi sahnani o‘zining dunyoqarashi, tasavvuri bilan tasvirlaydi. Tadbir tashkilotchilarining ssenarist yozgan, uning tasavvuridagi narsalarni amalga oshirishga imkoniyatlari bo‘lmasligi mumkin. Chunki, hammamizga ma’lumki, hamisha ham tadbir o‘tkazish uchun barcha

shart-sharoitlar mavjud bo‘lavermaydi. Ssenariyda yozilgan hamma vazifalarni amalga oshirish imkoni bo‘lmaydigan sharoitlar ham ko‘p uchrab turadi. Ammo, ssenarist tomonidan berilgan shu kabi izohlar tadbir tashkilotchilariga tadbirni muvaffaqiyatli tayyorlashga katta yordam beradi.

**To‘rtinchisi**, ssenariyda mahalliy faktlarga asoslanish katta samara beradi. Bunga misol sifatida agar institut miqyosida olinadigan bo‘lsak, shu institutga xos bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanish tadbirning saviyasini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 17-yilligiga bag‘ishlangan “Mustaqillik – kelajagimiz garovidir” deb nomlangan bayram ssenariysi bunga misol bo‘la olishi mumkin.

Mazkur bayram tantanasi “Mustaqillik – bizning borligimiz, shonu-shuhratimiz, erkin va farovon kelajagimiz garovidir!” bosh g‘oyasi asosida o‘tkazilgan bo‘lib, aynan Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti professor-o‘qituvchilari va talabalarning yutuqlari, muvaffaqiyatlari haqida juda ko‘p ma‘lumotlar berilganligi bilan ahamiyatlidir. Unda o‘sha yillarda yaratilgan adbiyotlar, chet ellardagi tashriflar, Xalqaro aloqalarga doir masalalardagi institutning nufuzi, san‘at, sport sohasida erishilgan yutuqlarning ssenariyda ko‘rsatilishi tadbirning qiziqarli darajada o‘tishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

**Beshinchidan**, har qanday tadbir ssenariysini tayyorlashda did bilan rasmiylashtirish, so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, tushunarli holda yozish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ssenariyni yaratishda ssenarist o‘sha tadbir haqida juda ko‘p ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, uning sahnaviy ko‘rinishini tasavvur qilgan holda yondashishi muhimdir.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Ssenariylarga nom berishda qanday tamoyillarga asoslanish kerak?
- 2.Ssenariy yaratishda sahna bezagi haqida to‘liq ma‘lumotlarni berish shartmi?
- 3.Ssenariy yaratish ketma-ketligini aytib bering.



4.Ssenarist tasavvuridagi ko`rinishlarni amalga oshirishda tadbir tashkilotchilari qanday to`siqlar bo`lishi mumkin?

5. Ssenariy qanday rasmiylashtiriladi?

6.“Mahalliy faktlarga asoslanish” deganda nimani tushunasiz?

### **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1.Berilgan mavzu bo`yicha ssenariy yozing va uning dasturini tuzing.

2.Yozgan ssenariy bo`yicha sahna bezagini ta`riflab bering.

3.Mahalliy faktlarga asoslangan holda ssenariy yozing.

### **2.7. Afishalar va taklifnomalarni tayyorlash**

Afisha –o`tkaziladigan tadbir haqidagi ma`lumotlarni o`z ichiga olgan bo`lib, ko`rishga qulay joylarga o`rnatilgan maxsus e`londir. U tadbir tashkilotchilarining fantaziyasidan kelib chiqib tayyorlanadi. Uning o`lchovi har xil hajmda bo`lishi mumkin. Masalan, konsertlar reklamasi, spektakllar repertuarlari va boshqalar rassom ijodiyoti bilan uyg`unlikda tayyorlanadi.

Afishalar ko`pincha konsert dasturlari yoki biron-bir tadbir to`g`risidagi ma`lumotlarga asoslanib tayyorlanadi. Afisha tayyorlashda nimalarga e`tibor berish lozim:

1.Tadbir (konsert) nomini to`g`ri qo`yish;

2.Aniq manzilini ko`rsatish. Unga yaqin yerdagi mashhur nomlarga ega bo`lgan muassasalar mo`ljal sifatida berilishi mumkin;

3.Vaqtini aniq ko`rsatilgan bo`lishi kerak;

4.Ishtirokchilar haqida ma`lumot berilishi kerak;

5.Tadbir tashkilotchilari to`g`risida ma`lumotlarni berish mumkin;

6.Turli obrazli yechimlardan foydalanish mumkin;

7.Yozilgan so`zlar uzoqdan ko`zga tashlanishi kerakligi hisobga olinishi kerak.

8.Homiylar, fonogrammadan foydalanish yoki foydalanmaslik haqidagi ma`lumotlarni berish;

9.Rasm, foto suratlarni tanlashda jalb qiluvchi jihatlarini hisobga olish lozim.



Tadbirlarni tashkil etishda afisha tayyorlash ham asosiy tashkiliy ishlardan hisoblanadi. Uni tayyorlash jarayoni ham o'ziga xos tajriba, mahoratni talab etadi. Tomoshabinni jalb etish, uni tadbirga chorlashning eng zo'r usuli afishalarni qiziqarli qilib tayyorlashdir.

Afishalarni tayyorlashda rassom uning bir necha xil variantda eskizini tayyorlaydi. Eskiz rahbarning (tadbir tashkilotchisi, rejissor) tasdig'idan o'tgandan keyin tayyorlanadi. Teatrdan bu ishlarni asosan teatr rassomi bajaradi. Ammo, madaniyat va aholi dam olish markazlari, maktab va boshqa muassasalarda bunday e'lonlar tadbir tashkilotchilari tomonidan tayyorlanadi.

Afisha tayyorlash jarayonida obrazli yechim masalasini yaxshi tushunib olish katta samara berishi mumkin. Unda asar (tadbir)ning mazmun-mohiyatini ochib berishga yordam beradigan jihatlar ustida bosh qotirish kerak. Abdulla Qahhorning "Og'riq tishlar" asarining "Og'riq tishlar" degan yozuvini insonning sog' bo'lmagan tishlaridan iborat qilib yozish yoki Sh.Boshbekovning "Taqdir eshigi" asarini uyning ikki tabaqali eshigiga yozilganday qilib tayyorlash va h.k.lar bunga misol bo'la oladi.

Taklifnoma tayyorlashning turli usullari bor. Bitta A-4 qog'ozni ikki yoki uchga bo'lib tayyorlash eng qulay usullaridan hisoblanadi<sup>28</sup>.

Taklifnomalar kundalik o'tkaziladigan tadbirlarda ko'p ishlatiladi. "Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik" bo'limi talabalarini hisobot konserti yoki "Ota-onalar kuni"ga bag'ishlab o'tkaziladigan va boshqa shu kabi tadbirlar bunga misol bo'la oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, tadbirni tayyorlash jarayonidagi tashkiliy ishlar (ssenariy yozish, taklifnomalar, afisha tayyorlash, repititsiyalar uchun sharoitlar yaratish, badiiy jamoalar bilan ishlash va boshqalar)ni ikkinchi darajali ish deb qaralmasligi kerak. Ko'pgina hollarda faqat ijodiy ishlarga katta e'tibor berilib, tashkiliy ishlar bajarilmay qolganligi tufayli, tadbir saviyasi tushib ketganligi haqida gapiramiz. Bu ikkala jarayonni ham birday olib borish tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

<sup>28</sup> Izoh: Taklifnomalarni tayyorlash bo'yicha namuna qo'llanmaning "Ilovalar" qismida berilgan.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Afisha soʻzining maʼnosi nima?
2. Afishalarni tayyorlashda nimalarga eʼtibor berish kerak?
3. Tadbirlarga aholi qanday jalb qilinadi?
4. Taklifnoma, eʼlon tayyorlashda qanday jarayonlar amalga oshiriladi?
5. Ssenariyda “obrazli yechim” tushunchasidan foydalanish mumkinmi?

## **Mustaqil ishlar uchun topshiriqlar**

1. Biron-bir tadbir uchun taklifnoma va afishaning eskizini tayyorlang.
2. Aholini tadbirga jalb qilishga oid afisha tayyorlang.
3. “Mahallada “Ota-onalar” majlisi oʻtkaziladi. Majlisdan soʻng shu mahalla iqtidorli yigit-qizlari ishtirokida konsert dasturi namoyish etiladi”. Mana shu tadbirga eʼlon tayyorlang.

## Xulosa

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ma'naviyat masalariga e'tibor judayam kuchaydi. Komil insonning tarbiyasi barcha mana shu yurtda yashayotgan insonlar uchun dasturi amal bo'lib qoldi. Yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat masalalari davlat darajasida muhokama etilib, tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, madaniyat va san'at muassasalari xodimlariga ham bu ishlarda tegishli aniq va maqsadli vazifalarni amalga oshirish ma'suliyati yuklangan. Shu jihatdan olib qaralganda madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarga ma'naviy ozuqa berish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali va maqsadli tashkil etish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish va boshqa ijobiy xislatlarni uyg'otish kabi vazifalar –oldimizda turgan ulkan ishlardir. Madaniy tadbirlarni to'g'ri tashkil etishdagi asosiy vazifalardan biri uning dramatik asosini to'g'ri tuzish, manbalardan to'g'ri foydalanish va uni tadbir ssenariysiga jo etish, tadbir o'tkazish orqali insonlarga ta'sir o'tkazish va tarbiyalash kabi muhim jihatlarni hisobga olgan holda yondoshish –tadbir tashkilotchilarning asosiy ijodkorlik qobiliyatlarini namoyish qilishdagi xususiyatlaridandir. Ijtimoiy hayotning moddiy va ma'naviy jihatlari chambarchas bog'liq bo'lib, inson hayoti, turmushi, jamiyatdagi o'rni masalasi yaxlit birlikda namoyon bo'ladi. Barcha madaniy tadbirlarni tashkil etish uchun qo'llaniladigan usul va vositalar ma'naviy hayotimizning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada madaniy tadbirlarning tashkil etishning tarbiyaviy jihatlari, tadbirning dramaturgiyasini yaratish, kompozitsiya shakliga keltirishning nazariy asoslari, dramaturgiya asoslari, g'oyaviy talqin va boshqa ta'sirchan vositalardan foydalanish kabi masalalarni yoritish orqali madaniy tadbirlar dramaturgiyasi mazmunining o'ziga xosligi ochib berilgan. Ayniqsa, inson ruhiyati va ma'naviy ehtiyojini o'rgangan holda, hujjatlar va faktlar bilan ishlashdagi, madaniy tadbirlar shakllarining o'ziga xosligi jihatdan yondashuvi masalalariga katta e'tibor berish, tadbirlarni tashkil etish

jarayonidagi muammolar va ularni hal qilish usullari haqida hali juda ko'p izlanishlar olib borish kerak bo'ladi.

Demak, ijtimoiy tuzumning ilgari surayotgan g'oya va maqsadlarini keng jamoatchilikka yetkazish hamda ularga nisbatan ijobiy yondashuvni shakllantirish muammosi sotsial texnologiyalar oldida turgan bosh vazifadir. Shuningdek, reklama axborotini tarqatish va jamoatchilikning fikrini paydo bo'lishiga erishish yo'li bilan targ'ib qilinayotgan, u xoh ishlab chiqarish bilan bog'liq mahsulot bo'lsin, xoh jamiyat manfaatlarini o'zida aks ettirgan ijtimoiy masala bo'lsin, birdek ahamiyatga egadir.

Kishilar ongi va qalbi uchun kurash kechayotgan bugungi kunda mamlakatimizda "milliy model" asosida ish olib borish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Bu esa targ'ibot-tashviqot ishlariga yangicha texnologiyalar, yondashuvlar, uslub va vositalarni jalb etishni talab qiladi. Joylarda tashkil etilayotgan ko'pgina madaniy tadbirlarning saviyasini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Oddiy konsert dasturi, kuy yoki qo'shiqning o'zi insonlarga kerakli tarbiyaviy effektini bermasligi mumkin. Har qanday dasturni, har bir chiqishni ma'lum g'oyani ilgari surgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'tkazilayotgan va tashkil etilayotgan tadbirda turli usul va vositalarning ta'sirchanlik darajasi, masalan, viloyat va qishloqlarimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolarga odam savdosiga bag'ishlangan kompozitsiya tayyorlab uni namoyish etishda ishontirish metodlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, yuqorida keltirib o'tganimizdek, odam savdosi masalalari hozirgi kunda katta yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi. Chet ellarda mo'may daromat ishlab kelishni orzu qilayotgan fuqarolarimizga bu narsalarning hammasi safsata ekanligi ishontirish, u yerlarda pul topish oson emasligini ularning ongiga singdirish kabi maqsadlarni qo'ygan holda yondashishni taqozo etadi.

Madaniy tadbirlar dramaturgiyasining asosi bo'lmish ssenariylarni yaratishda madaniy tadbir tashkilotchisi Vatanimizdagi buyuk o'zgarishlarni his qila olishi, zamon bilan hamnafas bo'lish, jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirish kabi umumdavlat miqyosidagi muhim vazifalarni to'g'ri anglagan holda yondashuvini taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi

jamiyatni bunyod etish jarayonini yanada jadallashtirish, kishilardagi milliy gʻurur tushunchasini yanada mustahkamlash, oʻz taqdirini mamlakat, xalq taqdiri bilan mustahkam bogʻlay oladigan, yangi jamiyatni bunyod etish jarayonida faol ishtirok etadigan yoshlarni tarbiyalash va boshqa muhim vazifalar –tadbirlarni tashkil etishdagi asosiy maqsad qilib qoʻyilmogʻi lozim. Milliy gʻururi bor kishigina oʻz taqdirini, oʻz manfaatini Vatan, xalq taqdiri bilan, Vatan, xalq mafaati bilan bogʻlay oladi. Vatan xalqning manfaatlarini yurakdan himoya qiladi. Mamlakat fuqarolarining milliy gʻururi qancha koʻp boʻlsa, ularning mamlakat taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi ham shuncha koʻp boʻladi. Jamiyatimiz maʼnaviyatida taʼlim va tarbiya uygʻunligi muhim negiz boʻlib, uning asosiy tushunchalari fuqarolarimizning ongi va qalbida tarkib topmoqda.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obroʻ-eʼtibori avvalambor farzandlarimizning unib-oʻsib, ulgʻayib, qanday inson boʻlib hayotga kirib borishiga bogʻliqdir. Biz bunday oʻtkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.<sup>29</sup>

Bugun biz tarixiy bir davrda - xalqimiz oʻz oldiga ezgu va ulugʻ maqsadlar qoʻyib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor oʻz kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida ulkan natijalarni qoʻlga kiritayotgan bir zamonada yashamoqdamiz.

Biz oʻz taqdirimizni oʻz qoʻlimizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yoʻlda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama toʻgʻri tushunib, tanlagan taraqqiyot yoʻlimizni ongli ravishda qabul qilgani va qoʻllab-quvvat-

---

<sup>29</sup> Karimov I. A. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. –T.: Oʻzbekiston, 1999.

layotgani oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish, madaniyat va aholi dam olish markazlarida aholiga barcha xizmat turlari bo‘yicha xizmat qilish, ularni estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirish, yangi zamonaviy madaniyat va san‘at maskanlarini barpo etish kabi ishlarini amalga oshirish va buning asnosida tarbiya o‘choqlarini yaratish –davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardandir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi “2013–2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-son qarorida ham belgilangan vazifalar ana shunday ulug‘ maqsadlarga yo‘naltirilgan. Aholi va dam olish markazlarida, bog‘lar (parklar)da, turli tashkilotlarda, madaniyat va san‘at maskanlarida o‘tkaziladigan har bir tadbirning asosini tashkil etadigan ssenariylar yaratilishida biz madaniyat xodimlarining hissi katta bo‘lmog‘i muhimdir.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilinishi xalqimizning azaliy intilishlari, armonlarini ro‘yobga chiqarishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan 5 ta asosiy ustuvor yo‘nalishlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadbirlarni tashkil etish muhim o‘rni tutadi.

Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch” kitobida shunday ta‘kidlangan: “Biz odamlarning ma‘naviy tarbiyasini o‘ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko‘zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz. Masalaning boshqa tomoni - ma‘rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to‘laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo‘lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o‘choqlarini ko‘paytirish, ularning sharoitini yaxshilash”<sup>30</sup>, kerakligi haqidagi aytgan gaplari madaniyat va ma‘rifat maskanlarida tashkil etiladigan tadbirlarga ham tegishlidir.

<sup>30</sup> I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat –yengilmas kuch. Toshkent,2008,47b



O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakat strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” bo‘limida “Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun” degan eng muhim tamoyillardan birini amalga oshirish masalasiga katta e‘tibor qaratilishi bu sohaning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, O‘zbekistonda madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish borasida juda ko‘p hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 15-fevraldagi Farmoniga asosan “madaniyat muassasalari, jumladan, teatrlar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari, muzeylar hamda boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, ma’naviy yetuk, intellektual barkamol va yuksak madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishida ushbu muassasalar imkoniyatlaridan yanada to‘liq foydalanish”<sup>31</sup> masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Madaniyat va san‘at maskanlarida, xususan, madaniyat va istirohat bog‘larida o‘tkaziladigan tadbirlarda eng asosiy masala “milliy madaniy va ma’naviy merosimizni asrab-avaylash va boyitish, san‘at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, aholining ma’naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada oshirishni rag‘batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish bo‘yicha tizimli choralarni amalga oshirish, aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g‘oyasiga, yuqori ma’naviyat va insonparvarlik an‘analariga sadoqat tuyg‘ulari yanada chuqur ildiz otishi, radikalizm va ekstremizmdek yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning o‘sib kelayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan madaniy-ommaviy tadbirlar o‘tkazish bo‘yicha ishlarni tashkil etish” ga muhim ustuvor masala sifatida qarashimiz lozimdir.

---

<sup>31</sup> Sh.Mirziyoyev.“Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 15-fevraldagi Farmoni

Respublikamiz rahbari o'zlarining barcha chiqishlarida, mutasaddilar bilan suhbatlarda, intervyularda, ma'ruzalarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yoshlarning o'rnini juda yuqori baholab, ularga nisbatan juda katta ishonch bildiradilar. Yoshlar tarbiyasi uchun esa barcha soha vakillari ma'suldirlar. Jumladan, madaniy-ma'rifiy maskanlar, ya'ni madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniyat va istirohat bog'lari va eng asosiysi kadrlar tayyorlaydigan ma'rifat o'choqlari bu masalada birinchilardan bo'lmog'i lozimdir.

Respublikamiz rahbari prezidentlikka saylovlar davridayoq bu madaniy-ma'rifiy masalalarning dolzarbligini e'tirof etib o'tganlar. Madaniyat va san'at maskanlarining moddiy texnika bazasini kuchaytirish, aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan faoliyatlarda doirasida juda katta samarali ishlar rejalashtirilgan va amalga oshirilmoqda. Birgina misol: Poytaxtimiz aholisi tomonidan shaharda madaniyat va istirohat bog'lari yetarli emasligi haqida ko'plab e'tirozlar bildirilayotganligini haqida davlatimiz rahbari kuyinib gapirdilar. Bu boradagi ishlarni yaxshilash maqsadida maxsus dastur ishlab chiqish, 2017-yilda Toshkent shahrida 8 ta yangi madaniyat va istirohat bog'i barpo etish, ularni joylashtirish uchun Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Uchtepa, Sirg'ali, Chilonzor, Shayxontohur va Yashnobod tumanlarida tegishli yer maydonlari ajratish, Bektemir tumanida, Chirchiq daryosi qirg'og'ida 70 gektar maydonda umumiy qiymati 80 million dollar bo'lgan, dunyodagi eng mashhur "Disneylend" parklaridan qolishmaydigan Markaziy Osiyodagi eng katta zamonaviy antraksionlar bog'i qurilishi haqidagi loyihalarni amalga oshirish borasidagi sa'yi harakatlar fikrimizni tasdiqlaydi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti mobaynida G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'i faoliyati bilan tanishishi bunday maskanlarning qimmatli ahamiyati haqida fikrlarimizni to'ldiradi. (Birgina G'.G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan tadbirlar misolida ko'rib chiqamiz).

Deyarli ellik yillik tarixga ega bo'lgan ushbu fayzli maskanda yiliga 50 dan ortiq madaniy tadbirlarni tashkil etganligi madaniyat sohasi xodimlariga bu sohada yetarlicha ishlar borligidan dalolat beradi.

Masalan, «Navoiy bo'stoni», «Yassaviy o'g'itlari», «Temur va Temuriylar» mavzuidagi tadbirlar, «Do'st bilan obod uying», «Chusok», «Tano», «Saban to'y» kabi do'stlik bayramlari, «Tabarruk yoshingiz muborak!», «Qaynonam — onam mening!», «Baxt to'yingiz muborak!» kabi yangicha marosimlar, «Sog'lom avlod uchun» san'at va sport bayramlari, «Ma'naviyat saboqlari» deb nomlangan siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, tibbiy va kasbiy savodxonlik maktabi mashg'ulotlarining o'tkazilishi, «Ma'naviyat gulshani» nomli an'anaviy ilmiy-amaliy, adabiy-musiqiy qiziquvchilar muloqoti hamda «Mumtoz navolar» davralari, «Sog'lom oila — yurt istiqboli», «Oila sha'ni muqaddas», «Oila — muqaddas Vatan», «Oila — jamiyat tayanchi», «Oila — barkamollik asosi» kabi mavzularda «Yosh oila quruvchilar maktabi»ning tadbirlarni o'tkazish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, yosh yigit-qizlarni oila qurishga bag'ishlangan tadbirlar shahrimiz aholisining estetik ehtiyojlarini qondirib, ularning mazmunli dam olishlariga asos bo'lmoqda. «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli elning farzandlari sog'lom bo'lur» mavzuida san'at va sport bayrami, may oyida «Sog'lom bola — sog'lom kelajak» sport musobaqasi, «Talabalar bayrami» ommaviy mavzudagi talabalar bayrami, iyunda «Har bir farzandga mehr-e'tibor» shiori ostida Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan haftalik, iyulda «Sog'lom oila — sog'lom farzand» sport musobaqalari, «Sog'lom bola — kelajak poydevori» mavzuida ilmiy-adabiy davra suhbatlari, «Xush kelibsan, o'lkamga Navro'z» Navro'z sayli, Xotira va Qadrlash kuniga bag'ishlangan «Ajdodlar xotirasi mangu barhayot!» tadbiri, O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi bayramiga bag'ishlangan «Istiqloling qutlaymiz, obod O'zbekistonim!» bayram sayli, «Ona tilim — jonu dilim», «Bayrog'imiz faxrimiz!», «Qomusidan baxt topgan diyor!» mavzularidagi tadbirlar, «O'lan aytgali keldik» do'stlik festivali, «Do'stlik ohanglari tutsin olamni!» san'at festivali, «Navolarda asrlar sadosi» kabi tadbirlar mazkur maskanda olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar natijasidir. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish kerakki, aholi o'rtasida madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish — ularning kelajakdagi mehnat faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishini

hisobga olib, tadbirlarni mazmunli tashkil etish katta e'tibor qaratish lozim. Buning uchun esa uning asosiy mazmunini ochib beruvchi ssenariylarni yaratishga katta e'tibor qaratish muhimdir.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, madaniy tadbirlarni to'g'ri tashkil etish, uning dramatik asosi bo'lmish puxta, badiiy jihatdan mukammal ssenariylarni yaratish, sahnalashtirish va uni hayotga tatbiq etish madaniyat va san'at sohasi bilan shug'ullanuvchilar, jumladan, bizlardan katta bilim va g'ayrat talab qiladiki, bizlar ham bunday ulug' ishlarni amalga oshirishga bor kuchimizni sarf qilib, mehnat qilamiz.

# “SSENARIYNAVISLIK MAHORATI” FANI BO‘YICHA GLOSSARIY

- Afisha** - spektakllar, konsertlar va madaniy tadbirlar, tomoshalar to‘g‘risida xabar beruvchi, ko‘zga ko‘rinarli joylarga yopishtirilgan maxsus e‘lon.
- Drama** - 1. Muallif nutqisiz, yani diolog shaklida yozilgan va sahnada ijro etish uchun mo‘ljallangan badiiy adabiyotning dramatik turi. 2. Tor ma‘noda – dramatik adabiyotning bir qismi, tragediyadan hayot hodisalarining o‘rtacharoq o‘tkirlikda tasvirlovchi bilan, komediyadan esa hayot hodisalarini kulgi orqali emas, balki jiddiy tasvirlash bilan farq qiladi.
- Dramaturgiya** - 1. Dramatik asarlar majmuasi. 2. Dramatik asar tuzilishi haqidagi nazariy. 3. Sahnaga uchun mo‘ljallanib yozilgan asarlar majmui.
- Insenirovka** - drama shaklida yozilmagan adabiy asarni teatr sahnasi, radio, televideniye uchun moslab qayta ishlash va shuning natijasida yaratilgan asar.
- Tadbir** - biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro‘yobga chiqarish vositasi; puxta o‘ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmui.
- Komediya** - ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yaramas xususiyatlarini kulgi vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq, xushchaqchaq xarakterdagi sahna asari.
- Konsert** - 1. Oldindan tuzilgan muayyan dastur asosida san’atkorlarning sahnaga (shuningdek, radio va televideniya) chiqishi. 2. Bir, ba’zan ikki-uch asbob va orkestr uchun yozilgan, odatda virtuoz xarakterdagi musiqa asari.
- Kulminatsiya** - biror voqea yoki hodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta, avjiga chiqish.

<b>Monolog</b>	- Mono –“bir”, log- “so‘z” demakdir. Bir kishi tomonidan aytilgan so‘z.
<b>Repertuar</b>	- 1. Teatr, konsert, estrada va h.k.da ijro etiladigan asarlar majmui. 2. Biror san’atkor ijro etadigan rollar, musiqa asarlari va boshqalar majmui.
<b>Ssenariy</b>	- asar tuzilmasi. Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan bo‘lib, to‘laqonli badiiy asar. Ital.”scenario”- asarning rejasi demakdir. O‘tkaziladigan bayram yoki tomoshaning to‘liq yozma bayoni
<b>Sujet</b>	- badiiy asarning asosiy mazmuni va undagi voqea yoki o‘zaro uzviy bog‘langan va ketma-ket rivojlanib boradigan voqealar yig‘indisi, tasviriy san’atda tasvir buyumi.
<b>Teatrlashtirgan ommaviy tomoshalar</b>	- noan’anaviy sahnalarda o‘tkaziladigan biror mavzu yoki sanaga bag‘ishlangan teatr elementlari bilan boyitilgan katta omma ishtirok etadigan tadbir.
<b>Anturaj</b>	- Sahnaviy kengliklarni raqs harakatlari bilan to‘ldirish, boyitish
<b>Analiz</b>	- (yun. analysis) – qismlarga bo‘lish, tahlil qilish.
<b>Artist</b>	- (fran. artiste – san’atkor, ijodkor, lot. ars -san’at) – musiqa, drama va boshqa shu kabi san’at turlarini ko‘pchilik o‘rtasida ijro etuvchi, bajaruvchi va bu san’atni o‘ziga asosiy kasb qilib olgan kishi.
<b>Adabiyot</b>	- ar. «odoblar yig‘indisi, odoblar xazinasini» degan ma’noni bildiradi.
<b>Badiiy obraz</b>	- Ijodkorning fikr, tuyg‘u, sezgi va kechinmalari singdirilgan hayot manzarasi tasviri.
<b>Bayram</b>	- Turkcha “to‘y-marosim, xursandchilik, shodiyona”, qadimgi yahudiy (dr.yevr.) tilida “xach-xachat” - raqsga tushmoq, lot. festivus –“bayramona” degan ma’noni anglatadi.

- Vodevil** - (fran. vaudeville) – 1. Musiqa joʻrligida ijro etiladigan yengil hajviy asar. 2. Hajviy opera va pyesalarda sahnada qatnashuvchilarning hammasi tomonidan ijro etiladigan naqoratli qoʻshiq.
- Dialog** - (yun.dialogos) – ikki kishining oʻzaro suhbatlashuvi.
- Diletant** - (ital. dilettante – huzur bermoq) – sanʼat yoki fanning bir sohasi bilan professional holda emas, aksincha shunchaki havaskorlik yoʻlida shugʻullanuvchi.
- yetakchi xatti--  
harakat** - oliy maqsadga olib chiquvchi yoʻl
- Janr** - (fr. genre – tur, uslub) asarning tuzilishi, ijrochilik tarkibi, xarakteri bilan ular turlicha boʻladi. Masalan, dramatik asarlarning drama, komediya, tragediya turlari mavjud.
- Inssenirovka** - lot. insurgens – nasriy va nazmiy asarlarni teatr uchun qayta ishlash. Adabiy asarlarni dramatik holatga keltirish.
- Improvizatsiya** - (lot. improvisus) – «toʻsatdan, kutilmagan, tasodifan» degan maʼnoni bildiradi.
- Interpretatsiya** - (lot. tushuntirish, talqinlash) asarlarning ijodiy ijro etishdagi talqini.
- Kulminatsiya** - Lot. “culmen, culminis”- choʻqqi, harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi
- Kompozitsiya** - Lot. “qurmoq” – asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning oʻzaro bogʻlanishi
- Monolog** - Gr. “mono”– bir, “logos” - soʻz, bir kishi tomonidan ijro etiladigan parcha

- Mizanssena** - fr. mise en scene –sahnada joylashish. Konfliktlarni plastik harakatga ko‘chirish, sahnada aktyorlarning joylashuvi, harakati, kichik sahnalar
- Montaj** - fr. montage - epizodlar, bloklar, voqealarni bir-biriga mantiqiy jihatdan bog‘lash
- Obraz** - Keng ma’noda ijodkorning fikr-tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi, tor ma’noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi.
- Publitsistika** - (lot. ijtimoiy) – keng ma’noda, ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar. Tor ma’noda, davlat va jamiyat hayoti masalalariga bag‘ishlangan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy adabiyot.
- Repetitsiya** - (lot. repetito – qaytariq) – mashq, tayyorgarlik. Rasmiy ijro oldidan o‘tkaziladigan tayyorgarlik.
- Rakurs** - fr. raccourci - uzoqdagi buyum tasvirining kichraytirilgan ko‘rinishi.
- San’at** - “Sun”, ya’ni “yaratmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, badiiylik yaratish, voqelikni obrazlar vositasida aks ettirilishi.
- Sujet** - fr.sujet - predmet, narsa, mavzu, mazmun. Badiiy asarning o‘zaro bog‘lovchi va jonlantirib boruvchi voqealar tizimi, fabulaning yoritilishi.



**“SSENARIYNAVISLIK MAHORATI” FANIDAN TEST SAVOLLARI**

<b>t/r</b>	<b>Test topshirigi</b>	<b>Tog'ri javob</b>	<b>Muqobil javob</b>	<b>Muqobil javob</b>	<b>Muqobil javob</b>
<b>1</b>	Sahnada ko'rsatilayotgan voqea o'rni aks ettirishga, tadbirning g'oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi sun'iy manzara, badiiy jihoz bu...	*Dekoratsiya	Rekvizit	Butofor	Kostum
<b>2</b>	Ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi suhbat bu ...	*Diolog	Logos	Monolog	Etyud
<b>3</b>	Diletant –	*San'at yoki fanni yuzaki o'rganuvchi	O'z ishining ustasi	Tadqiqodchi	Mashhur
<b>4</b>	Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan, badiiy to'laqonli asar bu ...	*SSenariy	Pvesa	Diolog	Monolog
<b>5</b>	“Monolog” so'zining ma'nosini toping?	*Bir kishining so'zi	Ikki kishi ning suhbat	Diologlar majmuasi	Tomoshabin so'zi

6	Teatr san'atining reformatori kim?	*K.S.Stanislavskiy	V.I. Nemirovich -Danchenko	I.M.Tumanov	V.E.Meyxold
7	Hayotiy haqiqat, oliy maqsad, faollik va harakat, organik prinsip, aktyorning obrazda yashash prinsiplari bu ...	*K.S.Stanislavskiy sistemasi prinsiplari	V.E.Meyxold biomexanikasi	Senariy tuzilmasi	Dramaturgiya komponentlari
8	“Teatr” so‘zining lug‘aviy ma‘nosini toping..	*Tomoshagoh	Sayl	Sahna	San‘at
9	“Fabula” degan termin nima ma‘noni anglatadi?	* Badiiy asarning sujet asosi	Kompozitsiya	Asarning prologi	Asarning eng yuqori cho‘qqisi
10	“Sujet” deganda nimani tushunasiz?	* Adabiy asardagi voqealarning aloqasi va ketma-ketligi	Voqeaning boshlanishi	Voqealar rivoji	Asarning asosiy voqeasi
11	«Diolog» degani nima?	*Ikki kishining so‘zi	Gap	So‘z	Jumla
12	K.S.Stanislavskiy mizans-sena haqida nima degan?	*Mizanssena- bu rejissorning tili	Mizanssena bu g‘oya	Mizanssena bu maqsad	Mizanssena aktyorning harakati

13	«Remarka» deganda nimani tushunasiz?	*Muallif tomonidan pyesa matniga berilgan izoh	Aktyorning soʻzi	Rejissorning tushunchasi	Partnyorning soʻzi
14	«Mizanssen» nima?	*Qarama-qarshiliklarni plastik harakatga koʻchirish	Aktyorning sahnada yashashi	Dekoratsiyalarni sahnada joylashishi	Chiroqni joylashtirish
15	«Janr» soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?	*Tur	Koʻrinish	Yoʻnalish	Sistema
16	«Rejissor» degan soʻz nima maʼnoni anglatadi?	*Yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi	Repititsiya oʻtkazuvchi	Musiqa oʻrgatuvchi	Boshlovchi
17	«Grotesk» bu-?	*Boʻrttirish	Mubolagʻa	Kuldirish	Yuqori choʻqqi
18	«Drama» deganda nimani tushunasiz?	*Xatti-harakat	Yugurish	Oʻqish	Oʻtirish
19	Aktyor badiiy obraz yaratishda qanday taʼsirchan vositalardan foydalanadi?	*Ovoz, tana harakati, mimika	Musiqa, qoʻshiq	Raqs, ommaviy harakat	Allegoriya, metofora, ramz
20	«Inssenirovka» deganda nimani tushunasiz?	*Adabiy asarga sahnaviy shakl berish	Biron narsani tasvirlab, alishtirish	Adabiy materialni tarjima qilish	Senariy yaratish

21	“Mavzu” deganda nimani tushunasiz?	*Asosiy fikr, asar nima haqida	Badiiy mazmunning asosiy moment	Yaxlitlik	Rejissorlik g‘oyasi
22	Spektaklning yoki ob-razning urug‘i (zerno) nimaga asoslanib aniqlanadi?	*Oliy maqsadga	G‘oyaga	Mavzuga	Yetakchi xattiharakatga
23	“Epilog” degani bu...?	*Spektaklning tugallanishi	Spektaklning boshlanishi	Spektakl kulminatsiyasi	Spektaklning bezagi
24	”Improvizatsiya” so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?	*“To‘satdan”, “kutilmagan” degan ma‘noni beradi	Aktyorning tez gapirishi	Rejissorlik g‘oyalari	Sahnani bezash
25	Xalqaro teatr kuni...	*27 mart	22iyun	17 dekabr	9may
26	“Prolog” deganda nimani tushunasiz?	*Spektaklning asosiy g‘oyasi umumlashgan tasviri	Spektakl qaralma-qarshiligi-ning tasviri	Spektakl mavzusini ochib berish	Spektakl yetakchi xatti-harakati
27	”Repertuar” so‘zining ma‘nosi...	*Ro‘yxat	Adabiyotlar to‘plami	Mumtoz qo‘shiq-lar	Mashq qildirish
28	“Fabula” degan termin nima ma‘noni anglatadi?	*Kompozitsiya	Asarning prologi	Asarning eng yuqori cho‘qqisi	Badiiy asarning sujet asosi

29	“Sujet” deganda nimani tushunasiz?	* Adabiy asardagi voqealarning aloqasi va ketma ketligi	Voqeaning boshlanishi	Voqealar rivoji	Asarning asosiy voqeasi
30	“Janr” so‘zi qanday ma‘noni anglatadi?	*Tur	Ko‘rinish	Yo‘nalish	Sistema
31	«Rejissor» degan so‘z nima ma‘noni anglatadi?	*Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi	Repititsiya o‘tkazuvchi	Tartibga chaqiruvchi	Boshqaruvchi
32	«Monolog» degani nima?	*Bir kishining so‘zi	Gap	So‘z	S. Jumla
33	“Avtor” so‘zining ma‘nosini toping?	*Muallif	Rejissor	Shoir	Dramaturg
34	Dramatik asarlar yaratuvchi ijodkor kim?	*Dramaturg	Yozuvchi	Shoir	Jurnalist
35	«Diolog» so‘zining ma‘nosini aniqlang?	*Ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi suhbat	Musiqada bir ovozdan ijro etilgan motiv	Ovozli filmning so‘z qismi	Qo‘shiq

36	Drama shaklida yozilgan adabiy asarni teatr sahna-si, radio, televedenie uchun moslab qayta ishlash qanday nomlanadi?	*Inssenirovka	Ssenariy	Improvizatsiya	Hikoya
37	Lirika ...	*Voqelik ayrim shaxsning kechinmalari, oy fikrlari asosida ifodalanadi	hajviy janrlaridan biri	O'zbek xalq og'zaki ijodi	Hayotdagi insonlararo munosabatni ko'rsatadigan asar
38	«Novella» so'zining manosi nimani anglatadi?	*Adabiyotning epik janriga kiradigan ixcham turi	Montajda surat ovozdan o'tib ketishi	Lirik va komik xarakterga ega kuy	Adabiyotning epos janri
39	Teatrda qo'yish uchun mo'ljallangan dramatik asar qanday nomlanadi?	* Pyesa	Hikoya	Roman	Ocherk
40	Adabiy asarlarning muqadimmasi nima?	* Prolog	Epilog	Tugun	Yechim

41	Yunoncha «Echki qo'shig'i» ma'nosini bildiradigan dramatik janr qanday nomlanadi?	*Tragediya	Komediya	Marsiya	Ballada
42	“Tomosha” deganda nimani tushunasiz?	* Ko'z bilan ko'rib, ma'naviy zavq olinadigan tadbirni	Ko'ngil ochar tadbirni	Ishtirok etish mumkin bo'lgan tadbirni	Teatrlashtirilgan tadbirlar
43	“San'at” deganda nimani tushunasiz?	*Kishilarga estetik zavq bag'ishlovchi vositani.	Xalq hunarmandchligini.	Bir guruh insonlar tomonidan yaratilgan san'at asarini.	Musiqa va raqs uyg'unligi.
44	“Innovatsiya” so'zining ma'nosi...	*Yangilik kiritish, yangilik	An'anaviy o'qitish	Noan'anaviy o'qish	Texnika vositalaridan foydalanish
45	Quyidagi badiiy vositalardan qaysi biri dramaturgiyani kuchaytiradi, voqealar rivojiga turtki va keskinlik beradi?	* Konflikt	Yechim	Portret	Peyzaj
46	Qaysi asar birinchi o'zbek tragediyasi hisoblanadi?	* Padarkush.	Abulfayzxon	Baxtsiz	Shoh Edip

47	Birinchi o'zbek dramaturgi kim?	*Behbudiy	Fitrat	Cho'ipon	Qodiriy
48	Rejissorning uchta fazilati (oyna, tushuntiruvchi, tashkilotchi) haqida qaysi rejissor o'z fikrini bayon etgan?	* Nemirovich-Danchenko	K. Stanislavskiy	B. Yo'ldoshev	V. Meyerold
49	Eortologiya nima?	* Bayramlar to'g'risidagi fan	Marosim va udumlar haqidagi fan	Aktyorlik mahoratini o'rgatadi	Rejissorning kundaligi
50	Rakurs nima?	* Uzoqdagi buyum tasvirlarining kichraytirilgan ko'rinishi	Ijrochilik mahorati	Rejissuraga oid nazariyalar	Sahna nutqi
51	Montaj bu...	* Epizodlar, bloklar, voqealarni bir-biriga mantiqiy jihatdan bog'lash	Qarama-qarshilik	Aktyorlarning sahnada joylashuvi	Dekoratsiyalarni tayyorlash
52	"To'da" nomli pyesa muallifi kim.	* N. Qobil	E. Xushvaqto'v	Sh. Boshbekov	M. Muhammad



53	Deklamatsiya qanday qanday ma'noni anglatadi.	* She'riy yoki nasriy asarlarni ifodaligi ta'sirchan qilib o'qib berish.	Asarlarni yod olib aytib berish	Voqeani bo'rttirib aytib berish	Sekin ovozda o'qish
54	Anons deganda nimani tushunasiz?	* Biror tomosha yoki madaniy tadbirlarning bo'lishi haqida oldindan barcha kerakli ma'lumotlari ko'rsatilgan holda chiqarilgan e'lon.	Spektaklda birinchi pardadan ikkinchi pardaga o'tishi.	Biror bir tadbirning boshlanishidan oldingi holat.	Konsertning tugallanish qismi.
55	Kulminatsiya so'zi qaysi tildan olingan.	* Lotin tili	Rus tili	Fransuz tili	Ingliz tili
56	Dramaturgiyada, dramatik asar asosan nechta janrga bo'linadi?	*Uchta	Ikkita	To'rtta	Bitta
57	"Ufq" romanining muallifi kim?	* S. Ahmad	Ch. Aytmatov	A. Qahhor	G'. G'ulom

58	Voqea ma'nosi nima?	* Maqsadni amalga oshirish jarayonida berilgan shart-sharoit bilan to'qnashish natijasida tug'iladigan xatti-harakat	Qarama-qarshilik asosida qurilgan xatti-harakat	Hayotiy haqiqatga asoslangan badiiy haqiqat	Asar ketma ketligi
59	Spektaklga asos bo'ladigan manba nima?	* Pyesa	Adabiy asar	Inssenirovka	Hikoya, ertak, roman
60	Qanday harakatlarsiz spektakl bo'lmaydi?	* Qarama-qarshiliksiz	Kompozitorsiz	Rejissorsiz	Rassomsiz
61	Oliy-oliy maqsad tushunchasi?	* Ijodkorning dunyoqarashi, asosiy prinsip va maqsadi	Teatrning maqsadi	Rejissorning maqsadi	Aktyorning maqsadi
62	"Antrakt" nimani anglatadi?	* Spektakl orasidagi tanaffusni	Musiqa oraliq'idagi to'xtalishni	Spektaklda dekoratsiyalar almashinuvi	Tamaddi qilish
63	"Madaniyat" bu.....	*Moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi	Odob-ahloq	ovqatlanish	Kiyinish

<b>64</b>	“Press-reviz” nima?	*O‘tkaziladigan tadbir (tomosha, spektakl va h.k) haqidagi umumiy ma’lumot	maqola	Ilmiy-seminar	Mahorat darsi
<b>65</b>	Madaniy tadbirlar turlari	*Davra suhbatlari, tematik kecha, ko‘rik-tanlovlari	Ilmiy seminar, konferensiya	Lektoriy, reyting	Raqs, ashula
<b>66</b>	Davra suhbatlari qanday tashkil etiladi?	Ssenariy yoziladi	Repititsiya qilinadi	Maydonda o‘tkaziladi	*Bir mavzu bo‘yicha xohlagan auditoriyada tashkil etish mumkin
<b>67</b>	Tematik kecha nima?	Bayram	*Ma’lum mavzuga bag‘ishlangan tadbir	Tomosha	Insenirovka
<b>68</b>	Ko‘rik-tanlovlari.....asosiga quriladi?	*Musobaqa, tortishuv	Kelishuv, hamkorlik	Maslahat, musobaqa	Kelishuv, diskussiya

<b>69</b>	“Rejissor” so‘zining ma‘nosi.....	Boshlovchi	*Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, boshqaruvchi	Sahnalashtiruvchi	Raqsg o‘rgatuvchi
<b>70</b>	Vazirlar Mahkamasining 178- sonli qarori ..... haqida	*Madaniyat va aholi dam olish markazlari	Madaniyat va istirohat bog‘lari	Maktab va kollejlarni rekonstruksiya qilish	Musiqa san‘atini rivojlantirish
<b>71</b>	Vazirlar mahkamasining 322- sonli qarori ..... haqida	*Madaniyat va istirohat bog‘lari	Musiqa san‘atini rivojlantirish	Madaniyat va aholi dam olish markazlari	Sanoatni rivojlantirish
<b>72</b>	“Tadbir” so‘zining ma‘nosi	*Biron-bir ishni maqsadli amalga oshirish chorasi	spektakl	tomosha	O‘tkazilayotgan konsert dasturi
<b>73</b>	Konfliktlar turlari	*Ichki, tashqi	Kelishuv	so‘rashuv	Kulminatsiya
<b>74</b>	“Ssenariy” –bu	*O‘tkaziladigan tadbirning to‘liq yozma bayoni	Repititsiyalarni tashkil etish	raqamlar	Asarning kompozitsion tuzilishi
<b>75</b>	Kompozitsion tuzilish	*Prolog, tugun, voqealar rivojini, kulminatsiya, yechim	Voqealar qatori	Obrazlarga xarakteristika	Asarning g‘oyaviyligi

76	“Kompozitsiya” soʻzining maʼnosi....	*Qurmoq, bir butun, yaxlit	Asarning toʻlaonligi	Voqealar ketma-ketligi	Bosh voqea
77	Ssenariyda “tugun” deb nimaga aytiladi?	*tomoshabinning bevosita fikri va his tuygʻusining maʼlum bir jumma boqqa qaratilishi	tadbir voqealarining ketma-ketligi	Voqeaning tugallanishi	Voqeaning boshlanishi
78	Kulminatsiya deganda nimanı tushunasiz?	*harakatlar rivojining eng yuqori nuqtasini	voqealarning rivojiana boshlanishiga sabab boʻlgan voqea hodisa	sujeı rivojlanishiga yordam beruvchi voqealar	asarning boshlanish qismi
79	Ijtimoiy madaniy faoliyat deganda nimanı tushunasiz?	Ijtimoiy qatlamlarda madaniy faoliyat olib borish	Aholi dam olish markazlarida tadbirlar oʻtkazish	Madaniyat va istirohat bogʻlarida tadbirlar tashkil etish	Artistlar bilan ishlash
80	Qaysi asrda Aristotel ya-shab oʻtgan?	*er. avval 4 asrda	er. avval 5 asrda	er. avval 7 asrda	er. avval 10 asrda
81	«Katarsis» nima?	* Qoʻrquv va achinish orqali qalbni tozalanishi	siqilish	halokat	qahramon halokati

<b>82</b>	«Fabula» qanday ma'noni bildiradi?	* hodisalar to'plami	mazmun	sujet	Kolliziya
<b>83</b>	Aristotel bo'yicha "butun"lik qanday ma'noni anglatadi?	* boshi, o'rtasi va oxiri	aniqlangan hajm	kompozitsion tuzilish	dramadagi kenglikning me'yori
<b>84</b>	Aristotel san'at mohiyatini nimada ko'rgan?	*haqiqatni ang-lashda	tomoshaviylikda	ko'ngilxushlikda	ma'rifatda
<b>85</b>	Ssenariyda "mavzu" tushunchasi qanday ma'noni bildiradi?	*asosiy fikr	hodisaviy tartib	jamoa muammosi	hayotiy material
<b>86</b>	"Ssenariynavislik mahorati" fani nimani o'rgatadi?	*Tadbirlar drama-turgiyasini	Tadbir sahna-lashtirishni	She'r, hikoya yozishni	Tadbirlarda faol ishtirok etishni
<b>87</b>	Dramatik asarda «qarama-qarshilik» tushunchasi nimani anglatadi?	Ijtimoiy kelish-movchiliklar	disput	*turli xil fikr-lar, manfaatlar, hayotiy qarama-qarshiliklar to'qnashuvi	hayot pozitsiyasining u yoki bu tarzidan norozilik
<b>88</b>	Dramatik konflikt manbaini aniqlang	*qiziqishlar, g'oyalalar, fikrlar, hissiyotlar kurashi	hayotdagi o'zgarishlar	tasodifiylik	ijtimoiy kelish-movchiliklar

<b>89</b>	Konflikt nima degani?	* qarama-qarshilik	So'z o'yini	Kompleks	Tushunmovchilik
<b>90</b>	«Kolliziya» nima?	*odamlar manfaatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik	Hayvonlar bilan odamlar o'rtasidagi nizo	voqea rivoji	personajlar harakati
<b>91</b>	«Sujet» tushunchasining tavsifini aniqlang?	*asardagi voqealarning aniq (konkret) sistemasi	xarakterlarning ochilishi	odamlar o'rtasidagi to'qnashuv	voqea rivoji
<b>92</b>	Asarda «tugun» nima?	*harakatni boshlab beruvchi voqea	ekspozitsiya	prolog	pyesaning boshi
<b>93</b>	Dramada kulminatsiya nima?	*voqealar rivojidadagi eng yuqori cho'qqi	voqealar rivojlanishi	harakatning mu-rakkablashuvi	Dramatik holatlarni o'tkirlashuvi
<b>94</b>	Tadbirlar dramaturgiyasining asosi bu...	*ssenariy	pyesa	sujet	g'oya
<b>95</b>	O'zbekistonni yanada rivojlantirishning harakatlar strategiyasining nechanchi qismi madaniyat, san'at sohasiga tegishli?	*4-Ijtimoiy sohalarni rivojlantirish	3-iqtisodiyotni rivojlantirish	1-davlat va jamiyat tuzilishini ta-komillashtirish	2-Qonun ustivorligi va sud-huquq tizimini isloh qilish

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### ***O‘zbekiston Respublikasi qonunlari***

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

### ***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari***

Sh.Mirziyoyev. O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlarni strategiyasi.

Sh.Mirziyoyev. “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 15-fevraldagi Farmoni

I.A.Karimov. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

I.A.Karimov. 1998-yil 26-martdagi “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”ga Farmoni

I.A.Karimov. 2001-yil 21-sentabrdagi “Hamza nomidagi O‘zbek Davlat Akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida”gi Farmoni

### ***O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari***

1998-yil 22-maydagi “O‘zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori

2013-yil 25-iyundagi “2013–2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 322-sonli Qarori

### ***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari***

Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.



I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat”. 2008.

I.A.Karimov. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish -eng oliy saodatdir.” T.: “Ma’naviyat”. 2015.

I.A.Karimov. “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O‘zbekiston”. 2011.

I.A.Karimov. “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor”. T.: “O‘zbekiston”. 2009.

### **5. Darsliklar**

B.Sayfullaev, J.Mamatqosimov. “Aktyorlik mahorati”. T.: “Fan va texnologiya”. 2012.

F.Ahmedov. “Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari”. T.: “Aloqachi”. 2008.

S.K.Borisov. Osnovi dramaturgii teatralizavannogo deystva. Chel-yabinsk, 2007.

J.Dushamov. “Ommaviy tadbirlar rejissurasi”. T. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 2002.

K.S.Stanislavskiy. “Aktyorning o‘z ustida ishlashi”. T.Xo‘jayev tarjimasida. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010.

M.Muhamedov. “Rejissura asoslari”. T.: O‘DSI bosmaxonasi. 2008.

J.Mahmudov. “Sahna kompozitsiyasi alifbosi”. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2006.

### **6.O‘quv qo‘llanmalari**

J.Mamatqosimov. “Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati”. T.: “Fan va texnologiya”. 2009.

Djon Govard Louson. Teoriya i metod Playwriting i napisaniye ssenariy. Avgust, 2014. 32b.(Playwriting and Screenwriting, August 2014).

H.Muhammad. Ssenariynavislik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.

Sh.Alimova. Madaniy-ma`rifiy faoliyat asosslari. T., 2007.

U.Qoraboyev. O‘zbek xalqi bayramlari. T.Sharq. 2002.

- U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. T., 2000.
- X. Abdusamatov. “Drama nazariyasi” T. 2000.
- S.K.Borisov. “Osnovi dramaturgii teatralizovannogo deystva”. Chelyabinsk, 2007.
- U. Qoraboev. “Badiiy ommaviy tadbirlar”. T., 1986
- V.Q.Rustamov. “Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari”. T.: Faylasuf. mil. jam.nashriyoti. 2013.
- J.Mahmudov, X.Mahmudova. “Rejissura asoslari”. T.: O‘DSI bosmaxonasi. 2008.
- V.Rustamov. “Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari”. T.: 2008.
- F.Ahmedov. “Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati”. T.: “Cho‘lpon”. 2007.
- M.Qodirov. “O‘zbek teatri tarixi”. T.: “Ijod dunyosi”. 2003.
- Sh.Rizayev. “Jadid dramasi”. “Sharq” nashriyot-matbaa konserning Bosh tahririyati, 1997.

### **7. Internet saytlari**

ZiyoNET – O‘zbekiston ta’lim portali

<http://www.teatr.uz> – O‘zbek Milliy Akademik drama teatri sayti

# ILOVALAR

\*\*\*\*\*

**Ilmiy anjumanlarni o‘tkazish dasturi bo‘yicha namuna:**  
*(14 betga ilova)*

**1-betiga:**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

“Xalq ijodiyoti” fakulteti


“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”

kafedrası

**TAKLIFNOMA**

va

**DASTUR**



**Toshkent-2015**

## 2-betiga:

### Taklifnoma

*Hurmatli \_\_\_\_\_ !*

Sizni **2015-yil 4-noyabr** soat **14:00** da Mirzo Ulug‘bek tuman madaniyat va aholi dam olish markazi anjumanlar zalida **“Barkamol avlod tarbiyasida madaniyat va aholi dam olish markazlarining roli”** mavzusida o‘tkaziladigan ilmiy seminarga taklif etamiz.

Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish kafedrası

## 3-betiga:

### KUN TARTIBI:

**Kirish so‘zi:** Hamza Shodiyev-O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti ”Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrası mudiri

1-ma’ruza.”***O‘zbekiston yoshlarining bunyodkorlik faoliyatini shakllantirishda madaniyat va aholi dam olish markazlarining roli***”.

Ma’ruzachi: O‘ZDSMI professori **Mansur Bekmurodov**

2-ma’ruza. ***“Madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy havaskorlik hamda xo‘jalik hisobidagi jamoalarni tuzish masalalari xususida”***.

Ma’ruzachi: O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Milliy simfonik xalq cholg‘u orkestrlari jamoalari birlashmasi bosh direktori **Farhod Jo‘rayev**

3-ma’ruza. ***“Yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishning o‘ziga xosligi”***.

Ma’ruzachi: Mirzo Ulug‘bek tumani madaniyat va sport ishlari bo‘lim mudiri v.b., madaniyat va aholi dam olish markazi rahbari **Rahima Yusupova**

4.Savol-javob, bahs va munozaralar

5.Konsert dasturi

**4 betiga** tadbir tashkilotchilari haqida ma'lumotlarni yoki konsert dasturini berish mumkin:

**Tashkiliy guruh a'zolari:**

**A.Yuldasheva**-*Toshkent shahar madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmasi mutaxassisi*

**X.Shodiyev** - *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrası mudiri*

**M.Bekmurodov** - *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrası professori*

**R.Yusupova** - *Mirzo Ulug'bek tumani madaniyat va sport ishlari bo'lim mudiri v.b., Mirzo Ulug'bek tuman madaniyat va aholi dam olish markazi rahbari*

**V.Rustamov** - *"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrası dotsent v.b.*

**Moderator: V.Rustamov** -*"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrası dotsent v.b.*

**5 betiga** tadbirning mazmuni berilishi mumkin, masalan:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013–2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 25-iyundagi 178-son qaroriga muvofiq madaniyat va aholi dam olish markazlarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqarilgan tadbirlarni hayotga joriy etish uchun ularning faoliyatini ilmiy -amaliy tahlil etish maqsad qilib qo'yilgan.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarining faoliyati holatini ilmiy tadqiq etish, ularning faoliyatini yanada takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish, madaniy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, turli badiiy-ijodiy to'garaklar faoliyatini yanagicha usullarda tashkillashtirish orqali aholining, ayniqsa yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishning yangicha shakllarini joriy etish mazkur loyihaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Mazkur tadbir “Barkamol avlodni tarbiyalashda madaniyat va aholi dam olish markazlarining zamonaviy funksiyalarini tadqiq etish” davlat granti loyihasi doirasida o‘tkaziladi.

Loyiha rahbari: professor M.Bekmurodov.

**6 betiga** davlat rahbarlari, buyuk ajdodlarimiz yoki mutaxassislari-ning shu sohaga oid so‘zlari (fikrlari)ni berish mumkin:

“Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma‘naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an‘ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san‘at, fan va ta‘lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir”.

**Islom Karimov**

Mazkur tadbir haqiqatdan ham 2015-yil 4-noyabr soat 14:00 da Mirzo Ulug‘bek tuman madaniyat va aholi dam olish markazi anjumanlar zalida o‘tkazildi. . . . .

### (9betga ilova)

Tadbirlarni tashkil etishni “buyurtma asosida” degan qismida 9 betda keltirilgan mavzuga oid ish rejasi tuzilgan hamda barcha viloyat, shahar va tumanlarda Muhammad Yusufning tavalludiga bag‘ishlangan turlicha mavzularda tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va shu reja asosida tadbirlar tashkil etildi. Birgina Toshkent shahrining o‘zida bir nechta joylarda aynan shu topshiriq asosida tadbirlar tashkil etildi. Shu reja asosida Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmasi tasarrufidagi muassasalarda Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlab madaniy-ma‘rifiy hamda sport tadbirlari tashkil etilgan.

Aynan berilgan shu topshiriq bo‘yicha har bir tuman o‘zining ish redasini tuzadi. Masalan, Mirzo Ulug‘bek tumani madaniyat va sport ishlari bo‘limi quyidagi reja asosida ishlarni tashkil etgan:

**“TASDIQLAYMAN”**  
 Mirzo Ulug‘bek tuman  
 Madaniyat va sport ishlari  
 bo‘limi mudiri

“ ” \_\_\_\_\_ 201\_\_y

**Mirzo Ulug‘bek tuman madaniyat va sport ishlari bo‘limining  
 shoir Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligi munosabati bi-  
 lan o‘tkaziladigan tadbirlar  
 ISH REJASI**

T/r	Tadbirning nomi	O‘tkaziladigan joy	Vaqt	Mas’ullar
1.	Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligi munosabati bilan davra suhbat va Muhammad Yusuf so‘zi bilan aytilgan qo‘shiqlar ijrosida konsert dasturi	M.Ulug‘bek texnologiya kolleji	21.04.2014y. 13-00 da	M.Ulug‘bek T.madaniyat va sport ishlari bo‘limi, tuman hokimligi, ma’naviyat – targ‘ibot kengashi, O‘zbeknavo estrada birlashmasi.
2.	“Muhammad Yusuf - o‘zbek adabiyoti durdonasi” mavzusida maktab o‘quvchilarining badiiy chiqishlari va davra suhbat	112- maktab	22.04.2014y. 10-00 da	M.Ulug‘bek T.madaniyat va sport ishlari bo‘limi, ma’naviyat – targ‘ibot kengashi
3.	O‘zbekiston Xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligiga “Shoirning sozi tinmaydi” mavzusida davra suhbat va ijodiy kecha	O‘zbekiston Fanlar akademiyasi	25.04.2013y. 9-00 da	M.Ulug‘bek T.madaniyat va sport ishlari bo‘limi, tuman hokimligi, ma’naviyat – targ‘ibot kengashi

4.	“Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida” mavzusida adabiy kecha	279- maktab.	26.04.2014y. 11-00 da	M.Ulug‘bek T.madaniyat va sport ishlari bo‘limi, tuman hokimligi, ma‘naviyat – targ‘ibot kengashi
5.	Mustaqilligimizni baland pardalarda kuylagan shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodi	223- maktab.	30.04.2014y. 11-00 da.	M.Ulug‘bek T.madaniyat va sport ishlari bo‘limi, ma‘naviyat – targ‘ibot kengashi

**Rahbar (tashkilotchi):** *(Ismi, sharifi, imzosi)*

\*\*\*\*\*

Yana bitta hujjatni ilova sifatida e‘tiboringizga havola etmoqchimiz, ya‘ni misol tariqasida Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlarni tashkil etish jarayonlarini quyidagi tartibda ko‘rsatib o‘tamiz:

**Toshkent shahar Hokimiyatiga**

Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari Bosh boshqarmasi tasarrufidagi madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar rejasini yo‘llaydi. Tadbirlar rejasini ilova qilinadi.

**Boshliq:** *(ismi, sharifi, imzosi)*

**Ijrochi: Tel:**



**Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmasi  
tasarrufidagi madaniyat uylari<sup>32</sup> tomonidan  
Buyuk bobokalonimiz  
Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag‘ishlab  
o‘tkaziladigan madaniy-ma‘rifiy hamda sport tadbirlari  
rejasi**

<b>№</b>	<b>Sanasi</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>O‘tkazish joyi</b>	<b>Ma’sullar</b>
<b>Bektemir tumani</b>				
1	08.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag‘ishlab “Sohibqironim iftixorim” mavzusida konsert dasturi	293- maktabda	Bektemir tumani madaniyat va sport ishlari bo‘limi mudiri v.b. Xasanov S.N.
2	09.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag‘ishlab madaniy-ma‘rifiy tadbir	Binokor qo‘rg‘onida	
3	11.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag‘ishlab “Sohibqiron avlodlari” mavzusida konsert dasturi	291- maktabda	
<b>Mirobod tumani</b>				
4	11.04. 2014 y.	Sohibqiron Amir Temurning tavallud topgan kuniga bag‘ishlab “Buyuk Sohobqiron Amir Temur va barkamol avlod” mavzusida tematik kecha	«Turon» AKMda	Mirobod tumani madaniyat va sport ishlari bo‘limi mudiri Otemisova G.SH.
5	15.04. 2014 y.	Sohibqiron Amir Temurning tavallud topgan kuniga bag‘ishlab “Sohibqironim bor mening” deb nomlangan tematik kecha	213- maktabda	
<b>Mirzo Ulug‘bek tumani</b>				

<sup>32</sup> Izoh:O‘z R VMning 178-sonli Qaroriga qadar madaniyat uylari, madaniyat, saroylari, klublar deb yuritilgan. Hozirda madaniyat va aholi dam olish markazlari deb ataladi.

6	08.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludiga bag'ishlab ijodkor yoshlar va shoir yozuvchilar bilan uchrashuv va konsert dasturi	121- maktabda	Mirzo Ulug'bek tumani madaniyat va sport ishlari bo'limi mudiri v.b. Imomnazarov S.S.
7	08.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag'ishlab "Amir Temur avlodlarimiz" mavzusida tarixchi olimlar ishtirokida davra suhbat va konsert dasturi	248- maktabda	
8	09.04. 2014 y.	Sarkarda Amir Temur tavalludi munosabati bilan poytaxtimiz markazida joylashgan Amir Temur haykali poyiga gul qo'yish marosimi, davra suhbat va tarixchi olimlar bilan uchrashuv	Amir Temur haykali oldidi	
9	09.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludiga bag'ishlab "Xotira aziz, qadr muqaddas" mavzusida konsert dasturi	"Gulshan" madaniyat va istirohat bog'ida	
10	09.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludi munosabati bilan "O'tganlarni xotirasi muqaddas" mavzusida konsert dasturi	205- maktabda	
11	11.04. 2014 y.	Amir Temur tavalludining 678 yilligiga bag'ishlab "Ajdodlar yodi muqaddasdir" mavzusida konsert dasturi va davra suhbat	223- maktabda	

Olmazor, Sergeli, Uchtepa, Hamza, Chilonzor, Shayhontohur, Yunusobod, Yakkasaroy, Toshkent shahar markaziy madaniyat va aholi dam olish markazlarida ham xuddi shu kabi mavzular berilgan. (Biz qisqartirilgan holda berdik)

**Bosh mutaxassis:**

**(ismi, sharifi, imzosi)**

Amir Temur tavalludiga bag‘ishlab o‘tkazilgan, ya’ni yuqorida berilgan reja asosida o‘tkazilgan tadbirlar bo‘yicha **hisobotdan** bir namuna:

**O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
TOSHKENT SHAHAR  
HOKIMLIGINING**

**MADANIYAT VA  
SPORT ISHLARI BOSH  
BOSHQARMASI**

100047, SNT Toshkent shahar, Amir  
Temur shoh ko‘chasi, 14.  
Telefon: 237 – 12 – 56. Fax: 232 – 20  
– 98  
E-mail: [toshkentmad@rambler.ru](mailto:toshkentmad@rambler.ru);  
[www.cultsport.ziyo.uz](http://www.cultsport.ziyo.uz)

**РЕСПУБЛИКА  
УЗБЕКИСТАН  
ХАКИМИЯТ ГОРОДА  
ТАШКЕНТА**

**ГЛАВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ  
ПО ДЕЛАМ И КУЛЬТУРИ  
И СПОРТА**

100047, g. Tashkent, prospekt Amira  
Temura, 14.  
Telefon: 237 – 12 – 56. Faks: 232 – 20  
– 98.  
E-mail: [toshkentmad@rambler.ru](mailto:toshkentmad@rambler.ru); [www.cultsport.ziyo.uz](http://www.cultsport.ziyo.uz)

№

Toshkent shahri

**Toshkent shahar hokimiyatiga**

Toshkent shahar Madaniyat va sport ishlari bosh boshqarmasi Sizing 2013-yil 22-martdagi “Amir Temur tavalludiga 677 yil to‘lishi munosabati bilan o‘tkaziladigan” 04-35-sonli tadbirlar rejasining tegishli bandlari ijrosi bo‘yicha quyidagilarni ma’lum qiladi:

Bosh boshqarma tomonidan milliy mumtoz qo‘shiqlardan iborat tasma tayyorlanib, hukumat aloqa xizmati markaziga taqdim etildi. Shu bilan bir qatorda Amir Temur xiyobonida o‘tkaziladigan tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi qoshidagi Badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi tasarrufidagi “Maqomchilar” ansambli ishtiroki ta’minlandi. “O‘zbekteatr” IIIB tizimidagi teatrlarda faoliyat ko‘rsatayotgan teatr aktyorlari taklif qilindi.

Bundan tashqari bosh boshqarma tasarrufidagi madaniyat uylari tomonidan maktablar, Amir Temur muzeyi hamda mahallalarda 72 ta ma’daniy-ma’rifiy tadbirlar rejalashtirilgan bo‘lib, “Buyuk bobo-

kalonimiz Amir Temur o'g'itlari", "Temur bobomizning bosib o'tgan zalvorli umr yo'llari", "Biz Temur bobom farzandlarimiz" kabi mavzularda 80 ta tadbir o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda 3 520 nafar aholi qam-rab olindi.

**Boshliq:**

*(famiyasi, ismi va imzosi)*

**Ijrochi: tel:**

## SSENARIYLARDAN NAMUNALAR

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining o‘quv teatri-da qo‘yilgan “Hazrat Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi”ga bag‘ishlangan ma’naviy ma’rifiy, adabiy-badiiy kecha ssenariysidan namunani e’tiboringizga havola etamiz. Mazkur ssenariy O‘zDSMI, “Sahna nutqi” kafedrası dotsenti, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi **Isoqtoy Jumanov** tomonidan yozilgan.

### (Muqova qismi)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi  
*(hozirda madaniyat vazirligi deb yuritiladi)*

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
Hazrat Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur taval-  
ludiga bag‘ishlangan “**Ajdodlar merosi-ma’naviyat ko‘zgusi**”  
deb nomlangan ma’naviy- ma’rifiy, adabiy-badiiy kecha

### s s e n a r i y s i

**Ma’sul kafedralar:** “Sahna nutqi”, “Ashula va raqs jamoalari rahbari”, “Tillar va adabiyot”.

**Ssenariy muallifi:** I.Djumanov.

**Ijodiy va tashkiliy guruh a’zolari:**

M.Xodjimatova

J.Shukurov

Sh.Yusupov

E.Yorbekov V. Rustamov

*(Birinchi, ya’ni muqovadan keyingi varag‘iga ssenariy nomini qaytadan yozish ham, yozmaslik ham mumkin).*

Institut anjumanlar zali Nizomiddin Mir Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho va beqiyos adabiy xazinasini, umumisoniy falsafasi ong shuurimiz dilimiz va tilimizning abadiy hamrohi, qudrati, ekanligini namoyon qiluvchi hikmatli so‘zlar, ruboiylardan namunalar sharqona xattotlik namunalarida aks etgan. Institut foyesi bo‘ylab Alisher Navoiy va Bobur hayoti va ijodiy

faoliyatini eslatuvchi tasviriy san'at namunalari bilan ko'rgazmalar, miniaturalar tashkil etilgan hamda buyuk shoirlarning ijodiy asarlari va ular haqida ilmiy adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilingan. Markazda o'zbek milliy cholg'u ansambili milliy kuylardan ijro etmoqdalar. Sahna Navoiy va Bobur davrini ifodalovchi amaliy san'at namunalari bilan bezatilgan. Mumtoz kuy taralmoqda, sahnaning turli joylariga kursilar, xontaxta va lavh qo'yilgan.

### ***Parda kuyga monand ochiladi.***

Ektranda Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlari haqida tasviriy lavha. Sahnaga boshlovchilar kirib keladilar:

#### **1-boshlovchi**

So'z mulkida garchi ko'p o'tgan shohlar  
Siz kabi muzaffar kishvariston yo'q  
Xoqondek siylagan oliy dargohlar  
Sizga teng donishmand israv nishon yo'q

#### **2-boshlovchi**

Yo'qdir sizdek buyuk va tabarruk zot  
Ahli dilga shafe komil inson yo'q  
Yo'qdir ahli jonga berguvchi najot,  
Kalom kishvarida faxri dayron yo'q.

*(Ektranda slayd: Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari haqida tasviriy lavha namoyish qilinadi)*

**1-boshlovchi:** Assalomu alaykum aziz mehmonlar, institutimizning hurmatli professor o'qituvchilari! Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tavulludining 574 yilligi hamda Zahiriddin Muhammad Boburning 532 yilligiga bag'ishlangan "Ajdodlar merosi-ma'naviyat ko'zguisi" mavzusidagi ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy kechaga xush kelibsizlar!

**2-boshlovchi:** Sahnamizga Navoiyshunos va Boburshunos olimlarimizdan.....ni taklif etamiz.

*(Navoiy, Bobur hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'ruza tinglanadi)*

## 1-boshlovchi

Shodumon etgali ahli zamonni  
Inson tinim bilgan bir zabondon yo'q  
Yak qalam qilgali ozod davronni  
Zakiy sohib qalam bir suxandon yo'q.

*Sahna qorong'ulashadi, ekranda Alisher Navoiy asarlari, devonlari Bobur va ular asarlarida ishlangan miniatyuralar namoyish qilinadi.*

*Sahnaga talaba chiqib Navoiyning g'azallaridan birini ijro etadi, ortidan "Munojot" qo'shig'i ijro etiladi.*

## 2-boshlovchi

Yo'qdir Turk nazmida siz qadar daho  
Hamsadan buyukroq asar hamon yo'q  
Yo'qdir "azoyin-ul maoniy" yakto  
Sizsiz Xuroson yo'q buyuk Turon yo'q

*Kuy taraladi. Sahnada talabalar tomonidan sahnalashtirilgan "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlari asosida kompozitsiya namoyish qilinadi.*

*"Ey sabo". Navoiy g'azali. Ijro etadi.....  
Talabalar guruhi Navoiy va Bobur g'azallaridan ijro etadi.*

*"Yaxshilig". Bobur g'azali. Ijro etadi.....  
Bobur g'azallaridan namunalar ijro etiladi.*

## 1-boshlovchi

Garchi aqlim oldi ne-ne daholar  
Nazm davlatida sizdek sulton yo'q  
Padari buzrukdek qilmish duolar  
Sizdek menga bir mehribon yo'q.

## 2-boshlovchi

Ne baxt mukarramsiz ahli olamga  
Sizsiz nozimlarga davru-davron yo'q  
Qilichlar qudratin bermish qalamga  
Sizsiz onazamin toza osmon yo'q

### **1-boshlovchi**

Yo’qdir bundan obod dorul saltana  
Ulusga vatandin aziz makon yo’q.  
Yo’qdir o’zga yurtida bunday tantana,  
Sardori fidoiy me’mor inson yo’q.

*Sahnaga Navoiy va Bobur siymolarida talabalar chiqib keladilar:  
Alisher Navoiy so’zi*

Sulton Abulqosim Bobur so’zomol va hunarparvar podshoh edi, hamma vaqt ul amirga ta’bining muloyimlig’i, ziyrakligi uchun ofarinlar o’qir edi, ba’zi paytlarda ulug’ amir bitgan turkiy yoki forsiyda bitilg’on she’rlarni mutolaa qilar, ta’bining qudrati va sharofatli so’zlarning shirinligidan taajublanardi, bedarig’ marhamatidan bahramand qilar va xayrli duolari bilan qo’llab-quvvatlardi.

#### **Z.M.Bobur so’zi**

Alisherbek tengi yo’q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar, hechkim oncha ko’p va xo’p aytkon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Hamsa” javobida yana bir “Mantiq – ut tayr” vaznida “Lison-ut tayr” otliq to’rt g’azaliyot devoni tartib qilibdur: “G’aroyib-us sig’ar”, “Navondir ush-shabob” “Badoye ul-vasat”, “Favoyid ul-kibor” otliq. Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekka murabbiy va muhavviy ma’lum emaskim hargiz paydo bo’lmasi bo’lg’ay.

### **1-boshlovchi**

Yo’qdir sizga ta’zim qilmagan mehmon  
Prezidentu qirol shohu sulton yo’q.  
Yo’qdir nomingizni bilmas o’zbek xon  
Chordovon yetmagan hur xonadon yo’q

### **2-boshlovchi**

Sizdek bunyod etib oily qasrlar  
Hazrati sarbardan balki shodmon yo’q  
Havas qilsa arzir ellar, nasllar  
Mashriqda bundayin dorul omon yo’q



“Navoiy” nomidan monolog (.....kurs talabasi.....  
tomonidan ijro etiladi)

### **2-boshlovchi**

Ne sharaf ulusga rahnamo padar  
Qadringiz sarbaland etmagan on yo’q  
Milliy bog’imizni qilib munavvar  
Sizga gul eltmagan ahli zamon yo’q

### **1-boshlovchi**

Ona yurtim, obod elim, oydin yo’ling muborak  
Ozod manzil, elga manzur totli to’ying muborak.  
Hur vatanni alqaguvchi, zavqli kuying muborak  
Yaratguvchi, yashnatuvchi, orzu-o’ying muborak.!

### **2-boshlovchi**

Bobolarim armonlari mana bugun ijobat  
Momolarim ayvonlari qutli-qutlug’ ziyofat.  
Har kunning mazmuni zo’r, nurli –nurli hikoyat  
Qadring baland, qadding baland,  
Sarboningdan inoyat!  
*Mumtoz musiqa yangraydi va parda yopiladi .*

## **YANGI YIL BAYRAMIGA BAG‘ISHLANGAN TADBIR SSENARIYSI**

*(Tadbir konkurs shaklida o‘tkaziladi).*

*Tadbir o‘tkaziladigan joy (sahna, zal) yangi yil ruhiga mos bayramona bezatilgan. Yangi yil mavzusida tayyorlangan devoriy gazetalari, plakatlari, sharhlar, yasatilgan archa tadbirga ko‘tarinki ruh bag‘ishlaydi. Ishtirokchilar bayramona liboslarda, ertak qahramonlari obrazlarida, turli maskalarda tashrif buyurishgan.*

*Sahnada Qorbobo va Qorqiz paydo bo‘ladi.*

*Qorbobo:* Voy, Qorqizoy, menga qarang, qarib qoldim shekilli, juda charchab qolyapman.

*Qorqiz:* O‘tiring bobojon, haqiqatdan ham juda charchadingiz.

*Qorbobo:* Ha, ammo shunchaki qo‘l qovushtirib o‘tirib bo‘lmaydi. Mana Yangi yil kirib ham keldi, ammo hamon sovg‘alarni o‘z egalari-ga tarqatib ulgurmadik. Juda charchab qolyapman, o‘zimga o‘rinbosar yosh, chaqqon, epchil va ziyrak bolani topmasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Axir sovg‘alarni tezroq yetkazib berolmasak insonlar va ayniqsa bolajonlar Yangi yilga, Qorbobo va Qorqizga, mo‘jizalarga ishonmay qo‘yishadi-ku...

*Qorqiz:* Mayli unda, keling “Yosh Qorbobo” tanlovini o‘tkazamiz. Tanlovda munosib ishtirok etib, shartlaringizdan o‘tgan bolani o‘zingizga shogird qilib tayyorlaysiz. Yil davomida unga barcha sir-asrorlaringizni o‘rgatib, haqiqiy Qorboboga aylantirasiz...

*Qorbobo:* Qizim, qara, anavuni joyda juda ko‘p bolalar bor ekan, shularning yoniga borib, shu fikrimizni aytaylik...*(Bolalar yoniga kelishadi)*

*Qorqiz:* *(Salomlashadilar).* Tanlovda ishtirok etmoqchi bo‘lgan yigitlar bormi? Sizlarni sahnaga taklif etamiz.

*(4 yigit sahnaga chiqadi)*

*Qorbobo:* O –o, juda yaxshi. Qanday ajoyib, yosh, zabardast yigitlar. Qani endi men ham yoshlik davrimga qaytib qolsam...

*Qorqiz:* Mayli bobojon, vaqtimiz kamroq. Keling ularga 1-shartni e‘lon qilaylik!

*Qorbobo:* Ha qizim, ularni o‘yinimiz sharti bilan tanishtiraqol.

**Demak, 1-shart.**

*Qorqiz:* (O‘yin shartlari bilan tanishtiradi) Hammamizga **“Uy-gudagi malika”** ertagi sujeti ma‘lum. Ertakda malikaning aslzoda ekanini bilish maqsadida uning yotog‘i ko‘rpachasining ostiga no‘xot donachasi qo‘yib qo‘yiladi. Bizga shart yanada qiziqroq bo‘lishi uchun uni biroz o‘zgartiramiz: O‘rindiqlarga mayda konfetchalarni terib qo‘yamiz. Ishtirokchilar esa o‘tirgan hollarida o‘rindiqda nechta konfet borligini aniqlab berishlari kerak. Shart tushunarli bo‘lsa, boshladik...

(G‘oliblar aniqlanadi)

*Qorqiz:* Qorbobojon, sizning shogirdingiz eng avvalo epchil bo‘lishi kerak. Chunki u bir kechaning o‘zida butun dunyo bolalariga sovg‘alarini yetkazishga ulgura olishi lozim. Shunday ekan, keling ularning epchilligini sinab ko‘ramiz...

*Qorbobo:* Gaping to‘g‘ri, qizim. Unda navbat **2-shartga**... Shart **“Ixtirochilar”** deb ataladi. Har bir ishtirokchiga 1 tadan shar (pufak) va flomaster beriladi. 3 daqiqa ichida kim birinchi bo‘lib, sharlarni puflab, ularga eng ko‘p aholi (odamchalar)ni chizib ulgursa g‘olib hisoblanadi.

*Qorqiz:* **3-shart “Rassomlar”** deb atalib, bu shart ularning diqqati va ziyrakligini aniqlashda yordam beradi. Avvalo har bir ishtirokchi o‘zining oldiga bittadan yordamchi taklif qilishlari mumkin. Chunki bu shartda har bir ishtirokchiga katta oq qog‘oz va rangli qalam, flomasterlar beriladi. *Ishtirokchilarning ko‘zi bog‘langan holda yonma -yon stol atrofiga o‘tkaziladi. Ularga Yangi Yil mavzusida rasm chizishlari kerakligi tushuntiriladi. Har bir ishtirokchi 5 daqiqa ichida yordamchisining so‘zini eshitgan holda qayerga nima chizish kerakligini eshitib ijod qiladi. Eng original va bayramona sur‘at egasi g‘olib hisoblanadi.*

*Ular rasm chizgunlariga qadar mehmonlarning biri sahnaga taklif etilib, turli o‘yinlarni boshlaydi. (qo‘shiq yoki raqs ijro etish mumkun)*

*Qorqiz:* Manabu qutichadagi tasmalardan yoqganini tanlab oling, unda ma‘lum syurprizlar yashiringan....

*Qorbobo:* Yordamchilaringiz ketmasligini so‘rab qolamiz. Chunki, keyingi shartda ham ular sizga yordam berishlari kerak bo‘ladi. Demak,

**4-shartda** ham chaqqonlik va ham ijodiy yondashuvingiz baholanadi.

*Qorqiz:* Bu shart ko'pchilikka ma'lum, u **SOVG'A** deb ataladi. Mana bu qog'ozlar yordamida parnyoringizni saranjom va chiroyli qilib, tartib bilan oq qog'ozga o'rab, o'z fantaziyangizga ko'ra chiroyli tasmalar va bantlar bilan yasatib, sovg'a ko'rinishiga keltirishingiz kerak.

*Qorbobo:* Keyingi shartda bobojon, keling ularning xotiralarini va chaqqonliklarini sinab ko'ramiz. **5- shartda** bobojonim sanab o'tgan narsalarni kim birinchi topib kelsa, g'olib o'sha bo'ladi.

*Qorqiz:* Demak, menga 1 ta qizil ruchka, 1 ta qo'l soat, 1 poy oyoq kiyim, 4 ta qo'l telefoni, 2 ta dastro'molcha va Qorqiz uchun 1 ta lab bo'yog'ini olib kelishingiz kerak. Vaqt ketdi... (*O'yin davom etadi*).

Bobojon, menimcha ular biroz charchashdi, keling biroz nafas rostlab olishlari uchun imkon beramiz.

*Qorbobo:(6-shart.)* Eng oddiy shartlarimdan biri, men sevgan muzqaymoq nomlarini ketma-ket sanab o'tishingiz kerak. 5 soniyadan ortiq to'xtab qolgan ishtirokchi o'yinni tark etadi.

*Qorqiz:* Yaxshi, endigi **7-shart** aqliy va jismoniy qobiliyatlaringizni ochib beradi. Hozir bobojonim bir bolakayning xatini o'qib beradi. Siz esa eshitganlaringizni harakatga ko'chirishingiz kerak bo'ladi. Masalan, "menga sakrog'ich sovg'a qiling" deyilgan bo'lsa sakraysiz. Hamma so'ralgan narsalar xarakterlarda o'z ifodasini topishi kerak. Bunda har bir harakat to'xtatilmasdan keyingisi bilan birga davom etishi kerak.

*Qorbobo:* Qadrli bobojon, iltimos Yangi yilga adajonimga mashinalariga qo'yib qo'yishlari uchun boshini sarak-sarak qilib o'ynatadigan kuchukcha, bobojonimga taroq, akamga yugurishlari uchun sport oyoq kiyimi, oyijonimga go'sht qiymalagich menga (ko'zlarini pirlpiratib), "oyijon, dadajon, ha-ha-ha" deb kulib qo'yadigan qo'g'irchoq sovg'a qilishingizni iltimos qilaman....

*Ballar hisoblanadi va eng yuqori ball to'plagan 2 nafar ishtirokchi bellashuvni davom ettirishadi. O'yinni tark etgan ishtirokchilar ularga yordam berishadi.*

*Qorbobo: 8- shart.* 2 guruh ishtirokchilaridagi har bir juftlik "bir butun"ga aylanishlari kerak. (bir ishtirokchining chap qo'li ikkinchi

ishtirokchining belidan o'tkaziladi, ikkinchi ishtirokchining esa o'ng qo'li) Shu holda quyidagi shartni bajarishingiz kerak: paketdagi unni bankaga solib, banka og'zini qopqoq bilan yopib, qutichaga joylashtirish va bu qutichani bayramona tasma bilan bezab o'rab qo'yish kerak.

*Qorqiz: 9-shart.* Endi esa 2 ishtirokchi oyoqlaridan bir biriga bog'lab qo'yiladilar. Har bir ishtirokchi yon tomonida turgan sovg'aga yetib olish uchun raqibini o'z tomoniga "tortib ketish"ga urinishi kerak.

*Qorbobo:* Ajoyib, mana g'olib Qorbolamiz ham aniqlandi. Qoyil, u juda zukko, ephil va xushchaqchaq bola ekan. Hatto sendan ham shaddodroq ekan-a, qizim?

*Qorqiz:* Hechamda, baribir men chaqqonroq va uddaburonroqman, bobojon. Mana ko'rasiz, hozirgi so'nggi hazilomuz o'yin-shartimizda men Qorbolani yengaman. Biron shartni ayting, bobojon...

*Qorbobo: 10-shart.* Oxirga yutgan ishtirokchi bilan Qorqiz valsga tushadi. Qorqiz va ishtirokchining oyoqlariga 1 tadan shar bog'lanadi. Ular chiroyli raqs tushishlari davomida o'z oyoqlaridagi sharlarni asrab qolishga uringan holda raqibining sharini bosib yorishga erishishlari kerak.

*(G'oliblar aniqlanadi va sovg'alar topshiriladi)*

*Qorbobo:* Ha, bolalarim-ey, bugun juda ajoyib bellashuv bo'ldi, mazza qilib dam oldim. Endi kuchga to'lgandek bo'ldim, buning ustiga shunday ajoyib yordamchi ham topdim. Ishlarimizni davom ettirsak ham bo'laveradi, hammaga minnatdorchilik bildirgan holda, ezgu niyatlarimni bildirsam....

Yangi yilda yaxshi tilak bildirmoq odat,  
Yil bo'yi boshingizga yog'sin shafolat,  
Tark etmasin o'n ikki oy baxt-u saodat,  
Tark etmasin ellik ikki hafta halovat!  
Ishq o'tida sakkiz yuz ming yetti yuz soat,  
Uch yuz oltmish besh kun ko'ring rohat- farog'at.  
Besh million ikki yuz ming soniya omad!  
Yaratganning panohida yuring salomat!!!  
Barchangizni Yangi yil bilan TABRIKLAYMAN!

*Qorqiz: Tabassumga burkansin dunyo,  
Qordek oppoq bo'lsin dilingiz.  
Bo'lsin qordak toza musaffo,  
Qadam qo'ygan YANGI YILINGIZ.  
Ko'rishguncha, azizlar.... Yangi yilingiz muborak bo'lsi-i-in!  
(Konsert dasturi davom etadi)*

\*\*\*\*\*

“ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil

**O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining \_\_\_yilligiga  
bag‘ishlab \_\_\_\_\_ tumanida o‘tkaziladigan  
«Bayraming muborak, O‘zbekistonim» nomli bayram  
dasturining  
SSENARIYSI<sup>33</sup>**

\_\_\_\_\_ shahri

200\_\_ yil 1 sentabr

Markaziy o‘yingoh.

*Bayram tadbirlari o‘tkaziladigan sahna mavzuga mos bezatilgan. Sahnaning o‘rtasida O‘zbekistonning dala bog‘lari, paxtazor maydonlari ifodalangan panno o‘rnatilgan. Sahnaning chap tomonida “Mustaqillik muborak, aziz hamshaharlar”, o‘ng tomonida esa “Yoshlar-bizning kelajagimiz” deb yozilgan bannerlar osilgan. Sahna atrofi turli xil rang-barang sharlar va chiroyli gullar bilan bezatilgan.*

*Bayram qatnashchilari va tomoshabinlar yig‘ilgunga qadar radio karnaylaridan Vatanni, mustaqillikni madh etuvchi kuy, qo‘shiqlar yangrab turibdi.*

**1.Chorlov musiqasi yangraydi.**

*(Karnay surnaylar ohangi fonida she‘r o‘qiladi)*

Boshlovchi: Mustaqillik qo‘shig‘in kuyi baland, avji baland,

Istiqlol oftobining nuri baland, mavji baland.

Mustaqillik bir xazina, gavhari, ganji baland

Shul sabab o‘zbekda erk madhiyasi avjidadir.

Erku istiqlol ko‘kardi sumbula oftobida,

G‘unchalab barg yozdi har yon uning shaftu tobida

<sup>33</sup> Izoh: Buxoro viloyatining Romitan tumanining markaziy o‘yingohida o‘tkazilgan tadbir ssenariysi berilgan.

Nurga chulg'andi kecham istiqloqlning mohtobida,  
Istiqloq o'zbek degan millat ko'zi-qoshidadir.

O'zbekim qadding ko'targin, istiqloq senga sharaf,  
Navqiron o'n yetti yoshingga ham quyoshingga sharaf.  
Istiqloq yo'lida mard turgan yurtboshingga sharaf,  
O'zbekistonim, sening baxting bugun o'n yettidadir.

## **O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi.**

### **2.Tabrik:**

Boshlovchi: So'z tuman hokimi.....ga. (Tuman hokimining tabrigi, Mustaqillik bayrami arafasida Davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan hamda tuman hokimi stipendiatlarini taqdirlash marosimi).

### **3.Muqaddima.**

(Musiqqa sadosi ostida ajdodlarimiz timsollari sahnada namoyon bo'ladilar. Ular yuzlarida quvonch, hayajon bilan yurib boradilar).

#### **Boshlovchi:**

Romitan bu Qadim diyori Buxorodan ham qadim,  
Bahouddin Naqshband ustozining yurti bu.  
Tasavvufga sayqal berdi Azizon Samosiy ham.  
Hazrat Mullo Mir bor bunda, bunda bordir Chorqulboy.

#### **Xoja Ali Romitoniyo ovozi:**

Haqqa yetishmoqchi bo'lsang, Romitangga kel,  
Do'st talabida bo'lsang, Romitangga kel,  
Azizon naqlidan madad izlasang  
Boshdan oyoq yasab, Romitangga kel.

#### **Bobo Samosiy ovozi:**

Men Hoja Muhammad Bobo Samosiy,  
Romitan-zaminida topdim tavallud.  
Ustozim, ulug'im Romitaniydir,  
Tasavvuf bobida turganman sobit.  
Qasri Hinduvondan o'tgan chog'imda  
Bashorat qilganman Bahouddinni.



Unga ustozlikka loyiq ko‘rganman  
Alloma shogirdim Mir Said kulolni.

Tuman madaniyat badiiy havaskorlari ijrosida “O‘zbekistonim” nomli sahnalashtirilgan dastur namoyish etiladi.

#### **4.Yoshlar bo‘limi**

(Tumandagi sanoat, maishiy xizmat, ekologiya, agroiqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, pedagogika kollejlarning talabalari va maktab o‘quvchilari o‘z dasturlarini namoyish etadilar).

Sanoat kasb-hunar kolleji talabalari “O‘zbekiston yoshlari” nomli sahnalashtirilgan dasturni namoyish etadilar.

Maishiy xizmat kasb-hunar kolleji talabalari tomonidan “Duxtari jonona” raqsi ijro etiladi.

Ekologiya kolleji yoshlari “Men seni sevdim, hayot” nomli qo‘shiq va raqsni ijro etadilar.

Agroiqtisodiyot kolleji talabalari “Xalq bo‘l elim” nomli qo‘shiq ijro etadilar.

Yoshlar bo‘limi nihoyasida Yoshlar tinchlik madhiyasini kuylaydi, (bir vaqtning o‘zida 60 nafar o‘quvchi 17 raqamini yasaydilar.)

*(Fondan she‘r ijro etiladi:)*

Sening yuraging guldan yaralgan,  
Vujudingda rizvon bo‘yi taralgan.  
Bulbul kalom bergan tiling sayragan,  
Bolam seni yaratganga ming qulluq.  
Ajdodlar pok ruhi har dam qo‘llasin,  
Baxtu saodatga seni yo‘llasin.  
Iqboling ko‘rib, ko‘zlar quvnasin,  
Bolam seni yaratganga ming qulluq.

#### **5.Bolalar yo‘nalishi.**

Tuman markazidagi bolalar musiqa maktabi raqs sinfi o‘quvchilari ijrosida “O‘zbekistonim”, “Buxorocha raqs”, “Zulfiya qizlari” qo‘shiqlariga ommaviy sahnalashtirilgan dastur namoyish etiladi. (Fonda 60 nafar o‘quvchi qatnashadi).

Tumandagi bog‘cha, maktab jamoalari o‘z dasturlarini namoyish etishadi.

### **6.Sport yo‘nalishi.**

**Boshlovchi:** Sportga yangi ruh berdi istiqlol,  
Jahon shohsupasi bizga berar joy.  
Ruslan Chagayevdek polvonlaring bor  
Shiddati bobomiz Temurbekka xos.

Jismoniy chiniqqan inson barkamol,  
Barkamol xalq bor yurtidir muzaffar.  
Polvonlar jussasi Alpomish monand  
Sportchilar sizga mangu sharaf-shon!

(Tumandagi sport internat, sport maktabi, badiiy gimnastika va taekvando to‘garaklari ijrosida tayyorlangan nomerlar ijro etiladi.)

### **7.Folklor yo‘nalishi**

**Boshlovchi:** Ko‘zim ochib o‘zni ko‘rdim quchog‘ingda,  
Ilk qadamim tashladim gul tuprog‘ingda.  
Ona dedim, Vatan dedim, o‘z tilimda,  
Shu ondayoq noming naqsh bo‘ldi dilimda.  
Vatani bor har gado shahanshohdir,  
Har bir xasi boshi uzra bir panohdir.

Gul dudog‘i Vatan erur kapalakka,  
Osmon bag‘ri makon kamalakka.  
Ular umri bir lahzalik bu dunyoda,  
Makoni bor, bu barcha baxtdan ziyoda.  
Vatani bor har gado shahanshohdir,  
Har bir xasi boshi uzra bir panohdir.

Tumandagi QFY va MFYlardan kelgan badiiy havaskorlarning mustaqillik bayrami dasturlari namoyish etiladi.

Qahramon MFY qoshidagi “Humo” folklor-etnografik jamoani “Mustaqillik muborak” nomli dasturi namoyish etiladi.

Bog‘isaidon MFY badiiy havaskorlari ijrosida “Buxorocho raqs” ijro etiladi.

Sho‘rcha QFY badiiy havaskorlari folklor yo‘nalishidagi “Mus-taqilsan ona Diyor” deb nomlangan dasturlarini namoyish etishadi.

Chilong‘u QFY badiiy havaskorlari tomonidan xorazmcha “Laz-gi” qo‘shig‘i va raqsi ijro etiladi.

### 8.Estrada yo‘nalishi

Sahnada Respublika “Nihol-2008” mukofoti “Estrada” yo‘nalishi bo‘yicha Viloyat bosqichi g‘olibi Ma‘murjon Sharipov “Go‘zal qiz” qo‘shig‘i bilan;

Estrada xonandasi Musayev Jasur tomonidan “Kutaman” qo‘shig‘i;

Xushovoz xonanda Avezov Feruz ijrosida “Erkalab” qo‘shig‘i; “Sitora” vokal-cholg‘u dastasi rahbari Sharipov Mirjahon ijro-sida “Kerakmas” qo‘shiqlari ijro etiladi.

(Tumanda faoliyat yuritayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlari badiiy havaskorlik jamoalari tomonidan tayyorlangan kuy-qo‘shiqlar, nomerlar ijro etiladi.)

### 9.Xotima.

**Boshlovchi:** Ulg‘aydim bag‘ringda erkinu-durkun,  
Seni deb yashayman bir umr Vatan.  
O‘g‘lonlar jon fido qilgan sen uchun,  
Seni deb yashnaydi bog‘imda chaman.

Seni deb jon bergan avlod qiziman,  
Vatandan buyukroq ne bor dunyoda.  
O‘zing bergan bu baxt bekam ziyoda,  
Seni deb yashayman bir umr Vatan!

“Vatan muqaddasdir !” deb nomlangan ommaviy sahna tantana-si bilan tadbir qatnashchilarining barchasi sahnaga chiqadilar.

**Boshlovchi:** Shuning bilan mustaqilligimizning 17 yillik bayram shodiyonasiga bag‘ishlangan bayram dasturimiz o‘z nihoyasiga yetdi. E‘tiboringiz uchun rahmat, xayr sog‘-omon bo‘ling!

## Ssenariy muallifi: S.Ashurov

Ssenariyni tuzishda Muhabbat Hamroyeva, Nigora Hayotova she'laridan, Sultonmurod Olimovning "Bayramlarimiz" nomli kitobi va mahalliy matbuotlardan foydalanildi.

\*\*\*\*\*

### “VATAN YAGONADIR, VATAN BITTADIR”

#### mavzusidagi tadbir ssenariysi

*Tadbir Vatan haqidagi qo'shiq bilan boshlanadi*

**1-boshlovchi:** Vatan... Ne-ne aziz insonlar voyaga yetgan, uning porloq istiqboli, fazlu-kamoli uchun jon fido etgan zamin. El borki- Vatan bor, Vatan borki - el bor. Elsiz Vatan biyobon. Vatanisiz el – darbadar. Shuning uchun qadimdan elim deya Vatanini e'zoz etganlar, el dardi bilan yashagan kishilarni Vatanparvar deb ardoqlashgan.

**2-boshlovchi:** Vatan tarixi – moddiy va ma'naviy merosdir. Moddiy meros sifatida u biz uchun rizqu-ro'zimiz, makonimiz bo'lgan zamon. Ma'naviy meros sifatida u bizning fazlu-kamolimiz, olam anjumanida aytgan so'zimizdir.

**1-boshlovchi:** Emishki, inson yangi tug'ilgan chaqaloq, hali dunyoga kelmay turib samo bilan bog'lanar ekan. Olloh go'dakka faqat qo'l-oyoq berib qolmay, yuragiga his tuyg'uni jo etadi. Shu tuyg'u bor ekan, biz mag'rib bilan mashriqni, kindik qoni to'kilgan yurt bilan, begona mamlakatni farqlaymiz. Biz har qarich zaminini e'zozlaydigan ona Vatan bu - O'zbekistondir.

**2-boshlovchi:** Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, Vatan va vatanparvarlik tushunchasi mustaqillik va ozodlik, erk va adolat g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir.

**1-boshlovchi:** Vatan mavhum tushuncha emas. Vatanni sevmok – uning o'tmishini chuqur bilmoq, yillar davomida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni qadrlamoq, tabiatni pok tutmoq, tabobat olami-yu, hayvonot dunyosini asramok, komil inson bo'lib voyaga yetmoq kerak.

**2-boshlovchi:** Tafakkurimizda Farobiyilar donishmandligi, tomirlarimizda To'maris va Amir Temur qoni, tuyg'umizda Shiroq va Jaloliddin Manguberdi vatanparvarligi, ongimiz-da Yassaviy va Naqshband ta'limoti mavj urib turibdi. Ming yillar

davomida avlodlardan-avlodlarga singib kelayotgan bu botiniy ma'naviyatni hech bir mustabid elimiz qalbidan yulib ololmaydi. Ziyoni dud to'sa olmaganidek, zulmatlarni parchalab, Vatanimiz uzra istiqloq quyoshi porladi.

**1-boshlovchi:** Insonni yaratgan Olloh, uning toleiga yarasha Vatan ham bergandir. Zero, Vatansiz millat, millatsiz Vatan bo'lmaydi. Biz o'zbeklarga esa O'zbekiston tuprog'i nasib etgan.

Olis Xurosondan Turkiston qadar,  
O'zbeklar – sochilgan bir gavhardir.

**2-boshlovchi:** Mustaqil O'zbekiston o'z bayrog'i, tuprog'i, bosh qomusi, madhiyasiga ega bo'ldi. Mustaqil mamlakatimiz hayotida bu yangilanishlar davri bo'lib tarix solnomasidan o'rin olmoqda. O'zbekiston obro'-e'tibori ortib, jahon uni Markaziy Osiyoning tinchliksevar, milliy iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan borayotgan, kelajagi buyuk davlat sifatida kashf etayotir.

**1-boshlovchi:** O'zbek xalqi – ulug' xalq.

Turondagi eng buyuk millat.

“Qayerda bo'lsak qonun hukmron, -  
Erkinlik shu yerda”, - der Temur bobom.

Qonun – ko'z, qonun so'z, u – qalqon, posbon,  
Unda ardoqlanar inson degan nom.

*(Sahnaga buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy va Nodira obrazlarida ijrochilar chiqib keladilar).*

**Amir Temur:** Biz kimki Turon, amiri Turkistonmiz. Biz kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug'i, turkning bosh bo'g'inimiz.

*Dunyo topdim, lekin dunyo yig'madim.*

*Men el uchun ot ustida uxladim,*

*Nahot endi o'z qabrimga sig'madim.*

**Ahmad Yassaviy:** *Mening hikmatlarim oshiqqa ayting  
Dili oynadek sodiqqa ayting.*

**Alisher Navoiy:** *Bu gulshan ichraki yo'qdir baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur yaxshilik bila qolsa ot.*

## **Zahiriddin Muhammad Bobur:**

*Bormoqqa ne maskan muyassar,*

*Turmoqqa ne davlat muharrar.*

**Uvaysiy:** *Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiyman,*

*Qayda dard eli bo'lsa oshno Uvaysiyman.*

*Istadim bu olamni topmadim vafu ahli.*

**Nodira:** *Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,*

*Seli g'amdin bu imorat, bo'ldi vayron oqibat.*

**2-boshlovchi:** Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida vatanparvarlik yetakchi o'rin egallaydi. Vatanni tashlab Andijondan chiqib ketadi. 14 yil Andijonga qaytishni umid qiladi. Biroq baxt kulib boqmaydi. Hindistonga ketishga majbur bo'ladi. 19 yoshida Qobulni, 40 yoshida Hindistonni qo'lga kiritadi. Lekin tez-tez Vatanni qo'msaydi, ona yurtiga odam yuborib, xabar oldiradi. Shoir vatandan uzoqda yashashni cheksiz og'ir ekanini uqtiradi. Vatandan uzoq-da, g'ariblikda kishining ko'ngli shod bo'lmaydi. Vatanni sog'inib g'urbatda yashayotgan kishi do'stlarini yod etsa ham, do'stlari uni yod etmaydi. Boburning bu xulosasi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. "O'zga yurtning podshosi bo'lguncha, o'z yurtining gadosi bo'l" degan maqolga hamohangdir.

**1-boshlovchi:** Boburning Vatan tengsiz go'zal, Vatan tengsiz mag'rur, egilmaydigan g'ururli, doimo tikka turuvchi daraxtday dunyoga ko'rk bag'ishlaydi, degan to'la ma'nodagi so'zlari cheksiz muhabbat ramziga ega bo'lamiz. Bobur asarlarini varaqlar ekanimiz, uning sahifalarida Vatanni jonu dildan sevishni tarannum etuvchi satrlarni o'qiydiz.

**2-boshlovchi:** Bobur vatanini qo'msaydi, yoru-do'stlarini sog'inadi. Kunlardan birida unga Farg'onadan qovun keltirganlarida u qovunni so'yib turib achchiq yig'laydi.

*("Bog'i Boburiy" asaridan sahna ko'rinishi namoyish etiladi).*

*OVOZ: Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning podshosi bo'libdi. Hindiston bog'rog'i ko'p, meva-chevaga boy yurt ekan. Boburshoh mendan yodgorlik qolsin deb, Hindistonning ko'rkam joyiga bir bog' barpo ettiribdi. Dunyodagi bu eng katta boqqa turli nihollar, xullas olamda mevali daraxt va gullar borki, hammasidan olib kelib*

ko'kartiribdi. Dunyoga dong'i ketgan bu boqqa "Bog'i Boburiy" deb nom qo'yibdi. Boburshoh qovunni yaxshi ko'rar ekan, ammo bog'ida handalak bilan qovun bitmabdi.

*Kunlardan bir kuni u vazirni chaqirtiradi.*

**Bobur:** Menga bog'bonni chorlang.

**Vazir:** Bosh ustiga amirzodam.

*OVOZ:* Bir ozdan so'ng saroyga bog'bon kelibdi.

**Bobur:** Bu yil qovun "Bog'i Boburiy"da bitmasa hammangni jazoingni beraman.

*OVOZ:* Nima qilishini bilmay bog'bonlarning boshi qotibdi. Oxiri o'ylab-o'ylab shohga bildirmay uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha kunga shikorga ketibdi. Shu payt bog'bonlarning boshlig'i ham o'n bir kishini yoniga olib Farg'ona viloyatining Namangan shahriga yetib boribdi. Karvon, ot-aravalarga qovun ortib Hindistonga yetib kelibdi. Boburshoh ularning Farg'onaga borganidan bexabar ekan.

*Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,*

*Shod etmas emish ko'ngilni mehnatda kishi.*

*Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,*

*G'urbatda sevinmas emish, albatta kishi.*

**Vazir:** Huzuringizga bog'bon tashrif buyurdilar.

**Bobur:** Kirsin.

**Vazir:** Bosh ustiga.

*OVOZ:* Bog'bon qovunni olib kiradi, Boburshoh qovunni hidlab so'raydi.

**Bobur:** Bu qovun qayerda bitgan?

**Bog'bon:** "Bog'i Boburiy"da hazratim.

**Bobur:** Yo'q... Hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi. Faqat bir o'lkada yetishadi xolos. Sen meni aldayapsan.

**Bog'bon:** Aldagan bo'lsam bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun "Bog'i Boburiy"da bitgan.

**Bobur:** Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq-oydin aytasan, qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi?

**Bog'bon:** Oliy hazrat aldayotgan bo'lsam boshimni tanamdan judo qiling, mayli men roziman.

**Bobur:** Bunday til yorar qovun bu yerlarda bitmaydi. To'g'risini aytsang gunohingdan kechaman. Bordi-yu, meni aldab yana yolg'on gapiradigan bo'lsang, boshingni tanangdan judo qilaman.

*OVOZ: Boburshohni aldab bo'lmasligini bilgan bog'bon rostini aytishga majbur bo'libdi.*

**Bog'bon:** Namangan shahridan keltirdik, shohim, bunday qovun siz aytganingizdek, faqat o'sha yoqlarda bitadi. Namangan shakarpalagi degani shu. Shohim endi nima qilsangiz ixtiyor o'zingizda. Ammo o'limim oldidan bir so'rovimga javob berishingizni istayman.

**Bobur:** So'ra so'rovingni.

**Bog'bon:** Qovun bu yerda yetilmaganligini qanday bildingiz?

**Bobur:** Hidi, pichoq tegar-tegmay yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurtim qovuni ekanligini angladim. Rahmatlik ota-onam bog'idagi polizda shunday shakarpalak ko'p bo'lardi. Uzoq Hind ortida turib shakarpalak bilan siylaganing uchun gunohkor bo'lmay, in'om ehsonlarga loyiqsan.

*OVOZ: Bobur vazirni chaqirtirib, unga sarpo hadya etibti.*

**Bobur:** *Tole yo'qligi jonimg'a balolig' bo'ldi,*

*Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.*

*O'z yerni qo'yib, Hind sari yuzlandim,*

*Yo-rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

**1-boshlovchi:** Vatan haqida qancha yaxshi gaplarni gapirsak kamlik qiladi.

**2-boshlovchi:** Darhaqiqat, bejizga "Vatanni sevmoq iymondandir" deyishmagan. Vatanni sevish har bir jabhada faol bo'lish, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish, jamiyatimizni jahon arenasiga olib chiqishda hammamizning ma'sulligimizdir.

*(Final qo'shig'i ijro etiladi, hamma ishtirokchilar qo'shiq davomida sahnaga chiqadilar).*



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**  
**O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi**  
**O‘zbekiston san’at va madaniyat instituti**

**Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim**  
**senga fido, O‘zbekistonim**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi hamda yangi 2016-2017 o‘quv yilining boshlanishi munosabati bilan teatrlashtirilgan tantanali bayram konserti ssenariysi.

**Ssenariy muallifi:** Djumanov I.

**Sahnalashtiruvchi rejissorlar:** Yorbekov E.

Qobulov H.

**Boshlovchilar:** Magdiyev B.

Halimova S.

Vaqt: 2016 yil, 2. sentabr  
soat 9.00. da boshlanadi.

Manzil: Institut o‘quv  
teatri.

Institut oldidagi maydon, gullar, sharlar, bannerlar bilan bezatilgan, institut bino peshtoqida O‘zbekiston mustaqilligi 25 yilligi va yangi 2016-17 o‘quv yili shukuhini sharaflovchi bannerlar, gullar ko‘zga tashlanadi. Bayram kayfiyati, yangi o‘quv yilining hayajonli jarayonlari professor-o‘qituvchilar va talabalar chehralarida aks etadi. Bu jarayonlar tasvirga tushuriladi, sahna markaziga zarhal harflarda: “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” lavhasi yozilgan. Sahna oldi gullar bilan bezatilgan, “Sayqal” ansambli ijrosida yoqimli tarona taralmoqda. Magistrant qizlar professor-o‘qituvchilar va mehmonlarni kutib olishmoqda.

Soat 8<sup>55</sup> da radiodan tantanavor chorlov taralmoqda. “Diqqat, diqqat! Hurmatli professor – o‘qituvchilar, aziz mehmonlar, qadrli talabalar, sizlarni bir necha daqiqadan keyin boshlanadigan “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” deb nomlangan mustaqilligimizning 25 yillik to‘yi

hamda yangi 2016–17 o‘quv yilimizning boshlanishiga degan e‘lon o‘qiladi bayrami munosabati bilan boshlanadigan teatrlashtirilgan tantanali bayram konsertiga taklif etamiz.

Soat 9.00da fanfarlar chalinadi va sahnaning ikki tomonidan karnay – surnaychilar guruhi bir-biri tomon tantanavor kuyi bilan sahnaga ko‘tariladi va sahnada kuy chaladilar so‘ngra, pastga tushib chalishni davom ettirib tashqariga yo‘naladilar. Sahnaga boshlovchilar chiqib keladilar:

**1-boshlovchi.** Qalbimizning javhari, ko‘zimizning gavhari, bu gungi ulug‘, quyoshimizday yorug‘ shodiyonimiz, ozod va obod elimizning chorak asr–25 yillik sharaflı to‘yining muazzam tantanasida “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” deyish har birimizga mehr va faxr, surur va g‘urur baxshida etadi.

**2-boshlovchi.** Mazmuni bir dunyo, ilmu ijod dargohi, ilhomlilar hamrohi, talant ahli ehromi, san‘atimiz ummoni, ijodkorlar qo‘rg‘oni, muhtasham maskanimiz, gulu bog‘ chamanimiz tantanasida “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” degan hayotbaxsh satrlar mazmuniga monand O‘zbekiston madhiyasi jaranglaydi.

*O‘zbekiston madhiyasi yangraydi va professor- o‘qituvchilar ehtirom ko‘rsatib jo‘r bo‘ladilar.*

**1-boshlovchi:** So‘z O‘zbekiston san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevichga.

*Rektor va yuqori tashkilotlar vakillari tabrigi.*

**2-boshlovchi:** Bayram tabriklarini dilrabo taronalari bilan taqdim qilishga tashrif buyurgan taniqli va sevimli xonandamiz ..... ni hurmat va ehtirom bilan sahnamizga taklif qilamiz.

**1-boshlovchi:** *(Ekranida O‘zbekistonni muvaffaqiyatlarini madh etuvchi kadrlar, tasviriy lavha).* Mamlakatimizning mislsiz qudrati, uning kundan kunga o‘zgarib, salohiyatining oshib borishidagi asosiy tayanchimiz va iftixorimiz, uning yaratguvchi mehnatkash xalqidir. O‘z kelajagining vorislari bo‘lmish intiluvchan, irodali ilmlı ijodkor, e‘tiqodli fidoiy yoshlarimiz, ertangi kunimiz, kuch qud-ratimiz aqliy va ijodiy salohiyatimizning vorislaridir. Jahonni

maftun etayotgan “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” degan qutlug‘ so‘zlar har birimizga daxldor va har birimizni ilhomlantiradi.

**2-boshlovchi:** Braziliyaning Rio de Jeneyro shahrida o‘tkazilgan jahonning eng nufuzli, xxxi-yozgi olimpiada sport musobaqalarida hech kimdan kam bo‘lmagan darajada olimpiada shohsupasidan joy olib har birimizni cheksiz g‘urur va iftixor tuyg‘ularini bahshida qilgan:

**1-boshlovchi:** Olimpiada chempioni Hasanboy Do‘smatov, shtanga ko‘tarish bo‘yicha jahon rekordini o‘rnatib, hammani lol qoldirgan Ruslan Nuriddinov, Fazliddin G‘oyibnazarov, Shahobiddin Zoirov, Bektemir Meliqo‘ziyev kabi 4 oltin, 2 kumush, 7 ta bronza, jami 13ta medallar sohiblarini:

**2-boshlovchi:** O‘zbekiston respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat instituti rahbariyati professor o‘qituvchilari va talaba yoshlari nomidan muborakbod etamiz!

**1-boshlovchi:** Turar mag‘rur g‘ayrati jo‘shib,  
Vatan mehri uning qalqoni.  
Jonini tikar zarbiga qo‘shib,  
Hur o‘zbekning jasur o‘g‘loni.

**2-boshlovchi:** Qoyalarday g‘urur baland,  
Gurzi kabi zarbasi og‘ir.  
Kerak bo‘lsa bitta musht bilan,  
Tog‘ni talqon qilishga qodir.

**1-boshlovchi:** Tabrik aylang, do‘stu yoronlar,  
Qolib yurmang keyin armonda.  
Mana shunday g‘olib o‘g‘lonlar,  
Ulg‘aymoqda O‘zbekistonda!

Navbatdagi qo‘shiq Olimpiada g‘oliblari sharafiga yangraydi.  
(*Qo‘shiq va raqs ijro etiladi*).

**2-boshlovchi:-** Ona yurtim, obod elim, oydin yo‘ling muborak  
Ozod manzil- elga manzur totli to‘ying muborak.  
Hur vatanni alqaguvchi zavqli kuying muborak  
Yaratguvchi yashnatuvchi, orzu-o‘ying muborak.

**1-boshlovchi:** Bobolarim armonlari mana bugun ijobat

Momolarim ayvonlari qutli-qutlug‘ ziyofat.  
Har kunning mazmuni zo‘r, nurli –nurli hikoyat  
Qadring baland, qadding baland,  
Sarboningdan inoyat!

*(Qo‘shiq yoki raqs nomeri)*

**1-boshlovchi:** Vatan so‘zi naqadar ulug‘  
Hayotbaxshdir har bir sadosi.

**2-boshlovchi:** O‘zing aziz, o‘zingsan qutlug‘  
Senda cheksiz baxtning ma‘nosi.

**1-boshlovchi** Qudratingdan aylanay Vatan,  
Ibratinga bog‘lanay Vatan,  
Baxtim o‘zing osmonim o‘zing.  
Orzularim imkonim o‘zing.  
Obod manzil makonim o‘zing  
Qutlug‘ bo‘lsin muqaddas bayram!

*(Mehmon san‘atkorlar tabrik qo‘shiqlari.)*

**2-boshlovchi:** Mehnatkash xalqimizning, tobora yuksalayotgan hayoti biri biridan muhtasham koshonalar ravon yo‘llar, mahobatli inshootlar, viloyat, shahar va qishloqlar salobati ko‘zlarni quvontirib qalblarni entiktiradi. Dunyoda tanazzul va turli xatarlar xavf solayotgan bir paytda bu ishlar yurtboshimizning odilona siyosati, tanlagan yo‘lining, istiqbolligidan dalolatdir. Buning samaralari esa 25 yillik to‘yini nishonlayotgan aziz yurtning “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” ga aylanishi hammamizni maftun va mag‘rur etadi.

**“Mening Vatanim”** she‘riy kompozitsiyasi.

1-Boshlovchi: bugungi shodiyonamizning asl ma‘nosi “Go‘zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O‘zbekistonim” ning sharafli 25 yillik to‘yi va 2016–17 yangi o‘quv yilimizning tantanalariga bag‘ishlangan kechamiz nihoyasiga yetdi. Hammangizga ulug‘vor ezgu-maqсадlar yo‘lida katta g‘ayrat, mehr va sadoqat bilan ijod va ilm olamida baxtingizni topishingizni tilab qolamiz. E‘tiboringiz uchun katta rahmat!

## Final qo‘shig‘i. “Sen mening Vatanimsan”.

(Hamma ishtirokchilar sahnaga chiqadilar).

\*\*\*\*\*

### “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”

kafedrasining ota-onalar kuniga bag‘ishlangan tadbir

#### s s y e n a r i y s i

2017-yil 29-aprel

S-02 o‘quv binosi

Soat 12.00

*Sahna bayramona bezatilgan. O‘quv xonasining o‘ng tomoniga mehmonlar va tadbir tashkilotchilari hamda institut rahbarlari o‘tirishlari uchun stol va o‘rindiqlar qo‘yilgan. O‘ng va chap tomonlarga karnaylar joylashtirilgan bo‘lib, unda musiqa ohanglari yangrab turibdi. Sahnaning old tomonlari sharlar bilan yasatilgan. Sahnaning o‘ng va chap tomonlariga 2tadan shirma qiya qilib o‘rnatilgan.*

*Boshlovchilar chiqib keladilar:*

1-B. Anglaguchi bo‘lsa yaxshi ko‘ngil sirin,

Hayo yongan yuraklarda dil yashirin.

Ayriliqdan bezib qolgan oshiq yurak, sado berar...

Diydor shirin...

2 –B. Farzand yo‘lin kutib tolgan onalardan,

Bahorini kutayotgan lolalardan.

Yorni deya yurak bag‘ri poralardan, so‘rang deydi...

Diydor shirin...

1-B. Assalomu alaykum aziz do‘stlar, hurmatli ustozlar!

2-B. Assalomu alaykum hurmatli ota-onalar, aziz talabalar!

1-B. Bugun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Xalq ijodiyoti” fakulteti “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasini tasarrufidagi “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” hamda “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi talabalarining ota-onalari bilan uchrashish, ya’ni muloqot uchun ushbu maskanda yig‘ilib turibmiz.

2-B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan mazkur yilning “Xalq bilan muloqot va inson

manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi – xalqimizning azaliy orzularining ro’yobga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

1-B. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rahbariyati tomonidan har oyning oxirgi **shanba** kuni **“Ota-onalar kuni”** deb e’lon qilingan. Shunga muvofiq, har oyda ota-onalar va talabalar o‘rtasidagi muloqotni yo‘lga qo‘yilishi o‘quv va tarbiyaviy ishlarimizda katta samaralar beradi, deb o‘ylaymiz.

1-B. So‘zni institutimizning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori Davlat aka Mulladjanovga beramiz. Institut Prorektori xammani tabriklaydi hamda iqtidorli, faol talabalar va ularning ota-onalariga tashakkurnomalarni topshiradi.

2-B. Endi, “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” hamda “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi talabalari tomonidan tayyorlangan konsert dasturini e’tiboringizga havola etamiz!

1-B. “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi Dilmurod Anorboyev ijrosida “Eng avval ota-onangni qadrini bilgin” qo‘shig‘ini tinglang. Marhamat!

2-B. “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi Karimberdiyeva Mohinur ijrosida Kumush Razzoqovanning “Men seni hech kimga bermayman” nomli qo‘shig‘ini tinglang.

1-B. Raqs. Ijro etadi “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs rus guruhi talabasi Umrzakova E’zoza.

2-B. Umid G‘afforov ijrosida .....qo‘shig‘ini tinglang.

1-B.Sahnaga “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi, tarkibi 2-kurs talabalaridan iborat, o‘zining muxlislariga, boy repertuariga ega bo‘lgan “TORNADO” guruhini taklif etamiz.

2-B. “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi Bahodir Bozorov ijrosida qo‘shiq tinglang.

1-B. Uralova Xulkar ijrosida Alisher Navoiyning “Mubtalo bo‘ldim sango” g‘azalining inglizcha talqini.

2-B. “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta’lim yo‘nalishi 2kurs talabasi Omadbek Ibrohimov ijrosida qo‘shiq tinglang.

Vatan haqida qo‘shiq. (Hamma ishtirokchilar chiqib keladilar).

1-B.Endi ota-onalarimiz tomonidan fikr va mulohazalar bo'lsa, marhamat bema'lol izhor qilishingiz mumkin...

*(Ota-onalar gapiradilar)*

1-B. Shuning bilan "Ota-onalar" kuniga bag'ishlangan tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun tashakkur!

## **Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan “Vatan va xalq kuychisiga ehtirom” deb nomlangan adabiy- badiiy kecha ssenariysi<sup>34</sup>**

*Soat 12-00. “Axborot Resurs Markazi” o‘quv zali kechaga mos ruhda bezatilgan. Sahnaning o‘rta devoriga M.Yusufning portreti va ikki yoniga “Sevsangiz, avval shu Vatanim seving”, “O‘zbekligim – eng oliy unvonim” deb yozilgan shoirning shiorlari yozilgan.*

*Sahnaning ikki yonidagi kitob javoniga Muhammad Yusufning kitoblari, she‘riy to‘plamlari terib qo‘yilgan.*

*(Texnik vositalar mikrofon, ovoz kuchaytirgich, kolonkalar hozirlangan. Zal uzra “Sato” guruhining mumtoz kuyi yangrab turibdi. Tashrif buyurganlar o‘z joylarini egallaganlaridan so‘ng kuy asta-sekin tin olib, sahnaga dasturni olib boruvchi boshlovchi chiqib keladi.)*

**Boshlovchi:** Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, adabiyotsevar o‘quvchilar va she‘riyat muxlislari! Buyuk shoirimiz Muhammad Yusufning 60-yillik yubiley kechasiga xush kelibsizlar! Bugungi kechamizni o‘tkazishdan maqsad Muhammad Yusuf tavalludini xush kayfiyatda nishonlab, buyuk shoirni yana bir karra yodga olishdir.

Kechamizning muqaddimasini Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot bilan tanishtirib o‘tish bilan boshlaymiz.

*(Musiqa sadosi ostida 3 nafar o‘quvchi sahnaga chiqib keli-shadi va Muhammad Yusufning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumotlarni berib o‘tadilar).*

**1-o‘quvchi:** Samimiy she‘rlari ohangrabo qo‘shiq'larga aylanib, har bir o‘zbek xonadoniga kirib borgan lirik shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi “Qovunchi” qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. Respublika Rus tili va adabiyoti institutiga o‘qishga kirib, uni 1978-yilda bitirdi. 1978–1980 yillarda Kitobsevarlar Respublika jamiyatida, 1980–1986

---

<sup>34</sup> Izoh: Mazkur tadbir Quyichirchiq tuman madaniyat va sport ishlari bo‘limi tasarrufidagi madaniyat va aholi dam olish markazining ARMda o‘tkazilgan.2014y.



yillarda “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986–1992 yillarda Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida, 1992–1995 yillarda “Oʻzbekiston ovozi” gazetasida, Oʻzbekiston Milliy “Axborot” agentligida ishladi. 1995–1996 yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida oʻqidi, 1997 yildan umri-ning oxirigacha Oʻzbekiston Yozuvchilari uyushmasi raisi oʻrinbosari lavozimida faoliyat koʻrsatgan.

*2-oʻquvchi Muhammad Yusuf kitoblaridan tashkil etilgan koʻrgazma oldiga kelib, kitoblardan birini qoʻliga oladi va tomoshabinlarga yarim burilgan holda turib oʻqiydi.*

**2-oʻquvchi:** Muhammad Yusufning dastlabki sheʼrlari “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” haftaligida bosilgan. Shundan boshlab, Respublika matbuotida uning sheʼr, ocherk va maqolalari muntazam ravishda chop etila boshlagan. Ilk sheʼrlar kitobi “Tanish teraklar” (1985), “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz”, “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Koʻnglimda bir yor” (1991), “Bevafo koʻp ekan”, “Yolgʻonchi yor” (1993), “Erka kiyik” (1995) va “Osmonimga olib ketaman” (1998) kabi sheʼriy kitoblari nashr etilgan.

*(Oʻquvchi kitobni javonga qoʻyadi, 3-oʻquvchi bir qadam oldinga chiqadi va oʻz matnini oʻqiydi.)*

**3-oʻquvchi:** Muhammad Yusufning sheʼrlari samimiyligi, ommaning ruhiga yaqin boʻlganligi uchun ham kitobxonning koʻngil mulkiga aylandi. Uning asarlarida oʻzi tugʻilib oʻsgan yurt ruhiyati, manzaralari yaqqol koʻrinib turadi.

Toshkent shahri va “Marhamat” tumanidagi koʻchalardan biri, shuningdek, Andijon shahridagi bolalar kutubxonasi va Marhamat tumanidagi sanʼat maktabi Muhammad Yusuf nomi bilan ataladi. Muhammad Yusuf ijodi ayni gullab yashnagan paytida “Ellik-qala” tumanida sheʼriyat muxlislari bilan uchrashish maqsadida chiqqan ijodiy safarida vafot etdi. Muhammad Yusuf Andijonda dafn etilgan.

*(Asta-sekin mumtoz musiqa yangraydi. Oʻquvchilar sahnadan chiqib ketishadi. Boshlovchi musiqa sadosi ostida sheʼr oʻqiydi.)*

**Boshlovchi:**

*Qurboning boʻlayin, ey onajonim,  
Sening faryodlaring – mening figʻonim,*

*O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,  
Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor.*

Muhammad Yusufning she'rlarida avlodning eng olijanob va yuksak insoniy fazilatlarini bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o'zbekona sodda, ayni paytda ezgu, bokira va be-takror tuyg'u hamda kechinmalari o'zining yorqin ifodasini topgan.

*(Musiqqa tin oladi.)*

Hurmatli mehmonlar, hozir e'tiboringizga tuman madaniyat va aholi dam olish markazi qoshida tashkil topgan "Navo" ansamblining xushovoz xonandasi Bekzod Xolboyev ijrosida Muhammad Yusuf she'ri bilan aytiladigan qo'shiqni e'tiboringizga havola etamiz.

*(B.Xolboyev ijrosida qo'shiq.)*

**Boshlovchi:** So'zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg'ular tiniqligi, samimiylik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini aniq va yaqqol ifodalay bilish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatlaridandir. Uning qalamiga mansub aksariyat she'rlari taniqli xonandalar tomonidan ijro etilmoqda.

Azizlar, hozir Muhammad Yusuf qalamiga mansub she'ridan namunalarni e'tiboringizga havola etamiz.

*(Sahnaga 2 nafar o'quvchi chiqib she'r o'qishadi.)*

**1-o'quvchi:** *Yurtim, ko'nglimizdek keng osmonlaring bor,  
Yulduzni yig'latgan dostonlarining bor.  
Osmonlaringda ham diydoringga zor,  
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.  
Alhazar, alhazar ming bor alhazar,  
Ana, yurishibdi kiyganlari zar.  
Qodiriyini sotib shoir bo'lganlar –  
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor.*

**2-o'quvchi:** *O'tar qancha yillar to'zoni,  
Yulduzlar ko'z yoshi – somoni.  
O'tar inson yaxshi – yomoni,  
Mehr qolur, muhabbat qolur.*

*Qorachig'da porlagan o'sha,  
Iqboliga chorlagan o'sha.  
Dunyoni tor aylagan o'sha,  
Mehr qolur, muhabbat qolur.*

**Boshlovchi:** Muhammad Yusuf o'zining qisqa hayot kechirganligiga qaramay, ilm va ijod sohasida katta ishlarni amalga oshirgan siyomidir. Shoir 1998 yilda "O'zbekiston Xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'ldi. U O'zbekistondagi eng yosh xalq shoiri edi.

Aziz mehmonlar! Hozir e'tiboringizga tuman madaniyat va aholi dam olish markazi qoshida tashkil topgan "Qizlarjon" raqs guruhi qatnashchilari ijrosida Muhammad Yusuf she'riga bastalangan qo'shiqqa sahna-lashtirilgan raqsni birgalikda tomosha qilamiz. Marhamat!

*("Qizlarjon" guruhi qizlari raqsga tushadilar).*

**Boshlovchi:** Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotida o'zini nozik lirik she'rlari bilan ham mashhurdir. Uning lirikasida she'riyatining asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, Vatanga sadoqat, mehr-muhabbat, yor vasli, uning go'zalligi, quvonch va qayg'u nihoyatda go'zal va mohirona ifoda etilgan.

*Muhammad Yusufning (Yulduz Usmonova tomonidan ijro etilgan) "Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston" qo'shig'iga hamma ishtirokchilar chiqadilar.*

**Boshlovchi:** Hurmatli she'riyat muxlislari, aziz tomoshabinlar! Shuning bilan sevimli shoir Muhammad Yusuf tavalludining 60-yiliga bag'ishlangan tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun rahmat!

**Ssenariy muallifi:**

**M.Turmuhammadova**

# MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-BOB. SSENARIY–MADANIY TADBIRLAR DRAMATURGIYASINING ASOSI	
1.1. Ssenariy tushunchasi va uni yaratishdagi ish bosqichlari .....	8
1.2.Ssenariy yaratish tamoyillari.....	19
1.3.Ssenariyning kompozitsion tuzilishi .....	22
1.4.Tadbir ssenariysini yaratishda maqsad va vazifalar mushtarakligi .....	34
1.5.Madaniy tadbirlarda inssenirovkadan foydalanish xususiyatlari .....	43
1.6. Ssenariyda qarama-qarshiliklar ifodasi.....	55
1.7.Ssenariy yozishgacha bo‘lgan qadam .....	59
1.8.Ssenariynavislik va dramaturgiya qonuniyatlariga asoslanish tamoyillari .....	65
I I- BOB. MADANIY TADBIRLAR TURLARI XUSUSIYATLARI JIHATDAN SSENARIY YARATISH	
2.1.Madaniy tadbirlar turlari va ularni tashkil etishning spetsifik xususiyatlari jihatdan ssenariy yaratish.....	72
2.2.Ssenariyda san’at vositalarining qo‘llanishiga doir .....	81
2.3.Tadbirlar ssenariysida mavzu va g‘oya tushunchalarining ma’naviy talqini .....	89
2.4.Ssenariy va boshlovchilik .....	97
2.5.Mustaqillik davri dramaturgiyasi tahlili.....	100
2.6.Ssenariy yaratish tartibi.....	124
2.7.Afisha va taklifnomalarni tayyorlash .....	122
Xulosa .....	132
“Ssenariynavislik mahorati” fani bo‘yicha glossariy.....	140
“Ssenariynavislik mahorati” fanidan test savollari .....	144
Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati .....	159
Ilovalar .....	162
Ssenariylardan namunalar.....	172

**VAHOBJON RUSTAMOV**

**SSENARIYNAVISLIK MAHORATI**

O‘quv qo‘llanma.

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir:	A. Abdusalilov
Tex.muharrir:	A. Kuchkarov
Musahhih:	O. Doniyorov
Kompyuterda sahifalovchi:	I.Mamarasulov

**Barkamolfayz@mail.ru Nashr.lits. AIN№284, 12.02.2016. Bosishga ruxsat etildi: 20.12.2017. Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Sharti bosma tabog‘i 12,75. Nashriyot bosma tabog‘i 12,95. Tiraji 200. Buyurtma №25.**

**«Grafpoligrafprint» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.Toshkent shahri, Qatortol ko‘chasi, 44a-uy.**

ISBN 978-9943-5142-2-5



9 789943 514225

**V.K. RUSTAMOV    SSENARIYNAVISLIK MAHORATI**